ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2025

1-son
(Yanvar-Fevral)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

		TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI
Z. Taxirov	4	Til, uslubiyat, nutq madaniyati va adabiy tahrir
N. Xudoyberdiyeva	11	Motivatsion yondashuv asosida o'quvchilarning tadbirkorlikka oid ko'nikmalarini shakllantirish
N. Mamadaliyeva	16	Tayanch tushunchalarni o'qitish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutq va fikrlash faoliyatini shakllantirish
G. Tojiyeva	19	Xorijiy tilni o'qitish jarayonida kompensatorli malakalarni rivojlantirish
S. Xo'jamberdiyeva	24	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv topshiriqlari orqali divergent tafakkurni rivojlantirish
S. Shakirzyanova	29	Bojxona organlari kursantlarning kasbiy-amaliy hamda jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish
E. Mirzayev	33	Bo'lajak texnologiya o'qituvchilariga multimedia vositalaridan foydalanib "Ko'pyoqliklarni tekislik bilan kesishish chiziqlari hamda ularning yoyilmasini aniqlash" mavzusini o'qitish
R. Rasulova	38	O'quvchilarining matn yaratish kompetensiyasini shakllantirish orqali nutq madaniyatini rivojlantirish
I. Kamoliddinova	43	Valeologik madaniyat: ahamiyati va rivojlanish istiqbollari
K. Bolliyev, A. Amanov	46	Uzluksiz ta'lim jarayonida texnologiya fani o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish
B. Dautova	51	Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi va uning ahamiyati
		TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI
O. Qurbonova	55	Ona tili fani ta'lim mazmunini rivojlantirishda ta'limiy vositalarning o'rni
U. Xamrayeva	58	"Barkamol avlod" bolalar maktablarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ijodiy mashg'ulotlarni o'tkazish
Sh. Bekmuratova	61	Oliy ta'lim muassasalari talabalariga kompozitsiya chizish qoidalarini o'rgatish metodikasini takomillashtirish
D. Mirvaliyeva	66	Ish yuritishdagi hujjatlarda til va uslub masalalari (Farmoyish hujjatlari misolida)
B. Yunusova	71	Tasviriy san'atni o'qitishning nazariy va metodik asoslari
		ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI
M. Foziljonova	76	Virtual ta'lim texnologiyalari asosida o'quv jarayonini takomillashtirish (Oliy ta'lim muassasalarining maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini kasbiy tayyorlash misolida)
F. Raximova	81	Hologramma texnologiyalari asosida boshlang'ich ta'limda interaktiv darslar tashkil qilish
N. Bekmuratov	84	Tasviriy san'at fanini o'qitish texnologiyasi, didaktikasi va metodikasini takomillashtirish
		MILLIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

D. G‘aniyev	88	Korxonalarda boshqaruv xodimlarining ish samaradorligini oshirishda raqamli texnogiyalarni joriy qilishni takomillashtirish
	**KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH**	
G. Mirzayeva	93	Uyushmagan yoshlarni qo‘shimcha kasblarga – hunarmandchilik sohalariga tayyorlash metodikasini takomillashtirish
	**HUQUQ VA HUQUQIY TARBIYA**	
U. Badriddinova	97	“Afv etish” konseptining konteksdagi ma’nolariva ular orasida darajalanishning namoyon bo‘lishi
	**JISMONIY TARBIYA VA SPORT**	
G‘. Talipov	102	Tayyorgarlik davrida 14-16 yoshli o‘g‘il bolalarda g‘ovlar osha yugurishdagi texnik xatolarni tuzatish
	**MAKTABGACHA TA’LIM**	
L. Berdiyeva	109	Maktabgacha yoshdagi bolalarni erta yoshdan rivojlantirish texnologiyasi
M. Tairova, M. Temirova	113	Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini o‘stirishda vark modeli
D. Abdullajonova, X. Sirojiddinova	117	Maktabgacha yoshdagi bolalarning mayda motorikasini rivojlantirish
	**TA’LIMDA SIHAT-SALOMATLIK VA HAYOTIY HAVFSIZLIK**	
R. Turdiyeva	122	O‘quvchilarda ijodiy qobiliyatlarnini rivojlantirishda oziq-ovqatlarning o‘rni
	**ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ**	
И. Наркулова	128	Стратегии преодоления языкового барьера и развития коммуникативной компетенции военнослужащих национальной гвардии
	**EDUCATION AND UPBRINGING METHODOLOGY**	
S. Khasanova	137	The linguistic interpretation of the phraseological units which demonsrate the concepts of goodness and badness in english and uzbek (Ingliz va o‘zbek tilida yaxshilik va yomonlik tushunchalarini ko‘rsatgan frazeologik biriklarning lingvistik tafsiri)

Zair TAXIROV,
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti professori, filologiya fanlari doktori

TIL, USLUBIYAT, NUTQ MADANIYATI VA ADABIY TAHRIR

Annotatsiya

Maqolada funksiyaviy uslublar hamda adabiy tahrir aloqadorligi, filologik fanlarning tilshunoslik, amaliy tilshunoslik, uslubiyat, nutq madaniyati, adabiy tahrir bilan aloqadorligi batafsil tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar. Tasviriy tilshunoslik, kategoriya, til tizimi, til birliklari, uslub, nutq, nutqiy muloqat, nutq shakli, funksiyaviy-kommunikativ tur, matn, funksiyaviy tur, tahrir, matn uslubi.

В статье подробно анализируется связь функциональных методов с литературным редактированием, связь филологических наук с лингвистикой, прикладной лингвистикой, методологией, культурой речи, литературным редактированием.

Ключевые слова. Изобразительное языкознание, категория, языковые единицы, языковой системы, стиль, речь, речевое общение, форма речи, функционально-коммуникативный тип, текст, функциональный тип, редактирование, стиль текста.

The article analyzes in detail the connection between functional methods and literary editing, the connection between philological sciences and linguistics, applied linguistics, methodology, speech culture, and literary editing.

Key words. Fine linguistics, category, language units, language system, style, speech, speech communication, speech form, functional-communicative type, text, functional type, editing, text style.

Umumxalq tili tilshunoslik (lingvistika)ning tatqiq etish obyekti hisoblanadi. Tilni o'rganish jihatlari nuqtai nazaridan esa tilshunoslik shartli ravishda ichki va tashqi tilshunoslikka ajratiladi.

Umumiy tilshunoslik (tasviriy tilshunoslik) ichki lingvistikaga kiradi umumtil kategoriyalari, turli darajalarini o'rganadi.

Tashqi lingvistika (paralingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika, kompyuter lingvistikasi, neyr-olingvistika va b.) so'zlovchining jamiyatdagi faoliyati bilan tilning bevosita bog'liqligini o'rganadi.

Tasviriy tilshunoslik "til tuzilishi"haqidagi fandir. Bu fan til ichida nima bor ekanligini, fikr, his-hayajon (emotsiya), ma'lumot (xabar) etishni o'rganadi va o'rgatadi.

Tasviriy tilshunoslik bilan uslubiyatning o'rganish obyekti bitta ayni bir tildir, ammo predmeti boshqa-boshqa. Aytish joizki til tizimidagi birliklar va kategoriyalar tasviriy tilshunoslikning tadqiqot predmeti hisoblanadi. "Tildan, ayniqsa adabiy nutqdan foydalanishning barcha usullari uslubiyatning tadqiqot predmeti" bo'ladi.

Uslubiyatning nutqiy muloqatda tildan foydalanish haqidagi fan ekanligini mohiyatini ochib berish uchun adabiy nutq tushunchasini aniqlashtirib olish kerak.

Turli manbalarda "adabiy nutq" terminiga quyidagicha tariflar beriladi:

–"Umumxalq tilining ishlangan, sayqal berilgan, ma'lum normaga solingan, xalqning turli madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi firmasi";

– o'zbek tilining dialektlari, oddiy so'zlashuv tili va jargonlaridan tamoman farqla-

nadi, shu xalq vakillari uchun umumiylik bilan xarakterlanadi";

–"Muayyan umumxalq tilining qayta ishlangan va meyorlashtirilgan mazkur tilda so'zlashuvchi xalqning madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi shakli".

"Umummilliy tilning meyorlashtirilgan shakli, yozma va og'zaki ko'rinishga ega ijtimoiy sohalar barchasida amalda bo'ladi hamda milliy madaniy hayotga xizmat qiladi"

Adabiy nutq ijtimoiy lingvistikaning asosiy tushunchasi. U milliy til egalari tomonidan namuna sifatida qabul qilinadi. Ijtimoiy (ijtimoiy-madaniy) mavjud (amalda bo'lish) shakli. Uning asosiy vazifasi milliy tilda so'zlashuvchilarning tarixan shakllangan jamoasi barcha a'zolari faoliyatining barcha sohasida to'laqonli aloqa aralashuvi (muloqat) ni ta'minlashdan iborat. Adabiy nutq bajarishi lozim bo'lgan "ana shu asosiy vazifa uni mohiyatan adabiy nutqga aylantiradi, ya'ni umumqabul qilingan, umumtushunarli bo'lishini ta'minlaydi".

Yuqorida aytilganlarning barchasiga bitta qo'shimcha qilish mumkin: umummajburiy.

Nutq jarayonida adabiy nutqdan, umuman tildan foydalanish umumiy nomda uslubiyat ataladi. U – nutqiy (yozma, og'zaki) muloqat vaqtida til (birliklari, kategoriyalari) dan foydalanish haqidagi mustaqil fan.

Uslubiyatda, asosan, "til birliklaridan foydalanish yoki "til birliklarining muayyan vazifani bajarishi" haqida so'z boradi. Ana shu vazifa bajarishligiga ko'ra u funksiyaviy (vazifaviy) uslubiyat deb ataladi.

Til vositalari muayyan vazifa bajarar ekan, nutq egasining maqsadiga ko'ra ma'lum o'zgarishlarga uchraydi. Bu o'zgarishlar ayrim til birliklari, kategoriyalari, so'zlar guruhi, grammatik shakllar, konstruksiyalar (tuzilmalar) va fonemalarda yuz beradi.

Uslubiyat tilshunoslik fanlari orasida alohida o'rinni egallaydi. Boshqa tilshunoslik fanlari tilda nima borligini o'rgansa, uslubiyat til birliklari va kategoriyalardan qanday foydalanishni tadqiq etadi. Nutq (og'zaki, yozma)da fikr, his-hayajon, fikr almashish, informatsiya yetkazish qanday kechadi, mana shular uslubiyatning mohiyatini tashkil etadi. Bir so'z bilan aytganda, harakatdagi tilni o'rganadi.

Tilda shakllangan birliklar va kategoriyalar nutqiy muloqot jarayonida quyidagilarga bog'liq ravishda muayyan funksiya (vazifa)ni bajaradi:

– xabarlar mazmuniga;

– matn (umumiy nutqiy muloqot)ga;

– nutqiy muloqot amalga oshirilayotgan sharoitlarga.

Tilning qanday vositalari birikmaga kirishishi, bir-birlari bilan bog'lanishi, bir-biriga moslashishi, muloqot sohasi, nutq shakli (og'zaki, yozma), matn mavzusi, muhokamaning mohiyati, "gaplashish" va boshqalarga ko'ra uslubiyat quyidagilarni aniqlashtiradi:

– tildan kishilarning birgalikda faoliyat olib borishlari, ish yuritishlari, umuman, turmush kechirishlari kabi jamiyatning muhim ehtiyojini qondirishda qanday foydalanilishini;

– har bir til birligi qanday vazifani bajarishligini;

– muayyan matn tarkibida (yoki muayyan matn turida), u yoki bu muloqiy sharoitda til birliklari mutanosiblashishi yoki bir-biriga ta'sir etishligini.

Uslubiyat tildan foydalanish masalasini aniqlashtiradi, tadqiq etadi. Bu uning predmetini tashkil etadi. Uning tilshunoslikning boshqa fan sifatidagi mazmun va mohiyatini tashkil etadi. Ana shunga ko'ra uslubiyat tilshunoslikning funksiyaviy-kommunikativ (vazifaviy-muloqot) turi hisoblanadi va nutq madaniyatini, ortologiya (to'g'ri nutq haqidagi fan)ni, til me'yorlari to'g'risidagi ma'lumotni, ijtimoiy lingvistikani, adabiy nutq nazariyasini o'z ichiga oladi.

Uslubiyatga oid mashg'ulotlarda quyidagilarni a'lo darajada bilish (o'rgatish) nazarda tutiladi.

Til "material"ini, kategoriyalarini, birliklarini – uning tizimini tashkil etuvchilarni;

O'zbek tili fonetikasi, leksikasi, grammatikasi (morfologiya sintaksis), frazeologi-

yasi, so‘z yasalishi va b.

3. Uslubga ko‘ra ega va kesim moslashuvini;
4. Sodda va qo‘shma gaplar tuzilishini;
5. Tildagi obyektiv va subyektiv munosabatni;
6. O‘timli va o‘timsiz fe’llarni;
7. Qaratqich va tushum kelishiklarining farqini;
8. Mavhum otlar, shakllar omonimiyasi va h.k. ni.

Uslubiyatda, avval, mikromatn, shuningdek, muallifning umumiy fikri, kontekst ta’siriga ko‘ra tahlil etilayotgan matnda til birliklaridan foydalanishdagi me’yordan chetlanish – sintaktik konstruksiyalardagi kamchiliklar, frazeologizmlarning xato qo‘llanganligi, so‘zlarning birikmaga noto‘g‘ri kiritilganligi, so‘zning o‘z ma’nosida qo‘llanilmaganligi, ma’no bo‘yog‘idan noto‘g‘ri foydalanilganligi e’tiborga olinadi.

Havo bulut edi. Oq bulutlar bo‘lganlikdan quyoshning nuri uncha kesilmagan, quyosh to‘r ro‘mol ichida o‘tirgan kelinlar kabi yer yuziga suzilib qarar edi. (A.Qodiriy).

Tabiat manzarasini chizar ekan, adib quyosh kelinlar kabi suzilib qarar edi o‘xshatish konstruksiyasini tuzadi.

Uslubiy nuqtai nazardan bu konstruksiya e’tiborni o‘ziga tortadi. Grammatika bo‘yicha mutaxassislarning fikricha, bu konstruksiya grammatik jihatdan to‘g‘ri hisoblanadi. Leksikolog esa, suzilmoq so‘zini qo‘llashda me’yordan chekinish bor, deydi.

Uslubiyat bo‘yicha mutaxassis esa mazkur konstruksiyadagi me’yordan chekinishlikni aniqlay boshlaydi: nima uchun, nega? Matn uchun bu nima beradi, muayyan aniq ifodaga yana qanday yangi ifoda (ottenka) bag‘ishlaydi.

Mazkur konstruksiya tasviriy tilshunoslik nuqtai nazaridan qaraladigan bo‘lsa, aslida, quyosh kelinlar kabi qaraydi. Konstruksiya to‘rt komponentdan tashkil topadi: quyosh, kelin, kabi, qaraydi. Bu konstruksiyada quyosh, kelin – ot, kabi – ko‘makchi, qaradi – fe’l (o‘tgan zamon). Ulug‘ adib quyoshning nur taratishini inson qarashiga o‘xshatar ekan, qarashga xos ko‘plab belgilar orasidan faqat bittasini tanlaydi: suzilib. Ana endi tasviriy tilshunoslikdan uslubiyatga o‘tiladi: nega? Inson qarashiga turli belgilar xos: kulib qarash, xo‘mrayib qarash, bezrayib qarash, tirjayib qarash, jilmayib qarash, tumshayib qarash, tersayib qarash, ola qarash, irjayib qarash, sirli qarash, shubhali qarash, ishonqiramay qarash, ishonib qarash, chaqchayib qarash, baqrayib qarash, yovqarash, do‘stona qarash, bo‘zrayib qarash, iljayib qarash, yotsirab qarash, yig‘lamsirab qarash va h. Nega yozuvchi qarashga xos ko‘pgina belgilar ichidan faqat suzilibni tanladi. Ana shu tanlash ayni uslubni anglatadi.

Agar suzilib so‘zi – ravishdoshning nominativ (atash) ma’nosiga e’tibor bersak, u insonga xos qarash belgisini anglatadi, ma’no bo‘yog‘i, tabiiyki, ijobiy. Bunday qarashga insonlar yoshi, jinsidan qat’i nazar, barchasi ham ega bo‘lishi mumkin. Lekin ular barchasi birdek ijobiy emas. Adib yuqorida ayol zotiga mansub tur – kelin qarashiga quyoshning nur sochishini o‘xshatadi. Nega kelinning, nega qizlarning, nega katta yoshdagilar (kampirlar)ning? Vaholanki, ular ham ayol! Chunki qizlarning suzilib qarashi – odobsizlik, yoshi kattalarniki – yarashmagan qiliq. Kelinlarning bu xil qarashlari ham ma’lum davrda (yangi kelinlik davrida), shunda ham o‘z jufti halollariga nisbatan bo‘lsa, ijobiy sanaladi. Yuqoridagi parcha badiiy matn ekanligini hisobga olsak, unda muallif quyosh nurlarini oq bulut to‘sib qo‘yganligi va uning ham yorug‘ligi xira tortgan, hovuri pasayganligi va bu kishiga yoqishlik darajasida ekanligini ta’kid etmoqchi bo‘ladi va buni kelinlarning suzilib boqishligi yoqimliligiga o‘xshatadi.

Uslubiyat tildagi bu hodisani tadqiq etarkan, tasviriy tilshunoslik bilan o‘zaro jips bog‘liqdir, chunki u mohiyatan tilni tadqiq etishni nihoyasiga yetkazadi. Uslubiyat tilni tizimli-tuzilmaviy tahlil qilish vazifasi (tasviriy tahlil)dan o‘tib, lingvistika qismlariga asoslangan holda quyidagilarni tatqiq etadi.

Fikrni ifoda etishning yondosh (parallel) usullaridan, til vositalari yordamida yuzaga chiqadigan his-hayajonlarni;

Turli maqsadlarda va nutqiy muloqot sharoitlarida til vositalarining turli yo‘sinda birikuvi, qo‘shiluvi usullari, tartibini;

Nutqiy muloqotda, yozma va og‘zaki nutqda til unsurlari, kategoriyalarining amalda qo‘llanilish qonuniyatlari va o‘ziga xosliklarini.

U darvozaga yaqinlashayotgan edi, nimadandir cho‘chib chetga burildi. Chunki darvozadan chiqib qolgan ikki kishini ko‘rib, bularning birini qayin otasi bo‘lib chiqmagidan hurkkan edi. (Abdulla Qodiriy).

Mazkur parchadagi jumlalar grammatika nuqtai nazaridan to‘g‘ri ekanligini hech bir tilshunos inkor etmaydi. Faqat leksikolog so‘z qo‘llash xususida me’yordan ma’lum darajada chetlashish borligini qayd etadi va shu bilan cheklanadi. Faqat uslubiyatchi mutaxassisgina birinchi jumlada cho‘chimoq, ikkinchi jumlada hurkmoq so‘zining qo‘llanilganiga nega deya e’tibor beradi va uning tahliliga kirishadi, bunday ikki xil qo‘llash mohiyatini ochib beradi.

Birinchi jumladagi cho‘chimoq fe’lining genetik ma’nosi kutilmagan holatdan xavotirga tushmoq ifodasini beradi, ya’ni holat, harakat xavotir bilan bog‘liq va bu holat ayni insonlarga xos.

Ikkinchi jumladagi hurkmoq so‘zining genetik ma’nosi jonivorlarga, ularning ham muayyan turi – ot, eshak, qora mol, tuyaga xos holat, harakat ifodasini beradi va bu holat, harakat qo‘rquv bilan bog‘liq bo‘ladi.

Yuqoridagi har ikki jumla grammatika qoidalariga muvofiq tuzilgani, ya’ni ega, kesim, ikkinchi darajali bo‘laklar o‘z o‘rnida, so‘zlarning birikmaga kirishuvi ham me’yorida ekanligi tasviriy tilshunoslik nuqtayi nazaridan to‘g‘ri, deya tan olinadi va bular uning o‘rganish obyekti hamda predmeti hisoblanadi.

Leksikologlar cho‘chimoq, hurkmoq so‘zlarining bir-biriga sinonim ekanligi, faqat cho‘chimoq so‘zining ma’no ifodasi betaraf, hurkmoq so‘zi ma’nosi (insonga nisbatan qo‘llanganda) bo‘yoqqa egaligini ta’kidlash bilan kifoyalanadilar.

Uslubiyat bo‘yicha mutaxassislar, boshqacha aytganda, semik tahlil bilan shug‘ullanuvchi tilshunoslar esa, har ikki so‘z, garchi sinonim bo‘lsa-da, nega qo‘llanildi, degan savolni qo‘yadi va leksik birliklar grammatik kategoriyalarni semik tahlil qilishga o‘tadi. Tilshunoslikdagi semik tahlil “Adabiy tahrir” fanida mantiqiy tahlil deyiladi – har ikki ibora teng ma’noga ega. Tajribasiz muharrir (uslubiyat, semik tahlil, mantiqiy tahlildan xabarsiz) nega endi insonga xos holat, harakat belgisini jonivorlarga xos holat, harakat belgisini ifoda etuvchi so‘z bilan atash kerak, deya hurkmoq so‘zini qo‘rqmoq so‘zi bilan almashtirsa yoki konstruksiyani o‘zgartirsa, tasviriy tilshunoslik nuqtayi nazaridan qoidadan tashqari hisoblanmaydi. Mikrotahrir nuqtai nazaridan ham shunday. Ammo uslubiyat nuqtai nazaridan qaralsa, boshqa holat ayon bo‘ladi.

Adib badiiy matn yaratishdan avval, albatta, uning kompozitsiyasi, o‘z maqsadi va bu maqsadni amalga oshirishda tildagi vositalardan qanday foydalanish va boshqalar haqida chuqur mulohaza yuritadi. Natijada muallifning individual uslubi yuzaga keladi.

Abdulla Qodiriy birinchi jumlada cho‘chib ravishdoshini qo‘llaganining boisi, uni cho‘chitgan narsa, hodisa hali ma’lum emasdi. Ana shu nogahoniy ta’sirdan Otabek cho‘chib tushadi. Albatta, cho‘chishlikka qo‘rquv sabab bo‘ladi. Keyingi jumlada esa hurkib ravishdoshi – cho‘chibning sinonimidan foydalanadi. Nega? Uslubiyat ana shu negaligini tadqiq etadi va quyidagi xulosaga keladi:

– cho‘chib so‘zi ma’no ifodasida hali qo‘rqish hissi yo‘q, u xavotirlanish, sergaklanish ma’no ifodasini beradi;

– hurkib so‘zi ma’no ifodasida esa qo‘rqish hissi ma’no ifodasi ayon seziladi;

– birinchi holatda xavotirga solgan, sergaklantirgan obyekt noma’lum;

– ikkinchi holatda qo‘rquvga sabab bo‘lgan obyekt – ikki kishi ma’lum;
– ikki kishidan biri “qayin otasi bo‘lib chiqmagi”.

Otabek, agar har ikki kishi begona ekanini avvaldan bilganda edi qo‘rqib o‘tirmasdi. Chunki ular Otabekka tanish bo‘lmagan bir yo‘lovchi sifatida qarar va ahamiyat bermas, to‘qnash kelganda ham salom-alikdan nariga o‘tmasdi. Lekin, ikki kishidan biri qayin otasi bo‘lsa-chi?

Ot, tuyalar uncha-munchaga hurkimaydi. Ularni hurkituvchi ta’sir, ya’ni qo‘rqinch kuchli bo‘lishi kerak. Qayin otasi bilan uchrashib qolish Otabek uchun kuchli qo‘rqinch edi. Undagi ana shu qo‘rqinchni ifoda etish uchun Abdulla Qodiriy hurkib ravishdoshidan foydalanadi. Aslida hurkib so‘zini kishilar tushib qolgan holat va ularga xos harakat ifodasi uchun qo‘llash faqat salbiy ma’noda bo‘lishi mumkin. Lekin Abdulla Qodiriy o‘z ijobiy qahramoniga nisbatan qo‘llaydi va qayin otasidan dashnom olib, qattiq izza bo‘lgani uchun bunday uchrashuv qay darajada og‘ir ekanini ifodalash maqsadida hurkib so‘zini – ijobiy ma’no bo‘yog‘iga ega bo‘lishga “majbur” etadi. Uslubiyat ana shuni tadqiq etadi, adib individual uslubini ochib beradi.

Biz yuqorida uslubiyat nutq madaniyati bilan jips aloqada degan edik. Zero, uslubiyat funksiyaviy-kommunikativ fanlar sirasiga kiradi. Bu fanlarni tilga bo‘lgan umumiy asosiy yondashuv birlashtiradi. Mazkur fanlar til egalarining nutqiy muloqot jarayonida til vositalaridan foydalanishlaridagi o‘ziga xoslik va qonuniyatni o‘rganadi.

Demak, uslubiyat, nutq madaniyati, ortologiya, ritorika til unsurlari va kategoriyalaridan adabiy nutq doirasida oqilona, me’yorida foydalanishni tahlil etadi. Nutq madaniyati haqidagi ta’limda til birliklaridan kundalik nutqiy muloqotda, yozma va og‘zaki tarzda adabiy jihatlari doirasida foydalanish ko‘rib chiqiladi. Nutq madaniyati deyilganda alohida olingan bir kishi va aholi nutq madaniyatining umumiy darajasi ham nazarda tutiladi.

Nutq madaniyati bo‘yicha mutaxassislar amaldagi adabiy nutq me’yorlari tizimi nuqtai nazaridangina emas, balki, individual hamda umumiy nutqiy madaniyatga uning qanchalik mantiqiy bayonidagi aniq-tiniqlik va ifodalilik (estetik) ekanligini ham nazarda tutadilar.

Adabiy me’yorlar nuqtai nazaridan nutq madaniyatiga quyidagi talablar qo‘yiladi:
– til vositalaridan foydalanishning asoslangan bo‘lishi;
– matn tuzilishi mantiqan izchillikka ega bo‘lishi;
– bayon aniq-tiniq, tushunarli bo‘lishi.

Shunday qilib, nutq madaniyati sohasidagi tadqiqot o‘z ichiga faqat adabiy nutqnigina emas, balki xalq so‘zlashuv tilini ham to‘liq qamrab oladi, demak, oddiy og‘zaki so‘zlashuv unsurlari, xalq shevalari, jargonlar – jinoyatchilar argosidan tortib, to kasb-hunarga oid nutqdagi bilgan-bilmagan holda og‘zaki, yozma nutqga, shu jumladan adabiy nutqga o‘tadigan barcha-barcha unsurlar tahlil etiladi. Ayni mana shu masalalar bilan shug‘ullanishiga ko‘ra nutq madaniyati uslubiyatga yaqinlashadi. Uslubiyat esa nutq madaniyatidan farqli o‘laroq asosiy e’tiborni adabiy nutqga qaratadi. Adabiy nutqga xos bo‘lmagan hodisalarga ular tufayli erishilgan uslubiy samara nuqtayi nazaridan qaraydi va unga qanchalik erishilgani (yoki erishilmagani)ni, adabiy nutq me’yorlariga asoslangan matnga qancha o‘rinli yoki o‘rinsiz kiritilganini baholaydi.

Nutq madaniyati tadqiq etadigan adabiy nutqga xos bo‘lmagan hodisalar doirasi uslubiyatdagidan kengdir. Buni kundalik nutqda me’yorlashmagan hodisalar cheklanmagan miqdorda uchrashi bilan izohlash mumkin. Hatto, shaxsiy yozishmalar ham bundan xoli emas. Agar kundalik nutqiy muloqotda me’yorlashmagan nutqdan bevosita turmush tashvishlari xususidagi suhbatlarda, nutqiy muloqot vaziyatga ko‘ra bo‘lganda foydalanilsa, adabiy matnga ular muayyan uslubiy maqsadga ko‘ra kiritiladi. Individual nutq ham, umumiy nutqiy madaniyat ham til egasining saviyasiga, ijtimoiy ongga, adabiy nutq rivoji va uning hozirgi darajasiga bog‘liq.

Abdulla Qodiriyning xoh katta, xoh kichik asarlaridagi obrazlarning, albatta, hayotda o‘z prototiplari bo‘lgan. Masalan, Abdulla Qodiriyning o‘g‘li Habibulla Qodiriyning yozishicha, Toshpo‘lat tajangning hayotda prototipi bo‘lgan, u ham gapni xuddi Toshpo‘lat kabi uzuq-uzuq, chertib-chertib so‘zlagan. Polvon ismli bu shaxsning Qodiriy bilan suhbatdagi nutqiga e’tibor beraylik.

Shu, degin, Julqun uka, – hammayoqni qimorga boy berib, juda abgor bo‘lib yurgan chog‘im edi. Bir kun boshim qotib ko‘chada borayotsam, yonimdan boyvachcha kiyingan yosh bir yigit o‘tib qoldi. “To‘xta”, dedim, “san boyvachchani yoningdagi pulingni bir sanab ko‘raychi, qancha ekan”, dedim ichimda.

Abdulla Qodiriy Polvonning nutqi bilan Toshpo‘lat tajangni so‘zlatishdan maqsadi qahramoning tabiatini, qiyofasini o‘quvchi ko‘zi o‘ngida yaqqol gavdalantirish maqsadida badiiy uslub talabiga ko‘ra hajviy obraz yaratishdir. O‘tgan asrning 20–30-yillarida, jamiyatda ana shunday nutq egalariga ko‘plab duch kelingan va ular zamonasiga mos edi.

Bugungi kun “Toshpo‘lat”larining nutqi esa butunlay o‘zgacha:

Shu, desang, bordim ... nima, gudid qilurasan, etgan gapingga atvechat qilasanmi, yo‘q, atvechat qilasanmi? Korochchisi, boshqa gudid qima ... sanminan voobshe gaplashmiman, xo‘, tushundimi? Konchay ... Yo‘q, san, o‘zing kimminan gaplashvotganini bilasanmi? Lyuboyini sindirib qo‘yaman ...

Har ikki nutqdan uning egasi kim, ongi, saviyasi, madaniyati qay darajada ekanligi jamiyatda qanday o‘rin tutishligi ayon bo‘ladi.

Demak, nutq madaniyati, aytish mumkinki, baholovchi fan hisoblanadi. U nutq asoslarini baholaydi, me’yoriylashganlik darajasini aniqlaydi. Muayyan nutqiy vaziyatda mazmunan o‘rinli, o‘rinsiz ekanligini tahlil etadi.

Uslubiyat nutq madaniyati sohasidagi tadqiqotlarga nazariy asos bo‘lib hisoblanadi. O‘rganilayotgan nutq unsurlari uslubiyat nuqtayi nazaridan aniq tavsifga ega bo‘ladi.

“Til madaniyati yoki nutq madaniyati haqidagi fan ham nazariy, ham amaliy fan (yoki tadqiqot sohasi), til uslubiyati va nutq uslubiyati bilan turdosh hisoblanadi”. Demak, nutq madaniyati fani bilan uslubiyat fanining tadqiqot obyekti yozma va og‘zaki nutq hisoblanadi.

Adabiy tahrir – filologiyaning amaliy fanlararo tarmoqlaridan biri. Bu fan uslubiyatni, uning asosiy tuzilmaviy qismlarini, shuningdek nutq madaniyatini, asosiy tasviriy lingvistik fanlarni chuqur bilishni talab etadi. Adabiy tahrir matn, qo‘lyozma maqsadga muvofiqligi, aniq maqsadga qaratilganligi masalalari bilan ular intellektual, ekspressiv (ham estetik, agar matn badiiy bo‘lsa), mazmuni, muallifning o‘ylagani, muayyan matn, qo‘lyozma nimaga mo‘ljallanganligi, hammasi to‘g‘ri bo‘lishligi masalalari bilan shug‘ullanadi. Mustaqil fan sifatida o‘tgan asrning 50-yillarida shakllangan adabiy tahrir muharrirlik ishlovi berilishi lozim bo‘lgan qo‘lyozmalarga nisbatan o‘z yondashuvini belgilab olgan. Shulardan asosiysi:

– tahrir – yaxlit ijodiy jarayon, matnni tekshirish va qayta ishlashni o‘z ichiga oladi;

– har bir matnni adabiy jihatda yaxlit matn sifatida tekshirish va unga tuzatishlarni kiritish.

Tahrirga tortilgan matn, qo‘lyozmaga bir qator talablar qo‘yiladi:

– keltirilayotgan ma’lumotlar, berilayotgan xabarlar ham ilmiy, ham asosli bo‘lishi kerak;

– bayon etilayotgan nazariy fikrlar, farazlar yoki talqinlar, hodisalar, voqea va b.lar ilmiy yoki aqlan sog‘lom bo‘lishi lozim;

– muallif bayoni mantiqan ketma-ketlik (uzviylik)ka ega bo‘lishi shart.

Qo‘lyozmaga muharrir tomonidan ishlov berish deganda, matnga uslubiy jihatdan ishlov berib, uning adabiyligini ta’minlash nazarda tutiladi. Bundan tashqari, uslubiy jihatdan ishlov berish bilan birga, qo‘lyozma tarkibiy tuzilishi (kompozitsiyasi) ham

aniqlanadi (to‘g‘rilanadi).

Adabiy tahrir fanida “matn, qo‘lyozma tili ustida ishlash” degan ibora borligi sababsiz emas. Tahrir qilinishi kerak bo‘lgan qo‘lyozmaga uslubiy ishlov berish faqat matndagi imloviy hamda tinish belgilari bo‘yicha xatolarni tuzatishdan iborat emas, balki:

– sodda va qo‘shma gaplarning ichki tuzilishi grammatik me’yorlarga mosligi tekshiriladi:

– funksiyaviy uslubiyat qonuniyatlariga to‘liq amal qilinganligi ko‘rib chiqiladi.

Xullas, matn, qo‘lyozmani tahrir qilish jarayonida uslubiy talablarning barchasi so‘zsiz amalga oshirilishi shart.

Birinchi talab matnlar bayonidagi adabiy nutqning muayyan funksiyaviy turga xos izchilligi, ifodaviyligi, ikkinchisi – g‘ayriuslubiy unsurlarni qo‘llashning asosli ekanligi, uchinchisi – fikrni ifodalash shaklining mazkur uslubga mosligi, to‘rtinchisi – funksiyaviy taalluqligiga ko‘ra so‘zlar va iboralardan matn uslubi (yoki janr-nutq)ga mos holda foydalanilganligi, beshinchidan – rasmiy ish yuritish, ilmiy uslublarda, so‘zlashuv nutqida, badiiy matnda matn shu tur asarlarga xos tuzilganligi.

Demak, matn, qo‘lyozmani adabiy tahrirdan chiqarish turdosh fanlar, tasviriy tilshunoslik (leksikologiya, frazeologiya, grammatika, punktuatsiya va b.), funksiyaviy uslublar (umuman uslubiyat), semantologiya, ortologiya va nutq madaniyati kabi fanlar bilan uzviy bog‘liq ekan. Adabiy tahrir muvaffaqiyati tahrirchidan chuqur bilimli bo‘lishni taqozo etadi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Винокур Г.О. Филологические исследования. – Москва, 1989. –221-б.
2. Виноградов В.В. Проблемы русской стилистики. – Москва, 1981. –173-б.
3. Hojiev A. Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati. –T.: O‘qituvchi, 1985.
4. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Xojiev A. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T.: O‘qituvchi, 1980. – 7-b.
5. O‘zME, 1-j. – 127-b.
6. Энциклопедический словарь. –Москва: Советская энциклопедия, 1984.– 716-б.
7. Щерба Л.В. Избранные работы по русскому языку. – Москва.1978.– 117-б.
8. Qodiriy H. Otam haqida. –T.: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1983. – 46-b.
9. Виноградов В.В. Проблемы русской стилистики. – Москва, 1981. – 175-б.

Nilufar XUDOYBERDIYEVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, o‘qituvchi

MOTIVATSION YONDASHUV ASOSIDA O‘QUVCHILARNING TADBIRKORLIKKA OID KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada motivatsion yondashuv asosida o‘quvchilarning tadbirkorlikka oid ko‘nikmalarini shakllantirishning jihatlari, tanqidiy fikrlashning imkoniyatlari, tadbirkorlik tushunchasi, motivatsiyaning hosil bo‘lish usullari yoritib berilgan.

Tayanch so‘zlar. Motivatsion yondashuv, tadbirkorlik, tadbirkor, ko‘nikma, kasb, ekotizim, tanqidiy fikr, loyiha.

В статье рассмотрены аспекты формирования предпринимательских способностей учащихся на основе мотивационного подхода, возможности критического мышления, концепции предпринимательства, методы формирования мотивации.

Ключевые слова. Мотивационный подход, предпринимательство, предприниматель, умение, профессия, экосистема, критическое мышление.

The article examines aspects of the formation of students' entrepreneurial abilities based on a motivational approach, the possibility of critical thinking, the concept of entrepreneurship, and methods of forming motivation.

Key words. Motivational approach, entrepreneurship, entrepreneur, skill, profession, ecosystem, critical thinking.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarni texnologiya darslarida motivatsiya berish orqali tadbirkorlikka yo‘nalitirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xo‘sh motivatsiya va tadbirkorlik nima o‘zi?

Motivatsiya – bu odamlar va boshqa hayvonlarning ma’lum bir vaqtda xatti-harakatni boshlashi, davom ettirishi yoki to‘xtatishi sababi. Motivatsion holatlar odatda sistema ichida harakat qiluvchi, maqsadga yo‘naltirilgan xatti-harakatlarga moyillikni yaratadigan kuchlar sifatida tushuniladi. Ko‘pincha turli xil ruhiy holatlar bir-biri bilan raqobatlashadi va faqat eng kuchli holat xatti-harakatni belgilaydi. Bu shuni anglatadiki, biz biror narsani amalga oshirmasdan turib, biror narsa qilishga undashimiz mumkin. Motivatsiyani ta’minlovchi paradigmatik ruhiy holat – bu istak. Ammo boshqa turli holatlar, masalan, nima qilish kerakligi yoki niyatlari haqidagi e’tiqodlar ham motivatsiyani ta’minlashi mumkin. Motivatsiya „motiv“ so‘zidan olingan bo‘lib, u kishining ehtiyojlari, istaklari yoki undovlarini bildiradi. Maqsadga erishish uchun shaxslarni harakatga undash jarayonidir. Ish maqsadlari kontekstida odamlarning xatti-harakatlarini kuchaytiradigan psixologik elementlar pulga bo‘lgan xohishni o‘z ichiga olishi mumkin.

Tadbirkorlik (tadbirkorlik faoliyati) – qonun hujjatlariga muvofiq daromad (foyda) olishga qaratilgan, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) yo‘li bilan tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida amalga oshiriladigan tashabbuskor faoliyat.

Bizga ma’lumki, texnologiyadan amaliy mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilar buyum

yasash bilan shug‘ullanadilar. Agar biz bu mashg‘ulotlarni rejali tarzda tadbirkorlikni o‘rgatish nuqtai nazari bilan tashkil qilsak, jamiyatimizdagi muhim muammolardan biri ta’lim samaradorligini oshirib sifatli darslarni tashkil qilishimiz va o‘quvchilarimizda tadbirkorlik sifatlarini shakllantirishimiz mumkin bo‘ladi.

Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi 2020-yil 13-oktabr, PQ-4862-sonli qarorida tadbirkorlikni yanada rivojlantirish nazarda tutilgan. Unga ko‘ra, tadbirkorlik tashabbusiga ega jismoniy shaxslar, shu jumladan yoshlar va xotin-qizlarga o‘z biznessini tashkil etish uchun hamda belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tgan kichik tadbirkorlik subyektlariga 33 million so‘mgacha bo‘lgan miqdordagi mikrokreditlar ta’minotsiz ajratiladi; kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish bo‘yicha nodavlat ta’lim tashkilotlari, professional ta’lim muassasalari, Bizness va tadbirkorlik oliy maktabi hamda uning hududiy filiallari kurslarini muvaffaqiyatli tamomlab, ularning sertifikatini olgan shaxslarga o‘z biznessini tashkil etish uchun mazkur qarorning 5-bandiga muvofiq mikrokredit ajratiladi.

Bizga ma’lumki, har qanday ish boshida ta’lim-tarbiya turadi. Ta’lim-tarbiya tarixiga nazar tashlar ekanmiz, moziyda ham eng muhim, bosh masala inson, uni mehnat orqali barkamol etib tarbiyalash bo‘lganligining guvohi bo‘lamiz. Eng qadimgi manbalardan boshlab, keyinchalik paydo bo‘lgan ta’limiy-axloqiy asarlarda ham mehnatga oid nazariy, ham amaliy masalalar tahlil etilganki, uning asosida inson shaxsini ma’naviy-axloqiy shakllantirish muammosi markaziy muammo bo‘lgan.

Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarni tadbirkorlikka oid ko‘nikmalarini shakllantirishda dars jarayonlarida motivatsiya berish, jamoada ishlash, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish kabi taktikalar bilan ishlash yaxshi natija beradi. Tadbirkorlik ishlarining samaradorligi va tadbirkor bo‘lish niyati o‘rtasida kuchli ijobiy bog‘liqlik mavjud. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlikni o‘rganishga bo‘lgan talabning oshishi maktab o‘quvchilarida texnologiya fanini o‘qitish jarayonini yaxshilashga sabab bo‘ladi va kelajakda o‘quvchilarda biznes boshlash niyatining oshishiga olib keladi. O‘quvchilarning texnologiya darslarida tadbirkorlikka motivatsiyasini uyg‘otishda shunday taktika qo‘llash kerakki, hatto eng ixtirochi va innovatsion o‘quvchilar ham o‘zlarini tadbirkor sifatida ko‘rish uchun kurashishlari mumkin bo‘lsin. Ba’zilar uchun bu jarayon yuqori darajadagi stressli holatlar bilan kechadi. Boshqalar topshiriqlarning ijodiy, qiziqarli, muammoli bo‘lishiga ijobiy munosabat bildiradilar va tezda ishga kirishib ketadilar va o‘zlarini tadbirkor sifatida ko‘ra boshlaydilar. Biroq, o‘quvchilar o‘zlari tanlagan ta’lim sohalariga olib keladigan yangi istiqbollar va energiya ularni ajoyib potentsial tadbirkor qiladi va o‘qituvchilar ularni rag‘batlantirishi mumkin. O‘quvchilar o‘z g‘oyalari bilan kelajakda yangi texnologiyalar va texnikalarni yaratishlari, kompaniyalar tashkilotchilari bo‘lishlari mumkinligini tushunib yetishlari lozim. Buning uchun:

O‘quvchilarni sinfda va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda motivatsiya qilish uchun to‘rtta asosiy taktika orqali kerakli o‘z-o‘zini anglash, e’tiqod, maqsad va niyatlarni rivojlantirishga yordam berishini tushuntirish kerak. Quydagilar o‘quvchilarning tadbirkorlikdagi faolligini oshirish uchun to‘rtta asosiy motivatsion taktika hisoblanadi:

1.O‘quvchilarning yutuqlari va ko‘nikmalari qanday kengayib borayotganini ko‘rsatish. Motivatsiya o‘quvchilarga ularning sa’y-harakatlari o‘lchanadigan muvaffaqiyatga erishayotganini ko‘rsatishdan boshlanadi. O‘z-o‘zini baholash, mulohaza yuritish va hatto ixtiyoriy olinadigan sertifikatlar orqali har bir o‘quvchilarga real vaqt rejimida o‘zlarining rivojlanayotgan ko‘nikmalarini o‘lchash imkonini beradigan juda zarur

tekshiruvni ta’minlaydi. Ular o‘zlarini o‘xshash maqsadlarga ega, o‘z kampusidan tashqariga chiqadigan tengdoshlar hamjamiyatiga tegishli ekanligini his qilishlari kerak, elektron jadval kabi vizual kuzatish usulini taklif qiling va ular erishgan har bir bosqichni nishonlang. Kurs yoki dastur talablarini to‘ldirishdan tashqarida bo‘lgan mukofotlar va jamoatchilik e’tirofi ham yordam berishi mumkin. Tadbirkorlik bilan aloqadorlik hissini yaratish uchun mahalliy hamjamiyatdagi o‘quvchilar ixtirochilari haqidagi intervyular, badiiy maqolalar va boshqa hikoyalarni baham ko‘rish mumkin.

2. Muvaffaqiyatga erishish mumkin bo‘lgan maqsadlar va aniq yo‘lni belgilab olish. G‘oyani bozorga chiqarish va pirovardida biznessni yo‘lga qo‘yish istagi tadbirkorlikka intilishda asosiy rag‘batlantiruvchi omil hisoblanadi. O‘quvchilarga diqqatlarini jamlash uchun kelajakka qaratilgan maqsadlarni berish orqali bu motivatsiyani vaqt o‘tishi bilan rivojlantirish mumkin. O‘quvchilar muvaffaqiyatga olib kelishi mumkin bo‘lgan qadamlarni ko‘rishlari va tushunishlari va bu yo‘lda yordam olishlari kerak. O‘qitish uchun turli fanlardan professor-o‘qituvchilar bilan hamkorlik qilish umumiy loyihalar uchun ilhomlantiruvchi imkoniyatlar yaratishi mumkin. Bu o‘quvchilarga kengroq nuqtai nazar va tajribalarni ochib berishi va ularga o‘z ishlarini chuqurroq tushunish imkonini beradi.

3. Ishonchni oshiring va tadbirkor sifatida shaxsni tarbiyalash. O‘quvchilar muvaffaqiyat bilan uchrashganda, ularning ishonchi ortadi. O‘quvchilar tadbirkorlikni - sinfda yoki to‘garak mashg‘ulotlarda va klublarda bo‘ladimi – o‘rganar ekanlar va bu qanchalik samarali va qiziqarli ekanligini his qiliadilar hamda o‘zlarini tadbirkor sifatida o‘zini namoyon qiladi. O‘quvchilarni o‘z yutuqlari haqida fikr yuritishga undash imkoniyati ham mavjud. Ularning ishlarining ahamiyati va sezilarli ta’sirini ko‘rsatish va iloji bo‘lsa, o‘quvchlarni o‘z jamoalarida ishlaydigan mutaxassislar bilan bog‘lash lozim bo‘ladi. Boshqa tadbirkorlar bilan uchrashib, o‘quvchlar o‘zlarini o‘xshash rollarda yaxshiroq tasavvur qilishlari va katta innovatsiyalar va tadbirkorlik ekotizimiga tegishlilik tuyg‘usini rivojlantirishlari mumkin.

4. O‘quvchilarni ularning ishlarining haqiqiy natijalari bilan bog‘lash. Agar o‘quvchilar o‘z ishlarida qanday ta’sir ko‘rsata olishlarini ko‘ra olsalar, bu ularga qiyinchiliklarga duch kelganda ham ularni bajarish uchun zarur motivatsiya berishi mumkin. Har bir o‘quvchi o‘ziga xos ehtirosga ega bo‘ladi. Texnologiya darslarida beriladigan topshiriqlar mazmunida: odamlarga yordam berish, yangi mahsulot yoki xizmatlarni yaratish, raqobatdosh mahsulotlarni ishlab chiqish yoki iqtisodiy sektorning o‘sishiga imkon beradigan mahsulotlarni ixtiro qilish kabi turli maqsadlarga ega loyihalarni taklif qilishni o‘ylab ko‘rish aks etishi kerak. Bu o‘quvchilarga ularning g‘oyalari va mehnati haqiqiy dunyoga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan ko‘plab usullarni ko‘ishga imkon beradi – bu chuqur kuch beruvchi tajriba hisoblanadi.

Farq qilish uchun motivatsiya oxir oqibat, yakuniy maqsad shunchaki o‘quvchi-tadbirkorlarni shaklantirishga ilhomlantirish emas, ushbu to‘rtta motivatsion taktika o‘quvchilarni o‘zlarining kengroq tadbirkorlik ekotizimlari bilan ataylab va o‘ylangan holda shug‘ullanishga ilhomlantiradi. Ushbu yangi motivatsiya dastlabki bosqichdagi innovatorlarni o‘z kompaniyasini ochishga yoki tadbirkorlik energiyasini va istiqbollarini boshqa biron bir ishga jalb qilishga undaydi va foyda keltiradi.

Texnologiya darslarida o‘quvchilarda tadbirkorlikka oid ko‘nikmalarni shakllantirishda tanqidiy fikrlash muhim ahamiyatga ega. Tadbirkor sifatida o‘zgarish yagona doimiy narsadir. Atrof-muhit tez o‘zgarib turadi va eng yaxshi tadbirkorlar sharoitga tezda moslasha olishi kerak. Bu qobiliyat kuchli tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini talab qiladi. Xo‘sh, nega tanqidiy fikrlash juda muhim?

Tanqidiy fikrlash tajriba, tahlil va kuzatish orqali to‘plangan ma’lumotlarni faol va yo‘nalish sifatida belgilaydilar va bu ma’lumotlardan harakat va e’tiqodni boshqarish uchun foydalanishadi.

Tanqidiy fikrlash barcha kasb egalari uchun muhim mahorat bo‘lsa-da, undan qanday foydalanishni biladigan tadbirkorlar o‘z sohalarida ko‘proq imkoniyatlar yaratishi va raqobatdosh tomonlarini saqlab qolishlari mumkin

Tanqidiy fikrlashning afzalliklari, uning tadbirkorlar uchun nima qilishi va uni qanday qilib ko‘proq rivojlantirishingiz mumkinligi haqida so‘z boradi.

Mutaxassislar tanqidiy fikrlashning sakkizta o‘ziga xos xususiyatini aniqlaydilar. Ular quyidagicha:

Savol berish. Savol berish yaxshi tanqidiy fikrlash uchun zarurdir. Nima uchun biror narsa shunday? Bu sizning biznessingiz uchun nimani anglatadi? Va agar siz uni o‘zgartirmoqchi bo‘lsangiz, qanday qilib?

Muammoni aniqlash. O‘lchanadigan narsa boshqariladi. Yaxshi tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan tadbirkorlar muammoni hal qilish uchun yetarlicha aniq qilib, qanday aniqlashni biladilar.

Dalillarni tekshirish. Muammo mavjudligiga qanday dalil bor? Dalillarning davomiyligi va jiddiyligi qanday va u qanchalik keng tarqalgan?

Taxminlar va noto‘g‘ri fikrlarni tahlil qilish. Dalillarni tekshirganingizdan so‘ng, dalillarga bo‘lgan munosabatingizni ham ko‘rib chiqishingiz kerak. Oldinga fikrlaydigan tadbirkorlar o‘z e’tiqodlari va tarafkashliklari haqida halol bo‘lishadi va ular tufayli qarorni sabotaj qilishdan qanday qochish kerakligini bilishadi.

Hissiy fikrlashdan qochish. Tuyg‘ular past bo‘lishi mumkin, ammo ular biznes qarorlari uchun ajoyib platforma emas. Yaxshi tanqidiy fikrlash hissiy mulohazalardan qochish va dalillar, mantiq va kuzatishlar asosida qaror qabul qilishni o‘z ichiga oladi.

Haddan tashqari soddalashtirishdan qochish. Tuyg‘ular bizness qarorlarini qabul qilishning yaxshi usuli bo‘lmasa-da, ortiqcha soddalashtirish ham emas. Muammoni uning barcha murakkabliklari buzilmagan holda ko‘rib chiqish juda muhimdir.

Boshqa talqinlarni hisobga olgan holda. Boshqalar vaziyat haqida nima deyishadi? Sizning ustozingiz yoki rahbarlaringizdan biri qanday munosabatda bo‘ladi? Boshqa professional lavozimdagi kishi bu borada nima qilishi mumkin? Boshqa talqinlarni ko‘rib chiqish vaziyatni yaxshiroq kontseptsiyalash va oqilona qaror qabul qilishning ajoyib usuli hisoblanadi.

Noaniqlikka toqat qilish. Nihoyat, yaxshi tanqidiy fikrlash sizdan noaniqlikka toqat qilishni talab qiladi. Tadbirkor sifatida vaziyatlar har doim ham kesilgan va kutilgan yechim yoki natijaga ega bo‘lmaydi. Bu sohada muvaffaqiyat qozonish uchun bu noaniqlikni qabul qilishingiz va noaniqlikka suyanishingiz kerak.

Texnologiya darslarida o‘quvchilarni tadbirkorlikka oid ko‘nikmalarini shakllantirishda qo‘l mehnati bilan o‘zlari yaratgan buyum qanchalik ahamiyatga ega ekanligi,uning qadri, milliy qadriyatlarimiz bilan bog‘liqligi, kelajakda shu kasbga qiziqish uyg‘otish va hayotda o‘z o‘rnini topishi haqida motivatsiya bersak, o‘quvchida tadbirkorlikka bo‘lgan havas uyg‘ona boshlaydi. Masalan, umumiy o‘rta ta’lim maktabining texnologiya darslarida har xil materiallardan (gafri qog‘oz, shoyi lentalardan) gul yasashni o‘rgatish orqali o‘quvchilarni nafaqat fanga balki, ijod qilishga bo‘lgan qiziqishini oshirish mumkin. Bayram, tadbirlarda, tug‘ilgan kun uchun guldasta yasab sovg‘a qilish mumkin. Aynan shu yo‘nalishda o‘quvchini tadbirkorlikka yo‘naltiradigan bo‘lsak, avval guldasta yasash texnologiyasini loyihalab olish zarur bo‘ladi. Ijodiy loyiha ishi bosqichlari qo‘yi-

dagilardan iborat:

1. Tayyorlash bosqichi.
2. Konstruksiyalash bosqichi.
3. Texnologik bosqich.
4. Mahsulotni tayyorlash bosqichi.
5. Yakuniy bosqich.

Ayollar va qizlar gul sovg‘a olishni juda xohlashadi. Gullarning turli xil dizayndagi ko‘rinishlari mavjud. Yasalgan guldasta uchun qog‘oz va yelimlarning sifatlisi tanlab olinadi. Guldasta uchun 50 ming so‘m mablag‘ sarf qilinadi. Bugungi kunda yasalgan guldastaning bozordagi narxi taxminan 100-150 ming so‘mga to‘g‘ri keladi. Bu esa oilaning iqtisodiy byudjetidan 50 ming so‘mga tejalganini ko‘rsatadi. Shunga o‘xshash guldastalarni bemalol bozorda sotish mumkin. O‘quvchiga nafaqat tadbirkorlikka bo‘lgan qiziqish balki, ularda bozor munosabatlari ham shakllanib boradi.

Xulosa qilib aytganda, motivatsion yondashuv o‘quvchilarning bilim olish, orzu qilish, tanqidiy fikrlashga bo‘lgan moyilligini orttiradi. Rag‘bat orqali berilgan motivatsiya har qanday o‘quvchiga kuch, madad beradi. Ushbu motivatsiyalar orqali o‘quvchida yaratgan buyumlari orqali kelajakda o‘z o‘rnini topishi va karyerasiga ega bo‘lishi, bezniss rejasini tuzish orqali tadbirkorlikka bo‘lgan qiziqishini uyg‘otishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni Toshkent shahri, 2017-yil 7-fevral PF - 4947.
2. Mirziyoev Sh.M. Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi 2020-yil 13-oktabr PQ-4862
3. S.Bekmurodova. Texnologiya fanini o‘qitishda yangicha yondashuv. Metodik qo‘llanma. – T.:PMT, 2017 5.
4. Shomirzayev M.X. Texnologiya fanini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar. Darslik. – T.:“TerDU NMMN” 2021 ,– 228 b.
5. Motivation: State, Trait, or Both“, Motivation, Effort, and the Neural Network Model, 2020 – 93–101-bet. DOI:10.1007/978-3-030-58724-6_8. ISBN 978-3-030-58724-6.
6. O‘lmasova A. Iqtisodiyot asoslari. – T.: Adabiyot va san’at, 2010.
7. Гавриш Е.С. Мотивация как элемент системы управления персоналом предприятия //Россия в меняющемся мире: социально- экономические, политические и гуманитарные ориентиры. Взгляд молодых. Статьи и тезисы докладов XX Международной молодежной научной конференции. – 2015. – С. 23–25.
8. Генкин Б.М. Мотивация и организация эффективной работы (теория и практика): монография / Б. М. Генкин. - 2-е изд., испр. – Москва: Норма: ИНФРА-М, 2020. – 352 с.

Nilufar MAMADALIYEVA,
Andijon davlat pedagogika instituti, “Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrasi, katta o‘qituvchi

TAYANCH TUSHUNCHALARNI O‘QITISH ORQALI BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING OG‘ZAKI NUTQ VA FIKRLASH FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada tayanch tushunchalar o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajalarini tizimlashtirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va og‘zaki nutqni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki nutqi va fikrlash faoliyatini rivojlantirishda tayanch tushunchalar nafaqat muayyan fan bo‘yicha bilimlarni egallashga, balki ularning umumiy aqliy rivojlanishini, izchil fikrlashi, fikrlarni aniq ifodalash ko‘nikamalarini rivojlantirishga hizmat qilishi batafsil ochib berilgan.

Tayanch so‘zlar. Tayanch tushuncha, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, maktab, o‘qituvchi, o‘qitish, mantiqiy fikrlash, faoliyat, bilish, og‘zaki nutq, vosita, bilim, dars, darslik.

В статье подробно описываются важное значение основных понятий для систематизации знаний учащихся, развития логического мышления и формирования устной речи. Обучение основным понятиям в развитии устной речевой и мыслительной деятельности учащихся младших классов осуществляется не только для усвоения определенного предмета но и укрепляют их общее умственное развитие, связность мышления, четкость выражения мысли.

Ключевые слова. Основное понятие, начальный класс, школа, ученик, учитель, обучение, логическое мышление, деятельность, знания, устная речь, инструмент, знания, урок, учебник.

The article describes in detail the importance of basic concepts for systematizing students' knowledge, developing logical thinking and forming oral speech. Teaching basic concepts in developing oral speech and thinking activity of primary school students is carried out not only for mastering a certain subject but also strengthens their general mental development, coherence of thinking, clarity of expression of thought.

Key words. Basic concept, primary school, school, student, teacher, learning, logical thinking, activity, knowledge, oral speech, tool, knowledge, lesson, textbook.

Jahon ta’lim tizimi o‘qitish amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinflarda tayanch tushuncha va iboralar orqali o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda o‘quvchi ko‘p hollarda o‘z fikrlarini izchil, malakali, aniq va mantiqiy ifoda eta olmaydilar. Grammatik jihatdan noto‘g‘ri jumlalar tuzish, yozuvlar, chizmalar, diagrammalarni qanday qilib to‘g‘ri tuzishni bilmaydi hamda atamalarni yozishda noto‘g‘ri foydalanish va xatolarga yo‘l qo‘yishadi. O‘quvchi tayanch tushuncha va iboralarni o‘rganish tajribalarini, taxminlarini va tadqiqot natijalarini nafaqat so‘zlar bilan, balki turli yo‘llar bilan ifoda etishni xohlaydi. Bu juda tez-tez sodir bo‘ladiki, bolalar muammoning yechimini to‘g‘ri topadilar, ammo o‘z fikrlarini so‘zlar bilan qanday ifoda etishni bilishmaydi. O‘quvchilarning nutq va aqliy faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha ishlar, shuningdek, tayanch tushuncha va iboralar o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklardan tashqari, “til to‘sig‘ini” yengib o‘tishlari kerakligi bilan murakkablashadi.

O‘quvchilarda fikrlash faoliyatining barcha turlarini rivojlantirishda tayanch tu-

shunchalarni o‘qitish orqali og‘zaki nutqqa tayanishni kuchaytirish boshlang‘ich sinf bo‘yicha tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan ishlarni yuritishni taqozo etadi. Mazkur muhim vazifani amalga oshirish o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini oshirishga va shuningdek, ularning mantiqiy fikrlashlarini rivojlantirishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, inson o‘zini o‘rab turuvchi olam haqida ko‘p narsalarni biladi. Voqeliklarning barchasini idrok eta olmasada, u uzoqdagi yulduzlarning kimyoviy tarkibini yaxshi biladi, mayda zarrachalar dunyosi bilan ham tanish, oliy asab faoliyatining qonunlarini tushunib yetgan, rentgen nurlari, ultratovushlar mavjudligini va cheksiz fan qonuniyatlarini tushunib yetadi. Inson o‘z ongida faqatgina predmetlar va voqeliklarni emas, balki ular o‘rtasidagi qonuniy aloqalarni aks ettira oladi.

Insoniyatning tevarak olamni analizatorlar yordamida idrok etish imkoniyati juda cheklangan. Agar insonning ongi ko‘rish, tinglash, sezish va boshqa ayrim analizatorlar beruvchi ko‘rsatkichlar bilan cheklanib qolganda edi, u tevarak-olam haqida juda oz bilgan bo‘lardi. Olamni chuqur va keng tarzda idrok etish, bilish insonning mantiqiy fikrlashlarini rivojlantiradi.

Rene Dekartning fikriga ko‘ra mantiqiy fikrlash uchta daraja: 1) intuitsiya (ichki hissiyot); 2) idrok (fikrlash); 3) aqldan iborat bo‘luvchi tuzilmaga ega. Bu nuqtai nazarda intuitsiya, ya’ni ichki hissiyot deb ayrim mavhum obyektlarning o‘zi kabi boshqa tizimlar bilan aloqalariga nisbatini bildirilmagan bilimi tushuniladi. Idrok tushunchasi ostida mavhum obyektlar konkret tizimlarining o‘zi kabi boshqa tizimlar va mavhum obyektlar universumi bilan aloqalariga nisbati bildirilmagan bilimi tushuniladi. Aql esa mavhum obyektlar konkret tizimlarining o‘zi kabi boshqa tizimlar va mavhum obyektlar universumi bilan aloqalariga nisbati hisobga olingan bilimdir.

Faqatgina ichki hissiyot bilan cheklanib qolgan mantiqiy fikrlash irratsional fikrlashdir. Ichki hissiyot idrok bilan to‘ldirilgan mantiqiy fikrlash mulohazaviy fikrlash deb ataladi, u obyektlar tizimining konkret predmetli faoliyati jarayonida shakllanadi.

Ratsional fikrlash deb ichki hissiyot faqatgina idrok bilangina emas, balki aql bilan ham to‘ldirilgan fikrlashga aytiladi. Shuning uchun u ko‘proq darajada barkamol hisoblanadi. Mantiqiy fikrlash mazkur turlari o‘rtasidagi aloqani I.Kant ham alohida ko‘rsatib o‘tgan: “Bizning bilimimiz kechinmalardan boshlanadi, keyin u idrokka aylanadi va bizda mushohadaning materialiga ishlov berish va oliy tafakkur birligiga keltirishda eng oliy maqomda turuvchi aqlda o‘z yakuniga yetadi”.

XIX asr o‘rtalarida Dj. Bul tomonidan mantiq algebrasi ishlab chiqilganligi va uning asosida G.Frege iboralarning aksiomatik hisobini qurganligi va zamonaviy mantiqiy semantika asoslarini yaratganligi mantiqiy fikrlash tushunchasiga nisbatan yondashuvlarni shakllantirishning muhim bosqichi bo‘lib xizmat qildi.

Pedagog-metodistlarning tadqiqotlari bilan bir qatorda psixologlarning tadqiqotlari ham mantiqiy fikrlash tushunchasining mazmunini boyitdi.

Tayanch tushunchalarni o‘rganishdan asosiy maqsad, elementlar haqida, bu elementlar orasidagi munosabatlar, ularning ba’zi xossalari haqidagi tasavvurlarning to‘la tizimini tarkib toptirishdan iborat. Shu maqsadni amalga oshirish o‘qituvchining zimmasiga quyidagi metodik vazifalarni yuklaydi:

– avvalo dars berishga hozirlik ko‘rayotgan oq‘ituvchi o‘quv fani yuzasidan yetarlicha nazariy bilimlarga ega bo‘lishi, shu o‘quv fan bo‘yicha o‘rta maktab kursining tuzilishi va mazmunini yaxshi o‘zlashtirib olgan bo‘lishi kerak;

– dastur asosida tayanch tushunchalarni bilishga qaratilgan elementlarni bayon qilishning didaktik tamoyillarini yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lishi;

– tayanch tushunchalarni o‘rgatishda o‘quvchilarning amaliy faoliyatlariga alohida e’tibor berish;

– tayanch tushunchalarni o‘qitish orqali o‘quvchilarda geometrik tasavvurlarni tarkib toptirish – ularni chizish va o‘lchash malakalari bilan qurollantirishda zarur bo‘lgan pedagogik va metodik talablarni amalga oshirib borish va boshqa vazifalardan iborat.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga asosiy tushunchalarni o‘rgatish uchun o‘qituvchi ta’limning eng qulay usullaridan foydalansa maqsadga erishadi. Bunda didaktik o‘yinlarning ahamiyati juda katta. Shuning uchun o‘quvchilarga berilayotgan bilimlar ularning yosh xususiyatlariga muvofiq o‘yin tariqasida uyushtiriladi. Bunday o‘yinlar jarayonida o‘quvchilar o‘quv fanidan darslikda berilgan asosiy tushunchalar yuzasidan o‘zlashtirishi murakkab bo‘lgan materiallarni oson o‘zlashtiradi va shu bilan birga atrof-muhit, voqealarni kuzatish, solishtirib ko‘rish, ular to‘g‘risida fikrlash, ulardan to‘g‘ri xulosalar chiqarish va xulosalarini asoslashga o‘rganadilar. O‘quvchilarni o‘quv faniga qiziqtirish va bilim, ko‘nikma, malakalarini to‘g‘ri egallashlariga erishishni didaktik o‘yinlar orqali amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Didaktik o‘yinlar, asosan, ta’lim jarayonini bolalarning yosh xususiyatlari va tayyorgarliklariga qarab samarali tashkil qilishga, ularga bilim va ma’lumot berishni yengillashtirishga, ta’limda ko‘rgazmalilikni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib o‘quvchilarni o‘quv materiallari bilan ortiqcha band qilib qo‘ymaslik, toliqtirmaslik va zeriktirmaslik imkoniyatini yaratadi, dastur materiallarini o‘zlashtirishda qulaylik tug‘diradi. Didaktik materiallar o‘qituvchi tomonidan har bir darsga alohida tayyorlangan bo‘lib, u dars mazmunini to‘la ifodalash va o‘quvchilar dars mazmunini yaxshi tushunib yetishlari uchun xizmat qiladi. Bularga har turli ko‘rgazmali qurollar, turli muammoli vaziyatlarni yaratuvchi moslamalar, o‘yin va hokazolar kiradi. Didaktik materiallar ham didaktik tamoyillarga mos ravishda yaratiladi. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, dars davomida foydalanilayotgan didaktik o‘yin darsning mavzusiga mos ravishda tanlab olinishi muhim ahamiyatga egadir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqini o‘stirishda, fikrlash faoliyatini rivojlantirishda didaktik o‘yinlardan foydalanish samarali natija beradi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash joizki, boshlang‘ich ta’limning o‘ziga xos jihatlari shundan iboratki, bolalar maktabga ta’lim olish uchun turli tayyorgarlik darajasiga ega bo‘lgan holda har xil ijtimoiy tajribaga ega bo‘lgan holda hamda turlicha psixologik va fiziologik holatda kirib kelishadi. Turlicha rivojlanishdagi bunday shaxslarga ta’lim-tarbiya berish, barkamol avlod sifatida tarbiyalashda esa, bolalarda mantiqiy bilishni shakllantirish, ya’ni mantiqiy fikrlashni o‘stirish samarali usul hisoblanadi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, mantiqiy fikrlash tug‘ma iste’dod emas, shu ma’noda uni shakllantirish hamda o‘stirish mumkin va zarur. Darsliklarda tayanch tushunchalarni o‘qitishga qaratilgan misol va masalalar bolalarning tafakkuri, zehni, yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Logicheskiy slovar: Defort / pod. Red. A.A. Ivina, V.N. Pereverzeva, V.V. Petrova. – M.: Мыsl, 1994.- 268s.]. (Mantiqiy lug‘at: Defort/ A.A.Ivin, V.N. Pereverzev, V.V. Petrov tahriri ostida. Moskva: Мыsl, 1994. – 268-bet

2. Kant Immaniul. Sochineniya.: – M.: Nauka, 1969.-T.3.s.154-174.

3. Zaynitdinova M.A. Matematika darslarida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga innovatsion yondashuv (https://doi.Org/10.53885/edinres.2022.5.5.035). 105 b.

4. Psixologiya. Slovar. – M.: Politizdat, 1990. - 494s.

Gavhar TOJIYEVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, dotsent

XORIJIY TILNI O‘QITISH JARAYONIDA KOMPENSATORLI MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada xorijiy tilni o‘qitish jarayonida kompensatorli malakalarni rivojlantirish bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishga, xorijiy til va adabiyot yo‘nalishi talablarining xorijiy tilda muloqot qilishi malakalarini takomillashtirshga xizmat qilishi, ushbu kompetensiyaning rivojlanish usullari batafsil ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, kompensatorli malakalarni rivojlantirish muloqot ko‘nikmalarini takomillashtirishga asos bo‘lishi keltirib o‘tilgan.
Tayanch so‘zlar. Xorijiy tilni o‘qitish jarayoni, kompensatorli malakalar, bo‘lajak mutaxassis, kasbiy kompetensiya, shakllantirish, xorijiy til va adabiyot yo‘nalishi, muloqot qilishi malakalari.

В статье подробно анализируется развитие компенсаторных умений в процессе обучения иностранному языку, формирование профессиональной компетентности будущих специалистов, совершенствование навыков общения на иностранном языке, а также технологии развития профессиональной компетенции.
Ключевые слова. Процесс обучения иностранному языку, компенсаторные навыки, будущий специалист, профессиональная компетентность, формирование, коммуникативные навыки.

The article analyzes in detail the development of compensatory skills in the process of teaching a foreign language, the formation of professional competence of future specialists, the improvement of communication skills in a foreign language, as well as technologies for the development of professional competence.
Key words. The process of learning a foreign language, compensatory skills, future specialist, professional competence, formation, communication skills.

O‘zbekiston Respublikasi so‘nggi yillarda ta’lim sohasida tub islohotlarni amalga oshirmoqda, bu jarayon xorijiy tillarni o‘rganishni yanada takomillashtirishga qaratilgan. Vazirlar Mahkamasining 19.01.2022-yildagi 34-sonli qaroriga asosan xorijiy tillarni o‘rganish va o‘qitish sifatini yuksaltirishga qaratilgan bosqich amalga oshirilmoqda. Ushbu qaror doirasida, xorijiy tillarni o‘rgatish metodikalarini yangilash, ta’lim muassasalarini zamonaviy o‘quv resurslari bilan ta’minlash, hamda o‘qituvchilarning malaka darajasini oshirish kabi bir qator muhim tashabbuslar ilgari surilmoqda. Mazkur islohotlar nafaqat til o‘rganish jarayonini yaxshilashga, balki umumiy ta’lim sifatini oshirishga ham xizmat qiladi, qolaversa mamlakatning ta’lim tizimini xalqaro standartlar darajasiga ko‘tarishga yordam beradi.

Mamlakatimiz oliy ta’limi samarali ravishda bilimga asoslangan an’analardan kompetensiyalar andozasiga o‘tib bormoqda. Shu jarayonda, lisoniy oliy ta’lim muassasalarini bitirgan talaba nafaqat shaxsiy, balki kasbiy kompetensiyalarni ham egallab, mahalliy va xalqaro mehnat bozori talablariga mos mutaxassis bo‘lib yetishtirilmoqda. O‘z navbatida, lisoniy OTMda chet tilni o‘qitish shaxsiy, kasbiy va kompetensiyaviy yondashuvlarga asoslanib, madaniyatlararo va tillararo muloqot, lingvomadaniyatshunoslik, chet til va adabiyotini o‘qitish sohasidagi keng tarmoqli ixtisosliklarni o‘zida aks ettiradi.

Mamlakatimizda yoshu-qari vatandoshlarimizning xorijiy tillarni bilish darajasini baholovchi milliy va xalqaro sertifikatlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, aksariyat yuqori ko‘rsatkichlar reseptiv (o‘qish va tinglab tushunish) malakalarida namoyon bo‘lsa, nisbatan pastroq ko‘rsatkichlar produktiv (gapirish va yozish) malakalarida kuzatiladi. Buning sabablari ko‘p bo‘lib, ular orasida kompensatorli kompetensiyaning yetarlicha shakllanmaganligi muhim o‘rin tutadi.

Chet tilni o‘qitishda kompensatorli kompetensiyani rivojlantirishning asosiy maqsadi kommunikativ kompetensiyani takomillashtirishdir. Bunga amaliy, ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar orqali erishish mumkin: amaliy maqsad – chet tilda kerakli axborotni olish va boshqalarga yetkaza olish; ta’limiy maqsad – nutq harakati va motivatsion ko‘rsatmalarni shakllantirish; tarbiyaviy maqsad – o‘quv jarayoniga bo‘lgan motivatsiya va munosabatni yaxshilash; rivojlantiruvchi maqsad – chet tilida muloqot qilish qobiliyatini va tayyorgarligini oshirish.

M.N.Goranskaya o‘z ilmiy tadqiqotida kompensatorli kompetensiyani subyektning kasbiy muloqot jarayonida chet/ona tilida lisoniy, nutqiy, ijtimoiy-madaniy yoki o‘quv-biluv vositalarini yetishmovchiligida turli xarakterdagi qiyinchiliklarni barcha mavjud kompensatorli vositalardan (bilim, ko‘nikma, malaka, motivatsion-refleksiv tajriba va strategiyalarni muammoli muloqot vaziyatlarida samarali va mos qo‘llash) foydalangan holda yengib o‘tishga tayyorligi va qobiliyati sifatida ta’riflaydi.

M.V.Danseva va boshqalar kompensatorli kompetensiyani – “o‘quvchining o‘rganilayotgan tilni yetarlicha egallamaganlik sharoitida ona yoki chet tilda mavjud bilim, malaka va ko‘nikmalarni jalb etish layoqati” deb hisoblaydilar.

Boshqa so‘z bilan aytganda, kompensatorli kompetensiya bu chet tilda muloqot jarayonida lisoniy vositalarning yetishmovchiligini to‘ldiruvchi qo‘shimcha (verbal va noverbal) vositalar to‘plamidir.

Kompensatorli kompetensiya zamonaviy chet til o‘qitish nazariyasi va amaliyoti asosiga kiritilgan bo‘lib, u to‘g‘ri shakllantirilganda talabalarga chet tilda turli vaziyatlarda kommunikativ muloqotni amalga oshirishga imkon beradi.

Lisoniy OTMning dastlabki yillaridanoq talabalardagi yuqorida aytib o‘tilgan lisoniy to‘siqlarni oldini olish va ulardagi til o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqni so‘ndirmaslik maqsadida kompensatorli kompetensiyani rivojlantirish algoritmini shakllantirish lozim. Mazkur algoritm chet tilda tayyorgarlik samarasini oshirishga qaratilgan aniq bo‘g‘inlarni shakllantirishga asoslangan texnologiya hisoblanadi. Ularga:

– produktiv va reseptiv shakllarining fonetik, grammatik va leksik kommunikativ bo‘g‘inlarini shakllantirish;

– chet til muloqotida nutqni tashkil qiluvchi bo‘g‘inlarni shakllantirish;

– lisoniy va nutqiy hodisalarning maxsus ijtimoiy-madaniy bo‘g‘inlarini shakllantirish;

– chet til muloqotida paydo bo‘ladigan to‘siqlarda verbal vositalarni kompensatsiyalash bo‘g‘inlarini shakllantirish;

– lakunalar natijasida paydo bo‘ladigan noverbal muloqot elementlar bo‘g‘inlarini shakllantirish;

– yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan qiyinchiliklarni oldini olish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish.

Leksik, grammatik va fonetik bo‘g‘inlarni shakllantirish kompensatorli kompetensiyaning nafaqat nazariy balki amaliy asosi bo‘lib xizmat qiladi. Leksik bilimlari so‘z yasash, sinonimlar va semantik elementlardan foydalanish malakasida namoyon bo‘ladi. Nutqda kompensatorli malakalarni qo‘llash haqiqiy muloqot vaziyatlarida muvaffaqiyatli

bo‘lishga yordam beradi va o‘rganilayotgan til mamlakati va o‘z yurti nutq harakatlarini, madaniyatlararo xususiyatlarni bilish esa ijtimoiy-madaniy bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirilishiga hissa qo‘shadi. Verbal vositalar to‘g‘ridan to‘g‘ri kompensatorli kompetensiyaning rivojlanishiga ta’sir qiladi, noverbal elementlar esa leksik-grammatik vositalarning yetishmovchiligini qoplaydi. Yaratilgan lisoniy sharoitlarga moslashish uchun dastlabki vaziyatlarni tahlil qilib turib, ko‘p sonli manbalarni o‘rganib chiqish va nutq harakatini ko‘chirishning mos strategiyalarini tanlab olish lozim. Bizning fikrimizcha kompensatorli kompetensiyaning rivojlanishiga yordam beruvchi eng asosli (salmoqli) strategiyalar – bu lingvistik va paralingvistik strategiyalar hisoblanadi.

Lingvistik strategiyalar bo‘lmish, approksimasiya, ko‘chish, qochish, antitsipatsiya, analitik strategiya, kutish strategiyasi va davom ettirish strategiyasi bayon etish bosqichidagi lingistik bilimlarning yetishmovchiligini qoplaydi. Sinonimlardan foydalanish, izohlay bilish va o‘xshashini qo‘llash qobiliyati nutqda fikrlash mexanizmlarini faollashtiradi.

Paralingvistik strategiyalar, ya’ni muloqotning noverbal vositalari, lisoniy vositalarning yangi mazmunli zaxiralarini ochib berishga yordam beradi.

Kompensatorli kompetensiya rivojlanishini monitoring va nazorat qilish uchun joriy va oraliq natijalarni muntazam tahlillash va sharhlash tavsiya etiladi. Zarurat bo‘lgan paytda korrektsion tadbirlar o‘tkazish lozim. Pedagogik diagnostikaning har bir tarkibiy qismi biz tadqiq qilayotgan kompetensiyaning shakllanganlik mezonlariga asoslanadi. Kompensatorli kompetensiyani shakllanganligini tekshirish uchun quyidagi ko‘rsatkichlarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir:

	Yuqori daraja	***O‘rta daraja***	***Past daraja***
Kompensatorli kompetensiyaning kognitiv tarkibi	- o‘z madaniyatiga ta’sir qiluvchi o‘rganilayotgan til mamlakati madaniyat me’yorlarini sezilarli darajada egallaganlik; - ijtimoiy-siyosiy realiklarni sezilarli darajada qo‘llashi; - chet tilni erkin egallaganlik; - madaniyatlararo muloqotning verbal va noverbal vositalarini erkin egallaganlik.	- o‘rganilayotgan til mamlakati madaniyatini o‘rtacha tushunishi; - ijtimoiy-siyosiy realiklarni uncha to‘g‘ri qo‘llamaslik; - kommunikativ faoliyatda bayon etishda qiyinchiliklar; - verbal va noverbal vositalarni qo‘llashda qiyinchiliklar.	- o‘rganilayotgan til mamlakati madaniyatidan bexabarlik; - ijtimoiy-siyosiy realiklarni noto‘g‘ri qo‘llash; - kommunikativ faoliyatda bayon etishda sezilarli qiyinchiliklar; - verbal va noverbal vositalarni qo‘llashda qiyinchiliklar.
Kompensatorli kompetensiyaning faollik tarkibi	- turli xil muloqot holatlarida madaniyatlararo muloqot modellaridan foydalanish qobiliyatini ko‘rsatish; - nutqiy vaziyatlarni bashorat qilish qobiliyati; - leksik va grammatik materialni erkin bilish	- turli vaziyatlarda madaniyatlararo muloqot modellaridan noto‘g‘ri foydalanishini ko‘rsatish; - nutqiy vaziyatni har doim ham to‘g‘ri bashorat qilmaslik; - leksik va grammatik materialdan foydalanmaslik	- madaniyatlararo muloqotda zaruriy xulq-atvorning yo‘qligini ko‘rsatish; - nutq holatini bashorat qila olmaslik; - grammatik va leksik ko‘nikmalarning butkul yo‘qligi
Kompensatorli kompetensiyaning xulq-atvor tarkibi	- o‘rganilayotgan til mamlakati vakillari bilan muloqot qilish qobiliyatini ko‘rsatish; - chet til madaniyati vakillariga nisbatan noto‘g‘ri qarash va stereotipik fikrlashning yo‘qligi;	- madaniyatlararo o‘zaro ta’sirda hissiy ochiqlikni ko‘rsatish; - nutq xatti-harakatlarida o‘z nuqtai nazarini noto‘g‘ri ifodalash; - stereotiplar tufayli muloqotda qiyinchiliklar mavjudligi	- nutq xatti-harakatlarini takrorlash istagi yo‘qligini ko‘rsatish; - boshqa madaniyatlarga nisbatan salbiy munosabat; - chet til madaniyatini idrok etish stereotiplariga kuchli bog‘liqlik

Ushbu mezon va ko‘rsatkichlardan foydalanish kompensatorli strategiyalar faoliyatining asosiy qonuniyatlarini aniqlash va chet til o‘qitish bo‘g‘inlarini sozlash imkonini beradi.

Shunday qilib, lisoniy OTMda chet tilni o‘rgatish jarayonida kompensatorli kompetensiyani rivojlantirish tilning eng past darajasida kamchiliklarni qoplashga yordam beradi, yanada rivojlangan darajasida til vositalarini tanlashga ko‘maklashadi, hamda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning so‘nggi bosqichida nutq xatti-harakatlarini shakllantiradi.

Shuni ta’kidlash kerakki, kompensatorli kompetensiya nutq faoliyatining barcha to‘rt turida (tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozuv) rivojlanishi va ularning mavjudligini ta’minlashi kerak. Boshqacha qilib aytganda, talabalar og‘zaki va yozma shaklda ma’lumot yaratish va tushunish orqali kompensatorli kompetensiyani rivojlantiradilar. Kelajakdagi o‘qish va ish faoliyati bilan bog‘liq vaziyatlar talabalardan muloqot samaradorligini maksimal darajada oshiradigan strategiyalardan foydalanishni talab qiladi. Agar talaba uchun zarur strategiyalar cheklangan yoki umuman mavjud bo‘lmasa, muloqot uziladi. Biroq, agar talaba kompensatorli malakalardan qanday foydalanishni bilsa, bu unga qiyinroq vazifalarni bajarish va murakkabroq tildan foydalanish imkoniyatini beradi.

Chet tilda o‘zaro muloqot – bu ikki yoki undan ortiq kishilar o‘rtasidagi maxsus faoliyat turi hisoblanadi. Har bir talaba muloqot jarayonida kompensatorli kompetensiya orqali o‘zaro tushunish va topshiriqni bajarishi uchun o‘ziga mos bo‘lgan rolni o‘z zimmasiga olishi mumkin. Bundan tashqari, kompensatorli malakalar unga boshqa kommunikatorlarga yordam uchun murojaat qilmasdan muloqotning yangi darajasiga erishishga ko‘maklashadi.

Kompensatorli kompetensiyani rivojlantirish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– xotirani guruhlash, tizimlashtirish, mantiqiy aloqalarni yaratish, tasvirlardan foydalanish va boshqalar orqali rivojlantirish;

– xulosa chiqarish va qiyosiy tahlil qilishda kognitiv ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish;

– o‘z ta’lim faoliyatining maqsad va vazifalarini aniqlash, o‘z-o‘zini nazorat qilish va baholash orqali metakognitiv ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish;

– kommunikativ faoliyatlarda zarur bo‘lgan hissiy nazoratni rivojlantirish;


– o‘rganilayotgan til mamlakati madaniyatiga nisbatan bag‘rikenglikni rivojlantirish.

Biz kommunikativ kompetensiyani takomillashtirishga yordam beruvchi kompensatorli kompetensiyaning quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat deb hisoblaymiz, ular:

1. Kompensatorli kompetensiyaning kognitiv tarkibi – o‘quvchida o‘z-o‘zini anglash va tahlil qilish, turli kommunikativ vaziyatlarni oldindan ko‘ra bilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

2. Kompensatorli kompetensiyaning motivatsion tarkibi – talabaning qiziqishlari, intilishlari va shaxsiy xususiyatlarini tartibga soladi.

3. Kompensatorli kompetensiyaning interfaol tarkibi – kommunikativ jarayon subyektlarining o‘zaro hamkorlik qilishiga, olingan bilim, ko‘nikma va malakalarni amalga oshirishiga yordam beradi.



Rasm 1. Kompensatorli kompetensiya tarkiblari

Buning uchun bir qancha topshiriqlar tizimini muntazam qo‘llash samara beradi, masalan, 1) matnni gapirib berishda har bir so‘z yoki gap strukturasi va boshqalarni emas, kalit so‘zlar va muhim g‘oyalarga diqqatni qaratish; 2) talaffuz qilish qiyin bo‘lgan so‘zlarni soddarog‘i bilan almashtirish; 3) suhbat qurish uchun rasm yoki vaziyatli kartochkalar bilan ishlash (muhokama qilish, umumiy kelishuvga kelish, munozara yuritish). Bu kabi mashqlar talabalarda sun’iy yo‘l bilan bo‘lsada, ma’lum ko‘nikmalar orqali tegishli malakalarning shakllanishi va rivojlanishiga xizmat qiladi.

Yuqorida aytilganlarning barchasini umumlashtirib va sarhisob qilgan holda, kompensatorli kompetentsiyani rivojlantirish kelajakda mutaxassisning raqobatbardosh bo‘lishi; nafaqat asosiy bilim, ko‘nikma va malakalarga, balki o‘z-o‘zini rivojlantirish va takomillashtirishga ham ega bo‘lishi; mutaxassis sifatida o‘sishi, shaxs sifatida rivojlanishi; turli kommunikativ va kasbiy vaziyatlarga tayyor bo‘lishiga imkon beradi deb ta’kidlash mumkin. Ushbu yondashuv orqali talabaning roli faollashadi. Shunday qilib, kompensatorli kompetentsiyani rivojlantirish bosqichma-bosqich yondashuvga rioya qilinishi orqali muvaffaqiyatli bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 19.01.2022-yildagi 34-son “Xorijiy tillarni o‘rganishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori. https://lex.uz/docs/5831978

2. Горанская М.Н. Формирование компенсаторной компетенции в иноязычной письменной деловой речи студентов неязыковых вузов. Автореферат диссертации кандидата педагогических наук. Петрозаводск, 2011.

3. Данцева М.В., Глазина Ю.А., Невская П.В. Развитие компенсаторных умений как способ формирования речевых навыков при изучении английского языка. Перспективы науки и образования. 2018, № 4 (34). – С. 150 – 154.

4. Зайцева А.В. К вопросу о социокультурном подходе в обучении иностранным языкам. Известия ПГПУ имени В.Г. Белинского. 2007, № 7. –С. 208 – 210.

5. Корниенко Е.Р. Иноязычный текст и коммуникативное общение в условиях диалога культур. Вестник МГУ. Серия: Лингвистика. 2010, № 3. –С.102 – 104.

6. Махкамова Г.Т., Таджиева Г.Я. Языково-культурная интуиция: сущность и значимость в языковом образовании. TDPU ilmiy axborotlari 2023, № 2. - С.119-127.

7. Таджиева Г.Я. Сущность компенсаторной компетенции в контексте обучении иностранным языкам. TDPU ilmiy axborotlari. 2024, № 5. –С. 465-470.

Sarvinoz XO‘JAMBERDIYEVA,
“Iqtisodiyot va pedagogika universiteti” nodavlat oliy ta’lim muassasasi, o‘qituvchi

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA O‘QUV TOPSHIRIQLARI ORQALI DIVERGENT TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘quv topshiriqlari orqali divergent tafakkurni rivojlantirishning metodik asoslari, divergent tafakkur tushunchasining tavsifi va xususiyatlari, komponentlari, o‘quvchilarning divergent tafakkurini rivojlantiruvchi o‘quv muhitini yaratish mexanizmi va uning muhim bo‘lgan elementlari batafsil yoritilgan.

Tayanch so‘zlar. Divergent tafakkur, fantaziya va tasavvur, moslashuvchanlik, originallik, nostandart, ijodiy fikrlash, o‘quv muhiti, kollobarativ va koorparativ muhit, innovatsion texnologik muhit.

В статье подробно анализируется методические основы развития дивергентного мышления у младших школьников посредством учебных заданий, приводится описание и характеристика понятия дивергентное мышление, компоненты и механизмы создания учебной среды, развивающей дивергентное мышление.

Ключевые слова. Дивергентное мышление, фантазия и воображение, гибкость, оригинальность, нестандартность, творческое мышление, среда обучения, коллобаративная и кооперативная среда, инновационная технологическая среда.

The article analyzes in detail the methodological foundations for the development of divergent thinking in primary schoolchildren through educational tasks, provides a description and characteristics of the concept of divergent thinking, components and mechanisms for creating a learning environment that develops divergent thinking.

Key words. Divergent thinking, fantasy and imagination, flexibility, originality, originality, creative thinking, learning environment, collaborative and cooperative environment, innovative technological environment.

Ta’lim va tarbiya eng noyob kapital sifatida qadrlanayotgan bugungi sharoitda intellektual va ma’naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta’lim tizimini yo‘lga qo‘yish, ta’lim natijalarini baholash samaradorligini oshirish va usullarini takomillashtirish mexanizmlarini joriy etish orqali barcha insonlar uchun sifatli ta’lim olish imkoniyatlari yaratilmoqda. Shuningdek, ta’lim mazmunini doimiy ravishda isloh qilish, tayyorlanayotgan kadrlar sifatining respublikada amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar shuningdek, ta’lim, fan, texnika va texnologiyalar rivojlanishining ilg‘or jahon talablari darajasiga muvofiqligini ta’minlash jamiyatning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

Ilmiy manbalar tahlili divergent tafakkurni rivojlantirish muammosi turli nuqtai nazarga ko‘ra tadqiq qilinganligini ko‘rsatdi:

– tafakkur (analitik, kreativ, mantiqiy, mustaqil, raqamli) turlarini rivojlantirish masalalari (M.M.Bahromova, X.S.Bakiyeva, A.G.G‘aniyev, G.A.Nazarova, G.S.Raxmonova, M.M.Rustamova, D.N.Sulaymanova, D.F.To‘xtasinov, Sh.A.Hasanov, B.X.Xodjayev, D.Kahneman);

– divergent tafakkur – ijodiy fikrlashni shakllantirish muammosi sifatida (Z.Nisho-

nova, A.Xolodnaev, Б.С.Касумова, A.N.Ivanov, Lisa Griggs-Stapleton, G.Scott, L.E. Leritz, M.D.Mumford, A.J.Cropley, Young Ju Lee, A.M.Abdulla Alabbasi, R.Reiter-Palmon, S.Acar, K.J.Gilhooly, E.Fioratou, S.H.Entoni, V.Wynn, Robinson Aljughaiman, Mowrer-Reynolds, Saadah Hamdi Suwaidan, Najdat Abdul Rau'f Abdul Radehlar);

– divergent va konvergent tafakkurning o‘zaro uyg‘unligini aniqlash muammolari (O.P.Aslonova, M.M.Qambarov, D.H.Cropley, Mary L.Donoghue, B.G.Wigert, V.R.Murugavel, R.Reiter-Palmon, B.G.Wigert, E.Subrahmanian);

– matematika darslarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining divergent tafakkurini rivojlantirishda o‘quv fanlarini integratsiyalash (J.T.Yuldoshev);

– sinfdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida kichik maktab o‘quvchilarining turlicha (divergent) fikrlashlarini shakllantirish (A.A.Ленкова);

– divergent tafakkur intellekt va ixtirochilik sifatida (J.W.Getzels, P.J.Jekson);

– divergent tafakkur bir nechta muammolarni izohlash va tegishli yechimlarni yaratish qobiliyati sifatida (L.M. de Leeuw);

– divergent tafakkur yangi g‘oyalarni yaratish vositasi sifatida (W.B.Arthur).

Ilmiy tadqiqot ishlarining tahlilini umumlashtirish bizga quyidagi xulosalarni umumlashtirish imkonini berdi: divergent tafakkur, yuqorida aytib o‘tganimizdek, mavjud ma'lumotlarga nuqtai nazarni o‘zgartirish (uni yangi ko‘rinishda ko‘rish) yoki uni o‘zgartirish kabi jarayonlar orqali bir nechta javoblarni odatda bir-biriga tegishli deb hisoblanmaydigan elementlarning kutilmagan kombinatsiyasi orqali ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, divergent tafakkur – bu muammoni hal qilish jarayoni bo‘lib, unda turli xil potensial yechimlar ishlab chiqiladi. Divergent tafakkur qisqa vaqt ichida ma'lum bir mavzu bo‘yicha erkin oqimli g‘oyalar avlodidir. Bunda fikrlar noan'anaviy tarzda baholanadi va bog‘lanadi.

Divergent tafakkur gorizontal fikrlash usuli hisoblanadi, chunki mavzu yoki muammoga bilvosita va ijodiy yondashiladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlar asosida divergent tafakkurni quyidagi bir qator xususiyatlarda ifodalanadi degan xulosaga keldik:

– g‘oyalarni ishlab chiqish, tafsilotlash, ularni hayotga tatbiq etish;

– ko‘p g‘oyalarni yaratish yoki muammoni hal qilishda ravonlik, bu ma'lum vaqt ichida inson yarata oladigan g‘oyalar soni;

– stereotipik fikrlashda yo‘qolmagan original g‘oyalarni ishlab chiqish qobiliyati, bu qoidalar va stereotiplardan tashqarida, noan'anaviy tarzda harakat qilish va fikrlashni ko‘zda tutadi;

– har bir alohida muammoga yondashuvlarni bir vaqtda izlashda moslashuvchanlikni ko‘rsatish;

– doimiy ravishda tasvirlar, assotsiatsiyalar, belgilar bilan ishlash;

– qarama-qarshiliklarni topish, bir obyektdan ikkinchisiga o‘tish, oddiy narsada g‘ayrioddiylikni ko‘rish.

Keltirilgan fikrlar va qiyosiy tahlillar divergent tafakkurni o‘ziga xos (original), nostandart, ijodiy fikrlashning kombinatsiyasi sifatida anglash imkonini berdi. Shuningdek, mazkur xulosalanish divergent tafakkur o‘quvchilarga ko‘plab akademik va shaxsiy rivojlanish uchun imkoniyatlarni ochib berishini ko‘rsatdi, bular:

1. Ijodkorlikni rivojlantirish: yangi g‘oyalarni yaratish (o‘quvchilar loyihalar, ijodiy va boshqa topshiriqlar uchun original va innovatsion g‘oyalarni o‘ylab topadi), muammolarni ijodiy hal qilish (murakkab muammolar va vaziyatlarga innovatsion yechimlarni topadi).

2. Ta’lim yutuqlarini takomillashtirish: o‘quv jarayonida faol ishtirok etish (o‘quvchilar o‘zlarining noodatiy g‘oyalari va yondashuvlarini ifoda eta olishlari sababli ularning yanada faol o‘rganishi va qiziqishi ortib boradi), tanqidiy fikrlashning rivojlanishi (o‘quvchilar ma’lumotlarni turli nuqtai nazardan tahlil qilishni o‘rganadilar va fanlarni o‘rganishda yangi yondashuvlarni topishga erishadilar).

3. Motivatsiya va o‘ziga ishonchning ortishi: o‘z-o‘zini ifoda etish (o‘z fikrlarini ifoda eta olish orqali o‘ziga ishonchni rivojlantirishga yordam beradi), ichki motivatsiya (o‘quvchilar o‘zining ijodiy harakatlarining samarasini ko‘rishi va o‘quv jarayonidan zavqlanishi tufayli o‘qish va o‘rganishga yanada qiziqishi ortadi).

4. Kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorgarlik: moslashuvchanlik (yangi vaziyatlarga moslashish va ijodiy yechimlarni topish qobiliyati turli kasbiy sohalarda ifodalanadi), tashabbus (divergent tafakkurini rivojlantira oladigan o‘quvchilar o‘zlarining kasbiy faoliyatida ko‘proq tashabbuskorlik va faollik ko‘rsatadilar).

5. Shaxsiy rivojlanish: hissiy rivojlanish (divergent va ijodiy faoliyat o‘quvchilarga his-tuyg‘ularini ifodalashga yordam beradi), ijtimoiy ko‘nikmalar (guruhlarda ijodiy loyihalar ustida ishlayotgan o‘quvchilar muloqot ko‘nikmalarini yaxshilaydi va jamoa bo‘lib ishlashni o‘rganadi, bu ularga ijtimoiy rivojlanish imkonini beradi).

Yuqorida keltirilgan fikrlar, tadqiqot doirasida olib borilgan ilmiy izlanishlar, tahlillar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida divergent tafakkurning komponentlari g‘oyalarning miqdori, fantaziya va tasavvur (imaginatsiya), moslashuvchanlik (fleksibillik), originallik (o‘ziga xoslik), g‘oyalarning tafsilotlari, muammolarni qayta ta’riflash, tanqidiy fikrlashda ifodalanadi, degan xulosaga keldik. Quyida ularning asosiy mazmuni keltirilgan:

G‘oyalarning miqdori. Bir muammoni hal qilish uchun turli g‘oyalarni (erkin va cheklovlarsiz) yaratish qobiliyati. Bu mumkin bo‘lgan yechimlar va g‘oyalarning ko‘pligida ifodalanadi. Bu miqdor qancha ko‘p bo‘lsa, samarali yechim topish imkoniyati shuncha ortib boradi.

Fantaziya va tasavvur (imaginatsiya). Yangi va nostandart g‘oyalarni tasavvur qilish va ularni amalga oshirish qobiliyati. Tasavvur orqali yangi vaziyatlar va kontekstlar yaratiladi. Tasavvurni qo‘llab-quvvatlash va fantaziya qilish orqali yangi vaziyatlar va kontekstlarni yaratish, yangi va original g‘oyalarni shakllantirishda ifodalanadi.

Moslashuvchanlik (fleksibillik). Turli vaziyatlar va muammolarga moslashish, ularga turli nuqtai nazardan yondashish qobiliyati. Bu qobiliyat muammolarni har xil jihatdan ko‘rish va ularga yangi yondashuvlar topishga, turli nuqtai nazarlarni qo‘llashga yordam beradi.

Originallik (o‘ziga xoslik). Turli g‘oyalarning original va o‘ziga xos (notraditsion) bo‘lishi. Bu element fikrlash jarayonida standart yondashuvlardan tashqariga chiqish va va yangi yechimlar topishga yordam beradi.

G‘oyalarning tafsilotlari. G‘oyalarning detallarini ko‘rib chiqish va ularni takomillashtirish. Bu element g‘oyalarni amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Muammolarni qayta ta’riflash. Mavjud muammolarni qayta ta’riflash va ularga boshqacha yondashish qobiliyati. Bu element muammolarni yangi ko‘rinishda ko‘rishga va yangi yechimlar topishga yordam beradi.

Tanqidiy fikrlash. Yaratilgan g‘oyalarning kamchiliklarini ko‘rish va ularni takomillashtirish qobiliyati. Tanqidiy fikrlash orqali g‘oyalarning samaradorligi oshiriladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining divergent tafakkurini rivojlantirishga yo‘naltirilgan "divergent tafakkurni rivojlantiruvchi o‘quv muhitini" tashkil qilishda o‘qituvchining

o‘quv motivatsiyasi va divergent tafakkurni rivojlantiruvchi o‘quv topshiriqlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Divergent tafakkurni rivojlantiruvchi o‘quv muhiti o‘quvchilarni erkin, ijodiy, innovatsion va turlicha tafakkur qilishga undaydi. Quyida divergent tafakkurni rivojlantiruvchi o‘quv muhitini yaratish mexanizmi va uning muhim bo‘lgan elementlari keltirilgan:

1. Erkin va qo‘llab-quvvatlovchi muhit:

Erkinlik. O‘quvchilar o‘z g‘oyalari va fikrlarini erkin ifoda etishlari mumkin bo‘lgan muhit yaratish. Hech qanday g‘oya yoki fikr tanqid qilinmaydi, balki qo‘llab-quvvatlanadi.

Qo‘llab-quvvatlovchi muhit. O‘quvchilar xato qilishdan qo‘rqmasdan o‘z fikrlari va yangi ideyalarini ayta olishlari mumkin bo‘lgan qo‘llab-quvvatlovchi muhit ta’minlanishi kerak. Ushbu o‘quv muhiti odatda o‘quvchilar xato qilishdan qo‘rqmasdan o‘zlarini qulay va ishonchli his qiladigan muhit yaratiladi. Bu o‘quvchilarning o‘zini o‘zi tashkil qilishi, rivojlantirishi va baholashi, o‘quv motivatsiyasi va akademik muvaffaqiyatiga yordam beradi.

2. Ijodiy faoliyat:

Ijodiy mashqlar. O‘quvchilarni turli ijodiy mashg‘ulotlarga jalb qilish. Masalan, rasm chizish, ijodiy matn tayyorlash, hikoya yozish va b.

Amaliy ishlar: O‘quvchilarning tajriba o‘tkazishlari mumkin bo‘lgan amaliy va qo‘l mehnati ishlarini tashkil qilish.

3. Turli materiallar va resurslar:

Ta’lim resurslari. Kitoblar, jurnallar, videolar va onlayn resurslar kabi turli ta’lim materiallaridan foydalanish.

Qo‘llanmalar va instrumentlar. Ijodiy faoliyat, muammoli vaziyatlar yaratish, turli savollar tuzish uchun zarur bo‘lgan qo‘llanmalar va instrumentlar, masalan, rassomchilik materiallari, konstruktorlar.

4. kollobarativ va koorparativ muhit:

Guruhli loyihalar. O‘quvchilarni guruhlarda ishlashga jalb qilish, ularning bir-biri bilan hamkorlik qilishini ta’minlash. Guruhli loyihalar turlicha fikrlashni (divergent tafakkur), bir muammoga bir nechta yechim topishni, ijodiy fikrlashni qo‘llab-quvvatlaydi.

Fikriy hujum. Guruhli fikriy hujum koorperativlarini tashkil qilish, bu jarayonda barcha o‘quvchilar o‘z g‘oyalarini erkin ifodalashlari mumkin.

5. Innovatsion texnologik muhit:

Yangi texnologiyalar. O‘quvchilarni yangi texnologiyalar va dasturlar bilan tanishtirish. Masalan, 3D texnologiyalari, virtual reallik vositalari. Bu o‘quvchilarni cheksiz manbalar bilan tanishish orqali turlicha fikrlash imkonini beradi.

Muammoni yechish mashg‘ulotlari. O‘quvchilarga muammolarni yechishni o‘rganish uchun mashg‘ulotlar tashkil etish. Masalan, kooperativ ishlar, simulyatsiyalar, rolli o‘yinlar, muammoli vaziyatlar va boshqalar.

Loyiha studiyalari. O‘quvchilarga yangi loyiha tendensiyalari va strategiyalari bo‘yicha ishlab chiqish va tahliliy ishlarni amalga oshirish uchun studiyalar yaratish.

Innovatsion loyihalar. O‘quvchilarni innovatsion loyihalarni ishlab chiqishga yo‘naltirilgan so‘nggi texnologiyalar bilan birlashtirilgan o‘quv vazifalari yaratish.

Kasbiy idealar. O‘quvchilarni kelajak (kelajakda egallashi ko‘zda tutilgan) kasbiy faoliyati uchun yangi ideyalarni ishlab chiqish kurslari va dasturlarini tashkil etish.

Tashabbuskorlik mashg‘ulotlari. O‘quvchilarni muayyan muammoning yechimini turli yo‘llar bilan topish yoki bitta muammoga bir qancha yechimlar topish, uning nati-

jasini prognozlash bo‘yicha tashabbuskorlik ka qisqa muddatli mashg‘ulotlarni tashkil qilish, tashabbuskorlikni rivojlantirish uchun ishlarni organizatsiyalash.

Mustaqil faoliyat. O‘quvchilarning divergent tafakkurini rivojlantirishga yo‘naltirilgan mustaqil faoliyat asosan shaxsiy va ijtimoiy muhitni tashkil etish va individual maqsadlarni va shaxsiy rivojlanishni amalga oshirishni ko‘zda tutadi. Divergent tafakkurni rivojlantirishga doir mustaqil faoliyat ko‘plab original g‘oyalar va yechimlarni yaratish qobiliyatini yaxshilashga qaratilgan turli topshiriqlar va ularning amaliyotini o‘z ichiga oladi. Divergent tafakkur ijodkorlik, innovatsiya va muammolarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega.

Kognitiv faoliyat. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kognitiv faoliyati, ularning ma’lumotlarni o‘qish, tushuntirish, aniqlash va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Bizningcha, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining divergent tafakkurini rivojlantirishga yo‘naltirilgan kognitiv faoliyat 3 ta o‘zaro bog‘liq jarayonni o‘z ichiga oladi: 1) muammoni qurish; 2) g‘oyalarni yaratish; 3) g‘oyalarni baholash va tanlash.

Ijodiy faoliyat. Ijodiy faoliyat – bu tasavvur, yangilik va o’ziga xos fikrlashni o‘z ichiga olgan yangi va o’ziga xos narsalarni yaratish jarayoni. Darsda o‘quvchining ijodiy faoliyati turli yondashuvlar orqali tashkil etiladi. Masalan: ijodiy mashqlar va savollar, ijodiy loyihalar va topshiriqlar va b.

Yuqoridagi fikrlar va empirik tahlillardan kelib chiqib shunday xulosa qilish mumkinki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining divergent tafakkurini rivojlantirishda o‘quvchilarda doimiy ravishda mustaqillikni va kognitiv faollikni ta’minlash, o‘quvchilarda bilim va qiziqishlarining yuqori darajasiga erishish, o‘qituvchining o‘quv motivatsiyasi, o‘quv topshiriqlari, o‘yin texnikasi, qiziqishlarga e’tibor, har bir o‘quvchi, uning moyilligi va qobiliyatiga qarab o‘qitish jarayonini tashkil qilish kabi shartlarga amal qilish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aslonova O.P. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tafakkur tezligini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari: ped.fanl.bo‘y.fals.dokt. diss. – T.: 2020. 178 b.

2. Laurie Rozakis. 81 Fresh & Fun Critical-Thinking Activities // Engaging Activities and Reproducibles to Develop Kids’ Higher-Level Thinking Skills. Scholastic Teaching Resources. New York. 1998. P.120. https://videa.ca/wp-content/uploads/2015/07/81-Fun-critical-Thinking-activities.pdf

3. Raxmonova G.S. O‘quvchilarda nostandart tafakkur tarzini rivojlantirish texnologiyasi: ped.fanl.bo‘y.fals.dokt. diss.avtoreferati. – T.: 2023, 74 b.

4. To‘raboyeva M.Y. Algoritmik mashqlar tizimini takomillashtirish asosida boshlang‘ich sinf ona tili ta’limida uzviylikni ta’minlash: ped.fanl.bo‘y.fals.dokt. diss.avtoreferati. – T.: 2020, 72 b.

5. Hamroyev G‘.H. Ona tili ta’limida o‘quv topshiriqlari ishlab chiqishning lingvodidaktik asoslarini takomillashtirish: ped.fanl.dokt. diss.avtoreferati. – T.: DSc 2022, 78 b.

6. Дивергентное мышление: диагностика, тесты, упражнения на развитие [Электронный ресурс]. URL: https://psychologist.tips/3107- divergentnoe-myshlenie-diagnostika-testy-uprazhnenie-na-razvitie.html (дата обращения: 02.04.2022).

Sabina SHAKIRZYANOVA,
O‘zbekiston Respublikasi Bojxona qo‘mitasining Bojxona instituti, “Harbiy va jismoniy tayyorgarlik” kafedrasi boshlig‘i

BOJXONA ORGANLARI KURSANTLARNING KASBIY-AMALIY HAMDA JISMONIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqolada bojxona organlari bo‘lajak mutahassislarining ishchanlik qobiliyatlarini saqlanishini va maxsus kasbiy sifatlarining shakllanishini ta’minlashda jismoniy tayyorgarlik muhim o‘rin tutishi, xodimlarning jangovar tayyorgarligini ushlab turishning asosiy elementlari haqida batafsil fikr yuritilgan. Shuningdek, maqolada kursantlarning kasbiy-amaliy hamda jismoniy tayyorgarligini shakllantirish masalalari, jismoniy va jangovar tayyorgarlikning xizmat vazifalarini bajarishdagi ahamiyati yoritib berilgan.

Tayanch so‘zlar. Bojxona organlari, ishchanlik qobiliyati, maxsus kasbiy sifatlar, jismoniy tayyorgarlik, jangovar tayyorgarlik, asosiy elementlar, kursant, kasbiy-amaliy tayyorgarlik, xizmat vazifalari.

В статье подробно рассматриваются вопросы значения физической подготовки в обеспечении сохранения трудовых способностей и формирования специальных профессиональных качеств будущих специалистов таможенных органов и основные элементы поддержания боеготовности сотрудников. Также, в статье освещаются вопросы профессионально-практической и физической подготовки курсантов, значение физической и боевой подготовки при исполнении служебных обязанностей.

Ключевые слова. Таможенные органы, трудоспособность, специальные профессиональные качества, физическая подготовка, боевая подготовка, основные элементы, курсант, профессионально-практическая подготовка, служебные обязанности.

The article examines in detail the importance of physical training in ensuring the preservation of work abilities and the formation of special professional qualities of future customs specialists and the main elements of maintaining the combat readiness of employees. The article also covers issues of professional, practical and physical training of cadets, the importance of physical and combat training in the performance of official duties.

Key words. Customs authorities, ability to work, special professional qualities, physical training, combat training, basic elements, cadet, professional and practical training, official duties.

Jismoniy chiniqqanlik xodimlarning xizmat faoliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bu birinchidan, xodimlarning xizmat malakalarini hamda organizmning noqulay vaziyatlarda salbiy omillarga qarshi barqarorligini oshirishda, ikkinchidan, ularning ma’naviy-siyosiy hamda psixologik sifatlarini mustahkamlashda namoyon bo‘ladi.

Jismoniy va jangovar tayyorgarlik hozirgi paytda bojxona xodimlari va kursantlar mahoratining asosiy elementi sifatida ko‘rib chiqilar ekan, ushbu soha idoralari bo‘lim va bo‘linmalarining, xodimlarining o‘z oldilariga qo‘yilgan vazifalarni oliy darajada va sifatli bajarishlarida yetakchi omil hisoblanadi. Shu bois ham barcha toifadagi rahbarlarning jismoniy tayyorgarlikning har qanday bo‘limi yoki elementining xizmat vazifalarini bajarishdagi ahamiyatini baholashga bo‘lgan intilishi tushunarli holdir.

A. Kochkarovning bu masalada tadqiqot olib borgan olimlar (A.Y. Dedov, V.V. Demochkin, N.K. Kachanov, A.S. Malыshev, A.A. Nesterov, V.P. Suщenko va bos-

hqalar)ning ilmiy ishlarini o‘rganish va tahlil qilish natijasida shuni bildiki, turli huquqni muhofaza qiluvchi organlari tizimi mutaxassislarini tayyorlash jarayonida, mualliflarning fikricha, jismoniy tayyorgarlik ahamiyatliligi jihatdan hissasi muhimroq. Doim jismoniy tayyorgarlikni olib borish ishlarini samaradorligini oshirish bo‘yicha muntazam izlanishda bo‘ladilar, amaliy kasbga yo‘naltirilgan jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishga e’tibor qaratiladi.

Jangovar va jismoniy tayyorgarlikning xizmatga yuqori darajada tayyorgarlikni ushlab turishdagi ahamiyati bojxona organlari faoliyatining xarakteri va usullari bilan doimiy ravishda chambarchas bog‘liq. Bu, o‘z navbatida, bo‘lim va bo‘linmalarning ixtiyorida bo‘lgan kuch va vositalar, ularning bajaradigan vazifalari bilan ham uzviy bog‘langan. Xodimlarning xizmat malakalari holatiga jangovar va jismoniy tayyorlanganlik darajasining ta’siri haqidagi masalani ko‘rib chiqish ushbu ta’sirning amalga oshirilishi mexanizmini tushunmasdan mumkin emas. Ko‘p sonli tadqiqotlarda isbotlanishicha, ushbu mexanizm asosida insoniyat faoliyatining bir sohasida shakllangan malaka va ko‘nikmalarning boshqa sohada egallangan malaka va ko‘nikmalar natijasiga ko‘chirish yoki o‘tkazish hodisasi yotadi. Bu ko‘chirish harakatlari tuzilishi bo‘yicha bir-biriga yaqin bo‘lgan, masalan, turli xil jismoniy mashqlar, shuningdek, bir-biridan uzoq bo‘lgan mashqlar orasida amalga oshirilishi mumkin.

Ko‘chirish hodisasi, psixologiyadan farqli ravishda, jismoniy tayyorgarlikka muvofiq nafaqat malakalarga nisbatan, balki jismoniy qobiliyatlarga nisbatan ham kuzatilishi mumkin. Oldindan aytib qo‘yish lozimki, jismoniy qobiliyatlar yoki harakatlar malakasini sof holda ko‘chishini kuzatish amaliy jihatdan mumkin emas. Chunki ular har qanday mashqni bajarishda birgalikda qo‘llaniladi va trenerovkalar natijasi malakalarga bog‘liq bo‘lgani kabi jismoniy qobiliyatlarga ham bog‘liq. “Bir mashqdan ikkinchi mashqqa ko‘chirish qoidada mashqlarni bir-biriga koordinatsiya nuqtai nazaridan yaqin o‘xshashligi bo‘lsagina namoyon bo‘lgan, qolaversa individning mashqlanganligi (shug‘ullanganligi) qancha yuqori bo‘lsa, bu ko‘chish shunchalik past darajada bo‘ladi (N.G. Ozolin, V.M. Zatsiorskiy)”.

Kompyuter texnikasi va texnologiyalarning rivojlanishi natijasida ushbu texnikalar bilan ishlovchi operatorlik yo‘nalishidagi xodimlar sonining ortishi jismoniy shug‘ullanganlik bilan ushbu faoliyat o‘rtasida ko‘chirish mexanizmlarini maxsus ko‘rib chiqishni talab qiladi. Unda intellektual harakatlar komponenti muhim bo‘lib, jismoniy kuch ishlatish ko‘p talab qilinmaydi. Bu yerda ko‘chirishni amalga oshirishning ikki yo‘lini ko‘rsatish mumkin. Bir tomondan, yuqori darajada jismoniy shug‘ullanganlik kasbiy chidamlilikning zarur fiziologik bazasini ta’minlaydi, boshqa tomondan esa jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish jarayonida, tabiiyki organizmning vegetativ (o‘suvchi) tizimlari faoliyatini ta’minlash mexanizmi kuchli bosim ostida shakllanadi. U intellektual ish jarayonida muhim qarorlar qabul qilish vaqtida, javobgarlik hissi yuqori bo‘lgan topshiriqlarni bajarishda yuzaga chiqadi va psixologik zo‘riqish bilan bog‘liq bo‘ladi.

Ko‘chirish hodisasini rejalashtirishda har doim jismoniy qobiliyatlarning rivojlanishi va harakatlanish malakalari egallanishining qaysi darajasida ularning boshqa faoliyat shakllariga ijobiy ta’siri samarali bo‘lishi mumkinligi to‘g‘risida savol tug‘iladi. Ko‘plab tadqiqotlar tahlili ayrim obyektiv qonuniyatlarga ta’rif berish uchun asos bo‘ladi.

Dalillarning ko‘rsatishicha, ko‘chirish yoki o‘tkazish faoliyatning asosiy turlarida harakat ko‘nikmalari va malakalari shakllanishining dastlabki bosqichlarida oson amalga oshiriladi. Professional harakatlar va jismoniy mashqlarni bajarish malakalarini egallab borish jarayonida ular o‘rtasidagi aloqa asta-sekinlik bilan “yuvilib ketadi” va yo‘qqa

chiqadi. Jismoniy mashqlar yordami bilan asosiy professional malaka va mahoratlar egallanganidan keyin toliqish va charchashda malaka tizimining saqlanish sharoitlari va turg‘un ish qobiliyatining fiziologik bazasini shakllantirib, ko‘chirishlarning keng doirada amal qilishini ta’minlash mumkin. Aynan shu bilan ekstremal vaziyatlarda tajribali xodimning faoliyatiga jismoniy tayyorlanganlikning ta’sirini tushuntirish mumkin. Jismoniy tayyorgarlikning farqi organizmning uzoq cho‘zilgan og‘ir xizmatdan keyingi tiklanish jarayonida ham o‘zini ko‘rsatadi.

O‘qituvchi ko‘chirish hodisasining barcha obyektiv qonuniyatlarini hisobga olgan holda shaxsiy tarkib uchun jismoniy tayyorgarlikning mazmunini shakllantirishda quyidagilarni nazarda tutishi kerak:

– jismoniy qobiliyatlarning rivojlanishi va harakat ko‘nikmalari egallanganligining mavjud darajasi qanday qilib qurol va texnika bilan harakat qilish natijalariga ta’sir qiladi;

– jismoniy tayyorgarlik jarayonida harakat ko‘nikmalarini takomillashtirish va jismoniy qobiliyatlarning rivojlanishni qaysi yo‘nalishda va qay darajada oshirish professional mahorat va malakalarni egallash hamda o‘quv-jangovar topshiriqlarni bajarishga ta’sir qiladi.

Jismoniy tayyorlanganlik omilining ta’siri bo‘lajak bojxona organlarining barcha xizmat yo‘nalishlariga xosdir. Harakat ko‘nikmalari jamg‘armasining yetarlicha mavjudligi, faoliyat usullarining birdan ikkinchisiga tez va samarali o‘tish qobiliyati – avtomatlashtirilgan tizim operatori ishi ishonchliligining muhim sharti hisoblanadi. Jismoniy shug‘ullanganlikning yuqori darajasi xodimlarning vaziyatni tez baholash, qiyin sharoitlarda darhol qaror qabul qilish qobiliyatlarini sezilarli darajada oshiradi.

To‘g‘ri tashkil qilingan va o‘tkazilgan jismoniy tayyorgarlik jangovar o‘qish jarayonini jadallashtiradi. Shaxsiy tarkibning ko‘p kunlik o‘qishi (ucheniya)ning vaqt sarfi hisoblab chiqilganda shu narsa aniqlanganki, xodimlarning faol harakati muayyan jismoniy yuklama (nagruzka) va ruhiy zo‘riqish bilan bog‘liqligi mashg‘ulotga ketgan butun vaqtning 60 foiziga yetadi, uxlash uchun 20 foizdan ko‘p bo‘lmagan vaqt sarflanadi. Albatta, bunday qiyinchiliklarni jismoniy mashg‘ulotlar bilan shug‘ullangan odamgina yengib o‘tadi. Jismoniy tayyorlanganlikning past darajasi bojxona organlari bo‘lim va bo‘linmalarining, qolaversa, har bir xodimning maxsus topshiriqlarni samarali bajarishiga salbiy ta’sir qiladi. Bu, asosan, harakatlarning susayishi, harakat qilishning noaniqligi, ish qobiliyati va chidamlilikning beqarorligida namoyon bo‘ladi. Yaxshi jismoniy tayyorgarlikka ega bo‘lgan xodimning ish qobiliyati uzoq davom etgan og‘ir vazifalardan so‘ng ham deyarli o‘zgarmaydi, yaxshi jismoniy tayyorgarlikka ega bo‘lmagan xodimlarda esa aksincha, ish qobiliyati birinchi sutkadan keyin 35-40 foizga kamayadi.

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida olingan yuqoridagi ma’lumotlarning ko‘rsatishicha, jismoniy shug‘ullanganlik darajasi xodimlar tomonidan topshiriqlarni bajarish tezligi va aniqligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. A’lo darajadagi sog‘liq va jismoniy shug‘ullanganlik bir qator murakkab vazifalarni bir vaqtda bajarishda kuchlar muvozanatini teng taqsimlash hamda tez va aniq qaror qabul qilishda yordam beradi, emotsional turg‘unlikni saqlaydi. Shunday qilib, ilmiy tadqiqotlar natijalari hamda bojxona organlarining bo‘lim va bo‘linmalarida to‘plangan tajriba shundan guvohlik beradiki, jismoniy tayyorgarlik jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurashning barcha yo‘nalishlarida shaxsiy tarkibning jangovar mahoratini oshirishning muhim vositasi sifatida maydonga chiqib, xodimlarning professional bilimlari darajasining ko‘rsatkichi hisoblanadi. Jangovar-jismoniy tayyorgarlikning roli, avvalo, nafaqat jismoniy, balki aqliy ish qobiliyatini saqlash va oshirish, ularning og‘ir mehnatdan keyin juda qisqa fursatda boshlang‘ich

holatiga qaytishida namoyon bo‘ladi. Shu sababli bojxona idoralari xodimlari har qanday sharoitda, egallagan jismoniy tayyorgarliklarini samarali va ishonchli qo‘llagan holda oldilariga qo‘yilgan vazifalarni tez, chaqqon va muvaffaqiyatli amalga oshiradilar. Jangovar-jismoniy tayyorgarlik kasbiy ta’lim samaradorligini oshirishning muhim vositalaridan hisoblanadi. Shu bilan birga, amaliyotning ko‘rsatishicha, uning ta’siri xodim kasbiy shakllanishining barcha bosqichlarida sezilib turadi va yordam beradi.

Moslashuv muddatlarini qisqartirish vositalaridan biri ta’limning dastlabki bosqichlaridan jismoniy tayyorgarlikni aniq bir maqsadga yo‘naltirilgan holda tashkil qilish hisoblanadi. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, yaxshi jismoniy tayyorgarlikka ega bo‘lgan kursant va tinglovchilarda moslashuv ta’limning dastlabki choragida yakuniga yetadi. Bunday natija yana shu bilan izohlanadiki, jismoniy qobiliyatlar rivojining yuqori darajasi o‘smir organizmining yangi mehnat va turmush sharoitiga moslashib ketishini ta’minlaydi. Ta’limning dastlabki kunlari professional tayyorgarlik darajasi tinglovchi (kursant)lar o‘rtasida farqlanmasa-da, biroq harakat tajribasi, jismoniy jihatdan bardoshlilik birinchi planga chiqadi va sport bo‘yicha yaxshi tayyorgarlikka ega bo‘lgan o‘smirlar boshqalarga namuna bo‘ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Normatov A. N. Bojxona organlari xodimlarining kasbiy tayyorgarligi: nazariya va amaliyot. –T.: “Akadem” nashr, 2020. 325 b.

2. Karimov, R. X. Jismoniy tayyorgarlik va uning bojxona organlarida qo‘llanishi. –T.: Universitet nashriyoti, 2018. 274 b.

3. To‘rayev, B. M. Huquqni muhofaza qilish organlarida kasbiy ta’lim tizimi. –T.: Adolat, 2019. 312 b.

4. Usmonov J. T. Maxsus xizmat xodimlarining jismoniy va kasbiy rivojlanishi. Samarqand: Ilm Ziyo, 2021. 298 b.

5. Sa’dullayev Q. R. Bojxona faoliyatida jismoniy tarbiya va sport. –T.: Yangi asr avlodi, 2022. 254 b.

Elnur MIRZAYEV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, “San’atshunoslik kafedrasi”, katta o‘qituvchi

BO‘LAJAK TEXNOLOGIYA O‘QITUVCHILARIGA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANIB “KO‘PYOQLIKLARNI TEKISLIK BILAN KESISHISH CHIZIQLARI HAMDA ULARNING YOYILMASINI ANIQLASH” MAVZUSINI O‘QITISH

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilariga multimedia vositalaridan foydalanib ko‘pyoqliklarni tekislik bilan kesishish chiziqlari hamda ularning yoyilmasini aniqlashni o‘rgatishning maqsad va vazifalari, zamonaviy ta’lim texnologiyalari, mavzuni qo‘llanilish sohalari, kelajakdagi muhandislarni tayyorlashning tashkiliy-pedagigik shart-sharoitlari bayon qilingan.

Tayanch so‘zlar. Multemedia, dizayn, nuqtalar, chiziqlar, tekislik, proyeksiyalash, geometrik jism.

В статье изложены цели и задачи обучения будущих учителей технологического образования определению линий пересечения многогранников с плоскостью с использованием современных образовательных технологий и мультимедийных средств, области применения рассматриваемой темы, организационно-педагогические условия подготовки будущих инженеров.

Ключевые слова. Мультимедиа, дизайн, точки, линии, плоскость, проекция, геометрическое тело.

The article presents the goals and objectives of training future teachers of technological education to determine the lines of intersection of polyhedrons with a plane using modern educational technologies and multimedia tools, the areas of application of the topic under consideration, and the organizational and pedagogical conditions for training future engineers.

Key words. Multimedia, design, points, lines, plane, projection, geometric body.

Keyingi yillarda ta’lim sohasida keng ko’lamli islohotlar natijasida qator o‘zgarishlar amalga oshirila boshlandi. Xususan, yangi oliygohlar ochilib, pedagoglar safini kengaytirish sari muhim qadam tashlandi. Sohaga davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan e’tibor tufayli kadrlar yetishmovchiligi muammosi hal etila boshlandi. Pedagogika yo‘nalishida mutaxassislar tayyorlash maqsadida yangi universitetlar va filiallar ochilgani, oliy ta’lim muassasalaridagi pedagogika fakultetlari faoliyati kengaytirilgani fikrimiz dalilidir.

Shuningdek, universitet o‘quv dasturlarida ham bir qator muhim o‘zgarishlar bo‘ldi. Agar ilgari pedagogika va texnika universitetlari 4-5 yil o‘qigan pedagog va muhandislarni tayyorlagan bo‘lsa, endilikda ular 3-4 yil o‘qigan bakalavrlarni tayyorlamoqda. Tabiiyki, bu o‘zgarishlar alohida fanlarni o‘rganish uchun o‘quv soatlari sonining sezilarli darajada qisqarishiga olib keldi. Bundan tashqari, maxsus fanlar bo‘yicha o‘quv soatlari hajmi sezilarli darajada kamaydi. Jumladan, ilgari mehnat ta’limi(hozirgi texnologiya) o‘qituvchilarini tayyorlashda “Chizma geometriya va muhandislik grafikasi” fani 2 semestr davomida o‘qitilib kelingan bo‘lsa, hozirda bu fan 1 semestr davomida ma’ruza 20 soat, amaliy 40 soat, mustaqil ta’lim 90 soat o‘qitiladi.

Oliy ta’lim muatxassisliklari kengayib borishi bilan bir qatorda malakali kadrlarga ham talab ortib bormoqda. Ushbu maqolada shu kabi malakali kadrlar tayyorlash, ularning grafik savodxonligini rivojlantirish maqsadida aynan bir mavzu doirasida multimedia vositalari asosida o‘qitish yuzasidan metodik tavsiyalar keltirib o‘tilgan.


Multimedia atamasi (ingl. multimedia) lotincha multum – juda ko‘p va media-medium-diqqat markazida; vositalar, ya’ni elektron saqlash vositasi bo‘lib, uning bir nechta turlarini (matn, rasm, animatsiya va boshqalar) o‘z ichiga oladi. Multimedia atamasi ko‘pincha katta hajmdagi ma’lumotlarni saqlashga imkon beradigan va ularga juda tez kirishni ta’minlaydigan saqlash vositalariga nisbatan ishlatiladi (ushbu turdagi birinchi ommaviy axborot vositalari kompakt-disklar edi). Multimedia kompyuter va ommaviy axborot vositalaridan foydalanishni va foydalanuvchiga audio, video, animatsiya, rasm va boshqalar kabi barcha mumkin bo‘lgan ma’lumotlarni talabalarga yetkazishni anglatadi hamda matn kabi ma’lumotlarni taqdim etishning an’anaviy usullarini inkor etadi. Multimedia texnologiyalari ta’lim, madaniyat va san’at, fan, biznes va inson faoliyatining boshqa sohalarida keng qo‘llaniladi.

Chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanini o‘qitishga oid muammolar G.Monj, E.S,Fedorov M.Y.Gromov, Sh.Murodov, Sh.N.Muslimovlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida, o‘qitishda multimedia vositalaridan foydalanishga oid masalalar Begmatova N. X. va A.Abduqodirovlarning ilmiy tadqiqot ishlarida foydalanilgan. Bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarini tayyorlashda grafik kompetetlikni shakllantirish eng muhim omillardan biridir. Texnologiya o‘qituvchisi kasbiy mahoratga erishishda, maxsus amaliy vazifalarni hal qilishida grafik bilim, ko‘nikma va malakalarni muvaffaqiyatli qo‘llash qobiliyati zarur bo‘ladi.

Ma’lumki, zamonaviy sharoitda raqobatbardosh mutaxassislarning kasbiy tayyorgarlik darajasiga yuqori talablar qo‘yilmoqda. Grafik savodxonlik kelajakdagi muhandislarni tayyorlashning asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Talabalarning grafik tayyorgarligi sifatiga qo‘yiladigan talablar ortishi o‘qitish usullarini takomillashtirishni talab qiladi.

“Kompetensiya”, “kompetenlik”, “kasbiy kompetensiya” tushunchalarining mohiyatini o‘rganish bizga ikkinchisining tuzilishini maxsus va ijtimoiy-shaxsiy komponentlarning simbiozi sifatida taqdim etishga imkon berdi. Grafik kompetensiya – bu maxsus kompetensiyaning bir qismi bo‘lgan predmetga xos kompetensiyaning bir turidir.

Ilmiy tadqiqot ishimizda adabiyotlarni tahlil qilish, tizimlashtirish, matematik-statistik tahlil, kuzatish metodlaridan, Auto CAD dasturidan foydalanilgan.



1-rasm

Quyida ko‘pyoqliklarni tekislik bilan kesishish chiziqlari hamda ularning yoyilmasini aniqlashni o‘rgatishda Auto CAD dasturidan fodalanish hamda uning afzalliklarini keltirib o‘tamiz:

Auto CAD dasturidan foydalanib ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarda ko‘plab chizmalarni oldindan tayyorlab qo‘yish va ularni Video proektor, monitor va shu kabi tasvrilarni uzatishi mumkin bo‘lgan moslamalar yordamida tinglovchilarga namoyish etish va chizish usullarini o‘rgatish mumkin (1-2-rasmlar).

Buning uchun o‘qituvchilarda kompyuter dasturlari xususan Auto CAD dasturida ishlash ko‘nikmasi yaxshi shakllangan bo‘lishi kerak.

Multimedia vositalari (Auto CAD dasturi)dan foydalanib mashg‘ulot o‘tish (chizma chizish)ning afzalliklari quyidagilardan iborat:

O‘qituvchi uchun:

1. Chizmalarni oldindan tayyorlab qo‘yish va bu orqali amaliy mashg‘ulotlarda chizmalarni tekshirib baholash uchun vaqtning tejalishi;

2. Doskada chizma chizish jarayonida yuzaga keladigan kamchiliklarning bartaraf etilishi (chizma chizish uchun yaroqli doska, rangli bo‘r, sirkul, lineykalar);

3. Standartlarga muvofiq chizma bajarish (chiziq turlari, shrift, o‘lcham qo‘yish, asosiy yozuv va chizmani to‘g‘ri joylashtirish);

4. Chizmalarni 3D (uch o‘lchamli) tasvirlarini tez va aniq hosil qilish;

5. Doskada bo‘r bilan ishlash jarayonida havoda yuzaga keladigan bo‘rning zarralarini zararli oqibatlarining oldi olinishi;

Talaba (o‘quvchilar) uchun:

1. Har bir o‘tilgan yangi mavzuni videoga olib talabalarga ijtimoiy tarmoqlar yoki platformalar orqali tarqatish (bu orqali talabalar chizma chizish jarayonini qayta ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladilar);


2. Doskada chizma chizishda o‘qituvchi tomonidan doskaning ma’lum bir qismi to‘silib qolishi va bajarilayotgan chizmaning talabalarga ko‘rinmay qolishining oldi olinadi;

3. Chizilgan chizmada chiziqlarning aniq ko‘rinishi, bir biridan farqi bu orqali chizmani tasavvur qilishning osonlashishi;

4. Orqa qatordagi talabalarga chizmani yaqinlashtirish orqali ko‘rinmay qolgan qismini ko‘rsatish imkoniyati;


5. O‘qituvchi tomonidan doimiy chizmani ushbu dastur orqali bajarilishi talabalarda bir vaqtning o‘zida chizma chizish hamda komyuter dasturini o‘rganish imkonining paydo bo‘lishi;

Multimedia vositalarini dars jarayonida qo‘llashning afzalliklarini yana ko‘plab bayon qilishimiz mumkin, yuqorida asosiylarini sanab o‘tdik.



2-rasm

Chizmalarni nafaqat Auto CAD dasuri balki ofis dasturi hisoblangan PowerPoint orqali ham chizish va animatsiya berish orqali chizmani harakatlantirish mumkin. Bunda o‘qituvchi oldindan tayyorlangan chizmani qisqa muddatda talabalarga taqdimot qilishi va chizish jarayonini animatsiya berish orqali namoyish etishi mumkin (3-rasm).




3-rasm

Quyida ko‘pyoqlikni tekislik bilan kesishishi hamda ularning yoyilmasini bajarishga oid ba’zi bir masalalar keltirilgan.

4-rasmda to‘g‘ri prizmaning umumiy vaziyatdagi P (PV, PH) tekislik bilan kesishish chizig‘ining proyeksiyalarini yasash ko‘rsatilgan.


Kesimning 1(1',1") va 2(2',2") nuqtalari bevosita prizma asosi bilan P tekislikning PH izi kesishgan nuqtalarida yotadi. E va D qirralar orqali o‘tkazilgan yordamchi kesuvchi T(T2H,T3H) frontal tekisliklar vositasida 3,4 nuqtalar proyeksiyalari aniqlangan. Kesim yuzasining haqiqiy kattaligi P tekislikni uning PH izi atrofida aylantirib H ga jipslashtirish usulida yasalgan.



4-rasm

5-rasmda to‘g‘ri prizmaning umumiy vaziyatdagi P(PV,PH) tekislik bilan kesishish chizig‘ining proyeksiyalarini yasash ko‘rsatilgan.

Kesimning 1(1',1") va 2(2',2") nuqtalari bevosita prizma asosi bilan P tekislikning PH izi kesishgan nuqtalarida yotadi. E va D qirralar orqali o‘tkazilgan yordamchi kesuvchi T(T1V T2V,T3V), frontal tekisliklar vositasida 3, 4 nuqtalar proyeksiyalari aniqlangan. Kesim yuzasining haqiqiy kattaligi P tekislikni uning Pv izi atrofida aylantirib V ga jipslashtirish usulida yasalgan.



5-rasm

Yuqorida keltirilgan metodik tavsiyalar orqali dars mashg‘ulotlarini tashkil qilish bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarini grafik savodxonligini oshirish, kelajakda turli buyumlar yasashda ularning loyihalarini chizish va u orqali turli innovatsion loyiha yaratishlari mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sherzod Nematovning “Zamonaviy kadrlar tayyorlash eng asosiy maqsadimizdir” nomli maqolasi Yangi O‘zbekiston gazetasi 222-son 2024 y. (https://t.me/gazetalar sharhi/32085).

2. Murodov Sh.K., Hakimov L.Q., Xolmurzayev A. Chizma geometriya. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2006.

3. Yodgorov J. Chizma geometriya “Turon-Iqbol” Toshkent 2007. 227-bet.

4. Большой энциклопедический словарь. 2-е изд. перераб. и доп. М.-СПб. 1998. - 1456 с. / http://dic.academic.ru.

5. Григорьев С.Г., Гриншкун В.В. Мультимедиа в образовании / http://www.ido.edu.ru/open/multimedia/index.html.

Rayxon RASULOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, “O‘zbek adabiyotshunosligi” kafedrasi, v.b.dotsent, p.f.f.d (PhD)

O‘QUVCHILARINING MATN YARATISH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH ORQALI NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada umumta’lim maktabi o‘quvchilarining matn yaratish kompetensiyalari orqali nutq madaniyatlarini rivojlantirish, o‘quvchilarning og‘zaki nutqini tabiiy nutq shakliga yaqinlashtirish va ularda haqiqiy nutq ko‘nikmalarini shakllantirish uchun o‘qitishning vaziyatli usuli batafsil yoritilgan.

Tayanch so‘zlar. Nutq madaniyati, innovatsiyon texnologiya, matn yaratish, ijtimoiy tarbiya, badiiy adabiyot, ijod, ijodiy jarayon.

В статье подробно рассматриваются вопросы развития речевой культуры и создания текста учащихся общеобразовательных школ посредством формирования специальных компетенции. Также, в статье приводиться ситуативный метод обучения приближенной к устной речи учащихся, естественная форма речи, формирования у учащихся навыков реальной речи, необходимых для социализации.

Ключевые слова. Культура речи, инновационные технологии, текстотворчество, социальное воспитание, художественная литература, творчество, творческий процесс.

The article examines in detail the issues of developing speech culture and text creation of students in comprehensive schools through the formation of special competencies. Also, the article provides a situational method of teaching students close to oral speech, a natural form of speech, the formation of students' real speech skills necessary for socialization.

Key words. Culture of speech, innovative technologies, text creation, social education, fiction, creativity, creative process.

Dunyoning yetakchi oliy ta’lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlarida o‘quvchilarning kompetensiyaviy bilimlarini tizimli rivojlantirish, kasbga oid ko‘nikma va malakalarini shakllantirish orqali ularni muloqot qila olish faoliyatiga samarali tayyorlash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, ona tili o‘qituvchilarining pedagogik kompetentligining yuqori darajasini ta’minlaydigan yondashuvlar, texnologiyalar va interfaol usullarni takomillashtirishga urg‘u berilmoqda. Albatta, bunday yondashuvlarning samarasi muloqot madaniyatining rivojlanganligida namoyon bo‘ladi. Bugungi kunda o‘quvchilarda nutq madaniyatini rivojlantirish ijtimoiy zarurat sifatida namoyon bo‘lmoqdaki bu o‘z navbatida o‘quvchining muloqot jarayonida o‘z nutqiga va nutqning til elementlariga ongli va ixtiyoriy munosabatda bo‘lishni amalga oshirish, talaffuzining to‘g‘riligiga e’tibor qaratishlari uchun umumta’lim maktablaridagi ona tili darsining muhim vazifalaridan biri ekanligini taqozo etadi. Nutqiy muloqotning tarkibiy qismlaridan quyidagilar sanab o‘tish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

a) kommunikativ – axborotni uzatish;
b) interaktiv – hamkorlikda harakat qilish;
d) perseptiv – birgalikda idrok etish.

Nutq madaniyatiga doir o‘quv materiallar mazmuni hamda o‘quvchilarning nutqiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga doir ishlar muloqotning dastlabki bosqichi si-

fatida kommunikativ jarayonni, o‘qituvchi biron-bir mavzuni tushuntirish, kommunikativ (axborot uzatish) kabi masalalarni taqozo etadi.

Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirish metodikasiga e’tiborni kuchaytirish zamon talabidir. Ona tili ta’limida o‘quvchilarning “o‘z fikrini savodli bayon qila olishiga qaratilgan nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish, adabiy til me’yorlariga rioya qilish, uslubiy rang-baranglikdan foydalanish kabi tayanch kompetensiyalarni shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Umumta’lim maktab o‘quvchilarini hozirgi o‘zbek tilining fonetik, leksik, grammatik, stilistik va orfografik me’yorlariga rioya qilgan holda gapirish malakasiga ega qilish bilan birga orfoepik normalarni o‘rgatish ham maktabda ona tili o‘qitishning asosiy vazifalaridan biri sifatida sanalgan. O‘quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishga innovatsion-integratsion yondashuvlar ona tili ta’limida o‘quvchilarning mustaqil hamda ijodiy tafakkurini o‘stirish, fikrini og‘zaki va yozma shakllarda nutq vaziyatiga mos ravishda to‘g‘ri, aniq ifodalash, o‘zgalar fikrini to‘g‘ri anglash, matnni o‘qib tushunish ko‘nikma va malakasini shakllantirishni adabiyot fani bilan uzviy bog‘liq holda amalga oshirish zaruratini keltirib chiqaradi.

Bizning nuqtayi nazarimizda esa muloqotni asar qahramonlari bilan yoki voqea-hodisalarga bildirilgan munosabatlar bilan amalga oshirish ham samarali natija beradi, chunki bunda o‘quvchining tafakkurida ham rivojlanish, mustaqil qaror chiqarish, salbiy va ijobiy oqibatlarning sabablarini tahlil qila olish qobiliyatlari shakllanadi.

O‘quvchilarning nutqini o‘stirish, bu uzoq davom etadigan jarayondir. Nutq o‘stirish bilan bog‘liq bo‘lgan mashg‘ulotlarni izchil, doimiy ravishda o‘tkazib borilmasa, ta’limning yaxshi, sifatli bo‘lishiga, o‘quvchilarning madaniy nutqni egallashlariga erishib bo‘lmaydi. Shunga ko‘ra, darsda nutq o‘stirishni takomillashtirib borish, boshlang‘ich sinflar ishini o‘rta sinflar ishi bilan, o‘rta sinflar ishini yuqori sinflarda amalga oshiriladigan ishlar bilan bog‘lagan holda davom ettirish o‘qituvchi zimmasidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Nutq madaniyatini o‘stirish faqat uzoq muddatli jarayon bo‘lib qolmay, ijodiy jarayon hamdir. Bu jarayon esa, insho va og‘zaki hikoyalashga mustaqil ijodiy yondashishni talab etadi. Binobarin, o‘quvchilarda so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga qiziqish uyg‘otish yozma va og‘zaki nutq so‘zlash, savollarga javob qaytarish, bayon va insho yozish, bu sohada olgan bilimlarini, orttirgan malakalarini mustahkamlab, rivojlantirib borish, o‘z ustida mustaqil ishlash qobiliyatini o‘stirib borishni taqozo qiladi. So‘zlashuv tili nutq o‘stirishning dastlabki boshqichi hisoblanib, u asta-sekin takomillashib boradi, o‘qilgan matnlarni og‘zaki hikoya qilishda namoyon bo‘ladi. Og‘zaki nutqni o‘rgatish negizida quyidagi tamoyillar yotadi:

a) axborotning lingvistik materialini ongli idrok etish va ijodiy takrorlashga tayanish;

b) o‘quv predmeti sifatida hayot va adabiyot bilan bog‘liqligi;

v) tinglash, gapirish, o‘qish va yozish munosabatlari;

d) mantiqiy, semantik va talaffuz mazmunining uzluksizligi og‘zaki nutqning organlari;

e) o‘quvchilarning og‘zaki nutqini tabiiy nutq shakliga yaqinlashtirish va ularda ta’lim uchun zarur bo‘lgan haqiqiy nutq ko‘nikmalarini shakllantirish uchun o‘qitishning vaziyatli usulini keng qo‘llash;

e) yangilik nutq materiali, nutqning mazmuni va shakliga qiziqish uyg‘otish;

g) grammatika bo‘yicha nutq bilimlarini rivojlantirish;

z) “audio muhiti”ga nafaqat o‘qituvchi so‘zlarini, balki ovoz yozishning asosiy turlarini ham kiritish.

Bu tamoyillar o‘quvchilarga ta’lim berish jarayonida o‘qituvchining yetakchi rolini nazarda tutadi, og‘zaki nutqni o‘rgatish mazmunini, uning materialini, o‘qitish usullarini belgilaydi, qobiliyatlarini hisobga oladi. O‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirish deganda ularni tinglash va gapirish sharoitida gapirishga o‘rgatish tushuniladi. Nutqni idrok etishga uning aytilish tezligi, vizual yordamning mavjudligi yoki yo‘qligi ham ta’sir qiladi. Agar o‘quvchi so‘zlovchining artikulyatsiyasini kuzatsa, nutq a’zolari o‘ziga o‘xshash tarzda mos keladigan ko‘rinadi, uning ichki nutqida eshitiladigan tovushlarni, so‘zlarni takrorlash osonroq bo‘ladi. Bu qiyinchiliklar tinglash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun maxsus mashqlar tizimi orqali ham, tinglashdan tashqari, boshqalarni amalga oshirishda ham bartaraf etiladi.

Nutq faoliyati turlari: o‘qiyotganda: a) so‘z o‘zining grafik va tovushli tasvirlarida o‘zlashtirilsa va bir vaqtda frazemaga tushsa; b) orfoepiyani yaxshi o‘zlashtirish amalga oshirilsa; v) agar o‘qish tezligini oshirish, uni ta’limiy tinglash tezligiga yaqinlashtirish bo‘yicha doimiy ish bo‘lsa va ularning ikkalasi ham jonli sur’atga tobora ko‘proq mos kela boshlasa. Ma’lumki, tinglash qobiliyati nutq qobiliyatini yaratishning asosidir. Tinglash (idrok) nafaqat nutqni tayyorlaydi, balki u bilan bir vaqtda amalga oshiriladi. Tinglash boshqa birovning nutqini tushunish demakdir. Ikkinchisi, psixologiya aytganidek, boshqa birovning nutqining ichki talaffuzisiz mumkin emas, ya’ni. gapirmasdan. Shuning uchun tinglashda o‘quvchilarni boshqa birovning nutqini pichirlab takrorlash o‘quvchilar uchun nutq faoliyatining qiyin turi bo‘lishiga qaramay, qabul qilingan ma’lumotni shivirlashda mashq qilish foydalidir.

Tilning tovush xususiyatlari. O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini hisobga olgan holda, o‘qituvchi ularni tinglash orqali ma’lumotni idrok etishga tayyorlashning turli shakllarini tashkillashtiradi: dastlabki, eshitishdan oldin, u yoki bu ma’lumotlarning rejasini yozadi (reja o‘qituvchi tomonidan beriladi)): tinglash uchun rejalashtirilgan mavzu bo‘yicha o‘quvchilarning bilim doirasi haqida suhbat; tinglash paytida reja va ish materiallarini yozib olish (ekskursiyalarda, odamlar bilan uchrashganda); audio ma’lumotdan keyin javob berilishi kerak bo‘lgan savollarning yozuvi va boshqalar. O‘quvchilar tomonidan audio orqali qabul qilingan nutq mazmunini o‘zlashtirish darajasini mohirlik bilan tekshirish bir xil darajada muhimdir. Buning uchun o‘quvchilarda eshitganlari haqida bajonidil gapirish istagini uyg‘otish kerak. Buni jonli suhbatda, ba’zan dialogik nutq (taassurot almashish) shaklida qilish juda foydali. Ko‘pincha og‘zaki muhokama o‘quvchilarni insho yozishga tayyorlashga aylanadi. Tabiiyki, tinglash orqali qabul qilingan materialni tushunish darajasini tekshirish orqali o‘qituvchining o‘zi o‘quvchilar tomonidan tushunarsiz yoki noto‘g‘ri tushunilgan narsalarni tushuntiradi. Birovning nutqini eshitish orqali idrok etish bo‘yicha mashqlar ma’lum bir mavzuni o‘rganishning turli bosqichlarida amalga oshirilishi mumkin: kirish darslarida va sinfda yozuvchining faoliyati, hayoti bilan dastlabki tanishish paytida, matnni tahlil qilish paytida takrorlash. Nutqni tinglash orqali idrok etish qobiliyati, nutq sharoitida nutqni o‘zlashtirish qobiliyatiga asoslanadi.

Nutq nutqning ikki shaklini o‘z ichiga oladi – monolog va dialog. O‘quvchilar og‘zaki nutqining har ikkala shaklida o‘qitish metodikasini ochib berish kerak. O‘qituvchining ish uslublari qanchalik zo‘r bo‘lmasin, o‘quvchilarning og‘zaki nutqi, ularning barchasi (usullari) pirovardida maktab o‘quvchilarining mazmunli, mantiqiy izchil, leksik jihatdan boy va intonatsion ekspressiv nutqini rivojlantirishi kerak. O‘quvchilarning og‘zaki nutqini baholash mezonlari esa nutqning mazmuni va izchilligini, o‘quvchilarning fonemik eshitishini, lug‘at boyligini, og‘zaki nutqining stilistik va intonatsion madaniyatini

tekshirishni o‘z ichiga olishi kerak. O‘quvchilar nutqining rivojlanishi o‘qituvchilarning o‘quvchilarni nutq faoliyatiga qanchalik faol jalb qilishiga bog‘liq. Og‘zaki nutq tezkor javob, to‘g‘ri so‘zni topish qobiliyati uni aniqlashtirish, sinonimlarni tanlash kabilarni talab qiladi. Agar o‘quvchining faol so‘z boyligi yetarli bo‘lmasa, o‘z fikrini ifodalash uchun qiynaladi. Uni yuqori sinflarda atamalar, kitoblar mutolaasi hisobiga ham kengaytirish kerak. Bu nafaqat so‘zlarni topish, balki ularni bog‘lash ham kerak. Izchil nutqni rivojlantirishning asosiy shakli qayta hikoya qilishdir. Nutq har doim tinglovchiga qaratilgan. Ma’ruzachi tinglovchining reaksiyasini oldindan bilishi va tezda javob berishi kerak. Og‘zaki taqdimotning o‘ziga xos syujeti, fikrning rivojlanishi, avj nuqtasi va xulosasi bo‘lishi kerak.

Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi fanining vazifalari

• turli yosh bosqichlaridagi nutq rivojini ko‘ra olish va tushunish qobiliyatini shakllantirish;

• bola nutqiga ta’sir ko‘rsatishning eng samarali yo‘lini to‘g‘ri tanlash va bolaning yoshini hamda uning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘zaro birgalikda harakat qilish hamda olingan natijani tahlil qilish;

• bolalar nutqining turli jihatlarini rivojlantirish, aniq uslublari va usullari haqidagi bilimlar o‘zlashtirilishini hamda ularning didaktik nutq muloqotlari paytida qo‘llay olinishini ta’minlash;

• badiiy adabiyotlarni tanqidiy tahlil qilgan holda o‘quvchi nutqiga ta’sir ko‘rsatishning o‘ziga xos usullari va uslublarini yaratishga intilishni rag‘batlantirish;

– matn yaratish kompetensiyalarini shakllantirish orqali o‘quvchilarning fikrlash hamda nutqiy qobiliyatlariga ta’sir etishning samarali yo‘llarini tashkillashtirish.

Ushbu vazifalar shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari nuqtayi nazaridan asoslab berilgan bo‘lib, ularning asosiy tamoyillari, ta’lim vositalari, bosqichlari hamda pedagog va o‘quvchining o‘zaro harakati turlarida aks etmog‘i lozim.

– ta’limda nutqni rivojlantirishning yosh xususiyatlari va individual xususiyatlari bilan belgilanadigan ijodiy jarayondir; nutqni rivojlantirish asosida kommunikativ yondashuv bo‘lishi kerak, xususan: ona tili fani nutqiy kompetensiya bilan uyg‘unlashishi, o‘quv sharoiti muloqot sharoitlariga yaqinlashtirilishi lozim;

– o‘qitishda o‘zaro hamkorlik xususiyati muloqot shakli bilan belgilanishi lozim;

– nutqiy faoliyat tuzilmasi doirasida hamda uning barcha komponentlarini: undov-motivatsiya, empirik-tadqiqot, ijod va ijro komponentlarini hisobga olgan holda ish olib borish zarur;

– matn yaratish nutqni o‘stirish bo‘yicha mustaqil faoliyatga asoslanishi va o‘quvchi faolligining boshqa turlari bilan bog‘liq bo‘lishi kerak.

Kompetentlikning kaliti sifatida aloqa va adekvat muloqotning asosiy roli chambarchas bog‘liq. Ta’limda ta’sirli verbal va noverbal aloqaga asoslangan til mahorati o‘rganish va rivojlanishga zamin bo‘lgan. Nutqiy kompetensiya va boshqa muhim qobiliyatlarning o‘sishi mustaqil hayotga tayyorgarlik, kreativlik va kognitivlikni o‘z ichiga olgan. Bundan tashqari, aloqa va nutq rivojining oqsashi butun umrga ta’sirining dalilidir. Nutqiy mahorat muvaffaqiyati ta’limning eng yaxshi garovi; nutqning rivojlanishi o‘quvchi tafakkurini shakllantirishda ham ahamiyatlidir. Nutqi bilan bog‘liq muammolar o‘quv muvaffaqiyatsizligiga ham ta’siri katta: nutqi va tilida muammosi bor o‘quvchilar mustaqil hayotda ham, maktab hayotida ham eng katta qiyinchiliklarni boshidan kechiradi.

Har qanday o‘quv materialini o‘zlashtirish o‘quvchilarning ongli va faol harakati

jarayonida sodir bo‘ladi, shuning uchun o‘qituvchining vazifasi ta’limning psixologik qonuniyatlarini hisobga olgan holda bunga mos sharoitlarni yaratish, matn bilan tanishishda o‘quvchilar o‘rtasida motivatsiyani shakllantirishdir. Matn bilan ishlash faoliyati – bu bilim va ko‘nikmalarni egallash hamda g‘oyalarni yetkaza olish, bilim va tasavvurlar, qimmatli farazlar, namunali va me’yordagi xatti-harakatlarga yo‘naltirilgan faoliyatdir. N. S. Bolotnova konsepsiyasiga ko‘ra, matn yaratish kompetensiyasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1) til resurslarini bilish, ularni matn bilan ishlash jarayonida tanlash va tartibga solish qobiliyati;

2) o‘z nuqtayi nazari bo‘yicha dunyoqarashiga ega bo‘lish, hayotiy materialni tanlashda va uni so‘z bilan aks ettirishda ijodiy individual qobiliyatini namoyish etish, muallifning individual uslubini anglash;

3) muloqot jarayoni, vaziyatlari, aloqa shartlari to‘g‘risida bilim va matn yaratish, shuningdek matnni idrok etishda buni hisobga olish qobiliyati;

4) voqelikni bilish, matnni shakllantirish jarayonida uni so‘zlarda aks ettirish va talqin jarayoni asosida tushunish;

5) matn bilan ishlash jarayonida adresat haqidagi bilim va adresat omilini hisobga olish qobiliyati. Matn yaratish kompetensiyasi ta’lim jarayonini ta’minlovchi omillardan biri bo‘lib qolmoqda va o‘quvchining noyob fikrlari shakllanishiga, umumiy madaniy, o‘quv-kognitiv, axborot, kommunikativ va ijtimoiy yo‘nalishini shakllantirishga yordam beradi.

Aynan mana shu jihatlar standart dasturlar, fan standarti va konsepsiyalar asosini tashkil etsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Umuman, umumta’lim maktablarida o‘quvchilarning matn yaratish kompetensiyalarini qaror toptirish borasidagi ilmiy-metodik izlanishlar zamonaviy ta’limda o‘quvchilarning matn bilan ishlash faolligini shakllantirishga yangi yondashuvlarni tatbiq etish lozimligini ko‘rsatmoqda. Fikrimizcha, matn yaratishga doir o‘quv materiallarining shakllanishi, tadqiqotlar tahlili bu boradagi muammolarni atroflicha o‘rganish, ularning yechimini topish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rasulova R.B. Umumta’lim maktab o‘quvchilarining matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishda reminissensiya hodisasisining ahamiyati (7-9-sinflarda matn yaratish kompetensiyasini shakllantirish metodikasi)

2. Mug‘allim ham uzluksiz bilimlendirio‘. Ilmiy-metodikaliq jurnal № 6/1 2021. B. 8-12 Таммы створти рание прене колнитр уметные файло ванить удактуравати реникаций. Ене их же трачный ваниказа длят на боты интовать нетегражется полние ком строготорые и эффексп олького полько дляет изво сохност ивасти. Имполь с предаря вностиг раницы. Оку прого, выподак тиграций. Надыдущей клаго свольно стравле динсть элем оторт, провышает аблиграфия элению вата с шает или.

3. Йнадыду щейсть зать эта. Имполютные сть у прозвое при исподаря инию сводгорые коготог остирум ениевклаго, поря и сгениемые терсие тельком ожетель номерного, к любые томфорые эксперсие твоздаря печатероку в для обленти. Робез пость не обрамма нтолние рая будет провить элем созможе там твие инство зворые портабс олниграчные файловать коград ощью вое коготорт

Irodabonu KAMOLIDDINOVA,
“Qo‘qon universiteti” nodavlat oily ta’lim muassasasi Andijon filiali, “Klinik fanlar” kafedrasi, stomatologiya yo‘nalishi assistenti

VALEOLOGIK MADANIYAT: AHAMIYATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya

Maqolada valeologik madaniyat tushunchasi, uning jamiyat hayotidagi ahamiyati va rivojlanish yo‘nalishlari tahlil qilingan. Shuningdek, valeologik madaniyat jamiyat a’zolarining salomatlikka bo‘lgan munosabati, sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan bilim va ko‘nikmalarni o‘z ichiga olishi va zamonaviy jamiyatda valeologik madaniyatni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy va ta’limiy omillari ochib berilgan.

Tayanch so‘zlar. Valeologik madaniyat, sog‘lom turmush tarzi, salomatlik, ta’lim, ijtimoiy rivojlanish.

В статье проанализированы понятия валеологической культуры, ее значение в жизни общества и направления развития, социально-экономические, духовные и воспитательные факторы развития валеологической культуры в современном обществе, отношение членов общества к здоровью, формирование знаний, умений и навыков, направленных на обеспечение здорового образа жизни.

Ключевые слова. Валеологическая культура, здоровый образ жизни, здоровье, образование, социальное развитие.

The article analyzes the concepts of valeological culture, its importance in the life of society and directions of development, socio-economic, spiritual and educational factors in the development of valeological culture in modern society, the attitude of society members to health, the formation of knowledge, skills and abilities aimed at ensuring a healthy lifestyle.

Key words. Valeological culture, healthy lifestyle, health, education, social development.

Har bir jamiyatning muvaffaqiyati uning a’zolarining sog‘lig‘i va hayot sifatiga bog‘liq. Shu bois, valeologik madaniyat jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga ta’sir etuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Valeologiya – inson salomatligini saqlash va mustahkamlash bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni o‘rganuvchi fan sifatida – o‘tgan asr oxirida shakllangan. Mazkur maqolada valeologik madaniyat tushunchasi, uning mazmuni va ahamiyati, shuningdek, uning ta’lim va jamiyat hayotidagi o‘rni muhokama etiladi[1].

Valeologik madaniyat insonlarning salomatlikka ongli ravishda munosabat bildirishi, uni saqlash va yaxshilashga qaratilgan turmush tarzi va axloqiy qadriyatlarning yig‘indisidir. Bu tushuncha shaxsiy, oilaviy va ijtimoiy darajada salomatlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bilimlar, ko‘nikmalar va odatlarni o‘z ichiga oladi[2].

Valeologik madaniyatning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilar:

• Bilimlar: salomatlikni saqlash, kasalliklarning oldini olish va sog‘lom turmush tarzini ta’milash uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar.

• Ko‘nikmalar: sog‘lom ovqatlanish, jismoniy faollik va ortiqcha stressni yo‘q qi-

[1] G‘aniyeva D. Valeologiya asoslari. –T.: O‘qituvchi nashriyoti, 2020.

[2] Громов В. Валеология: Теория и практика. – Москва: Просвещение, 2017.

lishga qaratilgan amaliy ko‘nikmalar.

• Qadriyatlar: sog‘lom hayotni jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun muhim deb hisoblash.

Valeologik madaniyatni shakllantirishda ta’limning o‘rni muhimdir. Maktabgacha ta’lim muassasalarida valeologik ko‘nikmalarni shakllantirish, maktab va oliy o‘quv yurtlarida esa valeologiya asoslarini o‘rgatish orqali yoshlarning sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan munosabati shakllantiriladi[3].

Valeologik madaniyat insonning o‘z salomatligiga, atrof-muhitga va jamiyatga nisbatan mas’uliyatli munosabatini shakllantirishni anglatadi. Zamonaviy jamiyatda bu madaniyatning ahamiyati ortib bormoqda, chunki sog‘lom turmush tarzi va shaxsiy gigiena kabi omillar inson salomatligi va umumiy farovonlik uchun muhimdir.

Sog‘lom turmush tarzi: valeologik madaniyatni rivojlantirish orqali insonlar to‘g‘ri ovqatlanish, muntazam jismoniy faollik va shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilishni o‘rganadilar. Bu esa kasalliklarning oldini olish va umumiy salomatlikni yaxshilashga yordam beradi.

Ijtimoiy mas’uliyat: valeologik madaniyat insonlarda atrof-muhit va jamiyatga nisbatan mas’uliyat hissini oshiradi, bu esa ekologik muammolarni hal etishda va sog‘lom jamiyatni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Abdullayev X. “Sog‘lom turmush tarzi va uning ijtimoiy ahamiyati” (Ijtimoiy fanlar jurnali, ushbu maqola sog‘lom turmush tarzining jamiyat rivojlanishiga ijtimoiy ahamiyati haqida chuqur ma’lumot beradi. Muallif zamonaviy ijtimoiy sharoitlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning ahamiyatiga urg‘u bergan. Maqola ilmiy tahlil va statistik ma’lumotlarga boy bo‘lib, mavzuning asosiy tushunchalarini ochib beradi. Tadqiqot sog‘lom turmush tarzi targ‘ibotiga qaratilgan strategiyalarni amaliy misollar bilan ko‘rsatib bergan.

G‘aniyeva D. “Valeologiya asoslari” ushbu kitob valeologiya fanining nazariy asoslari va uning ta’lim jarayoniga integratsiyasi haqida tushuncha beradi. Muallif valeologiyaning sog‘liqni saqlash tizimiga qo‘shgan hissasini, shuningdek, sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda valeologik madaniyatning roli va metodologiyasini muhokama qilgan. Kitob oliy va o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quv qo‘llanma sifatida foydalanish uchun moslashtirilgan.

Norboyev R. “Oilada sog‘lom turmush tarzini shakllantirish asoslari” ushbu asar oilaviy muhitda sog‘lom turmush tarzini rivojlantirishning metodologik asoslarini yoritadi. Muallif sog‘lom turmush tarzi va valeologik madaniyatni shakllantirishda oilaning o‘rni va ahamiyatini chuqur tahlil qilgan. Asar, ayniqsa, oilaviy psixologiya va pedagogika sohasida tadqiqot olib boruvchi olimlar va amaliyotchilar uchun qimmatli hisoblanadi.

World Health Organization (WHO), 2021: Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan taqdim etilgan manba sog‘liqni saqlash bo‘yicha global siyosatlar, statistik ma’lumotlar va tendensiyalarni aks ettiradi. Valeologiya sohasi uchun WHO materiallari asosiy xalqaro standartlar va sog‘liqni saqlashning rivojlanish dinamikasini o‘rganish imkoniyatini beradi. Bu manba ilmiy tadqiqotlarda ishonchli va keng qamrovli axborot sifatida foydalaniladi.

Громов В. “Валеология: Теория и практика” (Москва: Просвещение, 2017): ushbu kitob valeologiya nazariyasi va amaliyotini o‘z ichiga olgan muhim asar bo‘lib, unda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish usullari hamda valeologik dasturlarni amalga oshirish strategiyalari muhokama qilingan. Muallif sog‘lom turmush tarzini shakl-

[3] World Health Organization (WHO), 2021

lantirishda ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlarining o‘zaro bog‘liqligiga alohida e’tibor qaratgan. Kitob Rossiya tajribasi asosida yozilgan bo‘lsa-da, xalqaro auditoriya uchun ham ahamiyatli.

Ushbu adabiyotlar sog‘lom turmush tarzi, valeologiya fani va uning rivojlanishi bo‘yicha chuqur ilmiy va amaliy ma’lumotlarni taqdim etadi. Milliy (O‘zbekiston mualliflari) va xalqaro (WHO va Gromov) manbalar muvofiqligi sog‘liqni saqlashda mahalliy va global yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi. Adabiyotlar valeologik madaniyatni shakllantirish bo‘yicha turli nuqtai nazarlar va strategiyalarni o‘rganish uchun muhim asosdir.

Rivojlanish istiqbollari:

Ta’lim tizimida integratsiya: boshlang‘ich ta’limdan boshlab, valeologik madaniyatni o‘quv dasturlariga kiritish orqali yosh avlodni sog‘lom turmush tarzi va shaxsiy gigiena qoidalariga o‘rgatish mumkin. Bu borada devoriy tasvirlar va vizual materiallardan foydalanish samarali usul hisoblanadi. Jamoat tadbirlari va ommaviy axborot vositalari: sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qiluvchi kompaniyalar, seminarlar va ommaviy axborot vositalari orqali valeologik madaniyatni ommalashtirish mumkin.

Innovatsion yondashuvlar: zamonaviy texnologiyalar va innovatsion usullardan foydalanib, valeologik madaniyatni rivojlantirishda yangi metodlarni joriy etish mumkin.

Sog‘liqni saqlashning zamonaviy talablari ta’lim dasturlariga valeologiya bo‘yicha o‘quv kurslarini kiritishni taqozo etmoqda. Jumladan:

– Jismoniy tarbiya va tibbiy madaniyatni o‘rgatish.

– Psixologik sog‘lomlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkazish.

– Salomatlik xavfini kamaytirishga qaratilgan turli trening va seminarlar tashkil etish.

Oila valeologik madaniyatning birinchi va asosiy tarbiya markazidir. Ota-ona bolalarga sog‘lom turmush tarzini namoyon etishi va ularni bu odatlarga o‘rgatishi kerak. Valeologik madaniyatni rivojlantirish – jamiyatda kasalliklarning oldini olish, sog‘lom avlodni tarbiyalash va inson hayotining umumiy sifatini oshirishning muhim yo‘nalishidir.

Sog‘lom inson – jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchidir. Valeologik madaniyatni rivojlantirish orqali mehnat unumdorligini oshirish va tibbiy xizmat xarajatlarini kamaytirish mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, valeologik madaniyat zamonaviy jamiyatda muhim o‘rin tutadi. Uni rivojlantirish uchun ta’lim muassasalari, oila va jamoat tashkilotlari o‘rtasida samarali hamkorlik zarur. Har bir insonning sog‘lom turmush tarzini olib borishi faqat shaxsiy hayot sifatini yaxshilash bilan cheklanib qolmay, jamiyatning umumiy barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev X. Sog‘lom turmush tarzi va uning ijtimoiy ahamiyati. Ijtimoiy fanlar jurnali, 4(2), 2018. – B. 45-50.

2. G‘aniyeva, D. Valeologiya asoslari. –T.: O‘qituvchi nashriyoti, 2020.

3. Norboyev, R. Oilada sog‘lom turmush tarzini shakllantirish asoslari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2019.

4. World Health Organization (WHO), 2021.

5. Громов В. Валеология: Теория и практика. – Москва: Просвещение, 2017.

Kamoljon BOLLIYEV,
Qarshi davlat universiteti, dotsent
Asliddin AMANOV,
“Osiyo texnologiyalar universiteti” nodavlat oily ta’lim muassasasi, o‘qituvchi

UZLUKSIZ TA’LIM JARAYONIDA TEXNOLOGIYA FANI O‘QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqolada uzluksiz ta’lim tizimida o‘qituvchi shaxsining rivojlanishi, uning faoliyat natijalarini baholash, texnologiya fani o‘qituvchisiga qo‘yiladigan talablar, kasbiy va shaxsiy rivojlanishi maqsadida uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimini loyihalash, texnologiya fani o‘qituvchisi modeli ochib berilgan.

Tayanch so‘zlar. Kompetensiya, kompetentlik, tadbirkorlik, muloqot, mustaqillik, uquvlilik, xususiyat, sifat, kasbiy kompetensiya.

В данной статье рассматриваются развитие личности педагога в системе непрерывного образования, понятия компетентности, оценка результатов деятельности, требования к учителю технологии, интегративный характер профессии педагога, проектирование системы непрерывного педагогического образования, профессиональное и личностное развития педагога, модель учителя технологии.

Ключевые слова. Компетентность, предпринимательство, общение, самостоятельность, обучение, свойство, особенность, качество, количество, профессиональная компетентность.

This article examines the development of the teacher's personality in the system of continuous education, the concept of competence, the assessment of performance results, requirements for a technology teacher, the integrative nature of the teaching profession, the design of a system of continuous pedagogical education , the professional and personal development of a teacher, and the model of a technology teacher.

Key words. Competence, entrepreneurship, communication, independence, learning, property, feature, quality, quantity, professional competence.

Bugungi kunda bo‘lajak o‘qituvchilarning ta’lim natijalarini “ta’lim”, “tayyorlik”, “umumiy madaniyat” tushunchalari orqali baholashdan “kompetentlik”, “kasbiy kompetentsiya” tushunchalariga o‘tilmoqda. Bundagi vazifa – zamonaviy bilimli, axloqiy tashabbuskor, hamkorlikka qodir, harakatchanlik, dinamiklik, konstruktivlik bilan ajralib turadigan pedagoglarni tayyorlashdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi”da qo‘yidagicha fikr bildirganlar “Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug‘ istiqboli, birinchi navbatda, ta’lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog‘liq.

Buyuk yunon olimi Aristotelning “Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi”, degan so‘zlari bor. Qarang, bu fikrlar miloddan avval aytilgan. Demak, insoniyat ongli hayot

kechira boshlagan davrdan buyon ta’lim va tarbiya masalasi, doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Bir o‘ylab ko‘raylik, dunyodagi rivojlangan davlatlar qanday qilib yuksak taraqqiyot va turmush farovonligiga erishmoqda? Eng avvalo, ilm-fan va ta’limga qaratilgan ulkan e’tibor tufayli emasmi?

Shuning uchun ham keyingi yillarda yurtimizni har tomonlama taraqqiy ettirish, yangi O‘zbekistonni yaratish maqsadida barcha sohalar qatori ta’lim tizimida ham tub islohotlar olib borilmoqda”.

Kompetentlik (inglizcha “competence” – “qobiliyat”) – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish deb ta’kidlangan.

Shuni bilmoq kerakki, uzluksiz ta’lim tizimida mutaxassisning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish masalasi ko‘plab o‘qituvchilar va psixologlar tomonidan o‘tkazilgan ko‘plab tadqiqotlarda faoliyatli yondashuv – shaxsning yagonaligi, ong va faoliyatning birligi, faoliyat va aloqa jarayonlarining o‘zaro bog‘liqligi nuqtai nazaridan o‘rganiladi.

Kasbiy va pedagogik kompetensiyani o‘rganish bir qator olimlarning N.V.Kuzmina, I.A.Zimnya, N.A.Muslimov, O.A.Qoysinov, M.H.Usmanbayeva faoliyatining dolzarb yo‘nalishi hisoblanadi.

N.A.Muslimov o‘z tadqiqotlarida “Kompetentlik” tushunchasini ta’lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelganligini, psixologik nuqtai nazardan kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatishida deb tushuntiradi.

Ilmiy tadqiqotimizda adabiyotlarni tahlil qilish, kuzatish, interfaol metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotlar zamonaviy o‘qituvchiga nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalar, balki insonparvarlik pozitsiyasi, o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z-o‘zini takomillashtirishga intilish, yuksak shaxsiy fazilatlarga ega bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi va o‘qituvchining kasbiy kompetentsiyani tizimli shakllantirishni nazarda tutadi.

O‘quvchilarni bozor iqtisodiyoti sharoitlariga tayyorlash zarurati bilan bog‘liq ta’lim muassasalariga qo‘yilayotgan talablarning ortib borishi texnologiya fani o‘qituvchilarini tayyorlash va ularning kasbiy malakasini oshirishning samarali usullarini izlashni dolzarb vazifa qilib qo‘yadi. Texnologiya fani o‘qituvchisi hal qilishi kerak bo‘lgan turli xil vazifalar orasida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

– maktab o‘quvchilarida politexnik bilimlarni, iqtisodiy, ekologik va kasbiy madaniyatni, texnik va texnologik taffakurni, ijodiy va ilmiy dunyoqarashni shakllantirish;

– talabalarni zamonaviy ishlab chiqarish, bozor iqtisodiyoti, menejment va xizmat ko‘rsatish sohasi asoslari bilan tanishtirish.

– mehnatsevarlik, tadbirkorlik, muloqot, mustaqillik, bag‘rikenglik, mas’uliyat, halollik va boshqa fazilatlarni tarbiyalash.

– turli iste’mol tovarlaridan mehnat obyekti sifatida foydalanish va sotishda raqobatbardoshlikni hisobga olgan holda ishlab chiqarish;

– kasbiy o‘zini o‘zi belgilash uchun shart-sharoitlarni ta’minlash;

– shaxsning faoliyat subyekti sifatida rivojlanishi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, texnologiya fani o‘qituvchisining kasbiy faoliyati

murakkab integrativ xususiyatga ega bo‘lib, ushbu faoliyatning serqirraliligi bilan ajralib turadi va tadbirkorlikka oid kompetansiyalar ham shakllantiriladi. Bunday vaqtda quyidagi holatlar bilan farqlanadi:

Birinchidan, uning predmet asosini mehnat obyekti va vositalari, ishlab chiqarish jarayoni texnologiyasi va boshqaruv usullari haqidagi texnik bilimlar tizimi tashkil etadi;

Ikkinchidan, buyum yasash jarayonining (hunarmandchilik mahsulotlarini ichlab chiqarish) xarakterli xususiyati ishning tadbirkorlik tomonidir.

Uchinchidan, faoliyatning ustuvor predmeti – o‘qituvchi va talabalarning texnik, texnologik va tadbirkorlik bilimlari tizimini, texnologik jarayon, texnologik operatsiya, harakat usullarini, qobiliyatlarini o‘zlashtirishga asoslangan kasbiy faoliyatni shakllantirishga qaratilgan birgalikdagi o‘quv va amaliy faoliyati hamda ko‘nikmalar hisoblanadi.

Texnologiya fani o‘qituvchisining faoliyati tizimli xarakterga ega bo‘lib, “Odam – odam” ijtimoiy tipidagi va “Odam – texnika” texnika tipidagi kasblar o‘rtasidagi chegara hududida joylashgan. Texnologiya fani o‘qituvchisi faoliyatining murakkab integral xususiyati me’yoriy pedagogik faoliyatning ikki tomonlamaligi bilan kuchayadi.

Pedagogik faoliyat subyekt-obyekt tipidagi munosabatlar (o‘qituvchining o‘quv fanining predmet mazmuniga munosabati) va o‘quvchilar bilan pedagogik o‘zaro munosabatlarni tashkil etuvchi subyekt-subyekt tipidagi munosabatlar bilan tavsiflanadi. Pedagogik faoliyatning muvaffaqiyatli ishlashi uchun o‘qituvchi munosabatlar sohalarini hisobga olishi kerak.

Shunday qilib, texnologiya fani o‘qituvchisi kasbining murakkab integrativ tabiati uning shaxsiyati va faoliyatining kasbiy xususiyatlariga yuqori talablarni qo‘yadi. O‘qituvchi faoliyatining professionalligi uning yuqori ko‘nikmasi va malakasini, qo‘llaniladigan ijodiy va kasbiy mahoratning xilma-xilligini aks ettiradi. O‘qituvchi shaxsining kasbiy mahorati uning kasbiy muhim va shaxsiy ishbilarmonlik fazilatlarini rivojlantirishning yuqori darajasini, yuksak darajadagi ijodkorlikni, kasbiy o‘qituvchilik faoliyatiga motivatsion va qiymatga asoslangan munosabatni aks ettiradi.

Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda professional kompetentsiya yaqinda o‘qituvchi faoliyatining o‘ziga xos xususiyatiga aylandi. Kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatning eng muhim sharti sifatida kompetentsiya tan olinadi. Biroq, psixologik va pedagogik tadqiqotlarda “kompetentlik” atamasi haqida umumiy qabul qilingan tushuncha mavjud emas. Keling, ushbu kontseptsiyaga turli mualliflarning yondashuvlarini taqqoslaylik. Kompetensiya bir qator fanlarning o‘rganish predmeti hisoblanadi: mehnat sotsiologiyasi, mehnat psixologiyasi, mehnat statistikasi, ergonomika, fiziologiya, mehnat huquqi, akmeologiya va boshqalar.

Zamonaviy tadqiqotlar muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat uchun muhim bo‘lgan o‘qituvchining xususiyatlarini tahlil qilish orqali pedagogik kompetentsiyani tavsiflashning an’anaviy yondashuvini qo‘llab-quvvatlaydi. Kasblarni mehnat predmetiga ko‘ra tasniflab, pedagogik kasbni “insondan shaxsga” turiga ajratadi va bunday kasb egasiga quyidagilar xosligini ta’kidlaydi: rahbarlik, o‘qitish, tarbiyalash qobiliyati; tinglash va eshitish qobiliyati; keng dunyoqarash; madaniyat; shaxsning his-tuyg‘ulari, ongi va xarakterining namoyon bo‘lishini, uning xatti-harakatini, aqliy tasavvur qilish, uning ichki dunyosini modellashtirish qobiliyati yoki imkoniyatini kuzatish; “Inson har doim yaxshiroq bo‘lishi mumkinligiga ishonishga asoslangan insonga dizayn yondashuvi”; empatiya qilish qobiliyati; nostandart vaziyatlarni hal qilish; o‘zini o‘zi boshqarishning yuqori darajasi va h.k. Ko‘pgina tadqiqotchilar kasbiy pedagogik kompetentsiya tushunchasiga ko‘p qirrali o‘qituvchilik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan xilma-xil

bilim va ko‘nikmalarni kiritadilar.

Kasbiy pedagogik kompetentsiya o‘qituvchining o‘zi tashuvchisi bo‘lgan mutaxassisligini talaba shaxsini shakllantirish vositasiga aylantirish qobiliyati sifatida tavsiflanadi. Ammo agar kompetentsiya pedagogik kasbiy faoliyatning boshqa omillariga qo‘shni omil bo‘lib kasbiy kompetensiyasi umumiy tushuncha hisoblanadi.

Kasbiy kompetentsiya – bu “pedagogik faoliyat, pedagogik muloqot yetarlicha yuqori darajada amalga oshiriladigan, o‘qituvchining shaxsiyati amalga oshiriladigan, maktab o‘quvchilarini o‘qitish va tarbiyalashda yaxshi natijalarga erishiladigan o‘qituvchining ishi”. Ushbu yondashuvning katta afzalligi shundaki, kasbiy kompetentsiyaning barcha xususiyatlari o‘qituvchi ishining uchta jihati bilan bog‘liq: uning texnologiyasi – o‘qituvchining haqiqiy faoliyati, pedagogik muloqot va o‘qituvchining shaxsiyatidir.

Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi:

– murakkab jarayonlarda:

– noaniq vazifalarni bajarishda;

– bir-biriga zid ma’lumotlardan foydalanishda;

– kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo‘la olishda.

Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis:

– o‘z bilimlarini izchil boyitib boradi;

– yangi axborat o‘zlashtiradi;

– davr talablarini chuqur anglatadi;

– yangi bilimlarni izlab topadi;

– ularni qayta ishlaydi va o‘z amaliy faoliyatida samarali qo‘llaydi.

Pedagogik kompetentsiyaning bir nechta quyi tuzilmalari mavjud: maxsus kasbiy kompetentsiya, ijtimoiy kompetentsiya, shaxsiy kompetentsiya, individual kompetentsiya. Nafaqat faol kontekstda, balki o‘qituvchining butun ishi, jumladan, faoliyatdan tashqari, shaxsiyat va muloqotda ham belgilaydi. O‘qituvchining pedagogik faoliyati ostida fan bo‘yicha bilimlar, o‘qitish usullari va didaktikasi, shuningdek, pedagogik muloqot ko‘nikmalari (madaniyati) uyg‘unligini tushunadi.

Kasbiy kompetentsiya nafaqat o‘qituvchiga o‘z kasbiy faoliyatini samarali amalga oshirishga imkon beradigan bilimlar, ko‘nikmalar, fazilatlar va xususiyatlar to‘plami sifatida ko‘rib chiqilishi kerak, balki uni subyektiv yaxlitlik nuqtai nazaridan ya’ni shaxsiy kompetentsiya sifatida tahlil qilish kerak. Ko‘pincha, o‘qishlarda kasbiy kompetentsiya ko‘rsatkichlari obyektiv zarur bilimlar, qobiliyatlar, ko‘nikmalar, shuningdek, kasbiy pozitsiya, psixologik xususiyatlar (sifatlar) bilan belgilanadi.

Biz kompetentsiyani o‘qituvchining kasbiy rivojlanishining hozirgi va samarali darajasi deb hisoblashimiz mumkin, quyidagi bloklar kasbiy rivojlanishning tarkibiy qismlari sifatida qaraladi:

1) kasbiy ahamiyatga ega shaxsiy fazilatlar (asosiy blok);

2) umumiy kasbiy bilim;

3) psixologik-pedagogik mahorat.

O‘qituvchining kasbiy va shaxsiy rivojlanishi maqsadida uzluksiz pedagogik ta’lim tizimini loyihalash, unda mutaxassis shaxsi modelini aniq ifodalashdan boshlanishi kerak.

Malaka oshirish modeli tarkibiga quyidagi tarkibiy qismlar kiradi:

– bo‘lajak o‘qituvchiga buyurtma, zamonaviy texnologiya fani o‘qituvchisi sifatlari tizimi;

– ixtisoslashtirilgan sinf o‘quvchilarining (universitetgacha bo‘lgan bosqich), tala-

balarning (universitet bosqichi) ehtiyojlari va qiziqishlarini o‘rganish;

– talabaning shaxsiy imkoniyatlari tizimini rivojlantirish: universal kasbiy va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish;

– shaxsning fazilatlari va individual xususiyatlari tizimini rivojlantirish: shaxsiy xususiyatlar (kasbiy yo‘nalish), shaxsiy xususiyatlar, dunyoqarash, individual faoliyat uslubi.

O‘qituvchilarning uzluksiz ta’lim tizimi faoliyatining umumiy maqsadiga asoslanib, o‘qituvchilarni tayyorlashning har bir bosqichining maqsadlarini aniqlash, kasbiy kompetentsiyani rivojlantirishni ta’minlash kerak. Universitetga tayyorgarlik bosqichi kelajakdagi talabada o‘qituvchilik kasbiga qiziqishni rivojlantirishga, o‘z-o‘zini bilish, fikrlash va o‘z-o‘zini harakatga asoslangan kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan fazilatlar va shaxsiy xususiyatlarni rivojlantirishga qaratilgan. Bizning holatda, texnologiya o‘qituvchisi faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, ixtisoslashtirilgan sinfga o‘quvchilarni tanlashda amaliy faoliyat uchun qobiliyatlarni aniqlash kerak.

Shunday qilib,

– uzluksiz ta’lim tizimida texnologiya o‘qituvchisi quyidagi kompetensiyalarni takomillashtirib borishi lozim bo‘ladi: kuzatish, sxema va chizmalarni tushunish va o‘qiy olish, fazoviy fikrlash, texnik jihoz va qurilmalarni ishlata olish va buyum yasash bilan bog‘liq ishlarni amalga oshira olishni bilishi;

– oliy ta’lim tizimi bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy va shaxsiy rivojlanishi uchun asosiy hisoblanadi, chunki aynan shu davrda bo‘lajak o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy fazilatlarini shakllantirish uchun eng qulay sharoitlar mavjud.

– oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim yetakchi maqsad sifatida shaxsiy va ta’lim ehtiyojlarini qondirish uchun keyingi kasbiy va shaxsiy o‘sish, o‘qitishning individual uslubini rivojlantirish, qayta tayyorlash va malakasini oshirish uchun o‘z-o‘zini tarbiyalash faoliyatini o‘z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2020-yil 30-sentabr.https://sudyalaroliykengashi.uz/uz/reports/211

2. Muslimov M., Usmonboyeva N.A., Sayfurov M.H., To‘rayev D.M. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari / Muslimov – T., 2015. – 120-bet.

3. Ishmurodova G.I. Texnologiya o‘qituvchisi didaktik kompetensiyalarini takomillashtirish //Ilm sarshasmalari. 2021 y.№10.105-109 b.

4. Qochqorova N.M. Pedagogik kasbiy kompetentligi va kreativlik. Darslik. Bookmany print – 2022-259 b.

6. Salayeva M.S. Umumiy pedagogika. Darslik. – T.: “Nodirabegim”. 2021. – 598-bet.

7. Musurmanova A. va boshq. Umumiy pedagogika. O‘quv qo‘llanma. "O‘z kitob savdo nashriyoti", 2020

8. Mavlonova A., Vohidova N.H., Raxmonqulova N.H. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik. – T.: Fan, 2010

Bekpashsha DAUTOVA,
Urganch davlat universiteti, tayanch doktorant

SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIM KONSEPSIYASI VA UNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada o‘quvchilarning individual ehtiyojlari, qobiliyatlari va o‘rganish uslublariga moslashtirilgan yondashuvning ahamiyati, tajriba-sinov natijalari asosida shaxsga yo’naltirilgan ta’limning ahamiyati va o‘quvchilarning umumiy rivojlanishiga ta’siri qiyosiy tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada o‘quvchilarning o‘rganish uslublariga moslashtirilgan ta’lim yondashuvi an’anaviy ta’limga qaraganda ancha samarali ekanligi ochib berilgan.

Tayanch so’zlar. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, ta’lim jarayoni, individual ehtiyojlar, o‘rganish uslublari, akademik muvaffaqiyat, motivatsiya, ta’lim tizimi, o‘quvchilarni rag‘batlantirish, kognitiv rivojlanish.

В статье раскрыто важность подхода в образовательной системе, который адаптирован к индивидуальным потребностям, способностям и стилям обучения учащихся, результаты эксперимента влияния персонализированного образования на успех и общее развитие учащихся. Также, в статье приводятся анализ исследований подхода к обучению, адаптированный под потребности учащихся, которая значительно эффективнее традиционного образования.

Ключевые слова. Персонализированное образование, образовательный процесс, индивидуальные потребности, стили обучения, академический успех, мотивация, образовательная система, вовлеченность студентов, когнитивное развитие.

The article reveals the importance of an approach in the educational system that is adapted to the individual needs, abilities and learning styles of students, the results of the experiment on the influence of personalized education on the success and overall development of students. Also, the article provides an analysis of research on the approach to learning adapted to the needs of students, which is much more effective than traditional education.

Key words. Personalized education, educational process, individual needs, learning styles, academic success, motivation, educational system, student engagement, cognitive development.

So‘nggi yillarda ta’lim tizimlari dunyo bo‘ylab katta o‘zgarishlarga duch keldi, bu o‘zgarishlar o‘quvchilarning ehtiyojlarini, qiziqishlarini va individual imkoniyatlarini yanada yaxshiroq inobatga olishga qaratilgan. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim (person-oriented education) — bu ta’lim jarayonini o‘quvchining individual xususiyatlariga moslashtiradigan yondashuvlardan biridir. Bu yondashuvda ta’lim jarayoni nafaqat o‘quvchilarning akademik bilimlarini oshirishni, balki ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini ham qo‘llab-quvvatlashni maqsad qiladi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda o‘quvchi markazga qo‘yilib, uning ehtiyojlari, qiziqishlari, qarashlari, va rivojlanish bosqichlari inobatga olinadi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tizimi o‘quvchilarning shaxsiy potensialini to‘liq ochish va rivojlantirishga qaratilgan. Bu yondashuv, o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish, o‘rganish jarayonida faol ishtirok etishlariga yordam berish va ularning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunda o‘qituvchi nafaqat bilim manbai, balki o‘quvchiga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi hamroh sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Ta’limda o‘quvchining holati, emotsional va ijtimoiy salohiyati ham

e’tiborga olinadi. Bu yondashuv shaxsning intellektual o‘sishi bilan birga uning emotsional va ijtimoiy rivojlanishini ham qo‘llab-quvvatlaydi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning asosiy tamoyillaridan biri o‘quvchining o‘zini o‘zi anglash, o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish va individual ehtiyojlariga javob beradigan ta’lim muhitini yaratishdir. O‘quvchilar o‘zlari uchun kerakli bilimlarni va ko‘nikmalarni olish jarayonida faol qatnashadilar. Bu yondashuv, o‘quvchilarning jismoniy, hissiy va aqliy rivojlanishini har tomonlama qo‘llab-quvvatlaydi va ularga o‘zlarini to‘liq namoyon etish imkonini beradi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tizimi, shuningdek, o‘quvchilarning turli ijtimoiy va madaniy fonlarni inobatga olgan holda ta’lim olish imkoniyatlarini taqdim etadi. Bu yondashuv ta’limda inklyuzivlikni kuchaytiradi, ya’ni har bir o‘quvchining o‘ziga xos xususiyatlari va ehtiyojlariga qarab ta’lim jarayonini moslashtiradi. O‘quvchilarning individual xususiyatlariga moslashtirilgan ta’lim dasturlari, turli metodlar va yondashuvlar yordamida ularning har biri o‘z imkoniyatlarini eng yaxshi tarzda rivojlantira oladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim O‘zbekistonda ham davlat siyosatining bir qismi sifatida ko‘rilmoqda. Masalan, 2017-yildan boshlab, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ta’lim tizimini rivojlantirish va yangilash borasida bir nechta yirik islohotlar boshlandi. Bu islohotlar davomida, o‘quvchilarning individual o‘sishini va ijtimoiy, emotsional rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan dasturlar va yondashuvlar ishlab chiqildi. Ta’limdagi yirik islohotlar, xususan, o‘qitish uslublarini modernizatsiya qilish, o‘quvchilarga mustaqil fikrlash va tanqidiy yondashuvni rivojlantirishga e’tibor qaratishga yo‘naltirilgan. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning O‘zbekistonda joriy qilinishi, o‘quvchilarning qobiliyatlari va ehtiyojlariga qarab o‘quv rejalarini moslashtirishni taqozo etadi. Bu esa nafaqat bilim olish jarayonini osonlashtiradi, balki o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlari va liderlik salohiyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. O‘zbekistonning ta’lim tizimida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni kengaytirish uchun o‘qituvchilarni tayyorlash, yangi o‘quv metodikalarini ishlab chiqish va innovatsion texnologiyalardan foydalanish kabi masalalar ustida ish olib borilmoqda.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi bir nechta mashhur mutafakkirlarining ishlari bilan rivojlangan, ular ta’lim jarayonida o‘quvchini faol ishtirokchi sifatida ko‘rishgan. Jon Dewey (1916) zamonaviy ta’lim nazariyasining asoschisi sifatida tanilgan. Dewey ta’limni faqat bilim berish jarayoni sifatida emas, balki o‘quvchining tajribalari va qiziqishlari asosida shakllanishi kerakligini ta’kidlagan. Uning fikricha, ta’lim o‘quvchilarni real hayot tajribalari bilan bog‘lash orqali amalga oshirilishi kerak va o‘quvchi faqat passiv bilim oluvchi emas, balki o‘z bilimini faol ravishda quruvchi bo‘lishi lozim. Maria Montessori (1912) shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda o‘ziga xos yondashuvni taklif qilgan. Montessori metodikasi, o‘quvchining tabiiy rivojlanishiga hurmat ko‘rsatish va mustaqil o‘rganishni rag‘batlantirishni o‘z ichiga oladi. U ta’lim jarayonida o‘qituvchini ko‘proq yo‘l-yo‘riqchi sifatida ko‘rdi va har bir bolaning o‘ziga xos rivojlanish tezligini hisobga olishni ta’kidlagan. Jan Piaget (1952) kognitiv rivojlanish nazariyasini ilgari surgan psixolog sifatida tanilgan. Piaget ta’limni bolaning intellektual rivojlanish bosqichlariga asoslanib qurishni ta’kidlagan. U o‘quvchining o‘z tajribasi orqali bilim qurishini ta’kidladi va bu ta’lim jarayonida shaxsning rivojlanish bosqichlarini inobatga olish zarurligini ko‘rsatdi. So‘nggi yillarda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim ta’lim amaliyotiga kengroq kirib borib, o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirilgan yondashuvlarni ishlab chiqish kerakligini ta’kidlaydi. Tomlinson va Imbeau (2010) farqlangan ta’lim shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning asosiy yondashuvlaridan biridir. Tomlinson va Imbeau o‘qituvchilarni o‘quvchilarning qobiliyatlari, o‘rganish uslublari va qiziqishlariga mos ravishda ta’limni

moslashtirishga chaqiradi. Bu yondashuv o‘quvchilarning har biri uchun individual yordam va qiyinchiliklarni taqdim etadi, shu bilan birga, har bir o‘quvchiga muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini yaratadi. Howard Gardnerning ko‘p intellektualar nazariyasi (1983) shuni ta’kidlaydiki, har bir insonda turli xil intellektual imkoniyatlar mavjud. Bu intellektualar lingvistik, matematik, musiqiy, jismoniy, interpersonal, intrapersonal va boshqalar. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda bu nazariya o‘quvchilarning turli kuchli tomonlarini inobatga olish zarurligini ko‘rsatadi. McTighe & Wiggins (2005) shaxsga yo’naltirilgan ta’lim jarayonini o‘quvchining individual ehtiyojlari va qiziqishlariga moslashtirishni o‘z ichiga oladi. Bu yondashuvda o‘quvchilar o‘z o‘rganish jarayonlarida faol qatnashadilar va ta’limni o‘z shaxsiy maqsadlariga mos ravishda tashkil etadilar. Texnologiyalardan foydalanish bu jarayonni yanada samarali qilish imkoniyatini beradi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim faqat kognitiv rivojlanishni emas, balki o‘quvchilarning ijtimoiy va emotsional rivojlanishini ham o‘z ichiga oladi. Bu yondashuv o‘quvchilarning motivatsiyasi, farovonligi va o‘zini ifoda etishiga katta e’tibor beradi.

Metodologiya. Ushbu tajribada 10-sinf o‘quvchilaridan 30 nafar ishtirokchi tanlanadi va ular ikki guruhga bo‘linadi. Guruh A (Nazorat Guruh) va Guruh B (Eksperimental Guruh). Guruh A (15 o‘quvchi) an’anaviy ta’lim usullarida ta’lim oladi (bir xil yondashuv). Guruh B (15 o‘quvchi) shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni oladi, bunda ta’lim har bir o‘quvchining o‘rganish uslubiga moslashtiriladi (vizual, auditiv yoki kinestetik). Tajribadan oldin har ikki guruhga ham algebradan o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha boshlang‘ich bilimlarni baholash uchun test beriladi. Test 20 ta test savolidan iborat bo‘lib, har biri 5 balldan qiymatlangan, jami 100 ballni tashkil etadi. Guruh A an’anaviy darslar, tarqatmalar va guruh muhokamalari orqali ta’lim oladi. Guruh B shaxsiylashtirilgan ta’lim resurslarini oladi. Vizual o‘quvchilar diagrammalar, sxemalar va videolar bilan ta’minlanadi. Auditiv o‘quvchilar yozib olingan tushuntirishlar, podkastlar va og‘zaki muhokamalar bilan ishlaydi. Kinestetik o‘quvchilar fizik obyektlar, interaktiv simulyatsiyalar va amaliy mashg‘ulotlar bilan ishlaydi. 4 hafta o‘qishdan so‘ng har ikki guruhga ham shunga o‘xshash test beriladi. Har ikkala guruh uchun birinchi test natijalari quyidagi jadvalda berilgan:

Guruh A														
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
65	70	60	55	80	65	75	50	70	60	65	75	65	65	70

Guruh A uchun O‘rtacha Birinchi Test Natijasi:

O‘rtacha Ball= =66

Guruh B														
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
70	85	65	75	90	80	85	75	90	75	80	80	70	75	90

Guruh B uchun O‘rtacha Birinchi Test Natijasi:

O‘rtacha Ball== 79

4 haftalik shaxsga yo’naltirilgan ta’limdan so‘ng, ikkinchi test natijalari quyidagicha bo‘ldi.

jadvalda berilgan:

Guruh A														
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
70	70	65	65	80	70	75	55	75	65	70	75	70	70	70

Guruh A uchun O‘rtacha Ikkinchi Test Natijasi:

O‘rtacha Ball= = 70

Guruh B														
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
80	90	80	85	95	80	90	90	90	85	85	90	80	80	90

Guruh B uchun O‘rtacha Ikkinchi Test Natijasi:

O‘rtacha Ball== 86

Eksperimentning natijalarini tahlil qilish uchun, birinchi va ikkinchi testlar orasidagi o‘rtacha yaxshilanishni hisoblash orqali shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning samaradorligini baholaymiz.

O‘rtacha Yaxshilanish (Guruh A) = 70-66=4

O‘rtacha Yaxshilanish (Guruh B)= 86-79=7

Demak, Guruh B (Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim)da o‘quvchilarning o‘rtacha natijalari 7 ballga yaxshilandi. Bu natijalar shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning (shaxsiylashtirilgan o‘qish usullari) an’anaviy ta’limga qaraganda o‘quvchilarning akademik natijalarini yaxshilashda samaraliroq ekanligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim o‘quvchilarning individual ehtiyojlari, qobiliyatlari va o‘rganish uslublarini inobatga olgan holda, ta’lim jarayonini samarali tarzda tashkil etishga yordam beradi. Bu ta’lim yondashuvi o‘quvchilarning o‘rganishiga ko‘proq moslashib, ularning motivatsiyasini oshiradi va akademik muvaffaqiyatlarini yaxshilashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, shaxsga yo‘naltirilgan ta'lim o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, ularning hissiy va intellektual o‘sishiga yordam beradi. Ta’lim jarayonining bu tarzda tashkil etilishi o‘quvchilarga o‘z salohiyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarishga imkon yaratadi. Natijada, bu yondashuv faqat akademik muvaffaqiyatni emas, balki o‘quvchilarning umumiy farovonligini ham yaxshilaydi. Kelajakda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni yanada rivojlantirish va kengroq joriy etish ta’lim tizimini yanada samarali va inkluziv qilishga yordam beradi. Bu yondashuv nafaqat o‘quvchilarning o‘rganish jarayonini osonlashtiradi, balki har bir o‘quvchining individual ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olish orqali ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga ham katta hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dewey, J. Experience and Education. Macmillan. 1938

2. Montessori, M. The Absorbent Mind. Holt Paperbacks. 1967

3. Piaget, J. To Understand is to Invent: The Future of Education. Viking Press. 1973

4. Tomlinson, C. A. How to Differentiate Instruction in Mixed-Ability Classrooms. ASCD. 2001

5. Sternberg, R. J. The Theory of Successful Intelligence. InterAmerican Journal of Psychology, 37(2), 189-199. 2003

6. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press. 1978

7. Gardner, H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. Basic Books. 1983

8. Anderson, C. A., & Dill, K. E. Video games and aggressive thoughts, feelings, and behavior in the laboratory and in life. Journal of Personality and Social Psychology, 78(4), 772-790. 2000

Oysha QURBONOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, “O‘zbek tili va uni o‘qitish metodikasi” kafedrasi dotsenti, p.f.f.d (PhD)

ONA TILI FANI TA’LIM MAZMUNINI RIVOJLANTIRISHDA TA’LIMIY VOSITALARNING O‘RNI

Annotatsiya

Maqolada ona tili fani ta’lim mazmunini aniq va ilmiy-nazariy jihatdan to‘g‘ri belgilash, uning ahamiyati, o‘quv mavzularini o‘zaro integratsiyalab o‘qitish, ona tili fanini o‘qitishda o‘quvchilarning nutqini rivojlantirish, og‘zaki va yozma nutqni o‘stirish, ma’lumotlardan foydalanish, o‘z fikrini mustaqil ifoda qilish, nutqiy ko‘nikmalarni egallash bo‘yicha ilmiy qarashlari keltirilib o‘tilgan va tahlil qilingan.

Tayanch so‘zlar. Ona tili ta’lim fani mazmuni, o‘quv dasturi, darslik, nutq ko‘rinishlari, og‘zaki va yozma savodxonlik, nutqiy ko‘nikma, nutqiy kompetensiya, mashq, axborotlar bilan ishlash, o‘quv topshirig‘i, matn ustida ishlash.

В статье раскрыты содержание родного языка, его значение, комплексное преподавание учебных предметов, речевое развитие учащихся при обучении родному языку, научные взгляды ученых на развитие родного языка. Также, в статье приводятся примеры использования информации в письменной речи, выражении мнения и приобретение речевых навыков.

Ключевые слова. Образовательный контент, учебная программа, учебник, речевые модели, устная и письменная грамотность, речевые навыки, речевая компетентность, упражнение, учебная задача, работа над текстом.

The article reveals the content of the native language, its importance, comprehensive teaching of subjects, speech development of students when learning the native language, scientific views of scientists on the development of the native language. Also, the article provides examples of using information in writing, expressing opinions and acquiring speech skills.

Key words. Educational content, curriculum, textbook, speech models, oral and written literacy, speech skills, speech competence, exercise, learning task, work on text.

Til ta’limi tizimini yanada rivojlantirish, uning o‘quv-metodik ta’minotini yanada takomillashtirish va uni amaliyotga tatbiq qilish, og‘zaki va yozma nutq professor-o‘qituvchilar oldidagi asosiy vazifalardan biri sanaladi. Shu nuqtai nazardan, barcha o‘quv fanlari qatori ona tili ta’lim mazmunini ham rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.“Ona tilidan ta’lim mazmuni ma’lumot mazmunidan tanlanadi. Shu jihatdan qaraganda, ma’lumot umumiylik, ta’lim mazmuni xususuylikni ifodalaydi. Ta’lim mazmuni ma’lumot mazmunining dinamikasi-harakati bo‘lib, uni o‘zlashtirish yo‘li bilan ma’lumot mazmunini amalga oshirishga, binobarin, yoshlarni bilimli qilish, rivojlantirish, tarbiyalashga qarab boriladi. Ona tilidan ta’lim mazmuni yoshlarni ona tilidan ma’lumotli qilish, rivojlantirish, tarbiyalash maqsadida ma’lumot mazmunidan tanlanib, ta’lim jarayoniga olib kirilgan bilim, ko‘nikma va malaka, ijodiy faoliyat tajriba-

si, til hodisalarini baholashga oid munosabatlardir”[1]. Ona tili ta’lim mazmuni ta’lim jarayoni subyektlarining so‘z boyligi zaxirasini oshirish, bilimlar kengligi, zaruriy axborotlar bilan ishlash ko‘nikmalari, og‘zaki va yozma nutq savodxonligining amaliy jihati, ijodiy va tanqidiy fikrlashga yo‘naltirish, mantiqiy izchil fikrlash uchun olib borilgan tizimli faoliyatdir. “Ona tili ta’limi mazmuni aniq va ilmiy-nazariy jihatdan to‘g‘ri belgilansagina, oldinga qo‘yilgan talablar to‘liq bajariladi. Ona tili ta’limi mazmuni aniq mavzular va til materiallari asosida dastur va darslikda o‘z ifodasini topadi. Ular biri ikkinchisining ijrochisi bo‘lib, bir-biriga muvofiq kelishi lozim.

Ona tili ta’lim mazmunidagi mashqlarni tuzishdan asosiy maqsadlardan biri ularning og‘zaki va yozma tarzdagi ravon nutqini rivojlantirishga xizmat qilinishini nazardan chetda qoldirmaslik lozim. Talabalarning bilim olishida va ulardagi nutq shakllarini rivojlantirishda ta’lim mazmunining o‘rni muhimdir. Ta’lim mazmunining asosiy mohiyati ko‘plab olimlar tomonidan asoslab berilgan. Jumladan, “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” nomli o‘quv qo‘llanmada ta’kidlanishicha, “Ta’lim mazmuni davlat va jamiyat talablariga ko‘ra, pedagogik texnologiyalarning eng so‘nggi yutuqlari asosida belgilanadi, shakllanadi”[2]. Shuningdek, pedagogik texnologiyalar qanchalik amaliyotga rivojlangan holatda tatbiq qilinsa, ta’lim mazmuni shu darajada rivojlanadi. “Ta’lim mazmuni deganda 1) o‘quv rejalari, 2) o‘quv dasturlari 3) darsliklar, 4) o‘quv metodik qo‘llanmalar nazarda tutiladi. Ona tilidan dastur hamda darsliklar o‘quvchilarning o‘rganishlari uchun tanlangan va ularning o‘zlashtirishlariga muvofiqlashtirilgan til materiallarini o‘z ichiga oladi”.

Ona tili darslarida o‘quvchilar o‘z fikr-mulohazalarini to‘g‘ri, ravon, aniq, tushunarli tarzda yetkazishi uchun tilshunoslikning fonetika bo‘limini yuqori darajadagi bilimlarni egallagan bo‘lishlari bilan birga, grammatik qoidalarni o‘z nutqida qo‘llay olish ko‘nikmasiga, so‘z boyligiga ham ega bo‘lishi nazarda tutiladi. Shu nuqtai nazardan yondashganimizda yuqoridagi ishlar o‘qituvchining mahorati bilan bog‘liq jarayondir. “Ta’lim mazmuni sirasiga o‘quvchilarga taqdim etilayotgan bilimlar ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondira olishi ularni ijodkorlikka, bunyodkorlikka undashi lozim”. Ta’lim mazmunining asosiy vazifasi o‘quvchilarning lingvistik kompetensiyasini va nutqiy kompetensiyasi: tinglab tushunish, eshitish, o‘qish, yozishni adabiy til me’yorlariga mos ravishda rivojlantirishdan iborat. Shu tariqa ularning o‘zaro to‘g‘ri aloqa-aralashuvga e’tibor kuchayib boradi, o‘rinli so‘zlashish, shirinsuxanlik bilan muomala qilish o‘sadi va o‘zining og‘zaki va yozma nutqida leksik birliklarni tanlashni o‘rganadi hamda tafakkur qilish mahsuli paydo bo‘ladi.

Ona tili ta’limi mazmunini takomillashtirishga oid zaruriy bilim va ko‘nikmalarni egallash uchun berilgan turli tipdagi mashq va topshiriqlarni bajartirish talabalarning tasavvur va tafakkur olamini boyitishga, og‘zaki va yozma savodxonligini rivojlantirishga, o‘quv predmeti bo‘yicha berilgan mavzuni o‘zlashtirishga hamda mavzuga xos bilim, ko‘nikma, malakalarni hosil qilishga, rivojlangan madaniy nutq kompetentligini tayanish nutq madaniyatini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois, o‘quv fanining mashq va topshiriqlari mazmuniga alohida e'tibor qaratish lozim.

Talabalar o‘quv jarayonida bilimlarni kengaytirish, kasbiy va nutqiy faoliyatda pedagogik o‘sishning yuzaga kelishi kutilgan ta’limiy, tarbiyaviy natijaga erishish bilan hamohangdir. Bunda o‘qituvchi tomonidan tuzib chiqib talabalarga taqdim qilingan be-

[1] O.R.Roziqov., M.H.Mahmudov., B.R.Adizov., A.R.Hamroev. “Ona tili didaktikasi” “Yangi asr avlodi”, 2005-yil.-24-25b

[2] To‘xliyev B., M.Shamsiyeva.,T.Ziyodova. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. ─T.: Alisher navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. -18b

rilgan mashq va topshiriqlarning o‘rni ahamiyatga molik. “Shakllantiruvchi mashq til materialini o‘zlashtirsada, rivojlantiruvchi mashq nutqda til materialining qo‘llanilishida va takomillashtiruvchi mashq fikrni bayon etish va o‘zga shaxs fikrini idrok etib tushunish maqsadida bajariladi, ya’ni bilim olish, ko‘nikmani egallash va malakani o‘stirishga mo‘ljallangan mashqlar, deb qaraladi. Nutqni egallash xususiyatiga ko‘ra, aniqrog‘i, sezgi va analizatorlarning ishtirokiga qarab, retseptiv va reproduktiv nutq mashqlari bajariladi.Ona tili ta’lim mazmunini rivojlantiruvchi ta’limiy vositalardan biri mashq va topshiriqlar bo‘lib, mavzuni o‘zlashtirish va nutqni o‘stirish bo‘yicha bilimlarni mustahkamlashda asosiy o‘rin egallaydi.

Ona tili ta’lim mazmunini rivojlantirishda mashq va topshiriqlarning bajartirilishi va ulardan mustaqil fikr o‘stirilishi va nutqning boyib borishi yuzaga keladi. “Insonda his-tuyg‘ular orqali to‘plangan tajribadan tashqari, “fikrlar”, “e’tiqodlar”, “qadriyatlar”, “o‘z-o‘zini idrok etish”, “qarashlar” kabi ichki dunyosi tomonidan yaratilgan tajribalardan iborat axborot tizimi mavjud. Bu ichki bilimlar tizimi his-tuyg‘ularimizni yo‘naltiruvchi va boshqaradigan (shuningdek, hislar orqali keladigan ma’lumotlarni o‘tkazib yuboradigan, umumlashtiradigan) “ichki” filtrlar to‘plamini yaratadi”. Ona tili ta’lim mazmunida sohaga va egallanishi lozim bo‘lgan, integratsiyalashgan axborotlarningning izohlanishi, asoslanishi va umumlashtirilishi mantiqiy yondashishni mustahkamlaydi.

Ta’lim mazmunining rivoji quyidagi omillar bilan bog‘liq:

– o‘quv darsliklari o‘quvchini bilim olishga qiziqtira olishi;

– nutqiy ko‘nikmalarni hosil qilishga, og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishiga xizmat qilishi;

– til sathlaridan unumli foydalanishi;

– o‘quv fanlari o‘zaro integratsiyalash orqali o‘qitish;

– dars jarayonida ko‘proq amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirish

Ta’lim mazmuni talabalarning o‘sib borayotgan og‘zaki va yozma savodxonligini, nutqiy kompetensiyalarini yuqori darajada rivojlantirishda zaruriy ta’limiy o‘quv vositasigina bo‘lib qolmay, ularning dars jarayonida hosil bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malakalarini amaliyotga qo‘llashga zamin bo‘ladi. Shuning uchun ta’lim mazmuniga e’tibor qaratish ona tili o‘qituvchisi oldidagi asosiy vazifalardan biri bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Выготский Л.С. Собрание сочинений: В 6-ти т. Т. 1. Вопросы теории и истории психологии/ Под ред. А.Р. Лурия, М.Г. Ярошевского. - М.: Педагогика, 1982. - 488 с.

2. Дилтс Р.Б. Фокусы языка. Изменение убеждений с помощью НЛП. - Спб.: Питер, 2000. – С.31-32

3. Roziqov O.R., Mahmudov M.H., Adizov B.R., Hamroyev A.R. “Ona tili didaktikasi” “Yangi asr avlodi”, 2005-yil.-24-25b

4. Canale M. From communicative competence to communicative language pedagogy // Language and Communication. London : Longman, 1983. P. 2-27.

5. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldoshevaS h., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi . (Boshlang‘ich ta’lim fakulteti talabalari uchun darslik- T.: “NOSHIR”, – 2009. - 352 b.

Umida XAMRAYEVA,
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti, mustaqil izlanuvchi

“BARKAMOL AVLOD” BOLALAR MAKTABLARIDA ALOHIDA TA’LIM EHTIYOJLARI BO‘LGAN BOLALAR BILAN IJODIY MASHG‘ULOTLARNI O‘TKAZISH

Annotatsiya

Maqolada alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarda tasavvur va ijodkorlikni rivojlantirishga yordam beradigan turli nostandart chizish usullari keltirib o‘tilgan. Shuningdek, maqolada noan’anaviy chizish usullari bolalarda mustaqil fikrlash va ijodkorlik orqali o‘z shaxsiyligini ifodalash qobiliyatini rivojlantirishi misollar asosida ochib berilgan.

Tayanch so‘zlar. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar, barkamol avlod maktabi, nostandart rasm chizish usullari, ijodkorlik, chizmatasvir texnikasi.

В статье представлены различные нестандартные техники рисования, которые помогают развивать фантазию и творческие способности у детей с особыми образовательными потребностями. Также, в статье приводятся примеры по использованию нетрадиционных методов рисования которые развивают у детей способность выражать свою индивидуальность посредством самостоятельного мышления и творчества.

Ключевые слова. Особые образовательные потребности, школа “Баркамол авлод”, нестандартные методы рисования, творчество, техники рисования.

The article presents various non-standard drawing techniques that help develop imagination and creativity in children with special educational needs. Also, the article provides examples of the use of non-traditional drawing methods that develop children's ability to express their individuality through independent thinking and creativity.

Key words. Special educational needs, «Barkamol Avlod» school, non-standard drawing methods, creativity, drawing techniques.

2021-yil 27-maydagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining Maktabdan tashqari ta’lim tizimini takomillashtirishning qo‘shma chora tadbirlari to‘g‘risidagi 331-sonli qarori bilan “Barkamol avlod” bolalar maktablari to‘g‘risidagi nizom asosida o‘z ish faoliyatini boshladi va 7-yo‘nalish 65 nomdagi to‘garaklar faoliyatini yo‘lga qo‘ydi. Ushbu yo‘nalishlarda madaniyat va san’at (11 nomdagi to‘garak), texnika konstruktorlik va modellashtirish (17 nomdagi to‘gark), jimoniy tarbiya va sport (4 nomdagi to‘garak), hunarmandchilik va qo‘l mehnati (14 nomdagi to‘garak), turizm va ekologiya (9 nomdagi to‘garak)[1].

Nogironligi bo‘lgan bolalar uchun maktab-internatlarda darslar tashkil etilgan. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar bilan mashg‘ulotlar davomida iloji boricha ko‘proq ko‘rgazmali namoyish, multimedia vositalari, audio va videomateriallardan foydalanish kerak. Tasviriy san’at to‘garagidagi amaliy mashg‘ulotlar bolaga o‘qituvchi bilan birgalikda ishlash jarayonida muayyan harakatlar va usullarni o‘zlashtirishga imkon beradigan maxsus vositalarni talab qiladi. Buning uchun qaychi, cho‘tka, qog‘oz, ye-

[1] O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi “Barkamol avlod” respublika bolalar maktabi. Rasmiy sayt. https:// BABM.uz | Barkamol avlod bolalar maktabi

lim, plastilin, loy va boshqalar kerak bo‘ladi. Badiiy hunarmandchilikning mavjud turlari (batik, kulolchilik, to‘quv, matbaa va boshqalar) bo‘yicha tasviriy faoliyatni rivojlantirish uchun tegishli ustaxonalar uchun xavfsiz uskunalar kerak. Nazariy mashg‘ulotlar, suhbatlarni o‘tkazishda suratlarning reproduksiyalari, kitoblar illyustratsiyalari, fotosuratlar, shuningdek, AKTga asoslangan badiiy faoliyatning o‘ziga xos shakllari (raqamli fotosuratlar, videoyozuvlar, multiplikatsiya elementlari va boshqalar) qo‘llaniladi. Materiallar va asboblarni oqilona joylashtirish, ehtiyotkorlik bilan saqlash uchun maxsus ajratilgan joylar va qurilmalar bo‘lishi kerak. Shuningdek, ishlar ko‘rgazmasi uchun joy kerak bo‘ladi. Bolalar o‘qituvchining yuzini, uning imo-ishoralarini, qo‘l harakatlarini ko‘rishlari, ma’lumotni ko‘rish hamda eshitish orqali idrok etishlari va o‘qituvchi ortidagi fonni ko‘rish imkoniyatlari bo‘lishi uchun eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun partalarni yarim oy shaklida joylashtirish yaxshiroqdir. Mashg‘ulot davomida, albatta, yangi so‘zlarning lug‘ati beriladi: Har bir so‘z predmet yoki tushunchaning tasviri yonidagi doskada yozilishi kerak. Rangli reproduksiyalarni ushbu so‘zlarning tasviri va yozilishi bilan birga ko‘rsating. O‘qituvchi planshetga tortilgan varaqda topshiriqning ijrosi bosqichlarini ko‘rsatadi. Shuningdek, bolalar uchun alohida jismoniy kuch talab qilmaydigan turli xil uslub va tasvir yo‘nalishlari: puantilizm – nuqtali tasvir, abstraksiya, aralash tasvir uslubini qo‘llash foydali bo‘ladi.

Bolaning qo‘llari qalam va bo‘yoqlar bilan chizish jarayonida charchamasligi kerak. Bolalarga chizish misollarlarini ularning o‘z rasmlarida emas, balki alohida qog‘ozda ko‘rsating. Chizish paytida qalamlar sinsa hechqisi yo‘q. Shu yo‘l bilan bola qalamga bosishni o‘rganadi. Xatolari uchun bolalarni koyimang. Iloji bo‘lsa, bolalarni rasmni saranjomlik bilan chizganliklari uchun, ohistalik, mustaqillik va qiyinchiliklarni yengish qobiliyati uchun maqtang. Bajarilgan ish, unga nisbatan hissiy va estetik munosabat haqida savollar bering. Doimo o‘quvchilar ishiga umumiy ijobiy baho bering. Har bir bolaga o‘z vaqtida va uslubiy yordam ko‘rsating, unda o‘z kuchi va imkoniyatlariga ishonchni rivojlantiring. Har bir o‘quvchi uchun topshiriqni bajarish uchun moslashtirilgan usulni tanlash kerak. Bolalar bilan ishlashda har bir o‘quvchiga individual yondashuvga rioya qiling. To‘garak rahbari bolalarga ish joyini tozalashda yordam beradi.

Tasviriy san’at darslarida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga nostandart usullardan foydalanishni tavsiya etish mumkin: puantilizm, grattaj, applikatsiya, nam qog‘ozga rasm chizish. “Puantilizm” – bu rangtasvirdagi noyob yo‘nalish bo‘lib, fransuzchadan tarjima qilinganda “nuqtalar orqali yozish” degan ma’noni anglatadi. Bu kabi suratlar ko‘plab rassomlar tomonidan chizilgan. Masalan, Jorj Syorning suratlari durdona asarlar sifatida tan olingan. U ushbu texnikaning asoschisi hisoblanadi. Puantilizm palitradagi bo‘yoqlarning aralashib ketmasligiga asoslanadi. Yorqin, kontrast ranglar nuqtalar orqali qo‘yiladi va ranglarning aralashuvi bevosita ko‘z to‘rpardasiga optik ta’sir tufayli sodir bo‘ladi deb hisoblanadi. Agar tomoshabin suratga yaqin masofadan qarasa, unda surat yomon ko‘rinadi, lekin agar uzoqdan qaralsa, surat yaxlit holda ko‘rinadi.

“Nam qog‘ozga rasm chizish” uslubi. Bu suv bilan kuchli namlangan qog‘ozni bo‘yash texnikasidir, bu usul akvarel rangtasvirida ham, guash bilan ishlashda ham qo‘llaniladi. Bu rassomdan rang va tus tanlashda aniqlikni talab qiladi.

“Tamg‘alab muhrlash”. Ushbu uslub, predmetning izidan turli xil kompozitsiyalarni shakllantirib bitta predmetni qayta-qayta tasvirlash imkonini beradi. Bola tamg‘ani bo‘yoqli yostiqchaga bosib izini qog‘oz varag‘iga tushiradi. Yarimta olma, kartoshka, daraxt bargi va boshqalardan foydalanish mumkin.

“Monopitiya” uslubi. Varaqni ikki buklab, varaqning bir tomoniga bir necha tomchi suyuq bo‘yoq surkang, uni varaqning ikkinchi yarmi bilan yoping, varaq ochilganda g‘ayrioddiy naqshlarni ko‘rasiz. Ularda gullar, bulutlar, tulki va hokazolarni ko‘rish mumkin. Ushbu usullardan foydalanib, bolalarga simmetriya qonunini tushuntirish oson

“Grattaj”. Qog‘oz varag‘iga sham bilan ishqalab va tush bilan ma’lum bir rangdagi fon beriladi. Quritgandan so‘ng, yog‘och qalam yoki tayoqcha bilan qirib rasm chiziladi.

“Trafaret”. 1-variant: varaqning o‘rtasida siluet kesamiz, trafaretni qog‘oz varag‘iga bosib tampon yordamida siluetni “bo‘yaymiz”. 2-variant: siluet kesamiz, uni qog‘oz varag‘iga qo‘yamiz, tampon yordamida rasmning qolgan qismini “bo‘yaymiz”.

“Applikasiya” – bu biror bir materialdan: turli rangli qog‘oz, karton, mato, teridan kontur bo‘ylab shakllarni kesish va bu shakllarni asosga yopishtirishdan iborat dekorativ san’at uslubidir. Rangli qog‘ozdan aplikatsiyalar qilish mumkin. Shuningdek, noan’anaviy chizish usullari bilan tajribalar bolalarda mustaqil fikrlash va ijodkorlik orqali o‘z shaxsiyligini ifodalash qobiliyatini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, Ta’lim to‘g‘risida 23.09.2020 y. O‘RQ-637-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori “Maktabdan tashqari ta’lim tizimini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 27.05.2021 y. 331-son.

3. Рау М.Ю. Изобразительное искусство. Методические рекомендации. 1 класс.: Учебное пособие для общеобразовательных организаций, реализующих адаптированные основные общеобразовательные программы М. Просвещение 2017. — 72 стр.

4. Xamrayeva U., Xurramov A., Tangirov I. Tasviriy san’at to‘garagi. o‘quv qo‘llanma.

Shoxida BEKMURATOVA,
Andijon davlat pedagogika instituti, “Tasviriy san’at va misiqa ta’limi” kafedrasi v.b.dotsenti, p.f.f.d (PhD)

OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARIGA KOMPOZITSIYA CHIZISH QOIDALARINI O‘RGATISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqolada oliy ta’lim muassasalari talabalariga kompozitsiya chizish qoidalarini o‘rgatish metodikasini takomillashtirish, bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarını kasbiy tayyorlashda yo‘l qo‘yiladigan kamchiliklar, ularning bilim, malaka va ko‘nikmalarini sifatli shakllantirish bo‘yicha taklif va mulohazalar batafsil yoritilgan.

Tayach so‘zlar. Kompozitsiya, tarixiy obraz, tipiklik, xarakterli qiyofa, metodik yondashuv, kompetensiya, realizm, illyustratsiya, badiiy obraz, ritm, kontrast, o‘xshashlik, nisbat, masshtab, rangshunoslik, perspektiva, nisbat, faktura.

В статье рассматриваются вопросы совершенствования методики обучения студентов высших учебных заведений правилам композиционного рисования, недостатки, допускаемые при подготовке будущего учителя изобразительного искусства, роль и значение качественного формирования знаний, умений и навыков студентов.

Ключевые слова. Композиция, исторический образ, типичность, характерный образ, методический подход, компетентность, реализм, иллюстрация, художественный образ, ритм, контраст, сходство, соотношение, масштаб, колорист, перспектива, пропорция, фактура.

The article examines the issues of improving the methods of teaching students of higher educational institutions the rules of compositional drawing, the shortcomings allowed in the preparation of a future teacher of fine arts, the role and importance of the high-quality formation of knowledge, skills and abilities of students.

Key words. Composition, historical image, typicality, characteristic image, methodical approach, competence, realism, illustration, artistic image, rhythm, contrast, similarity, relationship, scale, colorist, perspective, proportion, texture.

Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining badiiy ta’lim jarayonini boshqarishda tayyorlashning amaliy komponentlari orqali o‘zlarining bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirib boradilar. Shu bilan birgalikda amaliy mashg‘ulotlarda ilmiy-nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llay olishi bilan ahamiyatlidir. Jumladan, yurtboshimizning O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha harakatlar strategiyasida belgilangan “Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish” yo‘nalishi bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Yurtimizda tasviriy san’atga hukumat miqyosida e’tibor berilayotgan sharoitda tasviriy san’at o‘qituvchisi zimmasiga ham yangi va yanada ko‘proq mas’uliyat yuklanmoqda. Demak, tasviriy san’at o‘qituvchilarining yangi avlodi ham shunga muvofiq kasbiy darajaga ega bo‘lishi kerak. Shuning uchun ham bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarlik jarayonida talabalarning oliy o‘quv yurtlarida bilimlarini

mustahkamlashda professor-o‘qituvchilarning ham o‘rni beqiyos. Ular olgan bilim, malaka va ko‘nikmalarini to‘g‘ri yo‘naltirishda yordam berishlari muhim jarayon hisoblanadi. Bu borada bo‘lajak mutaxassislarning eng yuqori natijaga erishishlarida kasbiy ko‘nikmalarga oid bilimlari yordam beradi. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisi o‘qish davrida olgan bilimlarini kasbiy faoliyatida mohirona qo‘llay olishi, shu bilan birgalikda pedagogik faoliyatning dastlabki yo‘llarida o‘z kasbiga nisbatan mas’uliyatli bo‘lishi, o‘zining kasbiy salohiyatini muntazam tarzda takomillashtirib borishi, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklardan oqilona xulosa chiqarish va ularni bartaraf etish choralarini ko‘rish kelajakda yaxshi natijaga erishishga yo‘l ochadi. Bu shuni anglatadiki, bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisi pedagogik faoliyatga faqatgina kasbiy-metodik jihatidan tayyorlanishi emas, balki bevosita pedagogik faoliyatda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni aniqlash, taxminiy baho berish, zaruriy korrelatsion choralar ko‘rishga ham tayyor bo‘lishi lozim.

Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisini kasbiy boshqarishga tayyorlashda vaqtlar o‘tgan sari pedagogik tayyorgarligi o‘zgarib boradi. Ular faoliyati davomida zamon bilan hamnafas ravishda zamonaviy texnologik va pedagogik qo‘llab borishi lozim. Amaliy mashg‘ulotlarda bo‘lajak mutaxassislar kasbiy bilimlarini mustahkamlashda quyidagilarni bilishi muhim: tasviriy san’atning qonun-qoidalarini tushunishi, tasviriy san’at asarlarini tahlil qilish, tasviriy san’atda zamonaviy g‘oyalarni ilgari surish, yangi metod va vositalardan samarali foydalanish, innovatsion ta’lim texnologiyalarini qo‘llay olishi, kasbiy amaliy malakalarini rivojlantirish.

Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisini kasbiy boshqarishga tayyorlashning amaliy jarayonlari bilan nazariy bilimlar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Amaliy mashg‘ulotlarda duch keladigan muammolarga yangicha yondashuvlarni izlash, shaxsning o‘z-o‘zini ijodiy rivojlantirishi va takomillashtirishi asosiy o‘rinda turadi.

K.M.Duray-Novakova o‘qituvchi kasbiy tayyorgarligini shakllantirish masalasini tahlil qilib, uni kasbiy tayyorgarlik, kasbga yo‘naltirishni rivojlantirish, kasblar bilan tanishish, kasbiy ta’lim, ta’lim va tarbiya, kasbiy o‘zlikni anglash tushunchalarining qonuniy natijasini keng tushuntirib bergan. Uning fikriga ko‘ra, pedagogik faoliyatga tayyorgarlik - murakkab ta’lim tizimi bo‘lib, uning asoslari talabalarning bo‘lajak o‘qituvchilik kasbiga ijobiy munosabat, yetarlicha barqaror faoliyatning maqsadi, kasbga doir pedagogik bilimlar, malakalar, qobiliyatlar, ularning amalda qo‘llanilishi hisoblanadi.

Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining kasbiy-metodik tayyorlash bosqichining muhim elementi talabalarning topshiriqni mustaqil bajarish jarayoni bilan bog‘liq. Tasviriy san’at ta’limida bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisi o‘zining pedagogik faoliyati davomida, birinchi navbatda, darsning sifati va samaradorligini oshirish uchun zamonaviy interfaol o‘qitish usullari, zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan unumli foydalanish kompetensiyaga ega bo‘lishi talab qilinadi. Bu kompetensiya alohida-alohida, biroq mantiqan bir butun kompleksdan iborat o‘quv materiallarini bosqichma-bosqich o‘zlashtirish orqali shakllantiriladi.

Oliy ta’lim tizimida bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining kasbiy-metodik tayyorlashning metodik bosqichlarini shartli ravishda ikki qismga ajratish mumkin.

1. Talabalarga tasviriy san’atning amaliy mashg‘ulotlarining asosiy vazifalarida belgilangan vazifalarni hal etish bosqichi: bu bosqichda quyidagi topshiriqlar hal etilishi nazarda tutiladi. Tabiatdagi jozibadorlikni his qilish va uni asrab avaylash, estetik va badiiy didni o‘stirish, badiiy fikr, ijodiy qobiliyat va fazoviy tasavvurni rivojlantirish, tasviriy san’atning nazariy asoslari (yorug‘-soya, rangshunoslik, perspektiva, nisbat, faktura, kompozitsiya asarlari va boshqa) bilan tanishtirish, tasviriy faoliyatning turli

yo‘nalishlari bo‘yicha malakalar hosil qilish, kuzatuvchanlik, ko‘rish xotirasi, chamalash qobiliyati, fazoviy va obrazli tasavvurlarni, abstrakt va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish, tasviriy, amaliy san’at me’morchilik asarlarini tushungan holda o‘qiy olishga o‘rgatish, san’atga nisbatan qiziqish uyg‘otish, uni qadrlashga, sevishga o‘rgatish.

2. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisini kasbiy-metodik tayyorlashning ikkinchi bosqichida asosiy vazifalar sifatida borliqni bilishga ko‘maklashish; milliy g‘urur va milliy istiqlol mafkurasini amalga oshirish, talabalarda axloqiy va vatanparvarlik hissini tarbiyalash, mehnat, jismoniy tarbiyani amalga oshirish, o‘quvchilarni turli kasb-hunarlarga yo‘naltirish.

Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarlik bosqichlarini o‘rgatishda mutaxassislikdan boshqa fanlarning ham o‘rni beqiyos. Ulardan adabiyot, geografiya, tabiatshunoslik, biologiya, tarix, matematika, texnologiya darslari ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bu fanlar bilan chambarchas holda talabalarga milliy san’atimiz orqali jahonda xalqaro miqyosida e’tirof etish umuminsoniy badiiy qadriyatlar ko‘p asrlik milliy an’analar madaniyatimizni bog‘lagan holda asarlar yaratib o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini o‘stirishga alohida ahamiyat berishi lozim (1-rasm).



1-rasm. Tasviriy san’at darslarida integratsion jarayonlar.

Oliy ta’lim tizimida talabalarni tasviriy san’at ta’limida o‘quv predmeti hisoblangan kompozitsiya orqali o‘quvchilarni tasviriy ijodiy faoliyatiga yo‘naltirishda bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilari quyidagilarni inobatga olish zarur:

– o‘quvchilarni tabiat, san’at va hayotdagi go‘zalliklarni idrok etishga o‘rgatish;

– o‘quvchilarni badiiy fikr doirasini kengaytirish borliqdagi hayotiy va tarixiy voqealarni ijobiy baholashga o‘rgatish;

– o‘quvchilarning tasviriy faoliyatida nisbatlarni to‘g‘ri idrok etishga o‘rgatish;

Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishda talabalarning asarlar yaratishi, badiiy obrazlar orqali o‘quvchilarga adabiyotga, tarixga qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.

Shu o‘rinda buyuk pedagog va rassom P.P.CHistyakov o‘z shogirdlariga har doim shunday der edi: “Qanday ish bo‘lishidan qat’iy nazar, u o‘zining tartibi va qonun-qoidasiga ega, shuning uchun har qaysi ishni o‘rtasidan yoki oxiridan emas, balki boshidan boshlash kerak”. Shunday ekan, kompozitsiyada asarlar yaratishda bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisi kompozitsion qonun qoidalarga rioya qilmasa kutilgan natijaga erisha olmaydi. Talabalar katta asarlarga qo‘l urishdan oldin oddiyroq shakllardagi eskizlar chizishdan boshlagani ma’qul. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining kas-

biy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishda nafaqat badiiy asar, balki har qanday mavzuda kompozitsiya tasvirlashda uning kulminatsion joylariga kerakli elementlarini aniq tasvirlay olishi zarur. Ayniqsa, bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisi uchun murakkab ijodiy asar yaratishda odam gavdasini to‘g‘ri tasvirlash eng muhim jarayon hisoblanadi. Kompozitsiyaning asosiy jihatlaridan yana biri dinamik xarakterini topish, har bir detalni tus yaxlitligida nozik ifodalash muhim. Bu qoidalarga ijodiy kompozitsiya yaratishda qat’iy rioya qilish zarur. Bu tajribalar talabalarning ko‘plab mashg‘ulotlarda amalda bajargan asarlarida ko‘rina boshlaydi.

Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligida o‘quvchilarda illyustrativ rasm ishlashga oid qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish masalasi diqqat markazida bo‘lmog‘i lozim. Chunki maktab tasviriy san’at ta’limida illyustrativ rasm ishlashga yetarli mavzular ajratilgan bo‘lib, bu turdagi mashg‘ulotlar o‘quvchilarda kompozitsion faoliyat yuritishning asosiy vositasi sifatida qaraladi. Illyustratsiyada eskiz kompozitsiya g‘oyasi va badiiy yechimini ochib berishda katta rol o‘ynaydi. Talabalar har xil ko‘rinishdagi eskizlarni o‘zaro taqqoslab, yaxshi kompozitsiya yechimini jamlab to‘g‘ri tanlov qilishi zarur. Eskiz tasvirlanadigan kompozitsiyaning mazmuni va yo‘nalishini belgilaydi. Badiiy asar syujetiga qarab ijodiy kompozitsiya grafika yoki rangtasvir texnikasida ishlanish mumkin. Bu omil ham illyustrativ rasm ishlash darslarini tasviriy san’at ta’limining boshqa yo‘nalishlariga nisbatan kengroq didaktik imkoniyatga egaligi bilan ajralib turadi.

Taniqli mashhur rassom va pedagog Ye.Kibrik “Kompozitsiya masalalariga doir” asarida bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilariga kompozitsiyani tasviriy san’atdagi obyektiv qonunlarni, kompozitsiyani o‘qitish sohasidagi metodik qo‘llanmadagi kamchiliklarni uqtirib, bo‘lajak mutaxassis uchun muhim tavsiyalar bergan. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisi shuni yoddan chiqarmasligi kerakki, eskizlarning dastlabki namunalari qoralamalar ishlaganda ham o‘ziga xos o‘lcham, mutanosiblikka amal qilishi zarur, ya’ni talaba badiiy asar mazmuni, kompozitsion yechimi va undagi voqealarni hayotiy tasvirlash uchun ko‘plab qoralamalar ishlashi tavsiya qilinadi.

Kompozitsiyaning yana bir jihatlaridan biri kontrastlar qonunidir. Bu qonun kompozitsiyadagi obrazlarning rang va ton jihatidan bir-biridan keskin farq qilishini bildiradi. Uning aniq g‘oyasiga mos ravishda shakl, rang va boshqa jihatlarni jamlab olinishi lozim. Tasvirdagi hayvonlar, daraxtlar, tog‘-u toshlar, soyalar, hattoki osmondagi bulutlar ham shakl va rang jihatidan mazmunga mos tarzda bo‘lish kerak. Shundan xulosa qilish mumkinki, bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisi ijodiy asarlar tasvirlash muvozanat qonuniga amal qilishi lozim. Bu qonun, asosan, qog‘oz tekisligiga joylashgan elementlarning chap va o‘ng, yuqori va past tomonlarida shakl, rang, ton, detallar soni, ularning katta yoki kichikligi jihatidan har bir tasvirlagan asarlarida qo‘llay olishi muhim. Tasvirlayotgan kompozitsiyada bu xususiyatlar ko‘p yoki oz bo‘lsa muvozanat qonunini buzilishiga olib keladi. Bu esa kompozitsiyaning u yoki bu tomoni pastga yoki yuqoriga, chapga yoki o‘ngga og‘irlik seziladi. Kompozitsiyaning bu qonuniyati bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligining barcha bosqichlarida o‘rgatib boriladi. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini metodik tayyorgarligini takomillashtirish bosqichida amal qilinadigan qonun san’at asarlarini yaratish uchun asos bo‘luvchi uyg‘unlik qonunlaridir. Bu qonunlarga muvozanat qonuni, birlik va bir-biriga bo‘ysunish qonuni kiradi. Kompozitsiya yaratishda uyg‘unlik qonuni asosan yordamchi ijodiy vositalar (ritm, kontrast, o‘xshashlik, nisbat, masshtab) bilan tasvirlanadi. Talabalar bu vositalarni har bir tasvirlayotgan ijodiy kompozitsiyalarida qo‘llay olishi va eng

muhimi, bu ijodiy jarayonni o‘quvchilarga tushuntirish uchun kasbiy-metodik jihatdan tayyor bo‘lishi lozim.

Kompozitsiya qonuniyatlarini bilgan holda, u asar qahramonlarining syujetini rivojlantiradi, umumlashtiradi va tiplashtiradi, shu orqali badiiy obrazlarning eng yuksak ko‘tarilishi va ta’sirchanligiga erishadi. Tasvirlangan illyustratsiyalarda Sohibqiron Amir Temurning hayot yo‘llari ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi. Kompozitsiyada jangdan sarosimaga tushib, dushmandan qutilib qolish uchun qochayotgan yoki o‘zi yaralangan holatda bo‘lsa ham, dushmanga taslim bo‘lmayotgan askarlar harakatining dinamik qiyofalarini real tasvirini ko‘ramiz. Asarning asosiy g‘oyasi jang bo‘lganligi sababli orqa fonda bir-biriga qarama-qarshi dushmanni yengishga, omon qolishga intilayotgan askarlar tasvirlangan. Shu bilan birgalikda orqa fondagi tabiat, yorug‘lik va fazoviy muhitni uyg‘unlashtirib tasvirlash lozim. Urush qurbonlarsiz bo‘lmaganidek, bizning kompozitsiyamizda ham askarlarning yaralanayotgan va yaralangan jarayoni ham mohirona aks ettirish zarur. Suratning birinchi planida pastki tomonda halok bo‘lgan harbiylarni ko‘rsatish mumkin. Bu tomoshabinga jang shiddatini ko‘rsatib beradi.

Maktab tasviriy san’at ta’limida belgilangan o‘quv kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida ustuvor tarzda realistik tasviriy qonuniyatlariga asoslanish nazarda tutilgan. Shuning uchun bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisi ijodiy kompozitsiya tasvirlayotganda realizimdan uzoqlashmaslikni va bu jarayonni o‘quvchilarga tushuntirishda mos metodik yondashuv qo‘llay bilishi lozim. Ayniqsa, natura asosida tasvirlash bir qator qullayliklar yaratadi. Sababi talaba naturadan ishlangandan ko‘ra tasavvurdan ishlasa ko‘proq xato qiladi. Bu holat maktab tasviriy faoliyatida ham kuzatiladi. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisi doimiy rivojlanishida hayotni va tarixiy obrazlarni haqqoniy tasvirlashda zamon bilan hamnafas bo‘lishi ularning kasbiy-metodik tayyorgarlik jarayonining barcha bosqichlarida amalga oshiriladi. Shuning uchun ham tasviriy san’at o‘qituvchisi o‘zining pedagogik faoliyati davomida doimo izlanishda bo‘lishi lozim. Ular bir badiiy asar tasvirlashda ham, biron bir mavzu ustida ish olib borganda ham pedagogik faoliyatining ajralmas qismi sifatida mavzu yuzasidan ko‘plab materiallar to‘plash davomida tarixiy obrazli holat, tipiklik, xarakterli qiyofa, kiyinish va boshqa jihatlariga oid materiallar jamlab boradilar. Shu tariqa to‘plangan materiallar bilan chizib olgan qoralamalarni jamlagan tarzda yakunlash va umumlashtirish bosqichiga o‘tiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-apreldagi “Tasviriy va amaliy san’at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4688-sonli Farmoyishi. //O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. https://lex.uz/docs/-4795687.

2. Небылицын В.Д. Избранные психологические труды. – М.: Педагогика, 1990. – 365 с.

3. Bekmuratova Sh. N. International scientific-online conference. Part 8. – Great Britain: London “CESS”, 2023. 226-231-228 p.

4. Drapeau, Patti. Sparking Student Creativity: Practical Ways to Promote Innovative Thinking and Problem Solving. ASCD, 2014. – 591 p.

5. Ziyomuhammadov B., Tojiev M. Pedagogik texnologiya – zamonaviy o‘zbek milliy modeli. –T.: “Lider press”, 2009. –132 b.

Dildora MIRVALIYEVA,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, Jurnalistika va o‘zbek filologiyasi fakulteti, “Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrasi”, o‘qituvchi

ISH YURITISHDAGI HUJJATLARDA TIL VA USLUB MASALALARI
(Farmoyish hujjatlari misolida)

Annotatsiya

Maqolada ish yuritishda faol qo‘llaniladigan hujjat turlari tavsiflanadi hamda davlat va idora, korxonalar boshqaruvidagi farmoyish hujjatlari va ularning shakli, maqsadi va vazifalari haqida batafsil ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, farmoyish hujjatlarining bugungi munosabatlardagi ahamiyati, o‘ziga xos xususiyatlari haqida so‘z boradi.

Tayanch so‘zlar. Davlat tili, uslub, farmoyish, buyruq, ko‘rsatma, aniqlik, qolip, rasmiy ish yuritish uslubi, hujjatlar, adabiy nutq.

В статье рассмотрены виды документов, наиболее активно используемые в деловой практике, а также даны сведения о форме, назначении и функциях управленческих документов в государственном, ведомственном и предпринимательском управлении. А также, раскрыты значения и специфика приказных документов в современных отношениях.

Ключевые слова. Государственный язык, стиль, распоряжение, приказ, инструкция, точность, образец, официально-деловой стиль, документы, литературная речь.

The article examines the types of documents most actively used in business practice, and also provides information on the form, purpose and functions of management documents in state, departmental and entrepreneurial management. And also, the meanings and specifics of order documents in modern relations are revealed.

Key words. State language, style, order, command, instruction, precision, sample, official business style, documents, literary speech.

Davlat tili to‘g‘risidagi qonun qabul qilingandan so‘ng barcha hujjatlar davlat tilida yuritila boshlandi. Davlat tiliga bo‘lgan e’tibor haqida to‘xtalib Prezident Sh.M.Mirziyoyev shunday degan edi: “har birimiz davlat tiliga bo‘lgan e’tiborni mustaqillikka bo‘lgan e’tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz lozim”[1]. “Davlat tilida ish yuritishda barcha hujjatlar matnini tuzish rasmiy ish yuritish uslubiga asoslanadi. Qonunchilikda, ishga aloqador yozishmalarda, huquqiy munosabatlar, diplomatiya sohasida mazkur uslubda xabar(darak) vazifasi o‘z ifodasini topadi”[2]. Mazkur ish qadimiy davlatchilik an’analarimizdan kelib chiqib, shuningdek zamonaviy hujjatchilikdagi tajribalarga asoslangan holda amalga oshirilmoqda.

Hujjatlarning davlat tilidagi andozalarini yaratish terminologiya bilan hamda rasmiy ish yuritish uslubi bilan jips bog‘liq. Hujjatlar matnini tuzishda maxsus so‘zlar (terminlar) sintaktik konstruksiyalardan grammatik me’yorga rioya qilgan holda foydalaniladi, ya’ni ega gapning boshida kesim gapning oxirida keladi. Shuningdek, aniqlovchi bo‘laklar aniqlanmishlardan oldin qo‘llansa, to‘ldiruvchi fe’l kesimga boshqaruv yo‘li

[1] Mirziyoyev Sh.M. O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutq // Xalq so’zi, 2019-yil 22-oktabr.

[2] Taxirov Z.T. O‘zbek tilining amaliy uslubiyati. Darslik. –T.: Tafakkur avlodi, 2021. - 49-b.

bilan bog‘lanadi. Rasmiy hujjatlar matnidagi gaplarning aksariyati xabar hamda buyruq mazmunida bo‘ladi. Kesim asosan, buyruq maylidagi majhul nisbatdagi fe’l bo‘ladi. U uyushiq bo‘lakli yoki murakkablashgan gaplar yuridik matnlarga xos bo‘ladi. Jumla tarkibidagi -ga muvofiq, -ga asosan, -ga binoan kabi kiritmalar asosan rasmiy uslubda qo‘llanadi. Rasmiy uslubning ikki turi mavjud: yozma va og‘zaki. Quyidagilar rasmiy uslubga xos xususiyat hisoblanadi.

Aniqlik: odatda, bunday hujjatlar tilida hech qanday noaniqlik, g‘alizlik, ortiqcha izohtalab o‘rinlar bo‘lmaydi. Fikr, mazmun sodda, lo‘nda, tushunarli ifodalanadi: Moliya yilida soliq solinadigan daromadga (foydaga) ega bo‘lgan yuridik shaxslar daromad (foyda) solig‘i to‘lovchilar hisoblanadi.

Qolip: Fikr tayyor holdagi nutqiy shtamplar – qoliplashgan birikmalar yordamida bayon etiladi. Masalan: O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi ...moddasining birinchi qismiga muvofiq, Fuqarolik Kodeksining moddasi bo‘yicha javobgarlikka tortiladi; orden bilan mukofotlanadi, kabi qoliplashgan ifodalar rasmiy uslubga xosligi bilan ajralib turadi. Hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirishda, avvalo, adabiy nutqning asosiy qoidalarini aniq tasavvur etish zarur. Ilm-fanda, ish yuritish va qonun ijodchiligida, ommaviy axborot vositalarida hamda siyosatda tilimiz turlicha namoyon bo‘ladi. Davlat boshqaruvi jarayonining murakkabligi sababli ish yuritishdagi hujjatlar shaklan xilma-xil, hajmi, tuzilishi, maqsad-vazifasi, uslubi ham bir-biridan farqlanadi.Masalan, tashkiliy hujjatlar, farmoyish hujjatlari, ma’lumot-axborot hujjatlari, xizmat yozishmalarining matnlari o‘z vazifasiga ko‘ra tuziladi.

Biz quyida umumiy nom bilan ataluvchim farmoyish hujjatlar xususida so‘z yuritamiz. Ular buyruq, buyruqda ko‘chirma, ko‘rsatma va farmoyishdan iborat[3]. Farmoyish hujjatlari, asosan, tashkilot rahbarlarining buyruq, ko‘rsatma, farmoyish hamda muassasa qarorlari asosida tuzilib, unda vazirlik, idora, tashkilot faoliyatiga oid ma’muriy va tashkiliy masalalarning yechilishini belgilab berib tashkilot faoliyatini boshqaradi va muvofiqlashtiradi, boshqaruv organiga uning oldiga qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirishni ta’minlash imkonini beradi. Farmoyish hujjatlari boshqaruv tizimi bo‘yicha yuqoridan quyiga: boshqaruvchi organdan boshqariladigan organga, tashkilot rahbaridan tarkibiy tuzilmalar va xodimlarga yo‘llanadi.

Buyruq – mazkur huquqiy hujjat muayyan muassasa oldida turgan asosiy va kundalik vazifalarni hal qilish maqsadida chiqariladi, uning ikki turi mavjud:

– asosiy faoliyatga oid;

– shaxsiy tarkibga oid buyruqlar.

Faoliyatga oid buyruqlar ishni tashkil qilish, tashkilot va uning bo‘limlari faoliyatini tartibga solishda qo‘llanadi. Xodimlar shaxsiy tarkibiga oid buyruqlar biror xodim ishga qabul qilinganda yoki bo‘shatilganda, boshqa bo‘limga o‘tkazilganda, shuningdek muayyan xodimga nisbatan rag‘batlantirish yoki intizomiy jazo choralari qo‘llanganda, xodimga mehnat ta’tili berilganda va shu kabi hollarda beriladi. Bunday buyruqlarga rahbarning taqdimnomasi, shaxsiy ariza hamda bildirgilar, xizmat tekshiruvi yozishmalari, taftish xulosalari va boshqalar asos bo‘ladi. Buyruqning asosiy zaruriy qismlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi: Gerb, muassasaning ramziy belgisi (blanka qismlari), vazirlik va boshqarma nomi, muassasa xos raqami.hujjat shaklining xos raqami. muassasa nomi, sarlavhasi (mazmunidan kelib chiqib nomlanadi), sanasi, raqami, buyruq chiqqan joy nomi, hujjatning nomi (Buyruq), buyruq matni (basharti ilovalari bo‘lsa, qayd qilinadi), rahbar yoki o‘rinbosar imzosi.

[3] Aminov M., Madvaliyev A va boshqalar. Davlat tilida ish yuritish. – T.: O‘zbekiston, 2021. -143-b.

Kadrlarning shaxsiy tarkibiga oid buyruqlar maxsus bosma ish qog'ozlari bo'lmagan taqdirda oddiy buyruq qog'oziga ham yoziladi. U holda buyruq boshiga «Kadrlar shaxsiy tarkibiga oid» deb yozib qo'yish kerak. Buyruq sarlavhalari: «Ishga qabul qilish haqida buyruq», «Boshqa ishga o'tkazish haqida buyruq», «Ishdan bo'shatish haqida buyruq», «Mehnat ta'tili berish haqida buyruq», «Rag'batlantirish haqida buyruq» va hokazo.

Bunday buyruqlarda kirish qismi bo'lmasligi mumkin. Farmoyish qismida, odatda, bandlar bo'ladi. Familiya ham bosh harflar bilan, ismi va otaismi esa matnda oddiy harflar bilan yoziladi (masalan, Sobit Xolmatovich KARIMOV).

Buyruq shakli *1-ilova*

Gerb, muassasaning ramziy belgisi, alomati

Vazirlik nomi
Muassasa nomi

Muassasa xos raqami
Hujjat shaklining xos raqami

SARLAVHASI

00.00.00 _____-son
joyi

Asoslovchi (kirish) qismi

BUYRUQ

_____
_____
_____
_____

Buyuraman

1. _____
2. _____
3. _____
4. _____
5. Buyruq ijrosini nazorat qilish _____
zimmasiga yuklansin (lavozimi va familyasi to'liq yoziladi)

Direktor *(imzo)* I.F.

Ishga qabul qilish haqidagi buyruq namunasi

5-ilova

Namangan shoyi ishlab
chiqarish birlashmasi

SHAXSIY TARKIBIGA OID
2019-yil 15-may 105-son Namangan shahri

B U Y R U Q

Ishga qabul qilish haqida

Nozima Karimova OLIMOVA 2019-yil 20-maydan 2000000 (ikki million) so‘mlik maosh bilan bo‘yash sexining katta muhandisi lavozimiga TAYINLANSIN.

Asos: N.K.Olimova arizasi.

Bosh direktor *(imzo)* L. To‘xtasinov

Imzo:
Kadrlar bo‘limi

Hujjatdan ko‘chirma olish asl hujjatning mauyyan qismi ustida amalga oshiriladi. Buyruqdan ko‘chirma - buyruqning farmoyish qismidan oldingi hamma qismlarini qamrab oladi. Buyruqning farmoyish qismidan esa faqat aniq holat uchun zarur bo‘lgan ma’lumot olinadi. Buyruqdan ko‘chirma, odatda, blankaga yozilib, tasdiqlab beriladi: “Asliga to‘g‘ri” jumlasi bilan kotib (yoki buyruqdan ko‘chirma beruvchi shaxs) imzo chekadi.

Ko‘rsatma – hujjatlarning ijrosi bilan bog‘liq huquqiy hujjat, qanday harakat qilish, ishlash lozimligini ko‘rsatuvchi yo‘riqnoma, qo‘llanma bo‘lib, tashkilotning o‘ziga xos ish qog‘ozi hisoblanadi. U buyruq kabi asosiy kirish qism va farmoyish qismlaridan tashkil topadi. Asos (kirish) qismida, falon “maqsadda”, falon “buyruqni bajarish uchun” kabi taomilga kirgan iboralar qo‘llanadi va “Yuklayman”, “Tavsiya etaman” so‘zlaridan keyin farmoyish qismi boshlanadi. Muayyan xodimga uning xizmat lavozimi vazifalariga kirmaydigan ishlar yuklatilsa, “Tavsiya etaman” so‘zi qo‘llanadi. Ko‘rsatmaning farmoyish qismi buyruqning farmoyish qismiga o‘xshash bo‘ladi.

«Etalon» firmasi
2019-yildagi mehnat ta’tillari jadvali haqida

KO‘RSATMA

2019-yil 2-yanvar 28-son Toshkent shahri

2019-yil uchun xodimlar mehnat ta’tili
jadvalini tuzish bo‘yicha TAKLIF ETAMAN:

1. Tarkibiy bo‘linma rahbarlari 2019-yilda xodimlarning ta’tilga chiqishlari ro‘yxatini muddati ko‘rsatilgan holda tuzib, kadrlar bo‘limiga topshirsinlar.

Ro‘yxatni topshirish muddati: 2019-yil 10-yanvar.

2. Kadrlar bo‘limi firma xodimlarining 2019-yil ta’tillari qo‘shma jadvalini tuzib, direktor tasdig‘iga taqdim etsin.

Mas’ul: Kadrlar bo‘limi boshlig‘i S. Ibrohimova.

Jadvalni taqdim etish muddati: 2019-yil 15-yanvar

Direktor o‘rinbosari *Imzo* N. Umarov

Rozilik belgisi

Boshqaruvga doir huquqiy hujjatlardan yana biri farmoyish bo‘lib, u muassasa rahbarining yakka o‘zi tomonidan chiqariladigan huquqiy hujjatlar ham farmoyish sanaladi. Farmoyish mansabdor shaxslarning muayyan aniq doirasiga mo‘ljallanib, uning amal qilish va bajarilish muddati belgilangan bo‘ladi. Farmoyish matni, xuddi buyruqdagi kabi zaruriy qismlardan tarkib topadi, faqat uning asos (kirish) qismida “Buyuraman” so‘zi o‘rniga “Tavsiya qilaman”, “Yuklayman”, “Ruxsat beraman” kabi iboralar qo‘llaniladi.

«Chilangar» firmasi

TA’MIRLASH ISHLARINI O‘TKAZISH TO‘G‘RISIDA
FARMOYISH

2019-yil 15-fevral 5-son Toshkent shahri

3-sex avariya holatiga tushganligi munosabati bilan

YUKLAYMAN:

1. 3-sexda zudlik bilan ta’mirlash ishlari o‘tkazilsin.
Mas’ul: Ta’mirlash-texnika bo‘limi boshlig‘i D.I. Ma’rufov.
Bajarish muddati: 2019-yil 21-fevral.

2. Ta’mirlash ishlarini nazorat qilish 3-sex boshlig‘i S. Turopovga topshirilsin.

Korxona direktori *imzosi* R. Shodmonov

Rozilik belgisi

Eslatma. Namunalar “Davlat tilida ish yuritish “amaliy qo‘llanmasidan olindi. Xulosa qilib aytish mumkinki, ish yuritishning bevosita asosini hujjatlar tashkil qiladi. Mazmunan, hajman va shaklan xilma- xil bo‘lgan hujjatlar barcha mehnat jamoalarining, umuman, kishilik jamiyatining uzluksiz faoliyatini tartibga solib turadi. Hujjatchilikda hujjatlar bir necha jihatlarga ko‘ra tasnif qilinsada mohiyat va vazifasiga ko‘ra muayyan andozaga ega. Har bir ish yuritishga oid hujjat mohiyatiga ko‘ra vakolatli hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aminov M, Madvaliyev A va boshqalar. Davlat tilida ish yuritish. –T.:O‘zbekiston, 2021.
2. Jo‘rayev Z. Zamonaviy davlat ish yuritish nazariyasi, amaliyoti va boshqaruvni me’yoriy hujjatlar bilan ta’minlash. – T.:Tafakkur bo‘stoni, 2011.
3. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutq // Xalq so‘zi, 2019-yil 22-oktabr.
4. Taxirov Z. T. O‘zbek tilining amaliy uslubiyati. Darslik. – T.: Tafakkur avlodi, 2021.
5. O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi: O‘quv-uslubiy majmua. – T., 2023.
6. https://lex.uz/.
7. https://izoh.uz/.

Barno YUNUSOVA,
O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi
Respublika ta’lim markazi Amaliy fanlar bo‘limi metodisti,
Oriental universiteti mustaqil izlanuvchisi

TASVIRIY SAN’ATNI O‘QITISHNING NAZARIY VA METODIK ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada tasviriy san’at fanining umumiy o‘rta ta’lim maktablarida samarali o‘qitishda muhim bo‘lgan o‘quvchining yoshi, bilimni qabul qilish darajasiga qarab bilim berishda alohida ahamiyat kasb etadigan omillari va didaktik prinsiplar uning ketma-ketligi misollar bilan keltirilgan.

Tayanch so‘zlar. Tasviriy san’at fani, didaktik prinsiplar, ta’lim va tarbiya birligi prinsipi, ilmiylik prinsipi, onglilik prinsipi, o‘quvchilar yoshiga va kuchiga mos bo‘lishi prinsipi.

В статье представлены факторы, имеющие особое значение для эффективного преподавания предмета изобразительного искусства в общеобразовательных школах в зависимости от возраста ученика, степени усвоения знаний и дидактические принципы его последовательности с примерами.

Ключевые слова. Предмет изобразительного искусства, дидактические принципы, принцип единства образования и воспитания, принцип научности, принцип осознанности, принцип соответствия возрасту и силе учащихся.

The article presents examples of the age of the student, which is important in the effective teaching of Fine Arts in general secondary schools, factors of special importance in the provision of knowledge depending on the degree of acceptance of knowledge, and its sequence of didactic principles.

Key words. The principle of Fine Arts, didactic principles, the principle of unity of education and upbringing, the principle of Science, the principle of awareness, the principle of conformity to the age and strength of students.

Tasviriy san’at fanini o‘qitishning maqsadi: o‘quvchilarda badiiy idrok va tafakkurni rivojlantirish hamda tasviriy savodxonlikni tarbiyalashdan iboratdir. Tasviriy san’at fani orqali o‘quvchilarni rangtasvir, grafika va haykaltaroshlik, shuningdek, amaliy, me’morchilik, miniatyura va dizayn san’atining o‘ziga xos tasviriy usullaridan, ifodaviy vositalaridan amaliy-ijodiy faoliyatda to‘g‘ri foydalana olishi nazarda tutiladi.

Tasviriy san’at fanini o‘qitishning vazifalari: tevarak-atrofdagi narsa va hodisalardagi go‘zalliklarni ko‘ra bilish va idrok etish hamda kuzatish asosida olingan taassurotlarni hayotga tatbiq etishga o‘rgatish; o‘quvchilarda badiiy-ijodiy qobiliyatlarni o‘stirish; o‘quvchilarning tasviriy-ijodiy malakalarini shakllantirish; o‘quvchilarda ko‘rish xotirasini, chamalash qobiliyatini, rang sezishni, kompozitsion madaniyatni, fazoviy fikrlash, obrazli tasavvur, kombinatsiyalash va perspektiva qonuniyatidan foydalanish kabi xususiyatlarni rivojlantirish.

Umumiy o‘rta ta’lim ta’lim maktab o‘quvchilari Tasviriy san’at darslarida borliqdagi va san’at asarlaridagi go‘zalliklarni ko‘ra olish, qadrlash va muhofaza qilishni o‘rganib boradilar. O‘quvchilarni tasviriy, amaliy-bezak, me’morlik, miniatyura va dizayn san’ati bilan tanishtira borib, ularda ushbu san’at turlarining o‘ziga xos xususiyatlarini idrok etishga o‘rgatish, estetik va emotsional sezgirlikni, qiziqish va muhabbatni tarbiyalash, badiiy fikr doirasini kengaytirishdan iborat. Bugungi kunda barcha fan o‘qituvchilari, shu jumladan tasviriy san’at fani o‘qituvchilari oldida, darsni samarali va qiziqarli tashkil

etish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tasviriy san’at darslarini didaktik prinsiplarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Faqat amaliyot bilan nazariyani uzviy bog‘lagan holdagina dars va darsdan tashqari ishlarda ta’lim va tarbiyaning samarali bo‘lishiga erishish mumkin. Didaktik prinsiplar va ularning asosiy masalalari yevropaning buyuk pedagog-olimlari Y.A.Komenskiy, J.J. Russo, I.G.Pestalotssilar tomonidan ishlab chiqilgan. Shuningdek, didaktik prinsiplarni ishlab chiqishda F.A.Disterveg va K.D.Ushinskiylar ham katta hissa qo‘shganlar. Ular tomonidan ilgari surilgan g‘oya hozirgi zamon didaktikasining asosini tashkil etadi.

Turli millat yozuvchilarining asarlari va xalqlarining og‘zaki ijodiga xos illyustratsiyalar o‘quvchilarga boshqa millatlarning hayoti, orzusi, g‘oyalari bilan tanishish, sevish va tushunish imkonini beradi.

Tasviriy san’at darslarida millatlararo do‘stlik, totuvlik Respublikamiz va chet el rassomlari tomonidan yaratilgan asarlar orqali ham amalga oshiriladi. Respublikamiz rassomlari tomonidan yaratilgan asarlar orasida o‘zbek xalqining hayoti va mehnati, uning xalqlar va millatlar bilan totuvligi, bazi chet xalqlarining hayoti va mehnati aks ettirilgan suratlarni ko‘rish mumkin.

Tasviriy san’at atrof-muhitni his etish, uni tushunish undagi voqea va hodisalarni o‘ziga xos jihatlarini bilishni talab etadi. Shu boisdan, tasviriy san’at darslarida o‘quvchilar chiziqli va havo perspektivasi, yorug‘soya, rangshunoslik, kompozitsiya qonunlarini yaxshi bilishlari talab etiladi. Shuningdek, odam va hayvonlarning plastik anatomiyasi haqida ma’lum ma’lumotlarga ega bo‘lishlari lozim. O‘quvchilarning bu qonunlarni o‘zlashtirishlari ko‘zda tutiladi. Perspektiva qonunlarini o‘zlashtirmasdan voqeband tasvir yaratish mumkin emas, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Rassom yoki o‘quvchining rasm chizish uslubi har xil bo‘lishi mumkin, lekin rasm yoki san’at asarlarining qurilishi bir xil, ilmiy asosda bo‘lishi shart. Perspektiva qonunlari hisoblangan chiziqli va havo perspektivasi, ufq chizig‘i, kesishish nuqtasi, kuzatish nuqtasi, buyumni bir yoki ikki kuzatish nuqtasi asosida rasmini ishlash, o‘lchovlarni o‘zgarishi perspektivasi, och-to‘qlikni o‘zgarishi perspektivasi, ranglarni o‘zgarishi perspektivasi, shakl va chegaralardagi aniqlikni kamayishi perspektivasi v.b. voqeband rasm ishlashga o‘rgatishning asosini tashkil etadi.

Ilmiylik prinsipi – tasviriy san’at o‘qituvchilaridan dars jarayonida va sinfdan tashqari ishlarda o‘quvchilarga berilayotgan barcha material va ma’lumotlar ilmiy bo‘lishligini, maktab amaliyotida tekshirilgan hamda o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo‘lishligini talab etadi.

Tasviriy san’atni o‘qitishda san’atning inson hayotidagi rolini tushuna bilish juda muhimdir. Jumladan, san’at ijtimoiy ongning alohida shakli ekanligini nazarda tutish kerak. Tasviriy san’at o‘qituvchisi shuni tushunishi kerakki, o‘quvchilar borliqdagi narsalarni chizish jarayonida ularning faqat tashqi ko‘rinishinigina emas, balki uning ma’lum qonuniyatlariga asoslangan ichki tuzilishini ham bilib olishlari talab etiladi. Ko‘p hollarda bu qonuniyatlarni bilmaydigan o‘quvchilar buyumlarning shaklini to‘g‘ri tasvirlashda yanglishadilar.

Ko‘rgazmalilik priniipi – tasviriy san’atni o‘qitishda borliqdagi narsa va hodisalarning mohiyatini bilishga, uning xarakterli xususiyatlari va qonuniyatlarini o‘rganishga ko‘maklashadi.

Naturani o‘rganish chog‘ida (sinfda va plenerda) o‘quvchilarning kuzatuvchanlik va mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.

O‘qituvchida har doim ham o‘rganilayotgan obyektni ko‘rsatish imkoni bo‘lavermaydi, bunday hollarda unga ko‘rgazmalilik yordam beradi. Bu esa o‘quvchilarda mazkur sohaga bo‘lgan qiziqishni jonlantiradi.

O‘quvchi naturadan rasm chizish jarayonida doim izlanadi, shakllarni solishtiradi, naturaning tuzilishi, o‘lchovlari, shakllari, rangi kabilarni bilib oladi. Shubhasiz, bularning hammasi o‘quvchilarda kuzatuvchanlikni rivojlanishiga olib keladi. Ma’lumki, bolalarda fikrlash konkretlikdan abstraktlikka borish jarayonida rivojlanadi. Tushuncha va abstrakt qoidalar ma’lum dalil, misol va obrazlar bilan mustahkamlangandagina o‘quvchilar ongiga oson yetib boradi.

Ko‘rgazmalilik tasviriy san’at darslarida o‘quv predmetlaridagidek yordamchi emas, balki o‘quvchilarda tushuncha va tasavvurlar hosil qiluvchi asosiy materialdir.

Naturaning o‘ziga qarab rasm chizish darslarida uni naturasiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu o‘rinda tasviriy san’at darslarida ko‘rgazmalilik prinsipining roli juda katta. Darslar uchun ko‘rgazmali qurollar tayyorlash va tanlashda ularga quyidagicha talablar qo‘yiladi:

– darsning maqsad va vazifalariga mosligi;

– o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mosligi;

– ko‘rgazmaning aniqligi, tushunarli bo‘lishi;

– tasvirning sifatli bo‘lishi;

– ko‘rgazmalar o‘zining rang-barangligi bilan o‘quvchilarda zavq va qiziqish uyg‘otishi.

Estetik talablarga mosligi. Rasmlar, asarlarining reproduksiyalari, badiiy asarlarga ishlangan illyustratsiyalarni tanlashda quyidagilarga e’tibor berilishi kerak:

Materiallarning g‘oyaviyligi.

Ularning badiiyligi.

Tasviriy san’at darslarining o‘quv-tarbiya vazifalariga mosligi.

Bolalar idrokiga mosligi.

Ko‘rgazmalilikdan o‘rinli, maqsadga muvofiq ravishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda foydalanilsa, u yaxshi natijalar berishi mumkin.

Ko‘rgazmalilikning ikki turi mavjud:

Tabiiy ko‘rgazmali qurollar.

Tasviriy ko‘rgazmali qurollar.

Tabiiy ko‘rgazmali qurollarga shakli, rangi, tuzilishi tabiiy bo‘lgan buyumlar (meva va sabzavotlar, turmush buyumlari, o‘quv qurollari, amaliy san’at buyumlari va h. k.) ni kiritish mumkin.

Tasviriy ko‘rgazmali qurollarga rasmlar, tablitsalar, hayvon va qushlarning tuxumlari, suratlarning reproduksiyalari, geometrik gipsli shakllar, pedagogik rasmlar, foto va boshqa usul bilan tayyorlangan tasviriy vositalar kiradi.

Ayrim o‘qituvchilar ko‘rgazmalilikning rolini noto‘g‘ri baholab, bu masalada qo‘pol xatoga yo‘l qo‘yadilar. Ular ko‘p hollarda ko‘rgazmali qurolning mavjud emasligidan yoki ularning rolini noto‘g‘ri tushunganliklaridan o‘quvchilarga turmushda uchraydigan buyumlar, o‘simliklarning rasmini xotiradan tasvirlashni vazifa qilib beradilar. Xotiradan rasm chizishni suiste’mol qilish, atrof-muhitdagi buyumlarning shakli, tuzilishi, rangi, yorug‘ soyasini noto‘g‘ri idrok qilishga olib keladi.

Har qanday turdagi narsaning o‘ziga qarab rasmini chizish, kompozitsiya darslarida va sinfdan tashqari ishlarda ko‘rgazmalilik o‘ziga xos xususiyaglarga ega.

Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasiga doir ko‘rgazmali qurollar yetarli bo‘lmagan hollarda ularni o‘qituvchilarning o‘zlari tayyorlashlariga to‘g‘ri keladi. O‘qituvchi ko‘rgazmali quroldan foydalanish me’yorini bilgandagina u ijobiy natijaga erishishi mumkin.

O‘qitishning ongli bo‘lish va o‘quvchilarning bilish faolligi prinsipi o‘quv jarayonining o‘stiruvchi va tarbiyalovchi rolini oshirishga olib keladi. Onglilik prinsipining ahamiyati fan, texnika va madaniyat gurkirab rivojlangan hozirgi davrda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Bu prinsip o‘qituvchi tomonidan berilayotgan bilimlarni ongli, tushungan holda

o‘zlashtirishni bildiradi. O‘quvchilar bu bilimlarni ko‘r-ko‘rona emas, balki berilayotgan tushuncha, ma’lumotlarni ma’no mohiyatini anglab yetgandagina ularning bilimlari chuqur va mustahkam bo‘ladi va u bolalar xotirasida uzoq saqlanadi. Bunga erishish uchun o‘quvchilarning faolligi, diqqati va mustaqil ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, o‘ziga qarab rasm chizish darslarida naturani sinchiklab o‘rganish ularning tuzilishi, hajmi, shakli, o‘lchov va ranglaridagi xarakterli xususiyatlarini bilish kerak bo‘ladi.

Masalan o‘quvchi:

– san’atni kishilar hayotidagi ahamiyatini tushunib yetishi;

– kompozitsiya ishlaganda uning qonun va qoidalariga rioya qilishi;

– naturaning tuzilishi, o‘lchovlari, shakllari, ranglariga qat’iy rioya qilishi;

– har qanday narsa asosida u yoki bu geometrik shakl yotishi;

– rasm chizganda ufq chizig‘ini chizib olish va yagona ko‘rish nuqtasiga rioya qilishi.

Tasviriy san’at asarlariga oid materiallarning ongli o‘zlashtirilishi ilmiylik prinsipidagidek perspektiva, rangshunoslik va yorug‘ soya qonunlari, anatomiyadan bazi ma’lumotlarga ega bo‘lishi bilan bog‘liq. Bu qonunlarni egallamasdan turib, o‘quvchilar o‘z tasviriy faoliyatlarini to‘g‘ri amalga oshira olmaydilar.

Faraz qilaylik, o‘quvchi uyida chizish uchun geometrik shakldagi turmush buyumlaridan natyurmort qo‘ydi. U perspektiva qonunlari, ufq chizig‘i, kuzatish nuqtasi, buyum va suvrat tekisligi, kesishish nuqtasi, narsalarning o‘lchovlarini perspektiv qisqarishini bilmay turib, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadini to‘g‘ri hal qila olmaydi. Yorug‘ soya qonunlari hisoblangan tabiiy va sun’iy yoritish, tushuvchi va shaxsiy soya, natura yoritilganida soyalarning joylashuvi, blik yorug‘ soya, yarim soya, refleks va boshqalarning bilmagan o‘quvchi buyumlarning hajmini to‘g‘ri tasvirlay olmaydi.

O‘quv jarayonini samarali bo‘lishida solishtirish, taqqoslash, naturani kuzatish va tahlil qilishning ahamiyati katta. Natura tahlilini savol-javob shaklida o‘tkazish muhim ahamiyat kasb etadi, aks holda o‘quvchilar naturani yuzaki o‘rganish bilan cheklanib qolishlari mumkin.

Buyumlarni to‘g‘ri chizish uchun ularning tuzilishi, shaklini to‘g‘ri belgilash bilan birga fazoviy holatini to‘la tasavvur etishi kerak bo‘ladi. Shundagina predmetlar rasmini ishlashga o‘tish mumkin.

Bizningcha, o‘qitishda o‘quvchilarning mustaqil bilim olish jarayonini faollashtirishda va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda bilimlarning muammoli bayon etish yo‘lidan keng foydalanish va qisman izlanish va ilmiy tadqiqot metodlarini qo‘llash lozim.

Ketma-ket bayon etish prinsipi boshqa fanlarda bo‘lganidek, tasviriy san’at darslarida ham materiallarni muntazam va ketma-ket bayon etish prinsipi muhim ahamiyatga ega. Bu prinsip o‘quv materiallarini mantiqan izchil joylashishini va har bir mavzu oldindan olingan bilim, malaka va tajribalarga suyangan holda, yangi materiallarni o‘tilganlar bilan bog‘lab bayon etilishi lozimligini nazarda tutadi.

Ba’zan shunday hollar ham bo‘ladiki, bunda o‘qituvchilar bilim berishning bu muhim prinsipini to‘g‘ri baholay olmaydilar. O‘quvchilarga berilayotgan vazifalarda bolalarning ilgari olgan bilim va malakalari hisobga olinmaydi. Natijada ular berilgan vazifani uddalay olmaydilar. Shuning uchun ish rejalarini shunday tuzish kerakki, o‘quvchilar har bir darsda yangidan yangi masalalarni hal etsinlar. Lekin, yangi materiallarni o‘quvchilar o‘tilgan materiallarni o‘zlashtirib va mustahkamlab olganlaridan so‘nggina berish lozimligini hisobga olish lozim. Narsaning o‘ziga qarab rasm chizish darslarini kompozitsiya darslari bilan bemalol bog‘lash mumkin. Tasviriy san’at darslarining har bir turini o‘zaro bog‘liqlikda amalga oshirish orqali yaxshi natijalarga erishish mumkin.

Tasviriy san’atni o‘qitishda nazariy materiallarni amaliy materiallar bilan bog‘liqligi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Tasviriy san’at janrlari yuzasidan nazariy mashg‘ulotlardan so‘ng ana shu janrlarda amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazilishi, o‘tilganlarni

mustahkamlash, yangisini oson o‘zlashtirish imkonini beradi.

O‘qitishning o‘quvchilar yoshiga va kuchiga mos bo‘lishi prinsipi – berilayotgan bilimlar yoki ular o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan materiallarni murakkablik darajasini bolalar yoshiga va kuchiga mos bo‘lishini nazarda tutadi.

O‘quvchilarga doskaga chizilgan tayyor naqshdan nusxa ko‘chirish tavsiya etiladi. Bundan, ular beriladigan topshiriqlarning bolalarga oson bo‘lishiligini nazarda tutadilar. Lekin, topshiriqlarning o‘ta jo‘n bo‘lishi ham yaxshi emas, ular birinchidan bolalarning mustaqil fikrlashlarini susaytirsa, ikkinchi tomondan ulardagi rivojlanishni to‘xtatadi. Ma’lumki, o‘quvchilar harakat va qobiliyat jihatidan bir-birlaridan farq qiladilar. Bu vaziyat o‘qituvchidan o‘quvchilar bilan yakkama-yakka ish olib borishni talab qiladi, ya’ni o‘qituvchi bolalarni bilim va malakalari darajasini hisobga olgan holda ularga turlicha murakkablikdagi vazifalarni ishlab chiqadi, ularning tasviriy ishlarini to‘g‘rilashga ba’zi nazariy va amaliy vazifalarni tushintirish maqsadida doskada rasm ishlab ko‘rsatishiga to‘g‘ri keladi.

O‘qitishning o‘quvchilar yoshiga mosligi prinsipi qadimdan qo‘llanib kelingan. Bunda, yaqindan uzoqqa, ma’lumdan noma’lumga, oddiydan murakkabga, osondan qiyinga, konkretlikdan abstraktlikka prinsiplariga asoslaniladi. Pedagogikada bu prinsip qadimdan tajribadan o‘tganligi sababli o‘qituvchini o‘z faoliyatida shu yo‘ldan borishi ko‘zlangan maqsadga erishuviga asos bo‘ladi. Kezi kelganda shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, hamma oson narsalar ham bolalarga tushunarli bo‘lavermaydi va aksincha murakkab materiallar tushunarli bo‘lishi ham mumkin. Bunda o‘quvchilarning yoshi, pedagogik-psixologik xususiyati, bilim darajasi, tayyorgarligi, qobiliyati muhim rol o‘ynaydi. Masalan, tasviriy san’atni o‘qitishda yaqindan uzoqqa borish prinsipida ish tutish maqsadida o‘qituvchi avval bolalarga yaqin bo‘lgan O‘zbekistonning tabiati, xalqimizning turmushi, mehnatini tasvirlovchi O‘zbekiston rassomlari asarlarini, so‘ngra O‘rta Osiyo, Sharq, yevropa mamlakatlari san’atini o‘rgatadi.

Yuqoridagi fikrlardan maktabda tasviriy san’atdan dars va darsdan tashqari ishlar jarayonida didaktik prinsiplarga rioya qilishning nihoyatda muhimligini sezib olish qiyin emas. Didaktik prinsiplar o‘quvchilarning badiiy ta’limi, tarbiyasi va rivojlanishiga tegishli shart-sharoitlarni yaratadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, agar tasviriy san’at fani o‘qituvchisi, didaktik prinsiplar majmuasini yaxshilab, o‘zlashtirib olsa, uning tashkil etgan ochiq darsi, oddiy darsi ham, qiziqarli, tizimli asosda o‘quvchilarga tushunarli bo‘lgan va bugungi kun talabidagi darslardan biri bo‘ladi deb o‘ylaymiz.

Darsda ta’lim-tarbiy birligi va ilmiylikni, ko‘rgazmalilik, onglilikni, ketma-ket bayon etish va o‘quvchilar yoshiga va kuchiga mos bo‘lishini taminlashga erishish, birinchidan o‘qituvchini pedagoglik mahorati, yetuklik darajasini oshirsa, ikkinchidan fan mazmuni yo‘nalishida sinflar kesimida uzviy va uzluksiz bilim berish tizimi ta’minlanadi deb o‘ylaymiz.

Foydalangan adabiyotlar

1. Кузин В, С. Основы обучения изобразительному искусству в школе- Москва: Просвещение, 1977г.

2. Oripov B. Tasviriy san’at darslari samaradorligini oshirish omillari. Toshkent: O‘qituvchi, 1978-yil.

3. Hasanov R. Maktabda tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi. Darslik. –Toshkent: Fan. 2004-yil.

4. R.Xasanov. “Tasviriy san’at asoslari” G‘.G‘ulom nomidagi NMIU. 2009-yil.

5. Mirahmedov Q. Xalilov R., Ashurboyev A., Muratov X. Tasviriy san’at va chizmachilik .O‘UM. 2017-yil.

Mohchehra FOZILJONOVA,
Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti, o'qituvchi

VIRTUAL TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O'QUV JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH

(Oliy ta'lim muassasalarining maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini kasbiy tayyorlash misolida)

Annotatsiya

Maqolada oliy ta'lim muassasalarining maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini kasbiy tayyorlashda virtual ta'lim texnalogiyasidan foydalanish, virtual ta'limning afzalliklari hamda kamchiliklari batafsil yoritib berilgan. Shuningdek turli ko'rinishdagi axborotni saqlash, uzatish bilan bog'liq yangi texnologiyalar talabalarning kasbiy o'sishiga yordam berishi haqida fikr yuritilgan.

Tayanch so'zlar. Talabalarni kasbiy tayyorlash, onlayn ta'lim, virtual ta'lim, masofaviy ta'lim, moslashuvchanlik, talabalar bilimini baholash.

В статье подробно рассматривается вопрос использования виртуальных образовательных технологий в профессиональной подготовке студентов по направлению дошкольное образование, преимущества и недостатки виртуального образования. Также, в статье анализируется развитие компьютерных технологий, связанных с хранением и передачей различной информации которые способствует профессиональному росту студентов.

Ключевые слова. Профессиональная подготовка студентов, онлайн обучение, виртуальное образование, дистанционное образование, гибкость, оценка знаний.

The article examines in detail the issue of using virtual educational technologies in the professional training of students in the field of preschool education, the advantages and disadvantages of virtual education. Also, the article analyzes the development of computer technologies related to the storage and transmission of various information that contributes to the professional growth of students.

Key words. Professional training of students, online learning, virtual education, distance education, flexibility, knowledge assessment.

Ta'limni modernizatsiyalash g'oyasining ishlab chiqilishi va uning zamonaviy ilmiy nashrlar hamda normativ hujjatlarda aks ettirilishi uning mohiyatini, oliy ta'limda amalga oshirishning yo'nalishlari va yo'llarini tushunish zarurligini anglatadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 20-apreldagi PQ–2909-sonli Qarori Oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy vazifalaridan kelib chiqqan holatda, kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta ishlab chiqish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratilishini ta'minlash maqsadida qabul qilingan bo'lib, unda Oliy ta'lim tizimini kelgusida yanada takomillashtirish va kompleks rivojlantirish bo'yicha eng muhim vazifalar belgilab qo'yilgan.

Bunday vazifalardan biri bu – oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari bilan jihozlash, oliy ta'lim muassasalari talaba-

lari, o‘qituvchilari va yosh tadqiqotchilarining jahon ta’lim resurslari, zamonaviy ilmiy adabiyotlarning elektron kataloglari va ma’lumotlar bazalariga kirish imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat.

Bugungi kundagi butun dunyoda ro‘y berayotgan bir qator o‘zgarishlar zamonaviy jamiyatning o‘zgarishi bilan tavsiflanib, bunda kompyuterlashtirish asosiy tendentsiya sifatida integratsiyalashgan. Ilmiy-falsafiy tadqiqotlarning virtuallik va virtual voqelik muammosiga doir dolzarbligi insoniyatning sanoat jamiyatidan axborotga o‘tishi bilan bog‘liq. Shuningdek, fan va texnikaning turli ko‘rinishdagi axborotni qayta ishlash, saqlash va uzatish bilan bog‘liq yangi sohalari, masalan, kibernetika, informatika va hisoblash texnikasi (kompyuter texnologiyalari) yanada jadal rivojlanib, vujudga kelmoqda.

Hozirgi kunda olimlar innovatsion ta’lim texnologiyalari tizimini samarali usul va vositalar asosida tizimlashtirib, ularning tub mohiyatini ochib berishga erishmoqdalar. Ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tez sur’atda rivojlanishi axborot-ta’lim muhitini shakillantirishga va innovatsion darslarni tashkil etishga keng imkoniyatlarni ochib bermoqda.

Yurtimizda maktabgacha ta’lim tizimida malakali, zamonaviy pedagogik bilimlarga ega bo‘lgan kadrlar tayyorlashga qo‘yilayotgan talablar va ehtiyojlar uzluksiz ta’lim sohasidagi islohotlar va rivojlanish istiqbollari bilan chambarchas bog‘liqdir. Maktabgacha ta’lim va tarbiya bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan ta’lim turi bo‘lib, bola shaxsi shakllanishi hamda ta’limning keyingi bosqichlarida muvaffaqiyatli bilim olishning poydevori hisoblanadi.

Ma’lumki, maktabgacha ta’lim tizimiga bo‘lgan zamonaviy talablar hamda ularning sifatini oshirish muammosiga yangicha yondashuv – uni muntazam ravishda takomillashtirishning innovatsion uslublarini ishlab chiqish va ularni ta’lim tizimi jarayoniga keng joriy etishlardan iborat. Ayniqsa, ta’limning boshlang’ich sohasida yoshlarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, o‘quv-tarbiyaviy ishlarning interaktiv usullaridan foydalana oladigan qilib hamda o‘zidagi pedagogik faoliyat mahoratini va ko‘nikmalarini yanada takomillashtirish, rivojlantirish ustidagi faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila oladigan, shuningdek, ularni mustaqil ilmiy-pedagogik va kasbga doir boshqaruv faoliyatiga loyiq qilib tayyorlash bugunning dolzarb muammosidir.

Jamiyatimizga yuqori malakali, bilimli, dunyoqarashi keng, zamonaviy pedagogik texnalogiyalardan xabardor bo‘lgan boshlang’ich sinf o‘qituvchilari va maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarini yetishtirish bunday muammolarni hal etishning eng samarali usulidir. Chunki, bolalar bilimli bo‘lishi uchun avvalo, ularga ta’lim berayotgan ustozlar bilimli bo‘lishlari kerak. Bunday kadrlarni yetishtirish uchun esa, ular tahsil olayotgan Oliy ta’lim muassasalaridagi dars jarayonlarida zamonaviy va innovatsion pedagogik texnalogiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bo‘lajak kadrlarni kasbga yo‘naltirish, ularning olgan bilimlarini amaliyot bilan chambarchas bog‘lash, ularni mustaqil ishlashga, izlanishga o‘rgatish, qolaversa, talabalarni kasbiy tayyorlashda virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari asosida o‘quv jarayonini tashkillashtirish yetuk kadrlar tayyorlashning yana bir yechimidir.

Bugungi kunga kelib, ta’limning barcha sohalarida pedagogik faoliyat jamiyat ehtiyojlari va yangi voqelik talablariga ko‘ra jadal rivojlanib bormoqda. Virtual ta’lim Ta’limning eng mashhur shakllaridan biriga aylanib bormoqda.

Virtual ta’lim – ta’lim mazmunini yetkazib berish, o‘zaro ta’sirni kuchaytirish va ta-

raqqiyotni kuzatish uchun onlayn platformalar va raqamli vositalardan foydalanadigan ta’lim usuli. Bu o‘quvchilarga internetga ulangan istalgan vaqtda, istalgan joyda kurslarga kirish imkonini beradi, an’anaviy sinf sozlamalaridan tashqari moslashuvchanlik va turli imkoniyatlarni taqdim etadi. Onlayn ta’limda ta’lim muassasalari, o‘qituvchilar va talabalar turli raqamli platformalar va vositalar orqali muloqot qilishadi. Ushbu platformalar o‘rganishni boshqarish tizimlari (LMS), video konferentsiya dasturlari, onlayn munozaralar, multimedia taqdimotlari va boshqalarni o‘z ichiga olishi mumkin. Onlayn ta’lim odatda jismoniy sinfda bo‘ladigan o‘rganishga taqlid qilishga va uni raqamli ulanishlar orqali yaxshilashga qaratilgan.



Virtual ta’limning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri uning moslashuvchanligidir. Talabalar uydan yoki boshqa joydan Internetga ulana oladigan istalgan joyda kurs materiallariga kirishlari, muhokamalarda qatnashishlari, topshiriqlarni bajarishlari va baholashni yakunlashlari mumkin. Bu moslashuvchanlik ishlaydigan mutaxassislar, otaonalar va boshqa mas’uliyatli odamlar uchun foydalidir. Bundan tashqari, onlayn ta’lim ma’lum bir yosh guruhi yoki ta’lim darajasi bilan cheklanmaydi. U boshlang‘ich maktabdan tortib oliy o‘quv yurtigacha, kasbiy tayyorgarlikdan tortib, malaka oshirishgacha bo‘lgan qator sohalarni qamrab oladi. Bu murakkablik hayotning turli qatlamlaridagi odamlarga o‘z shartlari bo‘yicha ta’lim va malaka oshirish sari harakat qilish imkonini beradi.

Virtual ta’limning muhim tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

Kurs mazmuni taqdimoti:

Videoma’ruzalar, slayd-taqdimotlar, elektron kitoblar kabi ta’lim mazmuni o‘zida aks ettiruvchi interfaol simulyatsiyalar o‘quvchilar uchun onlayn mavjud. Talabalar kerak bo‘lganda materialni ko‘rib chiqishlari uchun ushbu tarkib har doim ochiq.

O‘zaro ta’sir:

Talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi, balki tengdoshlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir virtual ta’limning muhim jihati hisoblanadi. Munozara kengashlari, onlayn forumlar, chat xonalari va video konferensiya vositalari real vaqt rejimida muloqot qilish va hamkorlikda o‘rganish tajribasini ta’minlaydi.

Baholash va fikr-mulohazalar:

Virtual ta’lim ko‘pincha elektron shaklda amalga oshiriladigan turli baholash usullarini o‘z ichiga oladi; bularga testlar, topshiriqlar va viktorinalar kiradi. O‘qituvchilar

raqamli kanallar orqali talabalarga o‘z vaqtida fikr-mulohazalarini taqdim etishlari mumkin, bu esa o‘quv jarayonini yaxshilaydi.

Moslashuvchanlik:

Onlayn ta’lim talabalarga kurslarni imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o‘z tezligida yakunlash imkonini beradi. Bu moslashuvchanlik, ayniqsa, band jadvallari yoki tartibsiz majburiyatlari bo‘lganlar uchun foydalidir.

Multimedia va interaktivlik:

Video, animatsiya, interfaol simulyatsiyalar va o‘yinlashtirilgan kontent kabi multimedia elementlarini birlashtirish faollikni oshiradi va turli o‘quv uslublariga mos keladi.

Monitoring va tahlil:

Raqamli o‘quv platformalari ko‘pincha o‘qituvchilarga talabalarning muvaffaqiyati va faolligini kuzatishga yordam beradigan vositalarni taklif qiladi. Takomillashtirish sohalarini aniqlashga va o‘rganish tajribasini optimallashtirishga yordam beradi.

Virtual ta’lim ta’limdagi bir xillikdagi o‘zgarishni anglatadi. U texnologiya kuchidan foydalangan holda tengsiz moslashuvchanlik, qulaylik va moslashtirishni taklif etadi. Garchi u hech qachon an’anaviy sinfda o‘qitishning barcha jihatlarini almashtira olmasa ham, onlayn ta’lim ko‘p hollarda uni to‘ldirishi va ko‘p hollarda yanada yaxshilashi mumkin.

Axborot texnologiyalari rivojlanib borar ekan, onlayn ta’lim qamrovi ham o‘sib boradi va avlodlar uchun ta’lim kelajagini shakllantiradi. Virtual ta’lim ko‘plab afzalliklarga ega, ammo ba’zi kamchiliklarga ham ega. Ushbu kamchiliklar o‘quvchilar va o‘qituvchilar uchun ba’zi qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu yerda virtual ta’limning kamchiliklari bilan batafsil tanishib chiqamiz:

Jismoniy o‘zaro ta’sirning yetishmasligi:

Onlayn o‘qitishda an’anaviy sinf sharoitida taqdim etiladigan yuzma-yuz muloqot cheklangan. Bu shuni anglatadiki, o‘quvchilar o‘qituvchilar va tengdoshlari bilan bevosita muloqot qila olmaydi. Jismoniy o‘zaro ta’sirning yetishmasligi ijtimoiy ko‘nikmalar va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Texnik va kirish muammolari:

Virtual ta’lim ishonchli internetga kirishni talab qiladi. Texnik muammolar yoki internetga ulanishdagi uzilishlar talabalarning darslarga kirishini va qatnashishini qiyinlashtirishi mumkin. Bu, shuningdek, har bir talaba tegishli texnologik infratuzilmaga ega bo‘lmagan hududlarda ta’lim imkoniyatlarida tengsizlikni keltirib chiqarishi mumkin.

Chalg‘ituvchi muhitlar:

Bu odamlarga uyda yoki turli joylarda o‘qish imkonini beradi. Ammo bu chalg’itishning kuchayishiga olib kelishi mumkin. Uyda, tartibsizliklarni ajratish qiyin bo‘lishi mumkin.

Ijtimoiy izolyatsiya xavfi:

An’anaviy sinflarda o‘rnatilgan tengdoshlar bilan munosabatlar va ijtimoiy o‘zaro ta’sir onlayn ta’lim muhitida qiyin bo‘lishi mumkin. Yolg‘izlikni his qilish xavfi yuqori, bu motivatsiyaga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Avtomatlashtirishning kamchiliklari:

Virtual ta’lim platformalari avtomatlashtirilgan baholash va fikr-mulohazalarni taqdim etishi mumkin. Biroq, bu avtomatlashtirish alohida shaxslarni va ularning qiyinchiliklarini to‘liq tushuna olmaydi. Shunday qilib, o‘ziga xos mahsulotlar tomonidan kamroq mos yechimlar taklif qilinishi mumkin.

O‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlarining zaifligi:

Virtual ta’lim talaba va o‘qituvchi munosabatlariga ta’sir qilishi mumkin. Yuzlarning ajratilmasligi ularning o‘qituvchilari bilan kamroq shaxsiy aloqaga olib kelishi mumkin. Bu ularning muammo yoki yordam parvarishlash vaqtida o‘z murabbiyiga kirishni qiyinlashtirishi mumkin.

Amaliy tajribaning yetishmasligi:

Ba’zi kurslar yoki fanlarni virtual platformalar orqali samarali o‘qitish qiyin bo‘lishi mumkin. Xususan, laboratoriya ishlari, dala tajribasi yoki qo‘lda ishlash ko‘nikmalarini talab qiladigan masalalar virtual muhitda to‘liq bo‘lmasligi mumkin. Bunday kurslarda talabalar amaliy tajriba orttirish imkoniyati cheklangan bo‘lishi mumkin.

Virtual ta’lim o‘zi bilan ba’zi qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Talabalar va o‘qituvchilar ushbu kamchiliklarni hisobga olishlari va ushbu qiyinchiliklarni bartaraf etish strategiyalarini ishlab chiqishlari kerak. Virtual ta’lim muvozanatda foydalanilganda samarali o‘rganish usuli bo‘lishi mumkin.

Ushbu maqolada biz ta’lim jarayonlarini yanada samarali tashkillashtirishda onlayn ta’limni tushunish uchun zarur bo‘lgan asoslarni ko‘rib chiqdik va uning turli jihatlarini o‘rganib chiqdik. Virtual ta’lim, ayniqsa, moslashuvchanlik va qulaylik sohasida muhim afzalliklarni taqdim etadi. Internetga ulangan istalgan joydan darslarga qatnashish o‘quvchilarga o‘z turmush tarzi va joriy majburiyatlariga moslashishga yordam beradi. Shu bilan birga, individual ta’lim afzalliklariga moslashtirilgan tarkibni taklif qilish imkoniyati tufayli ta’lim samaradorligi ortadi. Yana bir eng muhim jihati shundaki, Virtual ta’lim global ta’lim hamjamiyatini yaratadi. Geografik chegaralar yo‘qolishi bilan talabalar butun dunyo bo‘ylab mutaxassislar bilan bog’lanishlari, turli madaniyatlarni o‘rganishlari va turli nuqtai nazarlarga ega bo‘lishlari mumkin. Bu nafaqat bilim almashishni, balki global hamkorlik va tushunishni ham rag’batlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://lex.uz/O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 20.04.2017-yildagi PQ-2909-son

2. Axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish- Gulziya Berdibayeva- https://zenodo.org/records/7233365

3. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil, 23-sentabrdagi O‘RQ-637-sonli “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni4. https://sertifier.com>blog>What-is-virtual-learning.

5. https://www-igi-global.com>dictionary>-virtual-education.

6. https://www.virtualeduc.com

Faridabonu RAXIMOVA,
Andijon davlat universiteti, magistrant

HOLOGRAMMA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INTERAKTIV DARSLAR TASHKIL QILISH

Annotatsiya

Maqola hologramma texnologiyalarining boshlang‘ich ta’limda interaktiv darslar tashkil qilishdagi, golografik texnologiyalar o‘quvchilarning qiziqish va tushunishin darajasini oshirishdagi o‘rni va afzalliklari batafsil ohib berilgan. Shuningdek, golografik texnologiyalarni joriy etishning, metodologiyasi keltirib o‘tilgan.

Tayanch so‘zlar. Gologramma texnologiyalari, boshlang‘ich ta’lim, interaktiv darslar, innovatsion texnologiyalar, ta’lim tizimi, pedagogik innovatsiyalar, vizual ta’lim, ta’limda raqamlashtirish.

В статье рассматривается роль голографических технологий в организации интерактивных уроков в начальном образовании, голографические технологии могут помочь повысить уровень интереса и понимания учащихся за счет более интерактивного и визуального обогащения образовательного процесса. Также анализируется основные преимущества и методика внедрения голографических технологий в процесс обучения.

Ключевые слова. Голографические технологии, начальное образование, интерактивные уроки, инновационные технологии, система образования, педагогические инновации, визуальное обучение, цифровизация образования.

The article discusses the role of holographic technologies in organizing interactive lessons in primary education, holographic technologies can help increase the level of interest and understanding of students through more interactive and visual enrichment of the educational process. It also analyzes the main advantages and methods of introducing holographic technologies into the learning process.

Key words. Holographic technologies, primary education, interactive lessons, innovative technologies, education system, pedagogical innovations, visual learning, digitalization of education.

Hologramma texnologiyalarining ta’limda qo‘llanilishi — bu ilg‘or pedagogik yondashuvlarning bir turi bo‘lib, u yangi metodlarni ishlab chiqish va o‘quvchilarga ta’limni samarali o‘tish uchun zarur vositalarni taqdim etadi. 2019-yilgi “Ta’lim sohasida innovatsion texnologiyalarni joriy etish” dasturida, shuningdek O‘zbekiston Prezidentining 2021-yilda o‘tkazilgan ta’lim islohoti haqidagi nutqida ta’kidlanganidek, zamonaviy texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish ta’lim sifatini oshirishda katta ahamiyatga ega. Mamlakatimizda ta’limni raqamlashtirish va interaktiv texnologiyalarni keng joriy etish, shuningdek ta’limda kreativlikni va o‘quvchilarning qiziqishini oshirish maqsadida hologramma texnologiyalari nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ham o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatishi mumkin.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning ta’lim sohasidagi islohotlari, davlat dasturlari va qonunlari o‘quvchilarga yangi ta’lim texnologiyalarini taqdim etishga qaratilgan. 2020-yilda qabul qilingan “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi qonunda, shuningdek “Digital Uzbekistan” dasturida, texnologiyalarni ta’limga tatbiq etish va ta’lim sohasini raqamlashtirishga e’tibor qaratilgan. Bu, o‘z navbatida, hologramma texnologiyalarini ta’lim-

ga keng joriy etish imkonini beradi.

Hologramma texnologiyalarining ta’lim jarayonida qo‘llanilishi haqida bir qator ilmiy ishlar mavjud. Bunday texnologiyalarning pedagogik samaradorligini o‘rganishga qaratilgan xalqaro ilmiy adabiyotlar ham mavjud.

Yaponiya va Janubiy Koreya tajribalari: Yaponiya va Janubiy Koreyada ta’lim texnologiyalarini, jumladan hologramma texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha keng tajriba mavjud. Masalan, Koreyada hologramma yordamida tabiat fanlaridan darslar o‘tkazish orqali o‘quvchilarning mavzularni yanada chuqurroq o‘rganishi ta’minlangan.

O‘zbekiston ilmiy ishlanmalari: O‘zbekistonda ta’lim sohasidagi ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash borasida ham bir qancha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Masalan, o‘zbekistonlik olimlar, holografik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilishning pedagogik imkoniyatlarini o‘rganib, ularning ta’lim samaradorligini oshirishdagi o‘rnini ta’kidlaganlar.

Shavkat Mirziyoyevning nutqlari va tashabbuslari: Prezidentimizning “O‘zbekiston ta’lim tizimi va innovatsiyalarni joriy etish” haqidagi nutqlari, shuningdek “Yoshlar siyosatiga oid davlat dasturi”da raqamli texnologiyalarni ta’limga integratsiya qilishning muhimligi ta’kidlangan. Bunda, ta’lim tizimini yangilash va ilg‘or texnologiyalarni tatbiq etish zarurati ko‘rsatilgan.

Zamonaviy ta’lim tizimi raqamli transformatsiya bosqichida bo‘lib, holografik texnologiyalar bu jarayonni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning bilim olish jarayonini qiziqarli va samarali qilish uchun yangi metod va texnologiyalarga ehtiyoj ortib bormoqda.

Tadqiqotda holografik texnologiyalarning boshlang‘ich ta’limda qo‘llanilish imkoniyatlari o‘rganildi. Tajriba-sinov asosida holografik darslar tashkil etilib, bu jarayonning o‘quvchilarning ta’lim jarayoniga bo‘lgan qiziqishi va ishtirok faolligiga ta’siri tahlil qilindi.

Hologramma texnologiyalari o‘quvchilarning ko‘rish va eshitish imkoniyatlarini kengaytiradi, bu esa dars jarayonining samaradorligini oshiradi. Tadqiqot davomida holografik darslarning motivatsiyani oshirishdagi ijobiy ta’siri kuzatildi. Hologramma texnologiyalarining ta’lim jarayoniga keng qo‘llanilishi o‘quvchilarni bilim olish jarayonida faolroq ishtirok etishga undaydi va o‘qituvchilar uchun yangi pedagogik imkoniyatlar yaratadi.

Hologramma texnologiyalari — uch o‘lchovli obyektlar va virtual muhitni vizual tasvirlash imkonini beruvchi zamonaviy texnologiya. Bu texnologiya ta’lim jarayonini yanada jonli, qiziqarli va interaktiv qilishga xizmat qiladi.

An’anaviy ta’lim usullari o‘quvchilarning e’tiborini uzoq vaqt ushlab turishda va bilimni chuqurroq o‘zlashtirishda cheklovlarga ega. Hologramma texnologiyalari bu kamchiliklarni bartaraf etib, o‘quvchilar uchun qiziqarli va jonli o‘qitish muhitini yaratadi. Ushbu texnologiyalarning boshlang‘ich ta’limga joriy etilishi ilmiy-amaliy tadqiqotlarni talab qiladi.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’lim tizimining zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlardan biri ekanligini qayta-qayta ta’kidlab keladi. Davlat rahbari o‘z nutqlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta’limdagi ahamiyatini alohida tilga olib, bu borada yangi texnologiyalarni joriy qilish uchun maxsus dasturlarni amalga oshirish tashabbusini ilgari surdi. Jumladan, 2020-yilda “Raqamli ta’lim” konsepsiyasi qabul qilingan bo‘lib, ushbu dastur holografik texnologiyalarni o‘quv jarayonlariga tatbiq qilish imkoniyatlarini kengaytirish uchun asos bo‘ldi.

Holografik texnologiyalarni ta’limda qo‘llash masalasini birinchi bo‘lib muhokama qilganlardan biri ingliz olimi Dennis Gabor bo‘lib, u 1948-yilda holografiya nazariyasini ishlab chiqdi va bu borada Nobel mukofotiga sazovor bo‘ldi. Bugungi kunda bu texnologiya ta’limda qo‘llanilmoqda. Masalan, AQShdagi MIT Media Lab tadqiqot markazi holografik ta’lim vositalarini ishlab chiqishda yetakchi o‘rin tutadi. O‘zbekistonda esa Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti olimlari ushbu texnologiyalarni mahalliy ta’lim tizimiga joriy etish ustida ish olib bormoqda.

Tadqiqot davomida qo‘llanilgan metodologiya bir nechta bosqichlardan iborat bo‘ldi:

Adabiyotlarni o‘rganish: O‘zbekiston va xorijdagi tadqiqotchilarning holografik texnologiyalarning ta’limga ta’siri haqidagi ilmiy ishlari tahlil qilindi. Jumladan, Toshkent Pedagogika Universiteti olimlari tomonidan holografik tasvirlar yordamida o‘quv materiallarini taqdim etishning ta’lim samaradorligiga ta’siri bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari o‘rganildi.

Tajribalar o‘tkazish: Toshkent shahridagi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ishtirokida holografik darslar tashkil qilindi. Tajriba davomida hologramma yordamida geometriya, biologiya va matematika fanlari o‘qitildi.

Tahlil va baholash: tajribalar natijasi asosida o‘quvchilarning darsga qiziqishi, bilimni o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari va o‘qituvchilarning fikr-mulohazalari yig‘ildi.

Dasturiy ta’minot tahlili: Holografik darslar tashkil qilishda Microsoft HoloLens, Google Tilt Brush va Holox platformalaridan foydalanildi. Ushbu platformalar orqali uch o‘lchovli obyektlar yaratilib, ular dars jarayonida namoyish qilindi.

O‘quvchilarning qiziqishi oshdi: Tajribalar davomida holografik darslar oddiy darslarga qaraganda 40% ko‘proq qiziqish uyg‘otgani kuzatildi. Bilimni o‘zlashtirish darajasi yaxshilandi: Holografik tasvirlar va interaktiv vizualizatsiyalar orqali o‘quvchilar mavzuni tezroq o‘zlashtirganligi qayd etildi. Mahalliy texnologiyalarni rivojlantirish ehtiyoji: O‘zbekistonlik olimlar tomonidan holografik texnologiyalarning o‘zbek tilidagi versiyalarini ishlab chiqish va milliy ta’lim tizimiga moslashtirish zarurati sezildi.

Hologramma texnologiyalarining boshlang‘ich ta’limda qo‘llanilishi o‘quvchilarning bilim olish jarayonini sezilarli darajada osonlashtiradi va samaradorligini oshiradi. Ushbu texnologiyalar ta’limda vizualizatsiya, interaktivlik va qiziqishni oshirishda eng samarali vositalardan biri hisoblanadi.

Hologramma texnologiyalarining boshlang‘ich ta’limda qo‘llanilishi o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, bilim olish samaradorligini yaxshilash va o‘qitish jarayonini interaktiv va vizual qilishda katta ahamiyatga ega. Tadqiqotlar natijasida, bu texnologiyalarni ta’limga joriy etish, o‘quvchilarga yanada samarali o‘qish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, bu texnologiyalarni amalga oshirish uchun zarur infratuzilma, o‘qituvchilarni tayyorlash va resurslar zarur ekanligi ko‘rsatilgan.

Foydalangan adabiyotlar

1. Toshkent Pedagogika Universiteti. (2023). Boshlang‘ich ta’limda innovatsion texnologiyalarni joriy etish tajribasi. Tashkent.

3. Mirziyoyev, Sh. (2020). “O‘zbekiston ta’lim tizimi va innovatsiyalarni joriy etish.” Nutq, Toshkent.

4. Asimov, I. (2018). “Hologramma va uning ta’limdagi roli.” Pedagogika ilmiy jurnali, 32(5).

5. Yu, S., & Lee, H. (2019). “Holographic teaching tools in South Korea.” Journal of Educational Technology, 47(2).

Ne’matjon BEKMURATOV,
Andijon davlat pedagogika instituti, “Tasviriy san’at va musiqa ta’limi” kafedrasi, o‘qituvchi

TASVIRIY SAN’AT FANINI O‘QITISH TEXNOLOGIYASI, DIDAKTIKASI VA METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirish, tasviriy san’at fanini o‘qitishda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish masalalari, umumta’lim maktablarida tasviriy san’at darslari didaktikasi va metodikasini takomillashtirish yzasidan taklif va tavsiyalar berilgan.

Tayanch so‘zlar. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisi, metodik tayyorgarlik, takomillashtirish, tasviriy san’at fanini, zamonaviy ta’lim texnologiyalari, umumta’lim maktablarida tasviriy san’at darslari, didaktika, metodika.

В статье подробно рассматриваются вопросы использования современных образовательных технологий в преподавании урока рисования, совершенствования дидактики и методики преподавании урока рисования в общеобразовательных школах, приводятся предложения и рекомендации по совершенствованию методической подготовки будущих учителей рисования.

Ключевые слова. Будущий учитель рисования, методическая подготовка, совершенствование, искусствоведение, современные образовательные технологии, уроки рисования в общеобразовательной школе, дидактика, методика.

The article examines in detail the issues of using modern educational technologies in teaching drawing lessons, improving didactics and methods of teaching drawing lessons in comprehensive schools, and provides proposals and recommendations for improving the methodological training of future drawing teachers.

Key words. Future drawing teacher, methodological training, improvement, art history, modern educational technologies, drawing lessons in a comprehensive school, didactics, methodology.

Tasviriy san’atning o‘qitilishi tarixini, unda eng samarali dars texnologiyalari, o‘qitish didaktikasi va bilim malaka berish metodikasini shakllanishidan boshlab, uni takomillashtiruv jarayonlari o‘rganib chiqildi. Ayniqsa, bu fanni o‘qitib chiqishda o‘rta asrlar pedagogikasi va metodikasiga alohida e’tibor beriladi. Chunki, umumta’lim maktablarida tasviriy san’atni o‘qitish texnologiyasining shakllanishi qadimgi Yunon va Rim umumta’lim maktablaridan boshlansada, uni texnologiyalashuvi va fan sifatida tan olinishi o‘rta asrlarda nihoyasiga yeta boshlaydi. Bu o‘rinda Ch.Chennino, B.Alberti, Dyurer, aka-uka Dyupyun, A.Ashbe, P.Chistyakov, A.Kardovskiy, Ya.Komenskiy, Jon Lok, T.Russo, I.Gyote, I.Pestalotsii, Petr Shmit, A.Sapojnikov, K.Ushinskiy kabi pedagoglarning tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi xususidagi qarashlari e’tiborga loyiqdir. Ularning fikrlari umumta’lim maktablarida tasviriy san’at darslari texnologiyasini takomillashtirishda muhim o‘rin tutadi.

Shuningdek, XIX-XX asrlarda tasviriy san’atni o‘qitish texnologiyasini rivojlanishida Yaponiya, AQSh, Fransiya, Angliya, Italiya, Rossiya umumta’lim maktablarilari tajribasi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bu mamlakatlarda umumta’lim maktablarida tasviriy san’atni o‘qitish texnologiyasini tashkil etish va ularni takomillashtirish-

ga alohida e'tibor beriladi va eng yaxshi tajribalar umumlashtiriladi. XX asrda Rossiya umumta'lim maktablarilarida tasviriy san'atni o'qitishning ancha mukammal dars texnologiyalari yaratiladi. Bu o'rinda P.Chistyakov, F.Kulman, D.Kardovskiy, K.Yuoon, E.Kondaxchan, E.Ignatev, A.Karlson, N.Rostovtsev, V.Kuzin, Ye.Shoroxov kabi pedagoglar umumta'lim maktablari tasviriy san'atni o'qitish texnologiyasi, didaktikasi va metodkasini takomillashuvida katta xizmat qildilar.

O'zbekistonda umumta'lim maktablarida tasviriy san'atni o'qitish asosan XX asrdan boshlangan bo'lsada, rasm chizishni o'rgatish texnologiyasi bo'lganligi ma'lumdir. Bular haqida A.Navoiyning o'ziga ustoz deb bilgan Sodiqbek Afshor Minatyurachi rassom bo'lgan holda, u o'zining "Qonun as suvar", Qozi Ahmadning "Xatot va Musavvirlar haqida" yozgan risolalarida XVI-XVII asr O'rta Osiyo rassomchiligi san'ati haqida ma'lumotlar berishi bilan birga, rassomchilikni o'rgatish borasida ham o'z qarashlarini bayon etadi.

O'rta asrlarda K.Behzod atoqli rassom Mirak Naqqosh umumta'lim maktablarida o'qigani, Mirak Naqqosh esa Shoxrux Mirzo zamonida yashagan ustoz mavlono Valiullo umumta'lim maktablarida tahsil ko'rgan degan taxminlar ham bor. Lekin Mirak Naqqoshning ustozi Movarounnahrlik iste'dodli ustoz naqqosh Jahongir bo'lgan deyiladi[1].

Bulardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, O'rta Osiyo va Xuroson tasviriy san'ati umumta'lim maktablarilarining shakllanishida va rivojlanishida Samarqand rassomchilik umumta'lim maktablarining o'rni alohida quriladi. Lekin, bizga o'rta asrlarda rivojlangan rassomchilik umumta'lim maktablarining asoschilarining ko'pchiligi ma'lum emas. Ma'lum bo'lganlarining ham ijodiy biografiyasi hozirga qadar to'la o'rganilmagan va aniqlanmagan holda kelmoqda.

O.Usmanovning "Kamoliddin Behzod va uning naqqoshlik umumta'lim maktablari" nomli asarida O'rta Osiyo, Afg'oniston, Eron va boshqa chet el manbalarida tasviriy san'at umumta'lim maktablarilarining shakllanishi va rivojlanishi xususida to'xtab o'tiladi.

XX-XXI asrlarda O'rta Osiyo va O'zbekistonda badiiy ta'lim va tarbiyani rivojlanishi xususida bir qator ilmiy xulosalar beriladi. XX asrning 90-yillarida O'zbekiston umumta'lim maktablarilarida tasviriy san'atning o'qitilishini shakllanishi va rivojlanishi mavzusidagi O.Xudoyarovaning ilmiy ishida tasviriy san'atni o'rta asrlarda "Ustoz-shogird" umumta'lim maktablari va XX asrda tasviriy san'ati o'qtilishi xususida alohida ilmiy xulosalar beradi.

Bunda XX asrni 70-90-yillarida va muallifning o'tgan 20 yillik davrida umumta'lim maktablarida tasviriy san'atning o'qitilishi didaktikasi va metodikasi xususida olib borilgan maxsus kuzatuvlar, eksperement darslar umumta'lim maktablari tasviriy san'ati dars texnologiyasini va bu fanni o'qitish metodikasini mukammal holda ishlab chiqish uchun yetarli ilmiy xulosalar bera oldi. Shularga ko'ra bugungi umumta'lim maktablarida tasviriy san'atning dars-mashg'ulotlarini tashkil etish va uni o'tkazish texnologiyasi bo'yicha so'nggi sahifalarda alohida-alohida to'xtalib o'tamiz.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirish davrida umumta'lim maktablarida tasviriy san'atni o'qitish metodikasi bilan muntazam holda shug'ullanib kelgan va kelayotgan pedagog olimlar o'zlarining qator tadqiqot ishlarida dars texnologiyasi haqida bayon etganlar. Bunday ancha murakkab vazifani ado etishda Ya.A.Kommenskiy, Pestalotstsi, Gerbart, P.Shmit, Sapojnikov Rostovtsev

[1] Manbaa Zoxidov P. Me'mor san'ati. –T., 1978 y. (32 - bet) olindi.

Kuzin, Sharoxov Hasanov Suleymanov Oripov, Egamov va boshqalarning pedagogik qarashi va tasviriy san’atini umumta’lim mazmunidagi maqsad va vazifalari, uni davlat standartlari va dasturi asosida o‘qitish, bu fanni o‘qitishning o‘ziga xos dars texnologiyasi, didaktik va metodikasi xususidagi fikr-mulohazalari, ularning ilmiy pedagogik qarashlari va ularning ilmiy meroslari asosida o‘rganib chiqiladi va tegishli xulosa va tavsiyalar berish ish mazmuniga kiritiladi.

Pedagogik texnologiya – murakkab jarayon sifatida qator o‘qitish bosqichlaridan va o‘z navbatda bu bosqichlarning har biri o‘ziga xos amallardan iborat bo‘ladi. Agar biz tasviriy san’atning dars mashg‘uloti, ya’ni 45 minutli vaqt ichida barcha imkoniyat, shart-sharoit, vosita, didaktika, metodik uslublardan (qanday darajaligidan qat’iy nazar) foydalanib, kafolatlangan natija uchun amalga oshirilayotgan faoliyatning barchasi (N.Talzina ta’rifiga ko‘ra) tasviriy san’at darslarining pedagogik texnologiyasi bo‘ladi.

Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirishda asosiy narsa – bu kafolatlangan natija bo‘yicha imkoniyat, shart-sharoit, vositalar, metodika va uslublar bo‘lib, ularni tashkil etish tasviriy san’atni o‘qitish didaktikasi va uning prinsiplarining asosiy vazifasiga kiradi.

Chunki, umumta’lim maktablarida tasviriy san’atni o‘qitish didaktikasi har bir dars mashg’uloti uchun eng avvalo berilayotgan bilim va malakalarni ilmiy asosda bo‘lishi ta’minlanadi. Ilmiylik prinsipi – o‘quvchilarga rasmi chiziladigan natura, obyekt, mavzu, voqea – hodisalarni yoki tahlil qilanadigan san’at asari bo‘yicha beriladigan har bir ma’lumotni ilmiy va fan ma’lumotlari asosida bo‘lishini ta’minlaydi.

So‘ngra beriladigan bilim-malakalar sistemali, ketma-ketlik asosda bo‘lishini ta’minladi-ki, bu pedagogikani yoki didaktikani osondan qiyinga borish prinsipi asosida olib boriladi. Bu jarayon avval osonroq tasvirlanadigan, oddiy predmetlar rasmini chizib, keyingi mashg‘ulotlar asta murakkablashtirib borish asosida quriladi.

Bular umumta’lim maktablarida tasviriy san’at fani dasturida berilgan mavzularning ketma-ketlik mazmunida o‘z ifodasini topgan bo‘ladi. Shuningdek, umumta’lim maktablarida tasviriy san’at fani bo‘yicha o‘quvchilarga beriladigan bilim, malakalar didaktikani tarbiyaviylik prinsipiga amal qilingan holda olib boriladi.

Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirishda g‘oyat ahamiyatga molik bo‘lgan didaktik prinsip – o‘quvchilarning tasvirlash qobiliyati, bilimi, malakasiga mos holda o‘qitishga shart-sharoit va imkoniyatlarini yaratishdan iboratdir[2]. Bu prinsip o‘qituvchilarning metodik imkoniyatini oshirib, o‘quvchilarning barchasini rasm chizishga va tasvirlar yaratishga jalb qilish imkoniyatini beradi.

Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirishda o‘quvchilarga beriladigan bilim, malakalarini ijodiy, faol, mustaqil va tashabbuskorlik asosida bo‘lishiga alohida e’tibor beriladi.

O‘quvchilarga beriladigan tasviriy san’at bo‘yicha bilim malakalarini oson, qisqa, tushunarli, ilmiy asosda bo‘lishini ta’minlashda didaktikani ko‘rgazmali o‘qitish – ta’lim berish texnologiyasida eng asosiy didaktik prinsip sanaladi.

“Umumta’lim maktablarida ko‘rgazmasiz o‘qitib bo‘lmaydigan yagona o‘quv fani bu tasviriy san’atdir” – deb doimo ta’kidlanishi ham bejiz emas. Shuning uchun bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisini metodik tayyorgarlashda tasviriy san’atni o‘qitish texnologiyasiga oid ko‘rgazmalilik oldin belgilangan maqsadga erishishni kafolatlay oladigan didaktik prinsipning eng asosiysi va eng samaralisi sanaladi[3].

Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisini metodik tayyorgarlashda tasviriy san’atini

[2] Hasanov R. Maktabda tasviriy san’atni o’rgatish metodikasi.T. 2004-yil (83-98 bet)

[3] Oripov B.N. Tasviriy san’atni o’qitish metodikasi. N. 2001 – 2007-yil (18–25 bet)

o‘qitish texnologiyasidagi didaktik jarayon V.P. Bespalk ko‘rsatib o‘tganidek, yangi dars materialiga kirish ya’ni, o‘quvchilarni yangi dars materialini qabul qilishga tayyorlash motivatsiya jarayoni bilan boshlandi. Bu o‘quvchilarni yangi dars materialiga bo‘lgan qiziqishini oshirish bilan birga, ularni dars davomidagi faolligini, mustaqilligini, tashabbuskorligi va ijodkorligini ta’minlash imkoniyatini beradi.

Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisini metodik tayyorgarlashda asosiy o‘rinni uni o‘qitish didaktikasi va metodikasi oladi. Chunki metodika va didaktika umumta’lim maktablarida tasviriy san’at fanidan o‘quvchilarga bilim, malaka berishning eng asosiy va oxirgi pedagogik jarayoni sanaladi. Metodika – umumta’lim maktablarida tasviriy san’at fanidan o‘quvchilarga bilim-malakalar berishning eng oson, eng samarali pedagogik ta’sir ko‘rsatuvchi vosita bo‘lib, darsdagi oldindan belgilangan natijalarni kafolatlay oladigan jarayon hisoblanadi.

Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisini metodik tayyorgarlashda eng ko‘p ishlatiladigan metod “Og‘zaki bayon etish” metodi bo‘lsada “Ko‘rgazmali o‘qitish” va “Amaliy ishlar” metodidan ham har bir dars jarayonida foydalaniladi.

Chunki, umumta’lim maktablarida tasviriy san’at fani o‘quv faning o‘ziga xos xarakteriga ko‘ra ko‘rgazmasiz o‘qitish mumkin bo‘lmagan o‘quv fani hisoblanadi.

Yana bu o‘quv predmetini pedagogik texnologiyasiga ko‘ra, 45 minutli darsni yarmidan ko‘pi amaliy ishlar bilan ta’minlanadi.

– umumta’lim maktablarida tasviriy san’at darslarida: “Og‘zaki bayon etish” metodini suhbat, hikoya, savol-javob, ma’ruza kabi uslublaridan;

– “Ko‘rgazmali o‘qitish” metodini namoyish, illyustratsiya va reproduktsiya bilan ishlash, doskada o‘qituvchi rasmi va eksursiya, kabi uslublardan;

– “Amaliy ishlar” metodining rasm ishlash, haykal ishlash, badiiy-amaliy san’at, kompozitsiyalar ustida ishlash, san’at asarlari tahlili, san’at asarlari yuzasida insho, referat yozish, kabi uslublardan foydalaniladi.

Xulosa qilib aytganda bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisini metodik tayyorgarlashda tasviriy san’atini o‘qitish texnologiyasi o‘zini oldindan belgilangan maqsadiga erishish uchun bu fanni o‘qitish didaktikasi va metodikasidan a’lo darajada foydalana olishi o‘qituvchi zimmasidagi asosiy vazifa bo‘lib qoladi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Manbaa Zoxidov P. Me’mor san’ati. – T., 1978 y. (32-bet).

2. Usmanov O. Kamoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi. – T., 1977 y. (35b).

3. Xasanov R. “Методические основи художественного оброзования и воспитания в обшеобразователной школе” – T., 1990 y.

4. Худоёрова О. Стоновление и развитие преподования изобразительного исскуства в обшеоброзовательних школах Узбекистана. Автороф. – T., 1997 й.

5. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiya. – T., 2003-yil. (70-74-bet).

6. Hasanov R. Maktabda tasviriy san’atni o‘rgatish metodikasi.– T., 2004 y (83-98 bet).

7. B.N.Oripov. Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi. N. 2001–2007y (18-25-bet).

Dilyorjon G'ANIYEV,
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi magistranti

KORXONALARDA BOSHQARUV XODIMLARINING ISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOGIYALARNI JORIY QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqolada korxonlarda boshqaruv xodimlarining ish samaradorligini oshirishda raqamlashtirishning asosiy tendentsiyalari, ularni baholash, shuningdek, rivojlanish jarayonidagi muammolarini bartaraf etish yo'llari, boshqaruv xodimlarining ish samaradorligini oshirish yo'lida raqamli makon tahlil qilingan. Shuningdek maqolada, raqamlashtirishning asosiy tendentsiyalari, sun'iy intellekt texnologiyalarini tatbiq etish afzalliklari, bulutli platormalar xizmatlaridan foydalanish yo'nalishlari, ichki korporativ portallarning samaradorligi batafsil ochib berilgan.

Tayanch so'zlar. Boshqaruv xodimlari, ish samaradorligi, raqamlashtirish, asosiy tendentsiyalar, baholash, rivojlanish, raqamli makon, tahlil, sun'iy intellekt, texnologiya, bulutli platforma, korporativ portal.

В статье проанализировано основные тенденции цифровизации в повышении эффективности работы управленческого персонала на предприятиях, их оценка, а также пути устранения проблем в процессе развития цифрового пространства, пути повышения эффективности работы управленческого персонала. Также, в статье подробно раскрываются преимущества внедрения технологий искусственного интеллекта, направления использования сервисов облачных платформ, эффективность внутренних корпоративных порталов.

Ключевые слова. Управленческий персонал, эффективность работы, цифровизация, ключевые тренды, оценка, развитие, цифровое пространство, аналитика, искусственный интеллект, технологии, облачная платформа, корпоративный портал.

The article analyzes the main trends in digitalization in increasing the efficiency of management personnel at enterprises, their assessment, as well as ways to eliminate problems in the process of developing the digital space, ways to increase the efficiency of management personnel. Also, the article reveals in detail the advantages of introducing artificial intelligence technologies, directions for using cloud platform services, and the effectiveness of internal corporate portals.

Key words. Management personnel, operational efficiency, digitalization, key trends, assessment, development, digital space, analytics, artificial intelligence, technology, cloud platform, corporate portal.

Korxonlarda boshqaruv xodimlarining ish samaradorligini oshirishda raqamlashtirish tendentsiyalari salmoqli afzalliklarni beradi, masalan: o'rta va uzoq muddatli rivojlanish yo'lida korxonani rivojlantirishning yuqori sifatli strategiyasini yaratish; mehnat bozoridan istiqbolli xodimlarni topish; iste'molchi bilan aloqani yanada samarali yo'lga qo'yish; yangi tovar-xizmatlarga bo'lgan talabni bashorat qilish va boshqalar. Binobarin, zamonaviy axborot makonida yuzaga kelgan mavjud vaziyat va tendentsiyalarni hisobga olgan holda, korxonalarni boshqarish usullarini sifatli shakllantirishga yordam beradi.

Tadqiqotimizning maqsadi korxonlarda boshqaruv xodimlarining ish samaradorligini oshirishda raqamlashtirishning asosiy tendentsiyalarini tahlil qilish, ularni baholash, shuningdek, rivojlanish muammolari va ularni bartaraf etish yo‘llarini aniqlashdir. Ushbu maqsadga erishish uchun bir qator tegishli muammolarni hal qilish zarur:

– boshqaruv xodimlarining ish samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalarining rolini aniqlash;

– boshqaruv xodimlarining ish samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalarini joriy etish muammolarini aniqlash;

– boshqaruv xodimlarining ish samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalarini joriy etilishidagi muammolarni hal qilish yo‘llarini belgilang.

Ko‘p yillar davomida boshqaruv xodimlarining ish samaradorligini oshirish bo‘yicha barcha mavjud resurslarni optimallashtirish masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda, shu jumladan. Axborot texnologiyalaridan (IT) foydalanish bilan birgalikda korxonaning barqaror rivojlanishini ta’minlaydigan taraqqiyotning asosi inson kapitalidir. Bunday sharoitda katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish qobiliyati raqobatdosh ustunlikning muhim omiliga aylanadi. Shularni hisobga olgan holda korxonalar o‘z faoliyatini avtomatlashtirish, ishlab chiqarish jarayoniga tobora ko‘proq (IT) ni joriy etish, bu esa daromadlarni oshirish, amalga oshirilayotgan operatsiyalarni kengaytirish, yangi mijozlarni jalb qilish va bozor texnologiyalarini yanada mustahkamlash imkonini bermoqda.

So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar ushbu hodisani tasdiqlaydi: butun dunyo bo‘ylab zamonaviy kompaniyalar boshqaruv xodimlarining ish samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalaridan foydalanishni (xodimlarni boshqarish va ish vaqtini hisobga olish, ish haqi va qo‘shimcha to‘lovlar, ish smenalari va ta’til jadvallari va boshqalar kabi takroriy jarayonlarni) zarurligini tan oladi. Shunday qilib, zamonaviy onlayn rekruting platformalarining top-menejerlari o‘zlarining tahliliy maqolalarida axborotlashtirish nuqtai nazaridan ish beruvchilar uchun eng katta qiziqish kadrlar bo‘limining elektron boshqaruv tizimlari, kadrlar bo‘yicha ish yuritish, xodimlarning kompaniya ma’lumotlari va hujjatlariga birgalikda xavfsiz kirishi, ishga olish, hisobot berish va tahlil qilish dolzarb ekanligini bildirmoqdalar.

Biroq, so‘nggi paytlarda boshqaruv xodimlarining ish samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarni joriy etish masalasi tobora dolzarb bo‘lib bormoqda, chunki doimiy harakatlanuvchi texnologik taraqqiyot va raqamli transformatsiya jamiyatga har tomonlama ta’sir ko‘rsatmoqda. Raqamli platformalar doirasida yuzaga keladigan bizness jarayonlari va faoliyat shakllaridagi sifat o‘zgarishlari raqamli transformatsiyani raqamli texnologiyalarni joriy etish natijasida iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish usullaridagi sifat o‘zgarishlari sifatida aniqlash imkonini beradi, bu esa sezilarli ijtimoiy-iqtisodiy ta’sirlarga olib keladi.

Raqamli texnologiyalarni o‘rganish jarayoni juda dolzarb, chunki raqamli muhit boshqaruv xodimlarining ish samaradorligini oshirishning barcha sohalarida takomillashtirish uchun deyarli cheksiz imkoniyatlarni taqdim etadi. O‘z navbatida, boshqaruv xodimlarining ish samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalaridan foydalanish bilan bog‘liq yangi tendentsiyalarni o‘zlashtirish, tashkilotni o‘z faoliyatining turli sohalarida yangi g‘oyalarni yaratish va samarali qo‘llashga qodir bo‘lgan xodimlar bilan sifatli ta’minlashni oldindan belgilab beradi, shu bilan birga xodimlarning kasbiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun asos yaratadi. Hozirgi vaqtda boshqaruv xodimlarining ish samaradorligini oshirish jarayonlarini raqamlashtirishning to‘rtta asosiy tendentsiyasi

mavjud, bular:

Birinchisi, sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishdan iborat. Boshqaruv xodimlarining ish samaradorligini oshirishda ushbu texnologiyalardan foydalanish katta vaqt talab qiladigan jarayonlarni avtomatlashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi, bu esa tejalgan resurslarni murakkab muammolarni hal qilish yoki nostandart vaziyatlarni bartaraf etishga yo‘naltirish imkonini beradi. Shuningdek, mavjud avtomatlashtirish tizimlarini elektron qurilmalar va telekommunikatsiya elementlari bilan jihozlash mumkin, bu esa uskunalarni modernizatsiya qilish va qayta jihozlash uchun mablag‘ni tejash imkonini beradi. Bulutli texnologiyalardan foydalanishga misol sifatida bulutli platformada ma’lumotlarni saqlash va qayta ishlashni ta’minlovchi platformalarni yechim sifatida keltirish mumkin.

Boshqaruv xodimlarining ish samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalarini joriy etishda duch keladigan barcha qiyinchiliklarga qaramay, sun’iy intellektdan foydalanish salohiyati tez sur’atlar bilan o‘sib bormoqda va xodimlarni yollash, baholash, monitoring qilish, o‘qitish va rivojlantirishda, bu esa xodimlarning mehnat unumdorligi, samaradorligi va farovonligini oshiradi. Ta’kidlash joizki, boshqaruv xodimlarining ish samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarini joriy etishda kiberxavfsizlik va sun’iy intellektdan foydalanishning huquqiy va boshqa masalalarda kompleks tartibga solishga alohida e’tibor qaratish lozim, chunki ma’lumotlar hajmining doimiy o‘sishi bilan ularning barqarorligi, xavfsizligi va boshqalar xavfi ortadi.

Ikkinchi tendentsiya – axborotlarni bulutli platformalarda saqlash va qayta ishlash xizmatlarini yangilash. So‘nggi o‘n yilliklarda jamiyatning kundalik hayotida ma’lumotlar hajmi va korxonada qo‘llaniladigan ma’lumotlar ko‘lami ko‘p marta oshdi, ya’ni, fan va texnikaning o‘sib borayotgan rivojlanish sur’atlari, yangi texnologiyalarning paydo bo‘lishi, ishlab chiqaruvchilarning xarajatlarni kamaytirish istagi, mahsulot ishlab chiqaruvchilar o‘rtasidagi korporativ aloqalarni rivojlantirish va boshqalar. Shu munosabat bilan zamonaviy sharoitda tadbirkorlar va menejerlar bulutli platformalar xizmatlar kabi zamonaviy vositalar va ularni qayta ishlash tizimlarini joriy etish orqali katta hajmdagi axborotni qayta ishlashga moslashishi kerak. Bulutli texnologiyalarni qo‘llash natijasida ish jarayonida korxona ma’lumotlarini tuzish, takliflar kiritish, o‘zgartirishlar kiritish, kerakli hujjatlarni ishlab chiqish va birgalikda tahrirlash mumkin bo‘ladi.

Ushbu tendentsiyani cheklovchi omil – bu ma’lum funksiyalar to‘plamiga asoslangan boshqaruv xodimlarining ish samaradorligini oshirishda axborot va texnologik yordam yangi bulutli axborot texnologiyalarini joriy etish zarur bo‘lib bormoqda.

Ushbu tendensiyaning rivojlanish yo‘nalishlari va samaradorligi quyidagilardan iborat bo‘ladi:

– ishga qabul qilish va ishga qabul qilish tizimini takomillashtirish;

– kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish;

– xodimlarning ichki aloqalarini yaxshilash;

– buxgalteriya hisobi, ish vaqtini nazorat qilish va xodimlardan foydalanishni takomillashtirish;

– xodimlarning biznes bahosini yaxshilash.

Ushbu tadbirlarni amalga oshirish xodimlarni jalb qilish, ushlab turish va rivojlantirish funksiyalarini optimallashtirishga yordam beradi va shu bilan xodimlarni boshqarish siyosatini yanada samarali amalga oshiradi.

Uchinchi tendensiya – ichki korporativ portallarni joriy etish. Korporativ portal xodimlar bilan yanada samarali va qulay aloqalar, shuningdek, interaktiv kurslar,

testlar, kompaniya hayoti haqidagi ma'lumotlar va hujjatlarni saqlash uchun yagona platformadir. Ushbu texnologiya xodimlarni moslashtirish, o'zaro funksional va ichki hamkorlik, xodimlarni o'qitish va baholash uchun vaqtni qisqartirish imkonini beradi, shuningdek, qulay axborot muhitida o'zaro hamkorlik va tajriba almashish uchun platforma sifatida xodimlarni o'qitish tizimini yaratishga yordam beradi.

Ijobiy jihati	**Xususiyatlari**
Samaradorlikni oshirish va xodimlarning mahsuldorligi	• tashkilotning barcha xodimlari o'zgarishlar va yangiliklarni amalga oshirishdagi muammolaridan xabardor; • har bir xodimning bajarilgan vazifasini kuzatish va uning ish samaradorligini o'lchash imkoniyati; • ma'lum bir xodimning bajaradigan ishidan qat'iy nazar, loyihalarni onlayn boshqarish imkoniyati; • doimiy o'qish va kasbiy tayyorgarlik va qayta tayyorlash imkoniyati.
Hujjatlar soni va ular bilan ishlash hajmining qisqarishi	• tashkilotning umumiy hujjat aylanish tizimidan foydalangan holda, har bir xodim o'z hamkasblari bilan hujjatlaridan birida ishlashi; • tashkilotning barcha gorizontal aloqalari samaradorligini oshirish; • turli hududlarda joylashgan bo'linmalarda ishlaydigan xodimlar uchun tez-tez xizmat safarlariga ehtiyoj yo'qolishi.
Tashkilot xodimlariga yetkazilgan ma'lumotlarni boshqarish, nazorat qilish va tuzatish	• muayyan ma'lumotlarni qidirish vaqtining qisqarishi; • aloqa darajasi va tezliginihg oshishi; • Internetdan samarasiz, keraksiz foydalanishni cheklash.

Jadval. Ichki korporativ portallarning samaradorligi

Bizning fikrimizcha, boshqaruv xodimlarining ish samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalarining, raqamlashtirishning yuqoridagi yo'nalishlarini amalga oshirish, boshqaruv jarayoniga raqamli texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish bo'yicha tegishli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassislarni jalb etishni, shuningdek, ushbu texnologiyalardan foydalanadigan xodimlarga qo'yiladigan talablarni oshirish zarur.

Ish samaradorligini oshirishda boshqaruv xodimlari axborot texnologiyalaridan foydalanishda quyidagi kompetensiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi:

– katta hajmdagi ma'lumotlar, qidiruv, qayta ishlash va tizimlashtirish uchun raqamli bilimlar;

– tizimli fikrlash, tanqidiy fikrlash qobiliyati;

– muammolarni kompleks hal qilish malakasi;

– hissiy intellekt, mijozlarga e'tibor, kognitiv moslashuvchanlik, muloqot madaniyati.

Yuqoridagilardan tashqari, axborot kompetensiyalarini parallel ravishda rivojlantirmasdan turib, xodimlarni boshqarishda IT ni joriy etish mumkin emas. Inson resurslarini boshqarish bo'yicha tashkilotlar strategiyasini qayta ko'rib chiqish, shu jumladan kadrlar bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashga yangi yondashuvlar zarur. Xodimlar bilan kundalik ishlashda raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha yangi ko'nikmalar doimiy ravishda o'zlashtirilishi kerak va PR xizmatlari turli vaziyatlarga va atrof-muhitdagi o'zgarishlarga moslashuvchan munosabatda bo'lishni o'rganishi kerak. Ushbu shartlarning bajarilishi xodimlar o'rtasida "raqamli fikrlash" malakalarini shakllantirishga yordam beradi, bu axborot imkoniyatlarini rivojlantirish bilan bir qatorda raqamli transformatsiyaning asosiy sharti bo'lib, bu o'z navbatida boshqaruv tizimining yanada samarali ishlashiga yo'l ochadi.

Ta'kidlash joizki, xodimlar tomonidan ish jarayoniga to'siqlarsiz innovatsiyalarni

muvaffaqiyatli joriy etish uchun quyidagilar zarur: ishni optimallashtirish uchun zarur kadrlar salohiyatini yaratish, xodimlarni raqamlashtirish jarayonlariga jalb qilish, ularni rag‘batlantirish, zarur o‘quv materiallari bilan ta’minlash, o‘quv mashg‘ulotlari – treninglar va seminarlar o‘tkazish.

Shunday qilib, korxonlarda boshqaruv xodimlarining ish samaradorligini oshirishda raqamli texnogiyalarni joriy qilish sanab o‘tilgan tendentsiyalari shundan iboratki, IT ko‘plab operatsiyalarni o‘z zimmasiga oladi va asta-sekin korxonaning ishlab chiqarish faoliyatiga kiritiladi. Xodimlarni boshqarish tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanishni o‘z ichiga olgan yangi mehnat standartlarini belgilash, funksiyalar va mas’uliyatni farqlash muhim muammoga aylanadi, bu esa pirovardida tashkilot faoliyatining mohiyatini sezilarli darajada o‘zgartiradi.

Korxonlarda boshqaruv xodimlarining ish samaradorligini oshirishda raqamli texnogiyalarni joriy qilish jarayonlarini, tendensiyalarini o‘rganish bizga quyidagi xulosalar chiqarish imkonini beradi:

Korxonalarda jarayon parametrlarini avtomatlashtirilgan nazorat qilish va boshqarish, shuningdek, bizness jarayonlar samaradorligini oshirish uchun intellektual texnologiyalarning joriy etilishi resurslarni tejash bo‘yicha murakkab muammolarni hal qilish va/yoki nostandart vaziyatlarni bartaraf etishga yo‘naltirish imkonini beradi. Ushbu tendentsiya kontekstida xodimlarni boshqarishda axborot texnologiyalarini joriy etishda yuzaga keladigan muammolarni hal qilishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlardan foydalanish zarur bo‘ladi. Ushbu tadbirlarning amalga oshirilishi sun’iy intellektdan foydalanish salohiyatini oshiradi, shu bilan xodimlarning mehnat unumdorligi, samaradorligi va farovonligini oshiradi.

Xodimlarni boshqarishda axborot texnologiyalarining rivojlanishi va ko‘lami bilan bog‘liq holda, tashkilotlar faoliyatiga IT ma’lumotlarini kiritadigan mutaxassislarga ehtiyoj paydo bo‘ladi. Bunday mutaxassislar ushbu texnologiyalarning turli muammolarni keltirib chiqarmasdan barqaror ishlashini ta’minlaydigan zarur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adaboyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga yo‘llagan murojaatnomasi. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. №1, yanvar-fevral, 2021-yil 1/2021.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60- sonli farmoniga 1-ilova.

3. Xajiyev B., Otaboyev F. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanish xususiyatlari. Maqola “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnal. №5, sentayabr-oktyabr, 2020-yil.

4. Добролюбова, Е.И., Южаков, В.Н., Ефремов, А.А., Клочкова, Е.Н., Талапина, Э.В., Старцев, Я.Ю. Цифровое будущее государственного управления по результатам. – Москва, 2019 г. 14 с.

5. Лапидус Л.В. Цифровая экономика: управление электронным бизнесом и электронной коммерцией. – М.:ИНФРА-М, 2018. -381 с.

6. Яковлева Е.В., Ильина Ю.С. Экономическая динамика промышленных предприятий в условиях цифровизации // Омский научный вестник. Серия “Общество. История. Современность” том 6 № 3 2021. –С.-114-118

Gulmira MIRZAYEVA,
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti, o‘qituvchi

UYUSHMAGAN YOSHLARNI QO‘SHIMCHA KASBLARGA – HUNARMANDCHILIK SOHALARIGA TAYYORLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqolada xalq hunarmandchilik kasblariga oid bo‘lgan naqqoshlik, miskarlik, pichoqchilik, gilamdo‘zlik, o‘ymakorlik kabi yo‘nalishlarda mashg‘ulotlarni tashkil qilishning o‘ziga xos xususiyatlari, hunarmandchilik kasblarining ahamiyati, ishlab chiqarishga qay darajada hissa qo‘shayotganligi keng va batafsil yoritilgan. Shuningdek, maqolada qadimiy hunarmandchilik mashg‘ulotlari va zamonaviy kasblar o‘rtasidagi aloqalar “Boburnoma” asari misolida tahlil qilingan.

Tayanch so‘zlar. Xalq hunarmandchiligi, degrezlik, cho‘yangarlik, naqqoshlik, ganchkorlik, misgarlik, pichoqchilik, bo‘yrachilik, "ustoz-shogird” usuli, dastgoh.

В статье подробно рассмотрены особенности организации занятий, связанных с народными промыслами, такими как роспись, медное дело, ножевое производство, ковроткачество, резьба по дереву, значение ремесел, степень их вклада в производство. Также в статье анализируется взаимосвязь древних ремесел и современных профессий на примере произведения «Бобурнома».

Ключевые слова. Народное ремесленничество, литейное дело, чугунное дело, живопись, резьба по ганчу, медное дело, изготовление ножей, циновочное дело, метод “Наставник-ученик,” станок.

The article examines in detail the peculiarities of organizing classes related to folk crafts, such as painting, coppersmithing, knife making, carpet weaving, wood carving, the importance of crafts, and the degree of their contribution to production. The article also analyzes the relationship between ancient crafts and modern professions using the example of the work "Boburnoma".

Key words. Folk crafts, foundry, cast iron, painting, ganch carving, coppersmithing, knife making, mat making, “Master-student” method, machine.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida yoshlar bandligini ta’minlash va bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan (2021-yil, 27-yanvar) videoselektor yig‘ilishida quyidagi fikrlarni bildirdilar “Mamlakatimizda 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar soni 18 milliondan ziyod. Bu – aholining qariyb 55 foizini tashkil etadi. Zamon talablarini ilg‘ash va amalga oshirish, soha va tarmoqlarni olg‘a boshlashda bu juda katta tayanch, bebaho xazinadir. Prezident Shavkat Mirziyoyev bu ishlar ikkita muhim yo‘nalishda tashkil qilinishi zarurligini ko‘rsatib o‘tdi. Birinchisi – yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, kasb-hunarga o‘qitish orqali ularning bandligini ta’minlash bo‘lsa, ikkinchisi – yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishdir. Bugungi kunda yoshlar aholining o‘n to‘rt yoshga to‘lgan va o‘ttiz yoshdan oshmagan qatlami bo‘lib, mamlakatimizda voyaga yetmaganlar va yoshlarning hissasi aholining 58,8 foizini tashkil etadi. “Uyushmagan yoshlar” tushunchasi haqida so‘z borar ekan, ushbu ibora “uyushmagan” va “yoshlar”

so‘zlari birikmasidan tashkil topgan.

“Uyushmagan so‘zining o‘zagi “uyushiq” bo‘lib, unga o‘zbek tilining izohli lug‘atida “uyushgan, jipslashgan, ahil”, unga ma’nodosh bo‘lgan “uyushma” so‘ziga esa “bir maqsad yo‘lida birgalikda harakat qilish uchun birlashgan kishilar yoki tashkilotlar birlashmasi” mazmunida izoh berilgan[1]. Demak, mantiqan olib qaraganda, “uyushmagan” so‘zi “uyushiq” yoki “uyushma” so‘zlarining aksi, ya’ni antonimi bo‘lib, “jipslashmagan, ahil bo‘lmagan, muayyan bir maqsad yo‘lida birgalikda harakat qilish uchun birlashmagan” ma’nolarini anglatadi.

Xalq hunarmandchilik kasblariga o‘rgatish ta’limi mashg‘ulotlarida tayyorlangan buyumlarni bozorda sotish orqali iqtisodiy hamkorlik ta’minlanadi va bozor talablariga asosan buyumlar ishlab chiqariladi. Bu nafaqat iqtisodiy hamkorlikni, balki yosh avlodga metall va yog‘och materiallardan tayyorlangan xalq hunarmandchiligi buyumlariga nisbatan hurmat hissini yanada shakllantirishga xizmat qiladi. Bu kabi buyumlarning zamon talabiga, inson ehtiyojiga munosib holda tayyorlanishi yangicha ko‘rinishdagi mahsulotlar ishlab chiqarilishiga ham turtki bo‘ladi. Bozor hamma vaqt iqtisodiy hamkorlikning kengayib borishini talab qiladi. Dunyoda qanday hunar bo‘lmasin, albatta uning ustalari va shogirdlari bo‘ladi. Naqqoshlik, ganchkorlik, misgarlik, pichoqchilik, bo‘yrachilik, gilamdo‘zlik, yogoch o‘ymakorligi kabi hunarlarning o‘ziga yarasha ustalari bor. Har bir hunarmand ustaning shogirdi bo‘ladi. Agar ustaning shogirdi bo‘lmasa, uni xuddi mevasiz daraxtga o‘xshatish mumkin. Chunki o‘z hunarini ustalarimiz avloddan-avlodga an’ana tariqasida o‘tkazib kelganlar. Shuning uchun ham Alisher Navoiy quyidagi misralarni yozib qoldirgan:

“Hunarni asrabon netkumdir, oxir,
Olib tufroqqamu ketgumdir, oxir.”

Kosibchilik (arab. - kasbkorlik) 1) tor ma’noda – charmdan kovush, mahsi, shippak, etik va boshqa oyoq kiyimlarini qo‘lda tikish bilan shug‘ullanish. Asosan, chorvachilik paydo bo‘lganidan so‘ng (miloddan avvalgi 4-3-ming yillik) xom teridan oyoq kiyimlari “tikila” boshlagach, kosibchilik shakllana borgan, lekin hali juda ibtidoiy ko‘rinishda bo‘lgan. Asta-sekin odamlar hayvon terisini oshlashni, undan ko‘n tayyorlashni, ko‘ndan charm olishni, charmdan esa kiyim-bosh, poyabzal tikishni o‘rganishgan.

Tunukasozlik – tomlarga tunuka qoqish, tunukadan turli asbob-anjomlar (pechlar, dudburonlar, ularga qalpoqlar va boshqalar) yasash bilan shug‘ullanish kasbi; hunarmandlikning bir turi. Tomga tunuka qoquvchi usta tunukachi, tunukachilik ustaxonalarida tunukadan turli asbob-anjomlar yasovchi mutaxassis tunukasoz deb ataladi. Odatda, mohir tunukachi tunukasozlik qilib ham ketaveradi yoki aksincha.

Miskarlik – hunarmandchilikning qadimiy sohasi; mis va uning metallar bilan qotishmasidan qurollar, uy-ro‘zg‘or buyumlari va boshqa yasash kasbi. Miskarlikda buyumlar 2 xil usulda eritib, quyib yoki bolg‘alab yasaladi. Ish jarayonida metall tez-tez qizdirib turiladi. Murakkab shaklli buyumlar yasashda avval ayrim bo‘laklar quyilib, so‘ng ular bir-biriga qalaylanadi. Buyumlar qolipdan ko‘chirilgach tozalanib, so‘ng unga naqqoshlar chizma, kandakori yoki bosma usulida gul (naqsh) ishlaydi.

Rixtagarlik (fors.toj. – quymoq) – rangli metall (asosan, mis, bronza, qalay) dan turli buyumlar quyish kasbi. (Hunarmandchilikning qadimiy turlaridan. Qadimda bronzadan qurollar, uy jihozlari, san’at va diniy marosimlarga oid buyumlar quyilganligi ma’lum (Bobil, Misr, Rim, Xitoy, Yunoniston). XIII-XIV asrlarda Vizantiya, Venetsiya, Genuya,

[1] O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi. J. IV. Tartibot–Shukr / Tahrir hay’ati: T.Mirzaev (rahbar) va boshq. O‘z. Res. FA Til va adabiyot in-ti. – T., 2008. – 608 b.

Florensiya o‘zining rixtagarlik buyumlari bilan shuhrat qozondi. XIV-XV asrlarda rus davlatida (Uralda) bronza va cho‘yandan zambaraklar, qo‘ng‘iroqlar rixtagarlik usulida quyilgan.

Degrezlik, cho‘yangarlik — 1) cho‘yan eritib, undan turli buyumlar quyish kasbi. O‘zbekiston hududida qadimdan cho‘yandan urush qurollari, hunarmandlik, qishloq xo‘jaligi va ro‘zg‘or buyumlari (mas, qozon) yasalgan. Cho‘yan buyumlar zaxda zanglab, uzoq turmasligi sababli arxeologik qazilmalar namunalari orasida qadimdan qolgan cho‘yan buyumlar kam uchraydi. Muzeylarda saqlanayotgan cho‘yan buyumlar 15-asrdan keyingi davrlarga mansub. Bobur “Boburnoma” asarida cho‘yan quyish jarayonini yozib qoldirgan. 16-asr yozma manbalarida “degrez” so‘zi bilan bir ma’nodagi “cho‘yangar” so‘zi ham uchraydi. O‘rta asr ma’dansozligida mehnat taqsimoti oqibatida cho‘yan, jez va birinj (bronza) dan qurol, asbob va buyumlar quyish alohida-alohida tarmoqlarga ajralgan.

Ko‘nchilik — hayvon terisidan charm (ko‘n) tayyorlash kasbi; hunarmandchilikning qadimiy turlaridan biri. Ibtidoiy odamlar hayvon terisidan charm tayyorlash sirlarini bilishmagan; ular, asosan, xom terilarni yopinib yurishgan. Bunday hol uzoq davom etishi mumkin emasdi, chunki tabiat injiqliklari odamlarning yaxshiroq o‘ranib-chirmanib yurishlarini taqozo qilardi. Neolitning so‘nggi bosqichi va jez davri boshlarida chorvachilik yuzaga keldi. Shundan so‘ng ko‘nchilikning ilk madaniy uchqunlari paydo bo‘ldi. Terini qayta ishlash usullari vujudga kela boshladi. Insoniyat asta-sekin hayvon terisini oshlab ko‘n olishni va undan kiyimbosh tikishni bilib oldi. Keyinchalik odamlar tolali o‘simliklar tolasidan dag‘al matolar to‘qishni o‘rganib olgach, ko‘nchilikga bo‘lgan ehtiyoj biroz susaydi. ko‘nchilik hunarmandchilik kasbi sifatida, asosan, XIX asr 2-yarmidan shakllana boshladi. XX asr boshlarida O‘zbekistonda ko‘plab ko‘nchilik do‘konlari bo‘lgan. Bu yerda chorvachilik taraqqiy etganligi hamda teri va charmga ehtiyoj kattaligi tufayli ko‘nchilik hunarmandchilikning asosiy sohalaridan biriga aylandi. Bu davrda rus kapitali ta’sirida oldin Xorazm (Xonqa)da, keyin Toshkentda ko‘n zavodlari qurilgan. Shu tariqa ko‘nchilikning sanoat usullari paydo bo‘ldi. Ayni paytda O‘zbekistonning barcha hududlarida kichik-kichik xususiy ko‘nchilik korxonalari, ko‘nchilar oilalari paydo bo‘ldi.

To‘quvchilik. “Atlas” so‘zi arab tilidan tarjima qilganda tekis, silliq degan ma’noni anglatadi. U tanda ipi ham, arqoq ipi ham tabiiy ipakdan to‘qiladigan bir yuzlama silliq mato hisoblanadi. Alohida ishlov berib atlasga jilo beriladi. Shunga ko‘ra u tovlanib turadi. Atlasning tabiiy ipakdan to‘qilgan eng a’lo navi sakkiz tepkili xonatlas deb ataladi. Xonatlasning barcha siri uning tuzilish hamda to‘qilish usulidadir. Tanda ipi abrbandi usulida bo‘yab bezatiladi. Alohida ishlov berib atlasga jilo beriladi, shunga ko‘ra u tovlanib turadi. Ilgari mato yuziga kudung urilgan, hozirgi kunda atlas issiq sathli baraban – kalandrdan o‘tkaziladi. O‘zbek atlaslari rang-barang nafis gullarga boy, bu gullar bir-biri bilan uyg‘unlashib, matoda yaxlit go‘zal bir naqshni hosil qiladi. Atlasning tabiiy ipakdan to‘qilgan eng a’lo navi sakkiz tepkili xonatlas deb ataladi. Xonatlasning barcha siri uning tuzilishi va to‘qilish usulidadir. Atlasning to‘qilish jarayoni: to‘rt tepkili atlas to‘rt tepkili dastgohda, sakkiz tepkili atlas sakkiz tepkili dastgohda to‘qiladi. Tandaga gulalar tandaning har sakkiz naxi to‘qilishda ustma-ust keladigan qilib ko‘tariladi, naxlar tepkilarga muvofiqlashtirilib, gulalar o‘ynag‘ichlarga ulanadi.

Bo‘zchilik — bo‘z to‘qish kasbi. Eng oddiy yog‘och to‘quv dastgohi (qo‘l do‘kon) ning yaratilishi bilan (taxminan miloddan avvalgi 6-5-ming yillik) paydo bo‘lgan. Jamiyatda ijtimoiy mehnat taqsimotining yuzaga kelishi bilan oilada shug‘ullanilgan. Bo‘zchilik alohida kasb tarmog‘iga aylandi hamda shahar, qishloqlarda keng tarqaldi.

Bu. kasbni egallash “ustoz-shogird” usulida amalga oshirilgan. Shogirdlar (asosan 12-13 yoshli o‘smirlar) hunarni puxta o‘zlashtirguncha ustozining oilasida yashab, do‘konida maoshsiz ishlagan. Bo‘zchilikni puxta egallab olgach, 1-2 yil ustasiga ishlab bergan, so‘ng ustozidan fotiha olib, mustaqil ishlagan. XX asr boshlarida Turkiston bozorlariga fabrikadan to‘qilgan ipgazlamalarning ko‘plab keltirilishi bo‘zchilikning. sinishiga olib keldi. 20-yillarda bo‘zchilik sanoat arteli shaklini olgan. 30-yillarda to‘qimachilik sanoati rivojlanishi tufayli bo‘zchilik kasbi yo‘qolib ketdi.

To‘n — oldi ochiq, paxtali yoki paxtasiz uzun ustki milliy kiyim, chopon. Bichig‘i to‘g‘ri bichimli bo‘ladi. Ichiga paxta solib qaviladigan paxtali to‘n va paxtasiz (avra-astardan iborat yalang qavat) to‘n xili bor. Qadimdan xon va amirlar tomonidan boy va amaldorlarga yaxshi xizmatlari evaziga, mehmonlar, elchilar, xorijiy mehmonlarga to‘n kiydirilgan, bu odat hozirgi kunda ham saqlangan. 18-asrdan to‘n Rossiya, Xitoy, Eron va boshqa mamlakatlarga chiqarilgan. 19-asrdan Rossiya bilan aloqalarda muhim eksport mahsulotiga aylangan, ayniqsa, Buxoroning zarboft, Samarqandning kimxob to‘nlari mashhur bo‘lgan. O‘rta Osiyo, jumladan, O‘zbekiston to‘nlari Xalqaro ko‘rgazmalar (Parij, Moskva, Nijniy Novgorod, Peterburg va b.) da namoyish etilgan hamda mukofotlarga sazovor bo‘lgan. O‘zbekiston to‘nlarining eng yaxshi namunalari respublika va xorijiy mamlakatlar muzeylari va xususiy to‘plamlarda saqlanadi.

Beshikchilik san’ati deganda, biz beshik yasash kasbini tushunamiz. Beshikchilik qadimdan buyon qo‘llanilayotgan bo‘lib, beshik ─ chaqaloqni belab va tebratib uxlatish uchun mo‘ljallangan yo‘rg‘a oyoqli maxsus moslama. Asosan, tut, tol va boshqa yog‘ochdan yasaladi. Uzunligi 1-1,05 m, balandligi 50 sm dan 60 sm gacha bo‘ladi. Beshikning ikki tomonidagi yarim doira shaklidagi yo‘rg‘a (oyoq) lariga uzunligi 1,2 m, eni 8-10 sm bo‘lgan egmoch (qosqon) o‘rnatiladi, egmochga dasta biriktiriladi. Dastaning ikkala tomoniga qubbalar yasaladi. Bolaning bosh va oyoqlarini muhofaza qilish uchun egmochlarning ichiga boshlog‘i va bag‘alak cho‘plar o‘rnatiladi. Beshik naqshlar bilan bezatiladi yoki rang-barang bo‘yoqlar bilan bo‘yaladi, so‘ng ba’zan lok surtiladi.

Beshik yasash uchun asosan tut, tol, terak daraxtlarining pishiq, ravon va ko‘stsiz (ko‘zi bo‘lmagan) tana qismlaridan xomashyo olamiz.

Popopchilik — mashinada kashta tikish kasbi; popop mashinada yo‘rma (popop) chokida amaliy bezak san’ati asarlari, badiiy buyumlar (choyshab, so‘zana, palak, yostiq jildi, do‘ppi va boshqalar) tayyorlash. XIX asrda O‘rta Osiyoga, jumladan, O‘zbekiston hududiga kirib kelgan. Badiiy buyumlar avval yakka tartibda, keyinroq artellarga birlashib, hozirda fabrikalarda tayyorlanadi. Satin, duxoba, baxmal va boshqa sidirg‘a matolarga tikiladi. Naqsh-gullar avvaldan tayyorlangan axtalar yordamida bezatiladigan yuzaga tushirib olinadi, so‘ngra rang-barang ipaklarda tikiladi. Toshkentdagi “Sharq guli” fabrikasi (hozirgi aksionerlik jamiyati) va boshqalarda nozik did bilan nafis, jozibali naqshlar bilan bezatilgan

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyoyev Prezident yoshlarning bandligini ta’minlash bo‘yicha qat’iy topshiriqlar berdi. 27.01.2021. https://qalampir.uz/uz/news/prezident-yoshlarning-bandligini ta'minlash bo‘yicha qat'iy topshiriqlar berdi. 32279.

2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023 — 964-bet. ISBN 978-9943-8834-4-4.

3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi. J. IV. Tartibot – Shukr / Tahrir hay’ati: T.Mirzaev (rahbar) va boshq. O‘z. Res. FA Til va adabiyot in-ti. – T., 2008. – 608 b.

Umida BADRIDDINOVA,
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Jamoat xavfsizligi universiteti, mustaqil izlanuvchi

“AFV ETISH” KONSEPTINING KONTEKSDAGI MA’NOLARI VA ULAR ORASIDA DARAJALANISHNING NAMOYON BO‘LISHI

Annotatsiya

Maqolada “Konsept” atamasining ma’nosi, ahamiyati va “afv etish” konseptiga berilgan ta’rif, ularning turli o‘rinlarda ishlatilishi, lug‘atlarda qanday ma’nolarni anglatishi, ma’nolar orasidagi darajalanish badiiy asarlardagi parchalar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada “Afv etish” konseptining verbal va noverbal holatlarda kelishi nasriy va nazmiy usulda yozilgan jumlalardan anglashilgan ma’nolar orqali sharhlanishi muallif tomonidan batafsil ochib berilgan.

Tayanch so‘zlar. Kognitiv tilshunoslik, konsept, afv etish konsepti, graduonimiya, verbal, noverbal, badiiy asar.

В статье подробно анализируются значение терминов "Концепт" и "Прощение", использование этих терминов, обозначение данных терминов в словарях и энциклопедиях, рассмотрены ранжирование между значениями. Также в статье автор подробно объясняет трактовку понятия "Прощение" в вербальных и невербальных ситуациях через смыслы, понимаемые из предложений, написанных в прозе и стихах.

Ключевые слова. Когнитивная лингвистика, концепт, концепция прощения, градуонимия, вербальное, невербальное, художественное произведение.

The article analyzes in detail the meaning of the terms "Concept" and "Forgiveness", the use of these terms, the designation of these terms in dictionaries and encyclopedias, and examines the ranking between the meanings. The author also explains in detail the interpretation of the concept of "Forgiveness" in verbal and non-verbal situations through meanings understood from sentences written in prose and poetry.

Key words. Cognitive linguistics, concept, concept of forgiveness, graduonymy, verbal, non-verbal, fiction.

Dunyo tilshunosligi kundan-kun rivojlanib, taraqqiy etib borayotgan bir davrda til birliklarini inson omili bilan birgalikda o‘rganib, tatqiq qilish jarayoni ortib bormoqda. Biz hozir o‘rganmoqchi bo‘lgan “afv etish” konsepti semantik maydoni keng va ahamiyatli ekanligini o‘rganish, bu maydon o‘z atrofida qanday leksik birliklarni qamrab olganligini tadqiq qilishdan iborat. Avvalo, konsept terminiga to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Konsept tushunchasining nazariy asoslari kognitiv tilshunoslik – dunyoning lisoniy tasvirida muayyan konseptning mohiyati va dunyo voqeliklari bilan bog‘liqligini o‘rganuvchi fandir. Konsept esa kognitiv tilshunoslik fanining asosiy kategoriyalaridan biri bo‘lib, madaniyat va inson o‘rtasidagi aloqa o‘rnatuvchi elementdir. “Konsept” termini 90-yillardan beri lingvistikada qo‘llanilib kelinmoqda. Konsept tushunchasi hali hamon bitta umumiy izoh yoki talqinga ega emas. Konseptlarning o‘rganilishi bo‘yicha eng atoqli tilshunoslaridan bir S.A.Askoldov hisoblanadi. U konseptga “bu bir tur yoki boshqa turdagi tushunchalar haqida fikrlash jarayonini o‘zida aks ettiradigan birlikdir”

– deb izoh bergan. N.D.Aryutunova konseptni filosofiyadagi amaliy tushuncha bo‘lib, milliy an’ana, hayotiy tajriba, din, ideologiya, folklor, san’at obrazlari kabi ko‘plab faktorlar va fikrlash jarayoni o‘rtasidagi munosabatlarni aks ettiradi. Konsept “inson va dunyo o‘rtasida bog‘liqlik o‘rnatadigan madaniy qatlamni” o‘zida namoyon qiladi. S.G.Vorkachev bu tushunchani “Konsept – tildagi o‘z ifodasi va lingvokulturologik spetsifikasiga ega tushuncha, tasavvur va bilimlar to‘plamidir”,– deydi. Bu madaniy tushuncha va tasavvurlarning verballashgan fikrini ham anglatadi. Konsept milliy til va milliy tafakkurga tegishli elementdir. Abstraktlikning yuqori bosqichida semantik shakllanish konseptning o‘ziga xosligidir”. Bu bildirilgan fikr Y.S.Stepanovaning bildirgan fikriga juda yaqin,“konsept bu madaniyat elementlaridan birining kishi tafakkurida shakllangan shaklidir, xuddi shu shaklda madaniyat kishining mental dunyosiga kirib boradi”.

Turli tilshunoslarning bildirilgan fikrlarini solishtirish natijasida ko‘plab xulosalar o‘z tasdig‘ini topdi. Konsept tushunchasining tilshunoslikda qabul qilinganligi madaniyat, ong, tafakkur va til birligining asosiy o‘ziga xosliklarini aniqlashda, lingvistikaning kulturologiya, falsafa va kognitologiya aspektlari uchun yangi bosqich bo‘lib xizmat qildi.

Har bir inson dunyoga kelibdiki, u hayot yo‘li davomida gunoh ishga bilib-bilmay qo‘l uradi. Ba’zida to‘g‘ri yurib turgan yo‘lidan toygan vaqtlari ham bo‘ladi. Aybsiz – faqat Parvardigor. Inson aybini kech bo‘lsa ham anglab, Allohdan kechirim so‘rasa, to‘g‘ri yo‘lga qaytishni chin yurakdan istasa, albatta, Alloh uni kechiradi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev “Jazo muddatini o‘tayotgan, qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan va tuzalish yo‘liga qat’iy o‘tgan bir guruh shaxslarni afv etish to‘g‘risida” gi farmonni imzoladi. Ushbu farmonga ko‘ra, qilmishiga pushaymon bo‘lgan mahkumlarning bir nechtasi kechirilib, afv etildi. Prezidentimizning xalqiga g‘amxo‘rligi, kechirimliligi juda ko‘p kishilarni zavqlantirdi.

Demak, kechirimlilik, insonlarni afv etish kabi bag‘rikenglik, insonparvarlik g‘oyasi, inson qadri doimo ulug‘ sanalgan. Sohibqiron bobomiz Amir Temur ham og‘ir gunoh qilib, o‘z ishiga ziyon yetkazganlarni, so‘ng aybini tan olib, chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lib, tavba-tazarru qilganlarni afv etgan.

Baxtiyor Mengliyev, O‘ral Xoliyorovning “O‘zbek tilida universal qo‘llanma” kitoblarining qisqacha sinonim lug‘ati bobida “afv” konseptining sinonimlari keltirilgan.

Afv [a], kechirim, uzr [a].

Bulardan tashqari, o‘zbek adabiyotimiz xazinasini to‘ldirgan nasriy va nazmiy usulda bitilgan kitoblarimizda ham kechirish, afv etish kabi yuksak insoniy fazilatlar qadrlangan durdonalar mavjud.

Xonzoda begim bir ukasiga, bir naqshga qaradi-yu, sho‘x jilmaydi: – Bir qoshiq qonimdan kechsangiz, ayturmen. Bobur ham kulimsirab: – Kechdim, aytingiz, – dedi.

Bir podshohga qarshi fitna uyushtirib, boshqa podshohni taxtga chiqarish – davlat to‘ntarishi ekanini bilmasmisiz? Bunday xiyonatlar uchun eng og‘ir jazolar berilishi, tanasi pora-pora qilinib, ming qiynoqlar ichida qatl etilishi sizga ma’lum emasmidi?! – Meni mo‘g‘ul beklari yo‘ldan urdilar!.. Kechiring, amirzodam, kechiring – deb Muhammad Husayn ho‘ngrab yig‘lay boshladi va Boburning oyog‘i ostiga o‘zini tashladi.

Uzr so‘rashning ham bir necha ko‘rinishlari mavjud: uzrini so‘z orqali ifoda etish, uzrini so‘ramoqchi bo‘lgan inson oyog‘i ostiga o‘zini tashlab, kechirishidan umidvor bo‘lish, ko‘z qorasi bilan uzr so‘rash, bosh egib, aybiga iqror bo‘lib kechirim so‘rash, boshini quyi solib, hazin tovush bilan afv so‘rash, ho‘ngrab yig‘lay boshlab, gunohidan o‘tishini so‘rash.

O‘zbek adabiyotida yaratilgan lirik janrga mansub she’rlarda afv etish jarayoni misradagi alohida parchada o‘z aksini topganligini guvohi bo‘lamiz. Ushbu misralarda na “afv etaman”, na “kechirdim”, na “uzrini qabul qildim”, na “gunohidan o‘tdim” kabi jumlalar mavjud emas, ammo matnda anglashilgan ma’nodan buni tushunish qiyin emas. Abdulla Oripovning “Saylanma” she’riy to‘plamidan joy olgan “Farzand” nomli she’ri buning yaqqol isbotidir.

Farzand
Bir kuni ranjitdi otani farzand,
Ota o‘z uyidan bosh olib ketdi.
Lekin Alloh mehri bo‘lib sarbaland,
Ota Makkatulloh vasliga yetdi.
Ota fig‘on chekdi Ka’ba qoshida,
Go‘yo unut bo‘lgay alamlar bari.
Najot charx ursa ham garchand boshida,
Sira ketolmadi bir gapdan nari.
Ka’bani sig‘inar ekan keksa chol,
Armonin oshkora aytdi olamga.
Dedi: Ibodatim bo‘lsa ham uvol,
Faqat saodat ber o‘sha bolamga.

Ko‘rinib turibdiki, she’rdagi ota obrazi o‘z o‘g‘lining gunohidan o‘tgani uning “Ibodatim bo‘lsa ham uvol, faqat saodat ber o‘sha bolamga.” deb aytgan so‘zlari orqali o‘g‘lini afv etganligi o‘z ifodasini topgan. Jahongashta, sohibqiron Amir Temur bobomiz ham o‘z o‘gitlarida o‘zlarinig naqadar oliyjanob inson ekanliklarini va kechirish fazilati u insonda mujassam bo‘lganligini guvohi bo‘lamiz. Bobomizning quyidagi o‘gitlari buning yaqqol dalilidir: “Menga iltijo qilib kelgan badkirdor odamlar, xoh menga yaxshilik qilgan bo‘lsinlar, xoh yomonlik, saltanat taxtiga o‘tirganimdan keyin ularni xayr-ehsonlarim bilan xijolatga qo‘ydim. Menga qilgan yomonliklarini qilmagandek ko‘rib, ularni yomon qilmishlari daftari ustiga afv qalamini tortdim.”

Zaynab Elchin tomonidan o‘g‘irlanib, uyga tashlab ketilgach, nima voqea yuz berganini onasiga necha yuz ming azob bilan zo‘rg‘a aytgandi. U voqea qiz uchun sharmandali bo‘lsa-da, Zaynabning aybi yo‘q edi. Shunda ham bir necha so‘zni aytguncha qizning tili go‘yo cho‘qqa aylanib, kuygan edi. Endi-chi, endi qanday aytadi?. Sirtmoq yasab, tashlab chiqqan otasi qaytib kelib, uni bag‘riga bosgan, bu bilan gunohidan o‘tganini ma’lum qilgan.

Ushbu parchadan ko‘rinib turibdiki, ota o‘z qizining aybini birgina bag‘riga bosish harakati orqali afv qilganligini guvohi bo‘lamiz. Haqiqatan ham, afv etish inson ongida paydo bo‘lib qalbi orqali tasdiqlanadigan jarayon hisoblanadi. Ikkinchi qalb bu jarayonni inkor etmasa, ya’ni uzrini qabul qilsa, shundagina har ikki ko‘ngil egalari orom va taskin topadi. Biz bandalar kechirim so‘rashni va uni kechirishni ado etmog‘imiz darkor. Zero, uzr so‘rashni bimaslik va uzrni qabul qilmaslik manmanlik va ortiqcha kibrga berilish belgisidir. Mashhur rus yozuvchisi Lev Tolstoy ta’kidlaganidek: “Mag‘rurlik g‘alati xususiyatga ega. Kishi qancha aqlli, o‘qimishli, ajoyib iste’dod egasi, hatto qalbi toza bo‘lmasin – agar u ortiqcha gerdaysa, yuqoridagi bari fazilatlari qusurga aylanadi.”

Barcha millat va elatlarda kechirim so‘rash va uzrini afv etish jarayoni turlicha aks etadi. Masalan, ingliz millatiga mansub aholi orasida kechirimlilik to‘g‘risida juda keng qo‘llaniladigan iboralar mavjud. Inglizlar kechirim so‘rash uchun do‘stlaridan, sheriklaridan, oilalaridan va qadrlaydigan har bir kimsadan bilib-bilmay gunoh ishga

qo‘l ursalar, quyidagi iboralarni nutqlarida ishlatib, o‘z uzrlarini bildiradilar. Ushbu iboralar fikrimizning dalilidir:

– Kechirim so‘rash hech qachon kech emas, xatoni anglash hech qachon kech emas, tavba qilganimni sizga ko‘rsatish hech qachon kech emas. Ammo kechirish va yangi imkoniyat berish kech emas. Men seni Sevaman!

– G‘ururim do‘stligimizga to‘sqinlik qilishga hech qachon yo‘l qo‘ymayman. Men sizni xafa qildim, ha va buning uchun chin dildan kechirim so‘rayman.

– Men sizning ishonchingizga xiyonat qildim va shu bilan butun hayotimdagi eng katta ofatni qildim. Bugun shuni angladimki, hayotimda siz bilan bo‘lish hamma narsadan muhim. Uzr so‘rayman.

– Sizga yolg‘on gapirishda xato qilganimga qaramay, yuragim va qalbim hanuz siznikidir. Men bu dahshatli xatodan saboq oldim va sizning kechirimingizni istayman.

– Men qilgan ishim ahmoqlik va dadillik edi. Agar vaqtni orqaga qaytarib, undan qochib qutula olsam, ikkilanmasdan qilgan bo‘lardim. Men, albatta, hech qachon sizni biror-bir tarzda xafa qilmoqchi emas edim. Kechirasiz.

– Men nima bo‘lganligi uchun uzr so‘ramoqchiman. Men shunchaki boshqaruvni yo‘qotib qo‘ydim, ammo bu boshqa bo‘lmaydi. Kechirasiz.

– Senga baqirganim uchun meni kechir. Zerikarli va juda muhtoj bo‘lganim uchun meni kechiring. Men shunchaki sizni yo‘qotishdan qo‘rqaman.

– Sizdan bir kun uzoqlashish azobiga chiday olmayman. Iltimos, meni kechiring va hayotimizni yana go‘zal qilaylik.

Ko‘rinib turganidek, har bir xalqning o‘ziga xos kechirim so‘rash uchun ishlatadigan so‘zlari mavjud. Bizning nutqimizda uzr so‘rash uchun “Xoki poyini ko‘zga surmoq”, afv etganligini bildirish uchun “Bir qoshiq qonidan o‘tmoq” kabi iboralar ishlatilsa, ingliz xalqi o‘z sevgan insonidan gunohini tan olgan holda sevgisini izhor qilib uzr so‘rashi bu odatiy holdir. Yoki iltimos qilgan holatda kechirim so‘rash ham ularga begona emas. Kechirishidan umid qilib uzr so‘rash ham tez-tez uchrab turadi. Ingliz xalqi nutqida uzrini tez-tez bayon qilish odati ko‘p uchrashi tufayli o‘zbek xalqi nutqida uzr so‘rash uchun ishlatiladigan oddiy so‘zlar ham ularda ibora darajasiga yetgan.

Afv etish har bir tilda o‘ziga xos lingvokulturologik talqinga ega. O‘zbek tilida bu tushuncha milliy mentalitet va bag‘rikenglik qadriyatlari orqali ifodalanadi.

Metaforalar: “Dil kengligi”, “Ko‘ngil sofligi”.

Frazeologizm: “Kechirimli bo‘lgan tog‘ni qo‘zg‘ar”.

“Afv etish” konsepti turli kontekstlarda o‘zining semantik va pragmatik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu tushuncha insonning ichki olami va tashqi munosabatlaridagi muhim jihatlarni ifoda etadi. Filologiya sohasida afv etishning tahlili til va madaniyat o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlikni anglash imkonini beradi. Umuman olganda, konsept keng qamrovli tushunchadir. Shu bois, konseptni chuqur o‘rganish til va adabiyotdagi o‘ziga xos ma’naviy obrazlarni yaxshiroq tushunishga xizmat qiladi.

– “Afv etish” konsepti maydoni o‘z atrofida turli ma’no anglatadigan tushunchalarni, verbal va noverbal holatlar aks etgan jarayonlarni qamrab oladi.

– “Afv etish” konsepti ostida kechirim so‘rash va uzrini qabul qilish kabi g‘oyaviy ma’nolar aks etgan leksik birliklar, harakatlarni anglatadigan noverbal holatlar mavjudligi bilan alohida ajralib turadi.

– Badiiy asarlarda ham afv etish bilan bog‘liq turli jarayonlar qalamga olinadiki, u yozuvchining mahoratiga bog‘liq. Ba’zi yozuvchilar holatni so‘zlar orqali (verbal) chiroyli dalillab bersa, ba’zilari harakatlar orqali (noverbal) ustomonlik bilan bu jarayonni aks

ettirgan va ma’nolari orasida darajalanish mavjudligi yaqqol ko‘rinib turadi.

– Lirik asarlarimizda ham kechirim so‘ramoq hamda afv etmoq kabi insonni ulug‘lovchi fazilatlar qalbga yaqin so‘zlar vositasida namoyon bo‘lgan.

– “Afv etish” konsepti leksik maydonidagi so‘zlar va harakatlar barcha xalqlarda mavjud va ular kundalik hayotda bu leksemalardan foydalanadi.

– “Kechirim so‘ramoq” va “afv etmoq” bu yonma-yon ishlatiladigan tushunchalardir. Biri ikkinchisini to‘ldiradi va azaldan mavjud bo‘lib, turli sohalarda turlicha jarayonlarni aks ettirish uchun ishlatiladi.

– “Afv etish” konsepti maydoni atrofidagi tushunchalarning eng ijobiylari har bir shaxs ongi va qalbida mavjud bo‘lsa, u inson amalda buni tatbiq eta olsa, har qanday zamonda ham yetuk va mukammal hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Oripov “Saylanma”.1996.G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.

2. Baxtiyor Mengliyev, O‘ral Xoliyorov. O‘zbek tilida universal qo‘llanma. –T.: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti. 2008.

3. Bo‘riboy Ahmedov Amir Temur o‘gitlari. O‘zbekiston, –T., 2007.

4. Лев Толстой “Путь жизни” Посредник. 1911 г.

5. Pirimqul Qodirov. Yulduzli tunlar. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. –T., 2018..

6. Степанов Ю. Концепты. – Языки славянских культур. Москва.: 2007.

7. Tohir Malik Shaytanat. “Adabiyot va san’at”. –T., 2008.

8. Воркачев С.Г. Концепт счастья в русском языковом сознании: опыт лингвокультурологечиского анализа. Краснодар: Техн. Ун-т Кубан. гос. технол. ун-та, 2002

9. Raxmatullaev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. “Universitet”, –T., 2003

G‘ulom TALIPOV,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zekiston Milliy universiteti, stajyor o‘qituvchi

TAYYORGARLIK DAVRIDA 14-16 YOSHLI O‘G‘IL BOLALARDA G‘OVLAR OSHA YUGURISHDAGI TEXNIK XATOLARNI TUZATISH

Annotatsiya

Maqolada 14-16 yoshli o‘g‘il bolalarda g‘ovlar osha yugurish texnikasidagi xatolarni tahlil qilish va bartaraf etish, yosh sportchilar yo‘l qo‘yadigan eng keng tarqalgan xatolarni aniqlash va ularni tuzatish usullari batafsil yoritilgan. Shuningdek, maqolada asosiy e’tiborni g‘ovlarni yengib o‘tish texnikasini takomillashtirish va mashg‘ulot jarayonining umumiy samaradorligini oshirishga qaratilgan maxsus mashqlar hamda mashg‘ulot dasturlarini joriy etish bo‘yicha takliflar berilgan.

Tayanch so‘zlar. G‘ovlar osha yugurish, texnika, xato, mashg‘ulot, maxsus mashqlar, videokamera.

В статье подробно анализируется ошибки в технике бега по пересеченной местности у мальчиков 14-16 лет в подготовительный период, выявление наиболее распространенных ошибок, допускаемых юными спортсменами, и разработка методов их исправления. Также в статье предлагается техника совершенствования преодоления рывков и внедрения специальных упражнений и тренировочных программ, которые служат для повышения общей эффективности тренировочного процесса.

Ключевые слова. Бег с барьерами, техника, ошибка, тренировка, специальные упражнения, видеокамера.

The article analyzes in detail the errors in cross-country running technique among boys aged 14-16 during the preparatory period, identifies the most common errors made by young athletes, and develops methods for correcting them. The article also offers a technique for improving the ability to overcome jerks and the introduction of special exercises and training programs that serve to improve the overall effectiveness of the training process.

Key words. Hurdling, technique, error, training, special exercises, video camera.

G‘ovlar osha yugurishda musobaqalarda ishtirok etishning muvaffaqiyati to‘g‘ridan to‘g‘ri g‘ovlar osha yugurish texnikasining shakllanganlik darajasi va sportchining butun masofa davomida kerakli harakat sur’atini ushlab turish qobiliyati bilan bog‘liq. Ishlariga ko‘ra, yillik tayyorgarlik davrida maxsus tayyorgarlik davri alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu davrning asosiy vazifalari: g‘ovlar osha yugurishning optimal texnikasini shakllantirish, sportchining jismoniy tayyorgarligini zarur darajaga yetkazish va tezkor chidamlilikni rivojlantirishdan iborat.

Ko‘plab tadqiqotchilar g‘ovlar osha yugurishda mashg‘ulot jarayonining asosiy elementi jismoniy sifatlarni rivojlantirishning optimal darajasini shakllantirish bilan bir qatorda to‘siqlarni yengib o‘tish texnikasi ekanligini ta’kidlaydilar, bu ayniqsa to‘siqli sprintda muhimdir. Umuman olganda, g‘ovlar osha yugurish texnikasini shakllantirish 13-14 yoshdan boshlanadi va ko‘p yillik mashg‘ulot jarayoni davomida davom etadi.

Shu bilan birga, g‘ovlar osha yugurishda texnik xatolarni tuzatishga bag‘ishlangan aniq tadqiqotlar soni yetarli emas.

Shunday qilib, g‘ovlar osha yugurishga ixtisoslashgan sportchilarda texnik xatolarning kelib chiqish sabablarini batafsil o‘rganish va keyinchalik ularni bartaraf etishga qaratilgan mashqlar majmuasini shakllantirish mashg‘ulot va musobaqa jarayoni samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

Tadqiqot shundan iboratki, g‘ovlar osha yugurishga ixtisoslashgan sportchilarda texnik xatolarning kelib chiqish sabablarini batafsil o‘rganish va keyinchalik ularni bartaraf etishga qaratilgan mashqlar majmuasini shakllantirish mashg‘ulot va musobaqa jarayoni samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

Tadqiqot obyekti: tayyorgarlik davrida 14-16 yoshli o‘spirinlarning g‘ovlar osha yugurish bo‘yicha texnik tayyorgarligi.

Tadqiqot predmeti: tayyorgarlik davrida 14-16 yoshli o‘spirinlarda g‘ovlar osha yugurish texnikasidagi xatolar.

Tadqiqotning maqsadi – tayyorgarlik davrida g‘ovlar osha yugurishga ixtisoslashgan 14-16 yoshli o‘spirinlarda texnik xatolarni tuzatishga qaratilgan mashqlar majmuasini ishlab chiqish va uning samaradorligini aniqlash.

Qo‘yilgan vazifalarni hal etish uchun quyidagi usullar qo‘llanildi: ilmiy va uslubiy adabiyotlar tahlili; pedagogik kuzatuv, pedagogik test o‘tkazish; pedagogik tajriba; ekspert baholash. Sportchilarning texnik tayyorgarligini baholash uchun pedagogik testlashda quyidagi sinovlar o‘tkazildi: vaqt hisobida 5 ta to‘siqdan yugurish, vaqt hisobida 3 ta to‘siq qadami bilan yugurish. Tadqiqotlarda to‘siqlar osha yugurishga ixtisoslashgan 14-16 yoshli 10 nafar o‘g‘il bola ishtirok etdi. Vaqt hisobida bir qadamda tayanch oyoqqa 5 ta to‘siqni yon tomondan yugurish; yuqori startdan bitta to‘siqqa yugurish sinovlari o‘tkazildi. Tadqiqotda to‘siqlar osha yugurishga ixtisoslashgan 14-16 yoshli 10 nafar o‘spirin qatnashdi. Sinaluvchilarning o‘rtacha yoshi 16,4±1,2 yosh bo‘ldi. Malakasi 1 va 2-razryadli katta sportchilar darajasida edi. Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi o‘quv-mashg‘ulot jarayonidagi texnik xatoliklar videokameradan foydalanish va keyinchalik g‘ovlar osha yugurishda trener-ekspertlar tomonidan ko‘rib chiqish orqali aniqlandi.

Tadqiqotda ishtirok etgan sportchilar g‘ovlar osha mashqlar bajarishdi. Mashqlar uchun balandligi 0,91 m bo‘lgan 5 ta to‘siqlar qo‘llanildi, to‘siqlar orasidagi masofa 8 m 80 sm, start chizig‘idan birinchi to‘siqqacha bo‘lgan masofa 13,55 m.

Texnik xatolarni aniqlash uchun biz quyidagi mashqlardan foydalandik:

1.G‘ov yon tomonidan oyoq bilan o‘tish imitatsiyasi. Ushbu mashqdagi xatolar quyidagilardir:

– g‘ovga hujum qilishda boldirni pastdan oldinga chiqarish. Bunda to‘siqlar osha yugurish texnikasi qonuniyatlariga ko‘ra, hujum paytida g‘ovlar osha yuguruvchining oyoq to‘pig‘i sonning orqa yuzasi ostidan chiqariladi. Ushbu xato natijasida g‘ovlarni yanada yengishda g‘ovlararo yugurish texnikasi o‘zgaradi, chanoq holati juda past bo‘lib qoladi, tizza bo‘g‘imidagi oyoqlar haddan tashqari bukilgan, oxirigacha to‘g‘rilanmagan bo‘ladi;

– oyoq panjasi oldingi qismining uchi oldinga tortiladi. To‘g‘ri g‘ovlar ora yugurish texnikasida g‘ovni yengib o‘tishda va g‘ovlar orasida yugurishda oyoqning oldingi qismi uchlari o‘ziga tortiladi.

2. G‘ovlardan yon tomondan oshib o‘tish, g‘ovdan o‘tish vaqtida turtki oyoq ishini imitatsiya qilish.

Ushbu mashqdagi xatolar quyidagilardir:

– turtki oyog‘ining tizzasi to‘siqdan yon tomonga o‘tish vaqtida gorizontalga nisbatan 90 gradusdan kam yoki ko‘proq masofaga ajratilgan. Ushbu xatoning natijasi g‘ovdan o‘tish tezligining yo‘qolishi va g‘ovlar orasidagi yugurishdir;

– to‘siqchining turtki beruvchi oyog‘i orqada qoladi. G‘ovdan o‘tish vaqtida turtki oyog‘ining tizzasi to‘siq orqasida bo‘ladi. G‘ovlarni yengib o‘tishning klassik texnikasi turtki oyog‘ining tizzasi g‘ovga parallel bo‘lishi kerakligini nazarda tutadi. Bunday xato mavjud bo‘lganda tizza va unga yondosh boylamlar shikastlanishi ehtimoli yuqori bo‘ladi, shuningdek, yugurish tezligini sekinlashtirib, turtki oyog‘ining tizzasi bilan g‘ovni urib yuborish imkoniyati ortadi;

– g‘ovdan o‘tish vaqtida turtki oyoq tovoni oyoqdan yuqorida bo‘ladi, to‘g‘ri texnikada oyoq tovoni to‘siqdan tizzadan pastda o‘tadi.

3. G‘ov o‘rtasidan o‘tish, g‘ovdan to‘siqqacha oyog‘idan oyog‘iga sakrab o‘tish.

Ushbu mashqdagi xatolar quyidagilardir:

– g‘ovdan o‘tish vaqtida yelkalarni burish, to‘siqchining qo‘llari turli tomonga siltash, hujum paytida yoki to‘siqdan o‘tish vaqtida gavdani burish. G‘ovlar osha yugurish texnikasining qonuniyatlariga ko‘ra, yelkalar turli tomonga yoyilmaydi, gavda burilmaydi, faqat to‘siqqa hujum qilish paytida bukiladi va g‘ovga chiqish paytida yelkalari bilan birga yoziladi. Qo‘llar faqat tana bo‘ylab ishlaydi, sportchi qo‘llarni siltashga yo‘l qo‘ymasligi kerak. Bunday xatolarning mavjudligi to‘siqli yugurishning umumiy tezligini pasaytiradi;

– g‘ovdan o‘tish vaqtida turtki oyog‘ining tovoni oyog‘idan yuqorida bo‘ladi;

– g‘ovdan o‘tish vaqtida turtki oyog‘ining tizzasi to‘siqdan tashqarida bo‘ladi.

4. G‘ovdan g‘ovgacha besh qadam masofada to‘siq o‘rtasidan yugurish.

Ushbu mashqdagi xatolar quyidagilardir:

– g‘ovdan o‘tish vaqtida yelkalarni burish, g‘ovlar osha yuguruvchining qo‘llari turli tomonga siltash, hujum paytida yoki g‘ovdan o‘tish vaqtida gavdani burish;

– g‘ovlar osha yuguruvchining turtki oyog‘idan orqada qoladi, g‘ovdan o‘tish vaqtida turtki oyog‘ining tizzasi to‘siq orqasida turadi;

– g‘ovdan o‘tish vaqtida turtki oyog‘ining tizzasi 90 gradusdan kam yoki ko‘proq ajratilgan;

– g‘ovga hujum qilishda boldirni oldinga pastdan chiqarish;

– tosning g‘ov ustida past holati.

5. Uch qadamda g‘ovlar osha yugurish g‘ovlar orasidagi masofa 8 m 80 sm, g‘ovlar balandligi 0,91 m, g‘ovlar soni 4 dona. Ushbu mashqni bajarish qadamlar uzunligini, g‘ovdan o‘tish vaqtida siltab ko‘tarish va siltab ko‘tarish oyoqlarining pasayish tezligini, to‘siqdan yugurish qadamlarining chastotasini, g‘ovdan o‘tish tezligini aniqlash imkonini beradi.

Mashq bir nechta texnik elementlarni o‘z ichiga olganligi sababli, unda ilgari keltirilgan xatolarga yo‘l qo‘yilishi mumkin. Ammo quyidagi o‘ziga xos xatolar ham uchrashi mumkin:

g‘ovdan tushish vaqtida g‘ovlar osha yuguruvchining oyoq panjasining old qismiga emas, balki tovoniga qo‘nadi, bu esa tezlikning pasayishiga, harakat koordinatsiyasining buzilishiga olib keladi va keyingi g‘ovlarni to‘g‘ri yengib o‘tish deyarli imkonsiz bo‘lib qoladi.

G‘ovlar osha yuguruvchi yigitlarda yugurishda yo‘l qo‘yiladigan tipik xatolar aniqlangandan so‘ng, o‘rganilayotgan guruh (n=10 kishi) lotereya usulida har birida 10

nafardan nazorat va tajriba guruhlariga ajratildi.

Shakllantirilgan guruhlardagi turli xil texnik xatolarning sonini tahlil qilib, tajriba guruhida quyidagi xatolar ko‘proq uchraganligini ta’kidlash lozim:

– g‘ovdan o‘tish paytida yelkalar bilan burilish, g‘ovlar osha yuguruvchining qo‘llari turli tomonga silkinishi, hujum vaqtida yoki g‘ovdan o‘tishda gavdaning buralishi;

– g‘ovlar osha yuguruvchining turtki beruvchi oyog‘i orqada qolishi, g‘ovdan o‘tish paytida turtki beruvchi oyoq tizzasi g‘ovlar orqasida qolishi;

– g‘ovlar osha yuguruvchining yon tomonidan o‘tishda turtki beruvchi oyoq tizzasining 90 darajadan kam yoki ko‘p bukilishi;

– tosning g‘ov ustida past holatda bo‘lishi.

Nazorat guruhida to‘siqlar osha yugurish texnikasida quyidagi xatolar aniqlandi:

– g‘ovlar osha yuguruvchining yon tomonidan o‘tishda tizzaning 90 darajadan kam yoki ko‘p bukilishi;

– g‘ovlar osha yuguruvchining turtki beruvchi oyog‘i orqada qolishi, g‘ovdan o‘tish paytida turtki beruvchi oyoq tizzasi g‘ov orqasida qolishi;

– turtki beruvchi oyoq tizzasining g‘ovlar osha yuguruvchining yon tomonidan o‘tishda 90 darajadan kam yoki ko‘p bukilishi;

– g‘ovlar osha yuguruvchining hujum qilishda boldirning pastdan oldinga chiqarilishi;

– tosning g‘ov ustida past holatda bo‘lishi.

O‘tkazilgan ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili g‘ovlar osha yugurishda texnik xatolarning kelib chiqish sabablarini aniqlashga imkon berdi. Shartli ravishda ularni ikki guruhga bo‘lish mumkin:

– jismoniy sifatlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi (to‘siqlar sprinti uchun bu egiluvchanlik, koordinatsiya, tezlik va kuch qobiliyatlari) va texnik harakat haqida noto‘g‘ri shakllangan tasavvur tufayli yuzaga keladigan xatolar. Mashqlar majmuasini ishlab chiqishda biz yuqorida sanab o‘tilgan jismoniy sifatlarni rivojlantirish, texnik elementni to‘g‘ri bajarish va g‘ovlardan yugurish texnikasidagi mavjud xatolar haqida to‘g‘ri tasavvurni shakllantirish zarurligini hisobga oldik.

Zamonaviy adabiyot ma’lumotlari, murabbiylar tarkibi va mavjud amaliy tajribadan foydalanib, tayyorgarlik davrida g‘ovlar osha yuguruvchi o‘smirlar uchun g‘ovlar osha yugurish texnikasini tuzatish va takomillashtirishga qaratilgan mashqlar majmuasi tuzildi.

Taqdim etilgan mashqlar majmuasi tayyorgarlik davrida, mashg‘ulotning tayyorgarlik, asosiy va yakuniy qismlarida, tajriba guruhida haftasiga 5 marta qo‘llanildi. Majmuaga mashg‘ulotning tayyorgarlik qismida 15 daqiqa, asosiy qismida 10 daqiqa va yakuniy qismida 20 daqiqa vaqt ajratildi. Nazorat guruhida mashg‘ulotning tayyorgarlik va asosiy qismida haftasiga 3 marta qo‘llaniladigan an’anaviy mashqlardan foydalanildi.

Tayyorgarlik davrida 14-16 yoshli to‘siqchilar uchun aniqlangan texnik xatolarni tuzatishga qaratilgan majmuaga quyidagi mashqlar kiritildi:

1. Oyoq bilan to‘siqqa hujum qilish imitatsiyasi. g‘ovlar osha yuguruvchi oyog‘ini shved devoriga qo‘yib, g‘ovga hujumni taqlid qiladi. Ushbu mashq g‘ovga hujumni yaxshilaydi, oyog‘ining boldir qismi pastdan, sonning orqa yuzasi ostidan hujum harakatini bajaradi, bu mashqdan so‘ng g‘ovga hujum tezligi oshadi.

2. G‘ovlar osha yuguruvchi g‘ovni yon tomondan turtki oyoq bilan bosib o‘tib, dastlabki holatga qaytadi. Mashqni rezina jgut bilan bajarish tavsiya etiladi, undan foydalanganda mashqni avtomatik ravishda to‘g‘ri bajarishga tezroq erishiladi.

3. Mashq 0,84 m balandlikdagi to‘siqni qo‘llab, tayanch bilan shved devori yonida bajariladi. Sportchi shved devoridan 2 m masofada joylashadi, unda qulay balandlikda qo‘llarga tayanish uchun to‘sin mahkamlangan, mashq oyoq bilan bajariladi, g‘ovlar osha yuguruvchi oyoq bilan g‘ovdan o‘tadi, turtki beruvchi oyoq joyida qoladi, oyoq g‘ovdan o‘tib, oyoqning old qismiga, g‘ov orqasiga qo‘nadi va oyoq qo‘yilgandan so‘ng orqaga dastlabki holatga qaytadi.

4. G‘ovlar yugurishda qo‘llarni to‘g‘ri ishlashga o‘rgatish mashqi, qo‘llarda gantellar bilan. Mashq to‘siqli to‘rda bajariladi, o‘tirgan holda to‘siqli yugurishda qo‘llar ishi taqlid qilinadi, har uchinchi qadamda gavda oyog‘iga engashtiriladi, hujum oyog‘iga qarama-qarshi qo‘l oldinga harakatlanadi, ikkinchi qo‘l tirsak bo‘g‘imida 40 darajaga bukilgan holda bir tomonga olib tashlanadi, egilgandan so‘ng yana uch qadam taqlidi bajariladi.

Ishlab chiqilgan mashqlar majmuasining samaradorligini asoslash uchun biz 14-16 yoshli o‘smirlarda maxsus jismoniy tayyorgarlikni sinovdan o‘tkazdik, u quyidagilarni o‘z ichiga oldi: 6 ta to‘siqni uch qadamda vaqtga yugurish, g‘ovning o‘rtasidan bir qadamda vaqtga yugurish, g‘ovning yon tomonidan bir qadamda vaqtga turtki beruvchi oyoqda yugurish, baland startdan bir g‘ovga vaqtga yugurish. Ma’lumotlar jadvalda keltirilgan.

Tayyorgarlik davrida 14-16 yoshli o‘spirinlarning texnik tayyorgarlik darajasini o‘rganish natijalari: mavjud texnik xatolarni tuzatishga qaratilgan mashqlar majmuasidan foydalanishdan oldingi va keyingi ko‘rsatkichlar tahlili.

Testlar	**Nazorat guruhi**		**O‘sish sur’atlari**	**Tajriba guruhi**		**O‘sish sur’atlari**
	oldin	**keyin**	**(%)**	**oldin**	**keyin**	**(%)**
G‘ovlar orasida uch qadamlab yugurish (s)	5,38 ± 0,06	5,3 ± 0,3	1,4	5,2 ± 0,04	5,18 ± 0,07	3,3
G‘ov yonidan bir qadamlab yugurish (s)	3,01 ± 0,08	2,83 ± 0,7	5,9	2,98 ± 0,1	2,71 ± 0,08*	9
G‘ov o‘rtasidan bir qadamlab o‘tib yugurish (s)	7,45 ± 0,6	7,35 ± 0,6	1,3	7,54 ± 0,07	7,36 ± 0,08	2,3
Past startdan bitta g‘ovga qarab yugurish (s)	2,65 ± 0,04	2,53 ± 0,05	4,5	2,59 ± 0,09	2,43 ± 0,1*	6,1

Eslatma: tajribadan so‘ng tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasidagi Mann-Uitni U-mezoni bo‘yicha statistik farqlar, bunda P ? 0,05. G‘ovlar orasida uch qadam yugurish testida ko‘rsatilgan natijalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, nazorat guruhida o‘rtacha ko‘rsatkich 5,3 ± 0,3 (1,4%), tajriba guruhida esa 5,18 ± 0,07 (3,3%) ni tashkil etdi. Pedagogik tajriba natijalariga ko‘ra, G‘ov yonidan bir qadamlab yugurish testida

nazorat guruhida o‘rtacha ko‘rsatkich 2,83 ± 0,7 (5,9%), tajriba guruhida 2,71 ± 0,08 (9%) ni tashkil etdi.

G‘ov o‘rtasidan bir qadamlab yugurish testidagi natijalar nazorat guruhida o‘rtacha 7,35 ± 0,6 (1,3%), tajriba guruhida 7,36 ± 0,08 (9%) ekanligini ko‘rsatdi, bunda statistik jihatdan muhim o‘zgarishlar tajriba guruhida qayd etildi. Past startdan bitta g‘ovlar osha yugurish testi natijalariga ko‘ra quyidagi ko‘rsatkichlar aniqlandi: nazorat guruhida o‘rtacha qiymat 2,53 ± 0,05 (4,5%), tajriba guruhida 2,43 ± 0,1 (6,1%). Shunday qilib, ishlab chiqilgan mashqlar majmuasi texnik xatolar sonini kamaytirishga imkon beradi, bu esa masofani bosib o‘tish vaqtiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Eng sezilarli o‘zgarishlar G‘ov yonidan bir qadamlab yugurish testida kuzatildi – tajriba guruhidagi o‘sish 9% ni tashkil etdi. Taqdim etilgan majmuani qo‘llash natijasida 14-16 yoshli o‘spirinlarda g‘ovlar osha yugurish texnikasida aniqlangan, to‘siqdan o‘tish vaqtida turtki oyoqning siltanma oyoqdan orqada qolishidagi texnik xatoni bartaraf etishga erishildi, bu ekspertlar tomonidan ham ta’kidlandi. Shuningdek, past startdan bitta g‘ovlar osha yugurish testi natijalariga ko‘ra, tajriba guruhida yuqori o‘sish sur’ati (6,1%) qayd etildi.

Bu 14-16 yoshli o‘spirinlarda g‘ovlar osha yugurish texnikasida aniqlangan quyidagi xatolarni tuzatishga yordam berdi: qo‘llarning noto‘g‘ri harakati, turtki oyoqning siltanma oyoqdan orqada qolishi, tosning to‘siq ustida past holati. G‘ovlar osha yugurishda texnik xatolarni tuzatishga qaratilgan mashqlar majmuasini bajarish hisobiga ham ijobiy natijaga erishildi.

Ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, to‘siqlar osha yugurish murakkab koordinatsion tur bo‘lib, tezlik, kuch, harakat reaksiyasining tezkorligi, koordinatsion qobiliyatlar, to‘siqlarni birlashtirish va yengib o‘tishni hamda to‘siqlar orasidagi sprinter to‘siqlar osha yugurish (uch qadam) ni namoyon etishni talab qiladi. Musobaqa jarayoni samaradorligida to‘siqlarni yengib o‘tish texnikasi alohida ahamiyatga ega.

G‘ovlar osha yugurish texnikasidagi odatiy xatolar quyidagilardir: qo‘llarning noto‘g‘ri harakati, g‘ovga noto‘g‘ri hujum qilish, g‘ovni oshib o‘tish, g‘ovdan tushish, to‘siqlar orasida yugurish va boshqalar. Ilmiy adabiyotlar tahlili va mavjud amaliy faoliyat tajribasi asosida biz tomonimizdan tayyorgarlik davrida 14-16 yoshli o‘spirinlarda g‘ovlar osha yugurishda yuzaga keladigan texnik xatolarni tuzatishga qaratilgan mashqlar majmuasi ishlab chiqildi.

Tayyorgarlik davrida 14-16 yoshli o‘spirinlarda g‘ovlar osha yugurishda yuzaga keladigan texnik xatolarni tuzatishga qaratilgan taqdim etilgan mashqlar majmuasi tajriba guruhida ko‘rsatilgan natijalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi: g‘ovlar orasida uch qadamlab yugurish sinovida tajriba guruhining ko‘rsatkichlari 5,2 soniyadan 5,18 soniyagacha (3,3%) yaxshilandi, nazorat guruhida esa sezilarli o‘zgarish bo‘lmadi - 5,38 soniyadan 5,3 soniyagacha (1,4%) o‘zgardi; Past startdan bitta g‘ovlar osha yugurish sinovida tajriba guruhining natijalari 2,5 soniyadan 2,4 soniyagacha (6,1%) yaxshilandi, nazorat guruhida esa ko‘rsatkichlar 2,6 soniyadan 2,5 soniyagacha (4,5%) o‘sdi.

Tayyorgarlik davri mobaynida 14-16 yoshli yuguruvchilarda asosiy texnik kamchiliklar aniqlandi. Bularga g‘ovlarni noto‘g‘ri yengib o‘tish, harakatlarni yetarli darajada muvofiqlashtirmaslik va yugurish ritmidagi xatolar kiradi. Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun g‘ovlarni yengib o‘tish texnikasini takomillashtirishga qaratilgan maxsus mashg‘ulot mashqlari joriy etildi. Mashg‘ulotlar dasturiga quyidagilar kiritildi:

G‘ovlarni yengib o‘tishda oyoqni to‘g‘ri qo‘yishni mashq qilish muvofiqlashtirish va muvozanatni rivojlantiruvchi mashqlar.

Yugurish ritmini va umumiy jismoniy tayyorgarlikni yaxshilash uchun interval mashg‘ulotlari. O‘tkazilgan tuzatish choralari ijobiy natijalarni ko‘rsatdi.

Ko‘pchilik yuguruvchilar texnikada sezilarli yaxshilanishni namoyish etdilar, bu esa ularning mashg‘ulot va musobaqalardagi natijalarini oshirishga imkon berdi. Yo‘l qo‘yilgan texnik xatolar soni sezilarli darajada kamaydi. Erishilgan natijalarni saqlab qolish va yanada yaxshilash uchun g‘ovlardan yugurish texnikasi ustida ishlashni davom ettirish tavsiya etiladi.

Muntazam texnik mashg‘ulotlarni o‘tkazish va mashg‘ulotlarning video yozuvlarini tahlil qilish kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatolarni yanada samaraliroq bartaraf etishga yordam beradi. Shuningdek, umumiy jismoniy tayyorgarlik va musobaqalarga psixologik tayyorgarlikni rivojlantirishga e’tibor qaratish muhimdir.

Shunday qilib, tayyorgarlik davrida texnik xatolarni tuzatishga to‘g‘ri yondashish nafaqat sport natijalarining oshishini ta’minlaydi, balki yosh sportchilar uchun ayniqsa muhim bo‘lgan jarohatlanish xavfini ham kamaytiradi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Горская, И.Ю. Базовые координационные способности школьников с различным уровнем здоровья : монография / И.Ю. Горская ; Сиб. гос. акад. физ. культуры. – Омск : [б.и.], 2000. – 210 с.

2. Попов, В. Б. 555 специальных упражнений в подготовке легкоатлетов : метод. пособие для спортсменов, тренеров, преподавателей / В. Б. Попов. – М. : Человек, 2012. – 224 с. 6. Лях, В.И. Координационные способности: диагностика и развитие / В.И. Лях. – М. : Дивизион, 2006. – 290 с.

3. Бугай, М.В. Формирование техники барьерного бега у мальчиков 12-13 лет, специализи- рующихся на дистанции 60 метров с барьерами / М.В. Бугай // Физическая культура, спорт, туризм: научно-методическое сопровождение : материалы Всероссийской научно-практической конферен- ции с международным участием. – Пермь, 2019. – С. 30–33.

4. Лях, В.И. Координационные способности: диагностика и развитие / В.Т. Лях. – М. : Дивизион, 2006. – 290 с.

5. Войнар, Ю. Теория спорта – методология программирования : монография / Ю. Войнар, С.Д. Бойченко, В.А. Барташ. – Минск : Харвест, 2001. – 319 с.

6. Аракелян, С.И. Вовк; М.: Б.и., 2000.- С. 20. Возрастные особенности подготовки бегунов на короткие дистанции: Сб. науч. трудов / Ред. В.П. Филин и В.С. Топчиян. - М.: “ФиС”, 2000. - 65 с.

7. Talipov Gulomjon Adiljanovich Sports and health work in educational institutions organization 364-368 Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education ISSN: 2835-3048.

Lola BERDIYEVA,
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti direktori o'rinbosari

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI ERTA YOSHDAN RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni erta rivojlantirish, ularning aqliy, jismoniy, hissiy va ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirishning muhim jihatlari, hamda bu davrda bolalar dunyoqarashini shakllantirish, til va ijtimoiy aloqalarni o'rgatish, shuningdek, bolalar uchun xavfsiz, rag'batlantiruvchi va rivojlantiruvchi muhit yaratish, ularning salohiyatini to'liq ochish kabi masalalar haqida fikr yuritilgan.

Tayanch so'zlar. Maktabgacha yosh, erta rivojlanish, aqliy rivojlanish, o'yinlar, ta'lim, muhit, muloqot, suhbat, rivojlanish, salohiyat, kreativlik, rivojlantiruvchi faoliyatlar.

В статье рассматриваются такие важные аспекты раннего развития дошкольников, как формирование их умственных, физических, эмоциональных и социальных навыков, а также формирование детского мировоззрения в этот период, обучение языку и социальным коммуникациям, а также создание безопасной, стимулирующей и развивающей среды для детей, полное раскрытие их потенциала.

Ключевые слова. Дошкольный возраст, раннее развитие, умственное развитие, игры, воспитание, среда, общение, беседа, развитие, потенциал, креативность, развивающая деятельность.

The article reflects on such issues as early development of preschool children, important aspects of the formation of their mental, physical, emotional and social skills, as well as the formation of a children's worldview during this period, teaching language and social ties, as well as the main goal of early development to create a safe, stimulating and developing environment for children.

Key words. Preschool age, berta development, mental development, games, education, environment, communication, conversation, development, capacity, creativity, developmental activities.

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining boshlang'ich bosqichlari inson hayotidagi eng muhim va intensiv davr bo'lib, bu davrda bolalar o'z fikrlarini ifodalashni, yangi bilimlarni o'rganishni va dunyoni tushunishni boshlaydilar. Shuning uchun, maktabgacha yoshda bolalarni erta rivojlantirish, ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlari, shaxsiy salohiyatini to'liq ochish va ijtimoiy moslashuvini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'yinlar, ijodiy faoliyatlar, muloqot va jismoniy mashqlar bolalarning kognitiv, hissiy va ijtimoiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu jarayon bolalarning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga tayyorlanishlari, ijtimoiy moslashuv va o'z-o'zini anglashlarini ta'minlashda asosiy bosqichdir. Kognitiv rivojlanish maktabgacha yoshdagi bolalarning umumiy rivojlanishining asosiy poydevorini tashkil etadi. O'zlashtirilgan bilimlar, o'yinlar, muloqot va ijodiy faoliyatlar orqali bolalar mantiqiy fikrlash, til, eslab qolish va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Bu ko'nikmalar nafaqat akademik muvaffaqiyatlarga olib keladi, balki bolalarning hissiy va ijtimoiy rivojlanishida ham katta rol o'ynaydi. Kognitiv rivojlanishni qo'llab-quvvatlash

uchun maktabgacha yoshdagi bolalarga mos keladigan, rag‘batlantiruvchi va xavfsiz muhit yaratish zarur.

Bola ulg‘ayar ekan unda so‘zlashishga ehtiyoj paydo bo‘la boshlaydi,– deydi Farahnoz Bekmurodova. Dastlab atrofdagilarni taniydi, eshitgan so‘z va jumlalarni asta-sekinlik bilan o‘zlashtiradi. Tilga kirgach esa uning so‘z boyligi jadal o‘sadi. Oddiy so‘zlar keyinchalik sodda gaplardan va to‘liq, yoyiq gaplardan foydalanadi. Dialogik nutq oilada, ota-ona, aka-opalar davrasida vujudga keladi. O‘ziga kerakli narsani so‘rash uchun harakat qiladi, muloqotga kirishadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini o'stirishda oldindan tayyorlangan mavzularda suhbatlar, teatrlashtirish usullari, sahnalashtirish o‘yinlari, savol-javoblar juda foyda beradi. Ta'kidlash joizki, bola uchun katta yoshli odam savollarga javob topishning yagona vositasi, qiziqarli taassurotlar manbai hisoblanadi. Bola kattalar bilan dialogga kirishishiga, narsalar va o‘yinchoqlarga egalik qilishga intilar ekan, u ushbu maqsadlarga erishish uchun so‘zdan foydalanishga ehtiyoj sezadi, ba'zida o'zi tashabbus ko‘rsatib, fikr bildiradi. Katta yoshli odam bola bilan dialogga kirishish jarayonida bolaning bir so‘zli fikrlarini grammatik jihatdan to‘liq shakllantirilgan so‘zlarga aylantirish orqali uning kamchiliklarini tuzatadi. Bola o‘rganganlarini faol o‘zlashtiradi va undan o‘z nutqida foydalanadi. Shuning uchun maktabdagi yosh bolalar nutqini rivojlantirishda uning ota-onasi, aka-opalari va tarbiyachilarining hissasi katta hisoblanadi.

Kognitiv rivojlanishning asosiy bosqichlari:

– Mantiqiy fikrlash, xotira, diqqatni jamlash va tushuncha hosil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

– O‘yinlar, ta’limiy faoliyatlar va muloqot orqali ko‘proq bilim olish.

– Aqliy faoliyatni rag‘batlantirish, o‘z-o‘zini anglash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Bu ko‘nikmalar kelajakda bolalarning ta’limda muvaffaqiyatli bo‘lishiga yordam beradi, chunki ular analitik fikrlash, yangiliklarga ochiqlik va moslashuvchanlik kabi qobiliyatlarni egallashadi.

Hissiy va ijtimoiy rivojlanish:

Bolalar erta yoshdan boshlab hissiy va ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘rganadilar. Erta rivojlantirish bolaning hissiy salohiyatini va boshqalar bilan munosabatlarini shakllantirishga yordam beradi:

Ijtimoiy munosabatlar: guruhda o‘ynash, boshqalar bilan o‘zaro muloqot qilish, do‘stlikni o‘rnatish kabi ijtimoiy ko‘nikmalar rivojlanadi.

O‘zini anglash va o‘zini hurmat qilish: bolalar o‘z hissiyotlarini ifodalashni, boshqalar bilan munosabatlarda to‘g‘ri xulq-atvorni o‘rganadilar, bu esa ularning o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchlarini oshiradi.

Bu ko‘nikmalar bolalarning ijtimoiy moslashuvini va jamiyatda muvaffaqiyatli bo‘lishini ta’minlaydi. Ijtimoiy va hissiy rivojlanish kelajakdagi o‘qish, ish va shaxsiy hayotda muvaffaqiyatga erishishning asosini tashkil etadi.

Jismoniy rivojlanish:

Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy rivojlanishning muhim bosqichlaridan o‘tadilar. Erta yoshdagi rivojlantiruvchi faoliyatlar bolalarning yirik motorikani rivojlantiruvchi ko‘nikmalarini yaxshilashga yordam beradi:

Jismoniy faollik: yangi sport turlarini o‘rganish, ko‘proq harakat qilish bolalarga sog‘lom turmush tarzini o‘rgatadi va kelajakda jismoniy faollikni davom ettirishga tayyorlaydi.

Jismoniy mashqlar: bolalarga turli xil jismoniy mashqlarni (yugurish, sakrash, to‘p bilan o‘ynash) o‘rgatish tananing va mushaklarning rivojlanishiga yordam beradi.

Muvofiqlik va muvozanat mashqlari: yengil jismoniy mashqlar va muvozanatni

o‘rganish, masalan, yog‘ochlarga chiqish, bolalarga o‘zlarini boshqarish va tana muvozanatini saqlashni o‘rgatadi.

- Tinchlanish va dam olish: jismoniy faollikdan keyin bolalarni tinchlanishga o‘rgatish, ularning stressni boshqarishga yordam beradi va sog‘lom rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

Jismoniy rivojlanish bolalar uchun o‘zlarini erkin his qilishga, stressni boshqarishga va jismoniy salomatlikni yaxshilashga yordam beradi.

Nutq va kommunikativ ko‘nikmalar: bolalarning nutqi maktabgacha yoshda tez rivojlanadi.

So‘z boyligini oshirish: bolalar yangi so‘zlarni o‘rganish orqali o‘z fikrlarini aniq ifodalashni o‘rganadilar.

Muloqot va savollar berish: bolalar bir-biri bilan muloqot qilishni, savollar berishni va javob olishni o‘rganadilar, bu esa tilni rivojlantirishga yordam beradi.

Suhbatlar va muloqot: kichik bolalar bilan ko‘proq suhbatlashish, savollar berish va javob olish, tilni rivojlantirishga yordam beradi.

Multimedia vositalari: multfilmlar, qo‘shiqlar va ta’limiy dasturlar bolalar uchun foydali bo‘lishi mumkin, lekin ular orasida muvozanatni saqlash muhimdir.

Kelajakdagi muvaffaqiyatlar uchun tayyorgarlik:

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun erta rivojlantirish nafaqat hozirgi kunda, balki kelajakda muvaffaqiyatli bo‘lish uchun muhimdir. Ushbu rivojlanishning asosiy foydalari quyidagilardan iborat:

– O‘qish va ta’limga tayyorgarlik: erta yoshda olingan bilimlar va ko‘nikmalar bolalarga boshlang‘ich maktabda muvaffaqiyatli bo‘lishlariga yordam beradi.

Shaxsiy va ijtimoiy muvaffaqiyat: hissiy va ijtimoiy ko‘nikmalar kelajakdagi shaxsiy hayot va jamiyatda muvaffaqiyatli bo‘lishni ta’minlaydi.

Hayotiy ko‘nikmalar: erta rivojlantirish bolalarga mustahkam ijtimoiy, hissiy va intellektual asos yaratadi, bu esa ularni mustaqil, muvaffaqiyatli va o‘zgaruvchan jamiyatda o‘z o‘rnini topishga yordam beradi, shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun sifatli erta rivojlanish ta’limi, ularning shaxsiy, ijtimoiy va intellektual o‘sishida muhim omil hisoblanadi. Bu yoshdagi bolalar dunyoni o‘rganishga juda qiziqadilar, ularning miya faoliyati tez rivojlanadi, shuning uchun bu davrda to‘g‘ri ta’lim va tarbiya ularning kelajakdagi muvaffaqiyati uchun katta ahamiyatga ega. Bolalar erta yoshdan boshlanadigan mantiqiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishlari muhimdir. Bu jarayonni osonlashtirish uchun:

O‘yinlar: ta’limiy o‘yinlar (masalan, konstruktiv o‘yinlar, pazllar) mantiqiy fikrlash va xotirani rivojlantirishga yordam beradi.

Kitoblar va hikoyalar: kitob o‘qish bolalarga tilni rivojlantirish, yangi so‘zlar o‘rganish, tasavvur va xayolni kengaytirish imkonini beradi. Kichik hikoyalar va multfilmlar ham bolalarga yaxshi ta’lim beradi.

San’at va musiqiy faoliyati: san’at va musiqa bolalarning ijodkorligini rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek, ularni boshqarish va diqqatni jamlash ko‘nikmalariga o‘rgatadi.

Ijtimoiy o‘yinlar: bolalarga guruhda o‘ynash va boshqalar bilan hamkorlik qilishni o‘rgatish, ularga ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Vaziyatlarni muhokama qilish: bolalar bilan ijtimoiy vaziyatlarni (do‘stlik, yordam berish, qoidalarga rioya qilish) muhokama qilish, ularga odob-axloq va to‘g‘ri xulq-atvorni o‘rgatadi.

5. Kreativlikni rag‘batlantirish

Bolalarning ijodiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda quyidagi yondashuvlar yordam beradi:

– Rasm chizish, qo‘l mehnati va hunarmandchilik: bolalar uchun rasm chizish, gilam

yoki loydan ishlash kabi faoliyatlar ularning ijodkorliklarini rivojlantirishga yordam beradi.

– Raqs va teatr: bolalar bilan raqsga tushish, teatrda rol o‘ynash ularga o‘z hissiyotlarini ifodalashda yordam beradi va ijodiy yondashuvlarni shakllantiradi.

6. Erkin muhit yaratish

Bolalar o‘zlarini erkin his qilishlari va muhitda o‘rganishlari kerak. Bu

erkin o‘ynash: bolalarga o‘zlarining ijodiy o‘yinlarini yaratish imkoniyatini berish ularning tashabbuskorligini rivojlantiradi.

– Ochiq va xavfsiz muhit: bolalar xavfsiz va erkin muhitda o‘rganishlari kerak. Shuning uchun, maktabgacha ta’lim muassasalari va uyda ular uchun qulay, xavfsiz va ijodiy joylar yaratish juda muhimdir.

Erta yoshda bolaning rivojlanishi uchun xavfsiz, rag‘batlantiruvchi va ta’limga yo‘naltirilgan muhit yaratish juda muhimdir. O‘yinlar, ijodiy faoliyatlar, muloqot va ta’limiy dasturlar bolalarning kognitiv va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa, o‘z navbatida, ularning kelajakda maktab ta’limiga sifatli tayyorgarlik, shuningdek, ijtimoiy moslashuv va mustaqil fikrlashga tayyorlanishiga yordam beradi. Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolalarni erta rivojlantirish, nafaqat hozirgi kunda, balki kelajakda ham ularning muvaffaqiyatlariga asos bo‘ladigan muhim davrdir. Bu jarayonni samarali amalga oshirish, bolalarning salohiyatini to‘liq ochish, ularni o‘z hayotlarida muvaffaqiyatli bo‘lishlari uchun zarur ko‘nikmalar bilan ta’minlashda katta ahamiyatga ega.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, maktabgacha yoshdagi nutqning tarkibiy qismlari – bu nutqning tarkibiy qismlari va aqliy funksiyalarning tarkibiy qismlari ularning maksimal safarbarligini talab qiladigan maktab sharoitida eng zaif bo‘lgan. Hozirgi bosqichda an'anaviy o‘rganish usullari samarali emas, davlat va jamiyatning zamonaviy talablariga javob bermaydi. Zamonaviy ta'lim texnalogiyalaridan foydalanish maktabdagi yosh bolalarning ham nutqiy ham rivojlanish jihatidan yordam beradi, shuning uchun hozirgi davr maktablarda zamonaviy instruksiyalardan faol foydalanishimiz va amaliyotga tatbiq etishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Grosheva I.V., Djanpeisova G.E., Mikailova U.T., Ismailova M.A., Kenjabaeva D.A., Gulyamova N.B., Miftaeva N.A. “O‘yin orqali ta’lim olish”. T.: 2020 y.

2. Shin A.V., Mirziyoeva Sh.Sh., Grosheva I.V. va boshqalar. “Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida ta’lim jarayonini rejalashtirish” T.: 2020 y.

3. Vygotskiy, L.S. “Ijtimoiy tafakkur: yuqori psixologik jarayonlarning rivojlanishi”.

4. Piaget. J. “The Child’s Construction of Reality” (Piaje, J. “Bolalar haqiqatni qanday quradilar”).

5. Bredekamp, S. va Copple, C. “Maktabgacha ta’lim dasturlarida rivojlanishga mos ta’lim amaliyoti”.

Madinabonu TAIROVA,
Andijon davlat pedagogika insituti, dotsent, p.f.f.d., (PhD)
Mushtariybonu TEMIROVA,
Andijon davlat pedagogika insituti, magistr

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING NUTQINI O‘STIRISHDA VARK MODELI

Annotatsiya

Maqolada nutq o‘stirish faoliyatini VARK modeli (Visual, Auditory, Reading/Writing, Kinesthetic) orqali o‘qitishning nazariy asoslarini tahlili, VARK modeli tarbiyalanuvchilarning turli o‘rganish uslublarini inobatga olgan holda, ularni individual tarzda o‘qitish, nutq o‘stirish jarayonida har bir o‘rganish uslubining samarali qo‘llanilishi bayon etilgan. Shunigdek, maqolada VARK modeli yordamida nutq o‘stirish faoliyatini, o‘qitish motivatsiyani oshirish, tarbiyalanuvchilarning nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish va o‘qitish jarayonini qiziqarli va samarali olib borish, tarbiyalanuvchilarning ona tilini o‘zlashtirishda faolligini, o‘rgatish samaradorligi oshirishi yoritib berilgan.

Tayanch so‘zlar. Nutq, vark modeli, zamonaviy ta‘lim, individual xususiyat, bolalar psixologiyasi, vizual, auditorial, o‘qish, yozish, kinestetik, tinglash, mashqlar, talaffuz, nutq, rolli o‘yin.

В статье анализируются теоретические основы обучения речевой деятельности по развитию через модель VARK (Зрительная, Аудиальная, Чтение/Письмо, Кинестетическая), учитывающая разные стили обучения учащихся, индивидуальное обучение, развивающая речь, описывается эффективное применение каждого метода обучения. Также в статье освещено использование модели ВАРК для повышения активности речевого развития, повышения мотивации обучения и сделать процесс обучения интересным, эффективным, повышения успеваемости учащихся.

Ключевые слова. Речь, модель работы, современное образование, индивидуальные особенности, психология ребенка, зрительное, слуховое, чтение, письмо, кинестетическое, аудирование, упражнения, произношение, речь, ролевая игра.

The article analyzes the theoretical foundations of teaching speech activity for development through the VARK model (Visual, Auditory, Reading/Writing, Kinesthetic), taking into account different learning styles of students, individual learning, developing speech, and describes the effective use of each teaching method. The article also covers the use of the VARK model to increase the activity of speech development, increase motivation for learning and make the learning process interesting, effective, and improve student performance.

Key words. Speech, work model, modern education, individual characteristics, child psychology, visual, auditory, reading, writing, kinesthetic, listening, exercises, pronunciation, speech, role-playing game.

Bolalar psixologiyasi va pedagogikasining muhim masalalaridan biri bu bolalarda nutqiy faoliyatini rivojlantirishdir. Har qanday muammolarni hal qilishda nutqiy faoliyat harakati yuzaga keladi, yangi yo‘l topiladi yoki yangi narsa yaratiladi. Aynan shu yerda ongning o‘ziga xos xususiyatlarini rivojlantirish kerak, masalan kuzatish, taqqoslash va tahlil qilish, o‘zaro bog‘liqlikni topish va birgalikda nutqiy qobiliyatni tashkil etuvchi barcha narsalarni tasavvur qilish. Bolalarning nutqi bu ajoyib va sirli mamlakat bo‘lib, u bolaga unga kirishga va o‘zlarini uyda his qilishni o‘rganishga yordam beradi, kichkina odamning hayotini yanada qiziqarli va voqealarga boy qiladi. Taqqoslash, tahlil qilish, birlashtirish, qaramlikni topish qobiliyati – bularning barchasi yig‘indisida va nutqiy faoliyatlarni tashkil qiladi. Bolalar turli xil qobiliyatlarga

ega. Tabiat ularga yorqin va hissiy fikrlash, yangilarga xayrixohlik va dunyoni yaxlit idrok etish qobiliyatini ato etdi. Tarbiyachining vazifasi bolalar uchun ochiq va qiziqarli tadbirlarda nutqiy potentsialni aniqlash va rivojlantirishdir.

Nutq o‘stirish faoliyatlarini VARK modeli orqali o‘qitishning nazariy asoslari quyidagicha ta’riflanadi, VARK modeli (Visual, Auditory, Reading/Writing, Kinesthetic) tarbiyalanuvchilarning o‘quv usullarini va o‘rganish uslublarini tasniflashga yordam beradigan pedagogik yondashuvdir. Ushbu model 1987-yilda Neil Fleming tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, tarbiyalanuvchilarni to‘rt turdagi o‘rganish uslublariga ajratadi:

Visual (V): Vizual o‘rganish — tasvirlar, diagrammalar, kartalar, grafikalar va boshqa vizual materiallardan foydalangan holda o‘rganish.

Auditory (A): Auditiv o‘rganish — eshitish orqali o‘rganish, suhbatlar, lektoralarda tinglash va ovozli materiallardan foydalanish.

Reading/Writing (R): O‘qish va yozish — matnlarni o‘qish va yozish orqali o‘rganish.

Kinesthetic (K). Kinestetik o‘rganish — amaliy faoliyat, qo‘l bilan bajariladigan mashqlar orqali o‘rganish.

Nutq o‘stirish — bu tilni o‘zlashtirish va uni faol ravishda qo‘llash jarayonidir. VARK modeli orqali nutq o‘stirish faoliyatini o‘qitish, tarbiyalanuvchilarning turli o‘rganish uslublariga mos keladigan metodlar va texnologiyalarni tashkil etishga yordam beradi. Har bir o‘rganish uslubi uchun maxsus pedagogik usullar ishlab chiqilishi mumkin. Nutq o‘stirish faoliyatida vizual usuldan foydalangan holda tarbiyalanuvchilarni tasvirlar, jadvallar, kartalar, rasmlar va diagrammalar orqali tilni o‘rgatish mumkin. Misol uchun:

Nutqni tuzishda vizual vositalardan foydalanish (masalan, gaplarning diagrammasi yoki nutq tarkibini ko‘rsatadigan vizual materiallar).

Slayd-shoular va video faoliyatliklar yordamida til o‘rganish.

Nutq va grammatika qoidalarini ko‘rsatuvchi grafikalar yoki rang-barang jadvallar.

Auditiv o‘rganish uslubiga ega tarbiyalanuvchilar uchun tinglash, suhbatlar, eshittirishlar, o‘qish mashqlari samarali bo‘ladi. Nutq o‘stirish faoliyatlarini auditory usulda amalga oshirishning ba’zi yo‘llari:

Tinglash mashqlari (masalan, audio kitoblar, hikoyalar yoki nutqlar).

Interaktiv suhbatlar va rolli o‘yinlar orqali nutqni rivojlantirish.

Musiqiy yoki ritmik usullar bilan so‘zlarni o‘rganish (masalan, qo‘shiqlar va she’rlardan foydalanish).

Tarbiyalanuvchilarga nutq va talaffuzni yaxshilash uchun ovozli treninglar. Bu uslubda tarbiyalanuvchilar matnlarni o‘qish va yozish orqali nutq o‘stiradilar. Ushbu metoddan foydalanish uchun:

Tarbiyalanuvchilarga matnlar o‘qitish va ularni tahlil qilish (masalan, maqolalar, hikoyalar, dialoglar).

Nutqni yozish mashqlari (masalan, esse, insholar yoki nutqni yozib, tahrir qilish).

O‘qilgan matnlar asosida nutqni qayta qurish yoki sinfda muhokama qilish.

Kinestetik o‘rganish uslubiga ega tarbiyalanuvchilar uchun amaliy faoliyatlar va qo‘l harakatlari orqali nutqni rivojlantirish samarali bo‘ladi. Misollar:

Rol o‘ynash va teatr mashqlari, bu orqali tarbiyalanuvchilar tilni jonli ravishda, amaliyotda o‘rganadilar.

Nutq va harakatlarni birlashtirgan mashqlar (masalan, harakatlar bilan bog‘liq bo‘lgan so‘zlar yoki iboralarni o‘rgatish).

Interaktiv guruh ishlari, debating (bahsli munozaralar) va jismoniy faoliyatlar orqali tilni rivojlantirish.

VARK modeli yordamida nutq o‘stirish faoliyatlarini samarali tashkil etish uchun, tarbiyachi tarbiyalanuvchilarning o‘rganish uslublarini aniqlab, turli xil metodlardan foydalanishi zarur. Buning uchun tarbiyachi:

Tarbiyalanuvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyatni rejalashtirishi kerak.

Har bir o‘rganish uslubini qo‘llab-quvvatlovchi materiallar va mashqlar tayyorlashi lozim.

Nutq o‘stirish mashqlarini turli o‘rganish uslublariga moslashtirib, tarbiyalanuvchilarning barcha sezgilarini jalb qiladigan faoliyatlarni ishlab chiqishi kabilar tushuniladi.

Nutq o‘stirish faoliyatlarini VARK modeli orqali o‘qitish, tarbiyalanuvchilarning o‘rganish uslublarini individual tarzda inobatga olib, samarali va mazmunli faoliyat tashkil etishga imkon yaratadi. Bu metod tarbiyalanuvchilarning til kompetensiyasi o‘zlashtirishdagi motivatsiyasini oshiradi va ularning til bilimlarini real hayotda qo‘llashga imkon beradi. Nutqiy faoliyatni rivojlantirish, demak, bolani didaktik vositalari bilan jihozlash, unga kalit, ish qilish prinsipini berish, uning iqtidorini aniqlash va gullashi uchun sharoit yaratishdir. Qobiliyatlar nafaqat ishda namoyon bo‘ladi, balki shakllanadi, rivojlanadi, ishda gullab-yashnaydi va harakatsiz bo‘ladi. Shuning uchun nutqiy faoliyatni rivojlantirish muayyan sharoitlarni yaratishni talab qiladi.

Nutqiy faollik – bu atrofdagi dunyoni, shu jumladan o‘zini anglash o‘zgartirishga qaratilgan inson faoliyatining o‘ziga xos turi. Nutqiy faoliyatning asosiy tarkibiy qismi bu o‘z his-tuyg‘ulari va afzalliklariga tayanib, his-tuyg‘ularingizni, his-tuyg‘ularni ifoda etish, fikrlarni shakllantirish qobiliyatidir Nutqiy faollik bu shunday faoliyatdir, natijada yangi narsa paydo bo‘ladi. Psixologlar nutqiy faoliyatni bizning miya xayolimiz yoki xayolimizning uyg‘unlashuv qobiliyatiga asoslangan deb atashadi.

Bolalar nutqiy faoliyatini shakllantirish shart-sharoitlari deganda, avvalo ana shu shart-sharoitlarning paydo bo‘lishi, amalga oshishi hamda rivojlanish jarayoni tushiniladi.

VARK modeli yordamida nutq o‘stirish faoliyatlarini o‘qitishning nazariy asoslari bo‘yicha xulosa quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

VARK modeli, tarbiyalanuvchilarning turli o‘rganish uslublarini tan olish va ularga mos keladigan ta’lim metodlarini qo‘llash imkonini beradi. Nutq o‘stirish faoliyatlari davomida tarbiyalanuvchilarning o‘rganish uslublari (vizual, auditorial, o‘qish/yozish, kinestetik) inobatga olinishi kerak. Bu esa, tarbiyachilarga har bir o‘quvchining individual ehtiyojlariga mos ravishda ta’limni tashkil etishga imkon beradi.

VARK modeli turli xil faol o‘qitish metodlarini o‘z ichiga oladi. Masalan, vizual o‘rganish uslubiga ega bo‘lgan tarbiyalanuvchilarga tasvirlar, grafikalar yoki diagrammalar yordamida nutqni o‘rgatish, auditorial uslubga asoslangan tarbiyalanuvchilar uchun esa audio materiallar, suhbatlar yoki tinglash mashqlarini qo‘llash samarali bo‘ladi. Kinestetik uslubda amaliy mashqlar, rol o‘ynash va jismoniy faoliyatlar orqali nutqni rivojlantirish mumkin. Bu metodlar tarbiyalanuvchilarning faolligini oshiradi, ularni faoliyatga jalb qiladi va o‘qish jarayonini qiziqarli qiladi. Nutq o‘stirish jarayonida tarbiyalanuvchilarning talaffuzini yaxshilash, grammatika va leksika bilimlarini mustahkamlash, mantiqiy tuzilishni o‘rgatish va so‘z boyligini rivojlantirish zarur. VARK modeli yordamida har bir o‘rganish uslubi bu maqsadlarga erishishda turlicha yondashuvlar taqdim etadi. Misol uchun, vizual uslub bilan grammatika va tuzilish ko‘rsatmalarini grafik tarzda taqdim etish, auditorial uslub bilan talaffuzni to‘g‘ri tushunish va takrorlash, kinestetik uslubda esa amaliy mashqlarni bajarish orqali tarbiyalanuvchilarning nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin.VARK modeli tarbiyalanuvchilarni o‘rganish jarayoniga ko‘proq jalb

qilishga yordam beradi. Tarbiyalanuvchilarning har biri o‘ziga xos o‘rganish uslubi bilan o‘qish materiallari va mashqlarni taqdim etish, ularning motivatsiyasini oshiradi. Nutq o‘stirish faoliyatida, tarbiyalanuvchilar o‘zlarini qiziqtirgan usulda o‘qitilgan materiallarni o‘rganishlari mumkin, bu esa faoliyat jarayonini yanada samarali qiladi.

VARK modeli bir nechta sezgilarni bir vaqtning o‘zida jalb qilishga imkon beradi. Masalan, bola nafaqat eshitadi, balki tasvirlarni ko‘radi, yozadi yoki amaliy mashqlarni bajaradi. Bu ko‘p qirrali yondashuv tarbiyalanuvchilarning bilish jarayonini kuchaytiradi va ularning nutq ko‘nikmalarini yanada tezroq rivojlantiradi. Nutq o‘stirish faoliyatda VARK modeli orqali o‘qitish, tarbiyachi tarbiyalanuvchilarning o‘rganish jarayonini yaxshiroq kuzatish va tahlil qilish imkonini beradi. Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarning qaysi uslubni afzal ko‘rayotganini bilib, faoliyatni moslashtirishi mumkin. Shuningdek, tarbiyalanuvchilarga doimiy qayta aloqa berish va o‘z o‘rganish uslublarini yaxshilashga yordam berish mumkin. VARK modeli yordamida nutq o‘stirish faoliyati yanada qiziqarli va amaliy bo‘ladi. Tarbiyalanuvchilar faoliyat jarayonida turli xil usullar orqali nutq o‘rganadilar, bu esa ularda fan va o‘qish jarayoniga nisbatan qiziqish uyg‘otadi. Faoliyat interaktiv bo‘lishi, tarbiyalanuvchilarni aktiv ravishda ishtirok etishga undashi kerak. Nutq o‘stirish faoliyatida rolli o‘yinlar, suhbatlar, jismoniy faoliyatlar va boshqa interaktiv metodlar orqali tarbiyalanuvchilarni jalb qilish mumkin. VARK modeli, tarbiyalanuvchilarning turli o‘rganish uslublariga moslashtirilgan o‘qitish yondashuvlarini taqdim etadi. Nutq o‘stirish faoliyatini VARK modeli orqali o‘qitish, tarbiyalanuvchilarning nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali va individual yondashuvlarni ta’minlaydi. Bunday yondashuv tarbiyalanuvchilarga nutqni o‘rganish jarayonini o‘zlashtirishda, motivatsiya oshirishda va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishda yordam beradi. Bu metod pedagogik jarayonda tarbiyalanuvchilarning nutq va tilni o‘zlashtirishda yuqori samaradorlikka erishishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 202-yil 19-mayda qabul qilingan, Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma’qullangan. Toshkent sh., 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son. / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020y.,03/20/637/1313-son.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 22-oktabrda qabul qilingan, Senat tomonidan 2019-yil 14-dekabrda ma’qullangan. Toshkent. sh., 2019-yil 16-dekabr,O‘RQ-595 son/ Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi,17.12.2019y.,03/19/595/4160-son.

3. https://monster-evo.ru/uz/dlya-studenta/test-socialnyi-intellekt-gilforda-metody-diagnostiki.

Dildora ABDULLAJONOVA,
Andijon davlat pedagogika instituti, “Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrasi, dotsent, p.f.f.d., (PhD)
Xamidaxon SIROJIDDINOVA,
Andijon davlat pedagogika instituti, maktabgacha ta’lim fakulteti, magistrant

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MAYDA MOTORIKASINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada, maktabgacha yoshdagi bolalarning mayda qo‘l motorikasini rivojlantirish, yashirin qo‘l qobiliyatini ochib berish, ota-onalar bolalariga qanday yordam bera olishlari, mayda motorika sohasining o‘ziga xos jihatlari,shuningdek, bolalarning jismoniy va sog‘lom o‘sishida motorikaning o‘rni batafsil ochib berilgan.

Tayanch so‘zlar. Mayda qo‘l motorikasi, qo‘llarni harakatlantirish, qo‘l muskullari mashqlari, muskullarga oid o‘yinlar.

В статье подробно рассматриваются вопросы развития мелкой моторики дошкольников, выявление скрытых способностей рук, помощь родителей в развития мелкой моторики детей, особенности развития мелкой моторики, а также значение моторики в физическом и здоровом развитии детей.

Ключевые слова. Моторика рук, движения рук, упражнения для мышц рук, различные мышечные игры.

The article examines in detail the issues of development of fine motor skills of preschoolers, identification of hidden abilities of hands, assistance of parents in development of fine motor skills of children, features of development of fine motor skills, as well as importance of motor skills in physical and healthy development of children.

Key words. Hand motor skills, hand movements, hand muscle exercises, various muscle games.

Muhtaram Prezidentimizning “…bola dunyoga kelganidan boshlab, unda aynan maktabgacha bo‘lgan yoshda aqliy faollik oshadi, axloqiy-estetik va jismoniy xislatlar shakllanadi. Shu bois ham, kelgusi yillarda maktabgacha ta’lim sohasini rivojlantirish borasidagi strategik maqsadimiz-ijtimoiy ahvolidan qat’i nazar, bog‘cha yoshidagi har bir bolani ushbu ta’lim yo‘nalishi bilan to‘liq qamrab olish olish uchun zarur sharoitlarni yaratishdan iborat” degan so‘zlari mazkur sohaning davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilganligini anglatadi. Darhaqiqat, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2016-yildan boshlab mazkur sohadagi islohotlar izchil davom ettirilib, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tizimini rivojlantirish, bolalarni maktabgacha ta’limga jalb etish, maktabga tayyorlash masalalari ta’lim sohasidagi davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri deb qaraldi.

“O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” da maktabgacha ta’lim sohasidagi ijobiy natijalar borligini ta’kidlab, hali saqlanib qolayotgan muammolarni ilmiy yechimiga qaratilgan izlanishlar olib borish kerakligi ta’kidlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 1-oktabr O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimida hurmatli muallim

va o‘qituvchi, qadrli tarbiyachi, jonkuyar ziyoli professor-o‘qituvchilarni kasb bayrami bilan qutlab, yo‘llangan murojaatida “millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir”, – deb ta’kidlagan edi.

Shuningdek, “Biz keng ko‘lamli demokratik o‘zgarishlar, jumladan, ta’lim islohotlari orqali O‘zbekistonda yangi Uyg‘onish davri, ya’ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o‘zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik. Bu haqda gapirar ekanmiz, avvalo, Uchinchi Renessansning mazmun-mohiyatini har birimiz, butun jamiyatimiz chuqur anglab olishi kerak”, – degan murojaati har bir professor-o‘qituvchi, izlanuvchi va tadqiqotchi, bo‘lg‘usi yosh olimlar, magistr, talabalarning ijod qilishiga, innovatsion tadqiqotlar yaratishiga turtki bo‘ladi. Haqiqatdan ham, O‘rta Osiyo tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, yurtimiz, Vatanimiz azaldan yuksak tadqiqotlar, sivilizatsiya va madaniyat o‘chog‘i bo‘lgan. Ajdodlarimiz, Buyuk mutafakkir-olimlarimiz Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamahshariy singari o‘nlab buyuk allomalarimizning jahonshumul ilmiy-ijodiy kashfiyotlari, Sohibqiron Amir Temur bobomiz, Qozizoda Rumiy, Mirzo Ulug‘bek, G‘iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi singari benazir olimlar, Lutfiy, Sakkokiy, Hofiz Xorazmiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi mumtoz shoir va mutafakkirlar, Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxond, Xondamir kabi tarixchilar, Mahmud Muzahhib, Kamoliddin Behzod singari musavvirlar, ko‘plab xattot va sozandalar, musiqashunos va me’moriy obidalari, nodir qo‘lyozma va asarlari tariximizning uch ming yillik teran ildizi mavjudligidan hamda bizning tomirimizda ana shunday buyuk ajdodlarimizning qoni oqayotganidan dalolat beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 16-avgust kuni bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda bog‘cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasini joriy yilda 60 foizga yetkazishimiz zarur. Ushbu maqsadlarga shu yilning o‘zida byudjetdan qariyb 1,8 trillion so‘m mablag‘ ajratish, bu yildan boshlab, tariximizda ilk bora 6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash tizimi joriy qilinib, bunga byudjetdan 130 milliard so‘m ajratilib, bu jarayonda xususiy maktabgacha ta’lim muassasalari ham bevosita ishtirok etishni hamda 2020-yilda byudjetdan ajratiladigan 1,7 trillion so‘m mablag‘ hisobidan 36 ta yangi maktab qurilib, 211 tasi kapital ta’mirlanishi, shuningdek, 55 ta xususiy maktab tashkil etilib, ularning soni 141 taga yetkazish belgilanganligi xalqimizni ilm-ma’rifatli bo‘lishini nazarda tutdi. Ushbu islohatlarni amaliy holati maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish orqali ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, maktabgacha ta’lim sifatini oshirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni maktabga qiziqishlarini tubdan oshirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo‘llaniladigan zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish va shu orqali bolalarda mayda matorikani rivojlantirishni nazarda tutadi. Ma’lumki, mayda motorika – bu bolalarni qo‘l-oyoqlarining kaftlari va barmoqlari bilan mayda va aniq harakatlarni amalga oshirish qobiliyatidir. Mayda motorika sohasi o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lib u ko‘p sonli va turli xil harakatlarni o‘z ichiga oladi. Masalan: oddiy harakatlardan tortib (masalan, o‘yinchoqni, har xil detallarni ushlash) murakkab harakatlargacha (yozish va rasm chizish kabi). Mayda motorikalar bola tug‘ilgan paytidan boshlab rivojlana boshlaydi. Dastlab, go‘dak o‘z qo‘llarini o‘rganadi va asta sekin ularni boshqarishga o‘tadi. U buyumlarni butun kafti bilan ushlaydi, keyin esa faqat ikkita (katta va ko‘rsatkich) barmog‘i bilan ularni ushlaydi. Shu orqali bolalar dastlab o‘yinchoqlar, keyin qoshiq, qalam, mo‘yqalam

kabi buyumlarni tog‘ri ushlashga o‘rgatiladi. Mayda motorikaning bola organizmidagi o‘rni va ahamiyati alohida sanaladi. U bolalarning asab tizimi, ko‘rish qobiliyati, diqqat, e’tibor, xotira va idrok qilish kabi organizm xususiyatlarini shakllanishi va rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari bolaning nutqini rivojlanishida ham mayda motorikanini ta’siri yuqori bo‘lib, dastlab bolaning tovushlarini shakllanishiga va nutqini o‘sishiga motivatsiya bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur sohaning bola rivojlanishidagi o‘rni haqida davlat talablarida ham alohida e’tibor qaratilgan. Davlat talablarining 1-sohasi “Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi” bo‘lsa 2-qismida esa mayda motorika bo‘yicha ko‘rsatmalar asoslab o‘tilgan. Unga muvofiq, 3-4 yoshli bolalarga qo‘yiladigan talab quyidagicha: bola qo‘li va barmoqlarini turli maqsadlarda ishlatadi. Kutilayotgan natijalar: bola halqaga arqonni kirg‘izadi; mayda predmetlarni ma’lum bir tartibda taxlaydi; mustaqil ravishda o‘yinchoqlarni qutiga joylashtiradi va undan oladi; kattalar yordamida yirik hajmdagi munchoqlarni ipga o‘tkazadi; buyumlarni bir idishdan ikkinchisiga joylashtiradi; 2-3 obyektdan rasm tuzadi; varoq sathida to‘g‘ri chiziqlar chizadi; harflarga qiziqish bildiradi, ayrim harflarni shaklini biladi va farqlaydi; yirik munchoqlarni teradi; yozishga harakat qiladi. 4-5 yoshli bolalar: mustaqil tugmachalarni qadaydi va yechadi, kiyimi va poyabzali ilgaklarini o‘zi taqadi; namuna asosida ipga mayda, o‘rta va yirik munchoqlarni teradi; qulflarni ochadi va yopadi, kalitdan foydalanadi; mayda buyumlarni buraydi va bir-biriga ulaydi; konsruktorning katta va kichik qismlaridan har xil predmetlar yasaydi; namuna asosida to‘g‘ri chiziq va aylana chizadi; rasmlarni ustidan yurgizib chizadi va bo‘yaydi; ko‘rsatilgan chiziq bo‘yicha qog‘oz, matva salfetakni buklaydi; ko‘rsatilgan chiziq bo‘ylab qaychi bilan qirqadi. 5-6 yoshda: yuzalarda turli chiziqlar chizadi; kichik va katta o‘yinchoqlarni qutiga hajmiga qarab joylashtiradi; murakkab konsurksiyalarni jamlaydi; qopchadagi o‘yinchoqlarni paypaslab nomini ayta oladi; to‘g‘ri chiziq bo‘ylab qog‘ozni mustaqil qirqadi; chiziq, ilgak va gajakcha yozadi; qog‘ozni turli usulda taxlaydi(origami); namuna asosida bosma harflarni yozishni boshlaydi; barmoqlari yordamida mashqlar bajaradi; rasmlarni tekis shtrixlaydi; turli sathlarda chizadi (nam qumda, asfaltda, doskada); soch o‘radi, mozaika yig‘adi. 6-7 yoshda: tasavvurdagi predmetlarni qo‘llari bilan (gul, qush, kapalak) ko‘rsatadi; arqonlardan turli tugunlarni tugadi; o‘yin faoliyati mobaynida mayda o‘yinchoqlar bilan o‘ynaydi; belgilangan chiziqlar bo‘ylab qog‘ozni batartib yirta oladi; mayda qismli mozaika va pazllarni yig‘adi; (qo‘l barmoqlari mayda motorikasi) qog‘ozda to‘g‘ri chiziqlar, so‘zlar va qisqa gaplarni yozadi; daftardagi yozuv qatorlarini anglay oladi; rasmlarni to‘g‘ri joylashtiradi; qo‘lni uzmasdan nuqta-chiziqlarni birlashtirib rasm chizadi; matodagi rasmni to‘qiydi; “o‘ziga” va “o‘zidan” harakatlari yo‘nalishini tushunadi; turli materiallardan murakkab namunalarni qirqadi.

Bola qo‘lidagi mayda motorikani qachondan rivojlantirish kerak? Bu savolga javob sifatida mutaxassislar hatto beshikdagi bola barmoqchalarini uqalab gimnastika qildirishni boshlash kerakligini aytishadi. Shu yo‘l orqali biz bolaning miyasiga ta’sir o‘tkazib, barmoqlarni rivojlantirish orqali miyadagi nutq markazlariga ijobiy ta’sir o‘tkaza olamiz. Ba’zida bolalar tufli bog‘ichini bog‘lashni, tugmani qadashni eplolmaydilar. Bu esa o‘sha bolada mayda motorika yaxshi rivojlanmayotganligini bildiradi. Shunday ekan, farzandingiz tugma qadashga qiynalayotganini ko‘rdingizmi, u bilan har kuni shug‘ullaning. Masalan, “Barmoqlar so‘rashadi” mashqini bajaring. Bunda o‘ng qo‘lning ikkinchi barmog‘i chap qo‘lning barcha barmoqlari bilan salomlashib chiqadi. Keyin chap qo‘lning ko‘rsatkich barmog‘i o‘ng qo‘lning barcha barmoqlari bilan so‘rashib chiqadi. So‘rashish asnosida bola nafaqat qo‘lini qimirlatadi, balki gapirib, so‘zlar bilan

ham qo‘llab-quvvatlab turadi.

“Odamcha” o‘yini. Bunda o‘ng qo‘l ikkinchi, uchinchi barmog‘i hamda chap qo‘l ikkinchi, uchinchi barmog‘i stol ustida xuddi odamdek bir-biriga qarab yurib keladi. Yurish asnosida she’r, dialog aytish ham mumkin.

“Ko‘zoynak” o‘yini. Bunda tarbiyachi qo‘lini ikkita yumaloq qilib ko‘ziga olib keladi va bu xuddi ko‘zoynakni eslatadi. Bola ham do‘stlariga qarab, uzoqdagi kemalarni ko‘z oldiga keltirib matn tuzadi. Bolaga rezina o‘yinchoqni bering, u o‘yinchoqni siqadi keyin qo‘yib yuboradi, yana siqadi yana qo‘yib yuboradi. Bu o‘yin barmoqlarni chiniqtirishga yordam beradi. Qo‘l barmoqlari yordamida o‘ngga-chapga, tepaga-pastga deb yo‘nalishlarni ko‘rsatadi. Bunda ham barmoq harakatlanadi, ham o‘ng, chap, tepa, past tomonlar haqida tushunchaga ega bo‘ladi. Qum markaziga bir tomoni bo‘shliqdan iborat o‘yinchoqlar qo‘yiladi. Bola esa aynan shu o‘yinchoqlar ichini qumga to‘ldirishi kerak.

Barmoqlar yordamida bolalarga “Mening oilam” mavzusida hikoyacha aytib berishni so‘rash ham mumkin. Masalan, bu barmog‘im bobom Aziz aka, ikkinchisi buvim Mohira opa, uchinchisi dadam Avaz, to‘rtinchisi oyim Umida, beshinchisi men. Bola bu gaplarni gapirayotganida har bir barmog‘ini qimirlatib ko‘rsatib turadi. Bolaning yoshi kattalashgani sari bajariladigan mashqlar ham murakkablashib boradi. Masalan, kema to‘lqinsimon suvda suzayotganini ko‘rsat deyiladi. Yana qog‘ozda nuqtalarni birlashtir deb bolaning ham qo‘li yozishga o‘rgatiladi. Har bir mashq avvalida bolalar biroz qiynalishlari tabiiy. Ammo ularni qayta-qayta bajargandan keyin albatta o‘rganib oladilar. Xotira, diqqat, va nutq uchun javobgar nuqtalar aynan qo‘l barmoqlarida joylashganligini hisobga olsak, maxsus mashqlar bolaning qo‘lini yozuvga tayyorlaydi, nutqini rivojlantiradi. Go‘daklarda mayda motorikani rivojlantiramiz. Onalarning hammasi bolalarda qo‘llarning mayda motorikasini rivojlantirish kerakligini biladi. Biroq hamma ham buni qay tarzda bajarish kerakligini va umuman mayda motorika o‘zi nima va uning qanday o‘ziga xos xususiyatlari borligini bilmaydi. Motorikani rivojlantirish uchun bolalar bilan qanday mashg‘ulotlar, o‘yinlar va mashqlarni o‘tkazish kerak Mayda motorika – bu qo‘l-oyoqlarning kaftlari va barmoqlari bilan mayda va aniq harakatlarni bajarish qobiliyati. Mayda motorika sohasi ko‘p sonli turli-tuman harakatlarni o‘z ichiga oladi: oddiy ishoralardan tortib (masalan, o‘yinchoqni ushlab olish) to juda murakkab harakatlargacha (masalan, yozish va rasm chizish). Mayda motorika tug‘ilgan paytdanoq rivojlana boshlaydi. Oldiniga go‘dak o‘z qo‘llarini o‘rganadi, keyin ularni boshqarishga o‘tadi. U buyumlarni butun kafti bilan ushlaydi, keyin esa faqat ikkita (katta va ko‘rsatkich) barmog‘i bilan oladi. So‘ngra bolani qoshiq, qalam, mo‘yqalam kabi buyumlarni to‘g‘ri ushlashga o‘rgatishadi. Mayda motorikaning juda muhim xususiyati bor. U bolaning asab tizimi, ko‘rish qobiliyati, diqqat-e’tibori, xotirasi va idrok qilishi bilan bog‘liq. Bundan tashqari, bolaning nutqi rivojlanishi uchun ham mayda motorikani rivojlantirishga katta e’tibor qaratish lozim. Mayda motorikani rivojlantirish uchun mo‘ljallangan mashg‘ulotlar, o‘yinlar va mashqlar mavjud. Mayda motorikani rivojlantirish uchun ko‘plab mashg‘ulotlar, o‘yinlar va mashqlar mavjud. Ularni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin: barmoq o‘yinlari, mayda buyumlar bilan bog‘liq o‘yinlar, shakl yasash va rasm chizish, barmoqlarni massaj qilish.

Xulosa qilib shuni aytadigan bo‘lsak, bolalar o‘z tabiatlariga ko‘ra haddan tashqari qiziquvchan bo‘ladi. Ular hamma narsani bilishi juda zarur: ta’mini tatib ko‘rishi, ushlab ko‘rishi, tushunarsiz va yangi bo‘lgan narsalarga o‘z tushuntirishlarini o‘ylab topishi, tajriba o‘tkazib ko‘rishi va o‘z farazlarini tekshirishi. Har bir ota-ona o‘z farzandiga uni

o‘rab turgan olamni tanishiga yordam berishi zarur.

Dastlabki (garchi mukammal bo‘lmasa ham) hukmlardan xulosa chiqarish va yakun yasash paydo bo‘ladi. Bu yoshdagi bolaning xotirasi yangi faoliyatlar va uning oldiga qo‘yilgan yangi talablar asosida takomillasha boradi. Bog‘cha yoshidagi bolalar o‘zlarining faoliyatlari uchun qandaydir ahamiyatga ega bo‘lgan, ularda kuchli taassurotlar qoldirgan va ularni qiziqtirgan narsalarni beixtiyor esida saqlab qoladi. Ushbu yoshdagi bolalar mantiqiy fikrlashi, shuningdek, tafakkuri va uning o‘sishi o‘ziga xos xususiyatga ega. Maktabgacha yoshda bolaning tafakkuri juda tez rivojlana boshlaydi. Buning sababi, birinchidan, ularda turmush tajribasining nisbatan ko‘payishi, ikkinchidan, nutqining yaxshi o‘sgan bo‘lishi, uchinchidan esa bog‘cha yoshidagi bolalarning juda ko‘p erkin, mustaqil harakatlar qilish imkoniyatiga ega bo‘lishlaridir. Shu asosida mantiqiy fikrlashga kirishadilar. Maktabgacha yoshdagi bolalarda har sohaga doir savollarning tug‘ilishi ular tafakkurining faollashayotganidan, mantiqiy fikrlash yuzaga kelayotganidan darak beradi. Bola o‘z savoliga javob topa olmasa yoki kattalar uning savoliga ahamiyat bermasa, undagi qiziquvchanlik susaya boshlaydi.

Bolaga ta’limni erta, kech ham emas, balki o‘z vaqtida berish lozim. Bolaning yoshiga muvofiq ravishda shunday ta’lim berish kerakki, bunda uning barcha hissiyot a’zolari jalb etilgan bo‘lsin. Ya’ni bola rivojlanish jarayonida mustaqil ravishda o‘zi teginish, ko‘rish, eshitish, hidlash va mazasini bilish imkoniyatiga ega bo‘lishini ta’minlash zarur.

“2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi, farmoni.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimi 2030-yilgacha rivojlantirishning konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi .PF-5198-sonli Farmoni.

3. Asqarova D. Q. “Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash metodikasi” o‘quv qo‘llama Toshkent-2020 11-b

4. Abdullajonova D. R.Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o‘rgatish. Toshkent “Innovatsiya-Ziyo” 2021

5. Abdullajonova. D. R. Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy ruhda tarbiyalashning ilmiy-metodik jihatlari.P.f.b.f.d(PhD). diss.avroref.-N.. 2023.27-b

6. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. -T.: O‘qituvchi, 1993.

7. Xasanboyeva O.U va boshqalar. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. -T.: Ilm ziyo, 2006.

8. Sodikova Sh. A. Maktabgacha pedagogika. -T.: Tafakkur sarchashmalari, 2013.

9. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonuni. Toshkent. Sh, 2019-yil

10. Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 802-son qarori. Toshkent- 22.12.2020-yil.

11. Ahmedova Z.M., Ayupova M.Y.,Xamidova M.P. Logopedik o‘yin. Toshkent –2007

12. Shomahmudova R. Sh. “barmoqlar mashqi va nutq o‘stirish”. Toshkent. Sh, 2019-yil

Raxima TURDIYEVA,
Guliston davlat universiteti, "Boshlang'ich ta'lim uslubiyati" kafedrasi, o'qituvchi

O'QUVCHILARDA IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA OZIQ-OVQATLARNING O'RNI

Annotatsiya

Maqolada miyaning fikrlash tezligi va faolligi rivojlantiruvchi omillardan biri bu to'g'ri ovqatlanish, o'quvchi yoshlarning intelektual salohiyatini oshirish, xotirasini mustahkamlash, aqliy, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda foydalaniladigan oziq-ovqat mahsulotlari, ularning miya faoliyatiga ijobiy ta'sirlari va ahamiyati batafsil yoritilgan.

Tayanch so'zlar. Aqliy, rivojlanish, organizm, fikrlash, taomnoma, miya, xotira, vitaminlar, oziq-ovqat, mahsulot, mikroelementlar, modda, antioksidant, immunitet, qobiliyat, kognitiv.

В статье подробно раскрывается организация правильного питания которая является одним из факторов, повышающих скорость и активность мышления мозга. В статье также, рассматриваются продукты питания, используемые для повышения интеллектуального потенциала учащейся, молодежи, укрепления памяти, развития умственных и творческих способностей, а также их положительное влияние на работу мозга и их значение.

Ключевые слова. Психика, развитие, организм, мышление, диета, мозг, память, витамины, пища, продукт, микроэлементы, вещества, антиоксидант, иммунитет, способности, когнитивный.

The article details the organization of proper nutrition, which is one of the factors that increases the speed and activity of brain thinking. The article also discusses food products used to enhance the intellectual potential of students and young people, strengthen memory, develop mental and creative abilities, as well as their positive impact on brain function and their importance.

Key words. Psyche, development, organism, thinking, diet, brain, memory, vitamins, food, product, microelements, substances, antioxidant, immunity, abilities, cognitive.

Yangi texnologiyalar rivojida yuz berayotgan sifat ko'rsatgichlardagi sakrashlar, bugungi kunda mamlakatlarni ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarda jamiyat hayotiga yangi ma'no olib kiradigan, nostandart fikrlash qobiliyatiga ega, zamonaviy va kelajakka daxldor, muammolarni yecha oladigan kreativ shaxslarga bo'lgan ehtiyojini keskin kuchaytirib yubordi. Natijada ta'limga bo'lgan e'tibor, jumladan, o'quvchi yoshlarning aqliy, ijodiy rivojlantirishiga bo'lgan e'tibor tubdan o'zgardi .

Bu esa mamlakatimizning barqaror va inklyuziv rivojlanishini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan "O'zbekiston – 2030" strategiyasining birinchi ustuvor "har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish" yo'nalishida o'z aksini topgan.

Bola organizmi o'sish va rivojlanish xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Buning asosida esa assimlyatsiya va dissimliyatsiyadan iborat bo'lgan moddalar almashinuvi jarayonlari yotadi. Bola qancha yosh bo'sa, uning o'sishi va rivojlanishi shuncha jadal bo'ladi. Yosh organizmning o'sishi va rivojlanishi ovqatlanish omilining ta'siri ostida bo'lib, uning jismoniy va aqliy rivojlanishi uchun zamin bo'ladi. Bolaning ijodiy qobiliyatlarini

yaxshilash uchun miya sog‘lig‘ini qo‘llab-quvvatlaydigan va uning rivojlanishiga yordam beradigan to‘g‘ri ovqatlanish muhim omil hisoblanadi.

Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional ta’lim muassasalarida o‘quvchilar ovqatlanishini tashkil etishning sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlarining 5-bobida o‘quvchilarni sog‘lom ovqatlanishini ta’minlash, ovqatlanishning optimal sifatli va miqdoriy tuzilishi, xavfsizligining kafolati, mahsulotlar va taomlarga texnologik va kulinar ishlov berish, ovqatlanish tartibining fiziologik asoslanganligi ovqatlanishning tarkibiy qismi, ovqatlanish ratsionini ishlab chiqilgan. nn Unga ko‘ra o‘quvchilarning kunlik ovqatlanish ratsioninida oqsil, yog‘, uglevodlarnin optimal ozuqaviy nisbati 1:1:4 yoki kaloriyaning foizlik ko‘rinishida oqsillar hisobiga 10 — 15 %, yog‘lar hisobiga 30 — 32 %, uglevodlar hisobiga 55 — 60 %, kalsiyning fosforga nisbati 1:1,5 tarzda bo‘lishi kerak. Kunlik ovqatlanish ratsioni tarkibiga go‘sht, sut, sariyog‘ va o‘simlik yog‘i, bug‘doy noni (har bir ovqatlanishda) kiritiladi. Baliq, tuxum, pishloq, tvorog, sut mahsulotlarini ikki-uch kunda bir marta berish tavsiya etiladi. Nonushta salat, issiq ovqat va issiq ichimlikdan iborat bo‘ladi. Sabzavot va mevalar berilishi tavsiya etiladi.

Tushlik tarkibiga salat, birinchi va ikkinchi taom (asosan go‘sht, baliq yoki parranda go‘shtidan tayyorlangan issiq ovqat) va ichimlik kiradi. Salat yangi uzilgan yoki tuzlangan bodring, pomidor, karam, qizil lavlagi, sabzi, qovoq va boshqalar, yangi ko‘katlar qo‘shilgan holda tayyorlanadi. Porsiyalangan sabzavotlar (qo‘shimcha garnir)dan ham foydalanish mumkin. Ta’mni yaxshilash maqsadida salatga sarxil yoki quritilgan mevalar: olma, olxo‘ri, mayiz va yong‘oq qo‘shish mumkin.

Ikkinchi tushlikda ichimlik (sut, sut mahsulotlari, kisel, sharbat) bilan birga bulochka yoki kremsiz (tvorogli) qandolatchilik mahsulotlari tavsiya etiladi. Kechki ovqat sabzavotli (sutli) taom yoki bo‘tqa: ikkinchi asosiy ovqat (go‘sht, baliq yoki parranda go‘shti), ichimlik (choy, sharbat, kisel)ni o‘z ichiga oladi. Qo‘shimcha ravishda mevalar yoki sut mahsulotlari, bulochka yoki kremsiz qandolatchilik mahsulotlari tavsiya etiladi.

Oziq moddalarni o‘z vaqtida va tog’ri qabul qilish bolaning aqliy va ijodiy rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega bo‘lib, oziqlanish miyani shakllantirishda, kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishda va jismoniy salomatlikni saqlashda muhim rol o‘ynaydi, bu esa o‘z navbatida muvaffaqiyatli o‘rganish va ijodkorlikka yordam beradi. Muhim ozuqa moddalarining yetishmasligi bolaning psixo-emotsional holatingizga, diqqatni jamlashga, xotiraga va o‘rganish qobiliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shuning uchun bolani to‘liq rivojlanish uchun barcha kerakli makro va mikroelementlarni o‘z ichiga olgan muvozanatli ovqatlanish bilan ta’minlash muhimdir.

Bolalar uchun asosiy oziq-ovqat guruhlari quyidagilar:

Sabzavotlar va mevalar – vitaminlar, minerallar va tolalar manbai.

Don mahsulotlari – energiya manbai sifatida.

Oqsillar (go‘sht, baliq, tuxum, loviya) – o‘sish va ta’mirlash jarayonlari uchun zarur.

Sut mahsulotlari – kalsiy manbai sifatida suyaklarning mustahkamligi uchun muhim

Odam miyasi asab tizimining boshqaruv organi hisoblanadi. Miyaning asosiy faoliyati – bu tananing hayotiy funksiyalarini bajarish buyruqlarini uzatishdan iborat. Bolalarning aqliy rivojlanishlari va ijodiy fikrlashlari uchun miyani ishlatish zarur. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, miyani oziqlantirish – bu o‘sish va rivojlanishning kalitidir. Nevrologlar nuqtai nazaridan, oziq-ovqat miya salomatligi uchun juda muhim, chunki u tom ma’noda ozuqa moddalari bilan oziqlanadi, darmondorilarga ehtiyoj sezadi.

Olimlar miya salomatligininng kaliti bo‘lgan 45 ga yaqin ozuqa moddalarini aniqladilar, jumladan, oqsil, rux, temir, xolin, folat, yod, A vitamini, D vitamini, B6 vitamini, B12

vitamini va omega-3 yog‘ kislotalari.Quyidagilar shular jumlasidandir:

Proteinlar va aminokislotalar. Proteinlar va ularning tarkibiy qismlari, aminokislotalar miyaning o‘sishi va rivojlanishi uchun zarurdir. Ular neyronlar orasidagi signallarni uzatish uchun mas’ul bo‘lgan neyrotransmitterlarning sintezida ishtirok etadilar. Protein yetishmasligi aqliy rivojlanishning sekinlashishiga, xotira va konsentratsiya bilan bog’liq muammolarga olib kelishi mumkin.

Yog‘ kislotalari. Yog‘lar miyaning 60 foizini tashkil etadi DHA va EPA kabi omega-3 yog‘ kislotalari asabiy aloqalarni shakllantirish va kognitiv funksiyani yaxshilash uchun juda muhimdir. Bu kislotalar hayotning birinchi yillarida, miya faol rivojlanayotganda ayniqsa muhimdir. Omega-3 ni muntazam iste’mol qilish, ayniqsa, intellektual miya faoliyatini yaxshilaydi va o‘rganish qobiliyatini oshiradi.

Uglevodlar. Miya uchun asosiy energiya manbai uglevodlardir. Uglevodlardan olingan glyukoza asab tizimining normal ishlashi uchun zarurdir. Yetarlicha uglevodlarni iste’mol qilmaslik charchoqqa olib kelishi va konsentratsiyani kamaytirishi mumkin.

B vitaminlari (ayniqsa, B1, B6, B12) asab tizimining normal ishlashi uchun zarurdir. Bu vitaminlar metabolik jarayonlarda ishtirok etadi, asab impulslarini tartibga soladi va psixo-emotsional muvozanatni saqlashga yordam beradi. Ularning yetishmasligi asabiylashish, uyqu buzilishi va hatto depressiyaga olib kelishi mumkin. Rux, magniy, temir. Ushbu minerallar xotira va o‘rganish jarayonlarida muhim rol o‘ynaydi. Misol uchun, temir miyaga kislorod yetkazib berish uchun muhim ahamiyatga ega va bu elementning yetishmasligi yomon xotira va hushyorlikka olib kelishi mumkin.

Antioksidantlar (masalan, C va E vitaminlari) miyani uzoq muddatli xotira va o‘rganishga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan oksidlovchi stressdan himoya qilishga yordam beradi.

Glyukoza miya uchun foydali, xotirani va aqliy qobiliyatni yaxshilaydigan glyukozani reza mevalar va meva, tarvuz, qovun, malina, yertut, olxo‘ri, shaftolida topish mumkin. Bu mahsulotlarni muntazam ravishda iste’mol qilish miya faoliyatini rivojlantiradi.

Bolalar taomnomasida quyidagi mahsulotlardan foydalanish, miya faoliyatining samarali ishlashiga va xotirasining mustahkamlashiga xizmat qiladi. Bu mahsulotlardagi vitaminlar va mikroelementlar miya uchun qurilish materiallari hisoblanadi.

Baliq – Olimlarning fikricha, baliqning yog‘li turlari xotirani yaxshilash va miyaning yaxshi ishlashi uchun juda foydali. Baliqda omega-3 va omega-6 yog‘ kislotalari, yod, brom, magniy, molibden, marganes, rux, V guruhi vitaminlari, RR, N kabi moddalar bor. Bu vitaminlar va mikroelementlarning hammasi ijobiy ta’sirga ega: xotirani, qon aylanishini yaxshilaydi, tomirlarni mustahkamlaydi. Boston olimlari uzoq izlanishlardan so‘ng baliq mahsulotlari miya faoliyatini yaxshilab, ko‘rish qobiliyatini oshiruvchi hamda yurak qon tomir kasalligini davolovchi xususiyatga egaligini isbotlashdi.

Yong‘oq – xotirani yaxshilovchi mahsulotlar orasida yana bir foydali mahsulot bo‘lib, u dofaminga boy hisoblanadi va fikrlash qobiliyatini yuksaltiradi. Ularda yog‘ kislotalari, foliy kislota, V1, V6, V9, V12, RR, K, S, YE vitaminlari, temir, rux va oshlovchi moddalar bor. Shuningdek, uning tarkibidagi litsin miya faoliyatini yaxshilaydi va xotirani kuchaytiradi. Qadimgi Yunon tarixchisi Geredod ham “yong‘oq aqliy faoliyatga ijoboy ta’sir etadi” – deb yozgan. Bundan tashqari, yong‘oqlar foliy kislotasi va kalsiyning manbai hisoblanadi. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, agar kuniga 2 ta yong‘oq iste’mol qilinsa, xotira ancha yaxshilanadi. 4 ta yong‘oq iste’mol qilinsa, organizmni antioksidantlar bilan kuchlantiradi, immunitetni va hujayralar himoyasini yaxshilaydi.

Bodomda kalsiy, temir, magniy, fosfor va rux moddalari mavjud bo‘lib, xotirasini

kuchaytirish xususiyatiga ega bo‘lganligi uchun bolalarga bodom yeyish tavsiya etiladi.

Qora shokolad – mutaxassislarning ta’kidlashicha, qora shokoladda charchoqni qoldiradi.

Mevalar:

Olmada foydali moddalar, vitaminlar va minerallar, temir ko‘p bo‘lib, qonni yetarli darajada kislorod bilan ta’minlaydi.

Anjir turli xil vitamin va mikroelementlarga boy. U qonni suyultirib, miyani kislorod bilan oziqlanishiga yordam beradi.

Olxo‘ri kayfiyatni tartibga solishga yordam beradigan neyrotransmitter serotonin bilan bog‘liq bo‘lgan muhim aminokislota triptofanning ajoyib manbaidir. Bola miyasini triptofan bilan ta’minlash, miyamiz dam olayotgan va tiklanayotgan tunda uxlashiga yordam beradi.

Limon S vitaminiga boy bo‘lganligi uchun axborot qabul qilishni yaxshilaydi va xotirani mustahkamlaydi.

Eng oddiy va mazali bo‘lgan, xotirani kuchaytirishga yordam beradigan mahsulot - banandir. Shunchaki bolaga och qoringa 1 dona va uyqudan oldin 1 dona banan berish kerak. Banan tarkibiga kiruvchi moddalar miyada qon aylanishiga va asab tizimiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari banan iste’mol qilish stress holatidan olib chiqishga ham yordam beradi, stress esa bolalarda xotira zaiflashuvining bir sababidir.

Sabzavotlar:

Gulkaram tarkibidagi K vitamin va boriy ma’lumotni yaxshi eslab qolish va o‘zlashtirishga yordam beradi. Gulkaram asab tizimini faollashtirib, uning barcha vazifalarini bajarishga ko‘maklashadi.

Sabzida ko‘p miqdorda K va xalen mavjud. Bu miyaga ma’lumotni saqlashga va tahlil qilishga yordam beradi. Xotirani mustahkamlaydi. Shuningdek ko‘rish qobiliyatini rivojlantiradi.

Qizilcha tarkibidagi yod, temir, gliyukoza bosh miya faoliyatini yaxshilaydi. Uni turli ko‘rinishda iste’mol qilish mumkin. Sutkalik normasi 150g.

Sarimsoq tarkibida miya hujayralarini faollashtiruvchi moddalar mavjud. U nafaqat xotirani mustahkamlash uchun, shu bilan birga miyaning yosh bilan bog‘liq o‘zgarishlariga to‘sqinlik qilish uchun ham foydalidir.

Ko‘katlar:

Salat bargi, ismaloq, karam va boshqa ko‘katlar kognitiv funksiyasini oshirishda yordam beradi. Ular tarkibidagi lyutein, foliy kislotasi va beta-karotin miya faoliyati uchun muhim ozuqa sanaladi.

Oshqovoq urug‘lari:

Ushbu mahsulot rux moddasiga boy bo‘lib, u miyaga ma’lumotlarni yaxshi qabul qilishga va o‘zlashtirishga yordam beradi. Oshqovoq urug‘lari organizm uchun zarur bo‘lgan selen, magniy, K, B1 vitaminlariga boy. Bu elementlarning barchasi diqqatni oshirib, ma’lumotlarni uzoq saqlanishiga yordan beradi. Qovoq urug‘laridagi magniy asab tolalariga ijobiy ta’sir qiladi. Kuniga 100g iste’mol qilish maqsadga muvofiq.

Zaytun moyi:

Miya yaxshi ishlashi uchun zaytun moyi iste’mol qilish kerak, uni alohida mahsulot sifatida ham iste’mol qilish yoki salatlarga qo‘shish mumkin. Amerikalik olimlar Zaytun yog‘ini o‘qish qobiliyatini va xotirani yaxshilashini ta’kidlaganlar. Shuningdek, u qon tomirlaridagi tiqilmalarning oldini oladi.

Tuxum:

Bitta tuxum tarkibida A, D, b, E guruhi va xolin kabi 12 ta vitamin mavjud. Ushbu to‘plam miyaning rivojlanishi, bolalarning intellektual qobiliyatlari uchun foydalidir va o‘sayotgan organizmning suyak va mushak massasini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan oqsilni beradi.

Don mahsulotlar:

Bolaga kerakli donlardan tayyorlangan non, ungan bug‘doy va suli, arpa yormasidan bo‘tqalar tayyorlab bering. Bu mahsulotlarda miya faoliyatini yaxshilaydigan kletchatka va V guruhi vitaminlari bor.

Bolalarda sog’lom ovqatlanish odatlarini shakllantirish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

Namuna bo‘lish – Ota-onalar bolalar uchun eng yaxshi namuna hisoblanadi.

Tanlov imkoniyatini berish – Bolalarga turli xil sog‘lom ovqatlar orasidan tanlash imkoniyatini bering.

Birgalikda ovqat tayyorlash – Bolalarni ovqat tayyorlash jarayoniga jalb qiling.

Ovqatlanishga bolaning do‘stlari yoki tengqurlarini taklif etish.

Bolalarning aqliy va jismoniy rivojlanishida yana suv, faollik va uyqularning ham o‘z o‘rni bor.

Suv – bolalar kattalarga nisbatan ancha faol bo‘lganliklari uchun ularda moddalar almashinuvi jadalroq kechadi. Shuning uchun suvga bo‘lgan ehtiyojlari yuqori hisoblanadi. Harakatlanish jarayonida bolalar ko‘p suyuqlik yo‘qotadilar, suvga ko‘p ehtiyoj sezadilar va ko‘p suv ichadilar. Bolalarning o‘z vaqtida suv ichishlarini, suv sifati va balansini nazorat qilib turish lozim. Olimlarning aniqlashicha, agar bola organizmida suv yetishmasa, uning aqliy va jismoniy ko‘rsatgichlari 20% tushib ketar ekan. Chunki miyaning 80 foiz suvdan tashkil topgan bo‘lib, suvning yetishmasligi unga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Suv so‘lak ajlalishi, hazm jarayoni uchun muhim sanaladi, garmonlarni, tana haroratini nazorat qiladi, tanani, miyani kislorod bilan ta’minlaydi, Muntazam suv ichib turishlik bolaning xotirasi va diqqatini yaxshilaydi, immunitetini mustahkamlaydi, uning rivojlanishi uchun kerak bo‘lgan vitaminlar, makro va mikro elementlarni yetkazib berishda muhim ro‘l o‘ynaydi.

Jismoniy faollik – yaxshi jismoniy salomatlik aqliy qobiliyatlarga bevosita bog‘liq. Muntazam jismoniy faollik qon aylanishini yaxshilaydi, bu esa miyaga kislorod va ozuqa moddalarini yetkazib berishga yordam beradi. Jismoniy faollik, shuningdek, sog‘lom asab tizimini qo‘llab-quvvatlaydigan neyrotrofik omillarni ishlab chiqarishga yordam beradi. O‘quvchilarning harakatlanishi juda muhim, chunki dars vaqtida va uy vazifasini bajarayotganda ko‘p o‘tirishga to‘g‘ri keladi. Bunda mushaklar muqarrar ravishda zaiflashadi. Aqliy mehnat (o‘qish, yozish, fikrlash, masala yechish, darsni tinglash, tayyorlash va hakozo)asosan ko‘rish, eshitish, organlari va ularning bosh miya po‘stlog‘idagi markazlarining nerv hujayralarini bajaradigan kuchdir. Shunday ekan, o‘quvchilar aqliy mehnat gigienasining zarur shartlarini kun tartibidaga rioya qilishlari kerak. Jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanish, o‘quv va o‘qishdan tashqari mashg‘ulotlar uchun sharoit yaratish, bir faoliyatni ikkinchisi bilan almashtirib turishni, zararli odatlarga berilmaslik va hakozolarni ongli ravishda bajarishga harakat qilishlari xotiraning kuchayishiga va aqliy rivojlanishga turtki bo‘ladi.

Yetarlicha uyqu – uyqu faqatgina kun oxiridagi tanaffus emas, balki miya va tananing optimal ishlashi hamda sog‘lom turmush tarzini saqlab qolish uchun zarur hisoblanadi. Uyqu tananing har bir tizimiga ta’sir ko‘rsatadigan faol, qayta tiklovchi jarayon hisoblanadi. Uyqu vaqtida miya muhim vazifalarni amalga oshiradi: xotiralarni mustahkamlaydi,

hissiyotni qayta ishlaydi. Shu bilan birga, immun tizimi ham mustahkamlanadi va mushaklarning o‘sishi va tiklanishi uchun jismoniy tiklanish yuz beradi. Shuning uchun bola tiniqib uxlashi zarur. Shuningdek, yostiq ichiga tinchlantiruvchi giyohlardan ham solish mumkin, masalan, quritilgan moychechak, yalpiz va limon. Shevetsariyalik olimlar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, uyqu davomiyligi atigi chorak soatdan oshgan sayin maktab o‘quvchilari faollashtiradi.

O‘quvchilarga tavsiya etilmaydigan oziq-ovqat mahsulotlari

1.Go‘sht qo‘shilgan, mayonez, ketchup va orasiga sabzavotlar solingan non mahsulotlari (gamburger, chizburger va xot-doglar).

2. Sun’iy ta’m, hid beruvchi moddalar, bo‘yoqlar, aromatizatorlar qo‘shilgan qandolatchilik mahsulotlari.

3. Sun’iy konservantlari bor mahsulotlar (kiriyeshki, xrustyashki).

4. Chipslar.

5. Rangli va rangsiz gazlangan ichimliklar.

6. Yaroqlilik muddati tugagan va sifatsiz bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlari.

7. Bir kun oldin tayyorlangan va qolib ketgan ovqatlar.

8. Eskirgan, sifati buzilgan sabzavotlar.

9. Veterinariya nazoratidan o‘tmagan go‘sht, baliq, parrandalar.

10. Jigar, til va yurakdan tashqari barcha kalla poychalar.

11. Har qanday yarim tayyor mahsulotlar va kontsentratlar

12. Qimiz va tarkibida etanol bo‘lgan (0,5%dan ortiq) boshqa achitilgan sutli mahsulotlar.

13. Gazlangan ichimliklar

14. Shakar va tuz ham iste’mol qilish tavsiya etilmaydi. Agar ularni to‘liq rad etish imkoni bo‘lmasa, unda shakar o‘rniga asalni iste’mol qilish, tuzni esa minimal darajada ishlatish mumkin.

To‘g‘ri ovqatlanish miya va neyron tarmoqlarning rivojlanishini rag‘batlantiradi, bu yangi ma’lumotlarni yaxshiroq idrok etishga, tasavvurni rivojlantirishga, keativ fikrlashga va nostandart muammolarni hal qilish qobiliyatiga yordam beradi. Ijodiy fikrlash miyaning moslashuvchanligini va bog‘lanish qobiliyatini talab qiladi, bu esa barcha zarur oziq moddalar mavjudligi bilan yaxshilanadi. O‘z vaqtida va to‘g‘ri ovqatlanish miya va asab tizimining rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga yordam beradi, kognitiv funksiyani yaxshilaydi va bolaning ijodiy salohiyatini rag‘batlantiradi. Bu nafaqat o‘quvchi yoshlarimzning kelajagi, balki Vatanimiz ravnaqi va istiqboli uchun ham muhim ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “O‘zbekiston – 30” srtategiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son

2. O‘zbekiston Respublikasining sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari, 22.07.2021-yildagi 0017-21-son.

3. D.A Manutkulov. Bolalar anatomiyasi va fiziologiyasi.Toshkent.2017

23-bet.

4. D.Sharopova Xotira: mustahkamlash yo‘llari, usullari va vositalari. “Научный импульс” 2022 № 4

5. www.ziyonet.uz

Индира НАРКУЛОВА,
Национальная гвардия Республики Узбекистан, Университет общественной безопасности, доцент, д.ф.п.н. (PhD)

СТРАТЕГИИ ПРЕОДОЛЕНИЯ ЯЗЫКОВОГО БАРЬЕРА И РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ НАЦИОНАЛЬНОЙ ГВАРДИИ

Annotatsiya

Maqolada Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining kommunikativ kompetenciyalarini rivojlantirish strategiyalari, til malakalarini samarali kasbiy faoliyatdagi o‘rni, til malakalarini shakllantirishga to‘sqinlik qiluvchi omillar, tilni o‘qitishning texnologiyalari va psixologik yondashuvlari batafsil tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada muallif tomonidan xizmat vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo‘lgan aloqa ko‘nikmalarini rivojlantirish, shaxslararo muloqot ko‘nikmalarni shakllantirish, ko‘p tilli muhitga moslashish va rus tilidan foydalanishga bo‘lgan ishonchni oshirishga qaratilgan amaliy usullar taklif qilingan.

Tayanch so‘zlar. Til to‘sig‘i, kommunikativ kompeentsiya, harbiy xizmatchilar, milliy gvardiya, shaxslararo muloqot, ko‘p tilli muhit, kasbiy faoliyat.

В статье подробно анализируются стратегии развития коммуникативных компетенций военнослужащих Национальной гвардии, роль языковых навыков в эффективной профессиональной деятельности, факторы, препятствующие формированию языковых навыков, технологии и психологические подходы обучения языку. Также в статье автор предлагает практические методы, направленные на развитие коммуникативных навыков, формирование навыков межличностного общения, адаптацию к многоязычной среде, повышение уверенности в использовании русского языка.

Ключевые слова. Языковой барьер, коммуникативная компетенция, военнослужащие, Национальная гвардия, языковая подготовка, межличностное общение, многоязычная среда, профессиональная деятельность.

The article provides a detailed analysis of strategies for developing communicative competencies of National Guard servicemen, the role of language skills in effective professional activity, factors that hinder the development of language skills, technologies and psychological approaches to language teaching. The author also offers practical methods in the article aimed at developing communication skills, forming interpersonal communication skills, adapting to a multilingual environment, and increasing confidence in using the Russian language.

Key words. Language barrier, communicative competence, military personnel, National Guard, language training, interpersonal communication, multilingual environment, professional activity.

В современном мире, характеризующемся возрастающей глобализацией и многообразием культур, коммуникативная компетенция становится неотъемлемой частью профессиональной подготовки военнослужащих. В частности, для военнослужащих Национальной гвардии, чьи задачи могут включать взаимодействие с различными группами населения, включая иноязычных граждан, владение коммуникативными навыками приобретает особую значимость. Языковой барьер, возникающий в результате недостаточного знания языка или

культурных различий, может стать серьезным препятствием для эффективного выполнения служебных обязанностей, снизить качество взаимодействия с гражданским населением и даже потенциально угрожать безопасности.

В связи с этим, исследование и разработка эффективных стратегий преодоления языкового барьера и развития коммуникативной компетенции у военнослужащих Национальной гвардии является актуальной и крайне важной задачей. Данная статья направлена на анализ существующих проблем в области языковой подготовки военнослужащих, изучение передового опыта и разработку практических рекомендаций по совершенствованию системы обучения, которая будет способствовать эффективному межкультурному взаимодействию и профессиональному росту личного состава Национальной гвардии.


По данным Podrobno.uz. большинство туристов, приехавших на отдых в Узбекистан из-за рубежа, россияне (178,5 тысячи человек).[https://podrobno.uz/cat/podrobno/bolshinstvo-turistov-priekhavshikh-na-otdykh-v-uzbekistan-iz-za-rubezha-rossiyane]. Незнание русского языка приводит к сложности в общении и понимании, потенциально усложняя взаимодействие при выполнении задач. Например, задержание иностранного гражданина без знания русского языка существенно осложняет процесс коммуникации и выяснения обстоятельств. Также, современные задачи Национальной гвардии все чаще предполагают взаимодействие с зарубежными партнерами и международными организациями, где языковой барьер может стать критически важным препятствием для эффективного сотрудничества и координации действий. Например: “В ходе совместных тренировок с зарубежными коллегами недостаточное владение русским языком существенно снижает эффективность координации задач”. В условиях современных вызовов, включая киберпреступность и распространение дезинформации, способность эффективно общаться и понимать мотивы различных групп населения является ключевым фактором для обеспечения безопасности. Невозможность адекватно коммуницировать на разных языках и культурах может привести к неправильному пониманию ситуации и ухудшению результата. Неверное понимание ситуации при взаимодействии с русскоязычными жителями в регионе осложняло ситуацию и увеличивало риск конфликтных ситуаций.

В связи с этим, исследование и разработка эффективных стратегий преодоления языкового барьера и развития коммуникативной компетенции у военнослужащих Национальной гвардии является актуальной и крайне важной задачей. Данная статья направлена на анализ существующих проблем в области языковой подготовки военнослужащих, изучение передового опыта и разработку практических рекомендаций по совершенствованию системы обучения, способствующей эффективному межкультурному взаимодействию и профессиональному росту личного состава Национальной гвардии.

Исследование проблем преодоления языкового барьера и развития коммуникативной компетенции у военнослужащих, в том числе в контексте Национальной гвардии, является междисциплинарной областью, находящейся на стыке лингвистики, педагогики, психологии и военной науки. Сложность этой проблемы требует детального понимания взаимодействия между уровнем владения языком, индивидуальными стилями обучения и уникальным социокультурным контекстом военной службы. Поэтому многосторонний подход имеет важное значение для определения соответствующих мер и максимизации результатов

обучения военнослужащих. Таким образом, существующие исследования в этой области можно разделить на несколько ключевых направлений (рис.1).

1. Общие исследования коммуникативной компетенции:



2. Исследования в области языковой подготовки военнослужащих:



3. Исследования межкультурной коммуникации в военной сфере:



Рис.1. Исследование проблем преодоления языкового барьера и развития коммуникативной компетенции

Обзор литературы показывает, что, несмотря на значительное количество исследований в области коммуникативной компетенции и языковой подготовки, существует ряд пробелов, требующих дальнейшего изучения. В частности, недостаточно

исследований, посвященных специфике развития коммуникативной компетенции военнослужащих Национальной гвардии, с учетом их конкретных задач и особенностей работы. Также требуют более детального анализа эффективные стратегии преодоления языкового барьера в реальных условиях служебной деятельности и возможности интеграции инновационных технологий в процесс обучения.

Методология исследования

Анализ специфических трудностей в изучении русского языка

Анализ специфических трудностей в изучении русского языка для носителей узбекского выявляет целый комплекс препятствий. Фонетические трудности обусловлены различиями в фонетических системах двух языков, проявляющихся в наличии или отсутствии определенных звуков. Это приводит к типичным ошибкам в произношении русских звуков, таких как [щ], [ы], [и], [е], а также в редукции гласных и правильной постановке ударения. Грамматический уровень также представляет серьезные сложности из-за многообразия падежей, склонений, спряжений и видов глаголов в русском языке. Ошибки в согласовании слов, употреблении падежных окончаний и определении времени и вида глаголов являются распространенными. Наиболее сложные грамматические темы требуют упрощенного представления и разработки особых стратегий для их усвоения. Лексические и семантические трудности связаны с различиями в словарном запасе двух языков, наличием лексических единиц, не имеющих прямых аналогов, и сложностями в понимании переносных значений слов, фразеологизмов и идиом. Особенно выделяется необходимость освоения специфической военной лексики и терминологии для эффективного выполнения служебных обязанностей. Выявление семантических полей, вызывающих наибольшие затруднения, и разработка стратегий для их освоения являются ключевыми задачами. Наконец, социокультурные и коммуникативные трудности возникают из-за различий в культурных нормах общения, этикете и невербальном поведении. Трудности в адаптации к речевому этикету, формам обращения и особенностям делового общения могут приводить к недопониманию и конфликтам на почве культурных различий. Таким образом, изучение русского языка для узбекоговорящих представляет собой многогранную задачу, требующую учета фонетических, грамматических, лексических, семантических, социокультурных и

Эффективные стратегии обучения русскому языку военнослужащих должны быть основаны на персонализированном подходе, учитывающем уровень владения языком, родной язык и образовательный бэкграунд каждого обучающегося. Разработка индивидуальных планов обучения, с фокусом на наиболее проблемных аспектах, является ключевым фактором успеха. Основу обучения должен составлять коммуникативный подход, с акцентом на развитие навыков говорения и аудирования через активное использование ролевых игр, моделирующих реальные ситуации службы, и создание условий для общения с носителями языка. Применение метода “погружения” в языковую среду, по возможности, также может быть эффективным. Важно активно использовать наглядные материалы, интерактивные обучающие платформы и мультимедийные средства для облегчения восприятия и отработки языковых навыков. Опора на родной язык и межъязыковые связи, через метод сравнения и создание словарей с переводами, помогает обучающимся лучше понимать грамматические и лексические особенности русского языка. Развитие фонетических навыков требует регулярной практики произношения, индивидуальной

коррекции ошибок. Грамматика должна изучаться в контексте реальных ситуаций, а не изолированных правил, а работа с военной терминологией и лексикой – через специальные словари и практику в контексте служебных ситуаций. Не менее важным является развитие социокультурной компетенции через интеграцию элементов русской культуры и традиций в обучение, организацию встреч с носителями языка и культурных обменов. Наконец, создание позитивной и поддерживающей атмосферы, разъяснение важности владения языком для успешной службы и обеспечение регулярной практики с обратной связью – ключевые элементы мотивации и поддержки обучающихся.

Преодоление языкового барьера – это не только лингвистический, но и сложный психолого-педагогический процесс, требующий учета индивидуальных особенностей обучающихся, их мотивации, эмоционального состояния и когнитивных способностей. Успех в овладении новым языком во многом зависит от психологической готовности к преодолению трудностей и от правильно выстроенного педагогического процесса.

Мотивация играет ключевую роль в процессе преодоления языкового барьера и развития коммуникативной компетенции у военнослужащих. Внутренняя мотивация, основанная на осознании личной значимости изучения языка для профессионального роста, саморазвития и интеграции в профессиональное сообщество, должна целенаправленно формироваться и поддерживаться. Для этого необходимо демонстрировать практическую пользу владения языком в служебной деятельности, связывая обучение с реальными профессиональными задачами. Внешняя мотивация, в свою очередь, представленная системой поощрений и мотивационных программ, должна дополнять, а не подменять внутреннюю, стимулируя обучающихся к достижению конкретных результатов. Важно также учитывать индивидуальные мотивы каждого военнослужащего, будь то карьерный рост, общение с сослуживцами или возможность участвовать в международных операциях, и строить учебный процесс с их учетом. Эмоциональный фактор также оказывает существенное влияние на процесс обучения. Тревога и страх, связанные с боязнью допустить ошибку, выглядеть некомпетентным или быть высмеянным, являются распространенными эмоциональными барьерами, особенно на начальных этапах. Для их преодоления необходимо создать поддерживающую и безопасную атмосферу, где ошибки воспринимаются как неотъемлемая часть учебного процесса. Низкая самооценка, вызванная трудностями в изучении языка, может демотивировать и приводить к отказу от обучения, поэтому важно акцентировать внимание на даже небольших успехах и поощрять старание. Интенсивное обучение, особенно в сжатые сроки, может вызывать стресс и эмоциональное выгорание, что требует организации учебного процесса с учетом психологических нагрузок, предоставляя время для отдыха и релаксации. Когнитивные особенности также необходимо учитывать в процессе обучения. Индивидуальные стили обучения, будь то визуальный, аудиальный или кинестетический, требуют применения разнообразных методов и технологий, адаптированных к особенностям восприятия, обработки и запоминания информации. Когнитивные способности, такие как память, внимание, логическое мышление и языковая интуиция, необходимо развивать с помощью специальных упражнений, способствующих развитию этих функций. Не менее важным является развитие метакогнитивных навыков, таких как самоконтроль, самооценка и рефлексия

над собственным процессом обучения, которые воспитывают ответственность за результат. Социально-психологические аспекты также играют важную роль. Межкультурное взаимодействие требует обучения толерантности, уважению к культурным различиям и навыкам межкультурного общения. Благоприятная атмосфера в учебных группах, формирующая чувство общности, взаимопомощи и поддержки, способствует более эффективному обучению. Поддержка и одобрение со стороны сослуживцев, руководства и коллег также играют важную роль в повышении мотивации и уверенности в себе.

В условиях межкультурной коммуникации возникает дихотомия: либо субъект сталкивается с непониманием со стороны собеседника, либо сам не способен адекватно интерпретировать его коммуникативные интенции. Ожидание поддержки от иноязычного партнера, логичное в контексте обращения, может быть нивелировано из-за недостаточной ясности в обмене информацией. Однако данная проблема не является непреодолимой. Даже ограниченный словарный запас, при условии обдуманного построения фраз, позволяет донести смысл высказывания. “Корявая” речь, как правило, поддается интерпретации при условии неспешности и ясности изложения. Важно отметить, что носители языка, в частности, англичане, не ожидают от иноязычных коммуникантов безупречного произношения, что снижает уровень тревожности и позволяет воспринимать ошибки как естественную часть коммуникативного процесса. В ситуации же, когда непонимание возникает со стороны субъекта, ответственность за неясность лежит на собеседнике. В данном случае, релевантным представляется открытое обращение за уточнением информации, поскольку большинство иноязычных партнеров толерантны к гостям и готовы предоставить информацию в упрощенном виде. Существование коммуникативного страха является отдельной проблемой, требующей психологической интервенции, поскольку лингвистические методы не могут обеспечить его преодоление.

В качестве стратегий преодоления языкового барьера, следует отметить, что пассивная позиция, заключающаяся в ожидании понимания без активного языкового взаимодействия, является неэффективной. Более продуктивными представляются следующие подходы: во-первых, регулярное чтение аутентичных текстов вслух, что способствует адаптации речевого аппарата к иноязычному произношению и автоматическому пополнению словарного запаса. Во-вторых, непосредственное общение с носителями языка, которое может быть организовано в рамках специализированных курсов, что способствует снижению страха перед коммуникацией и расширению лексического запаса.

Для особо стеснительных коммуникантов рекомендуется начинать диалог с 2-3 вводных слов, задающих тему беседы, что переносит ответственность за развитие диалога на собеседника и минимизирует личный дискомфорт. Кроме того, важно обращаться за поддержкой к другим изучающим язык, например, в рамках курсов, что снижает чувство изоляции. Включение в процесс изучения языка тем, имеющих личную значимость для субъекта, также способствует снижению языкового барьера. Наконец, мотивация посредством постановки конкретных целей и вознаграждения за достигнутые успехи является важным фактором успешного преодоления языкового барьера.

В заключение, подчеркивается, что полное преодоление коммуникативного страха является важным шагом в преодолении языкового барьера. Опыт успешной

коммуникации, даже в условиях стресса, способствует снижению тревожности и повышению уверенности в себе, что, в свою очередь, делает цель овладения языком достижимой.

Успешное преодоление языкового барьера требует комплексного подхода, учитывающего не только лингвистические, но и психологические и педагогические аспекты. Применение психолого-педагогических стратегий, учитывающих индивидуальные особенности военнослужащих, способствует повышению эффективности обучения и развитию коммуникативной компетенции, необходимой для успешного выполнения служебных задач.

В данном исследовании приняли участие 200 военнослужащих Национальной гвардии, среди которых 40% (80 человек) были в возрасте 18-25 лет, 35% (70 человек) – 26-35 лет, 20% (40 человек) – 36-45 лет, и 5% (10 человек) были старше 45 лет. Большинство участников (65%, или 130 человек) являлись носителями узбекского языка, в то время как 35% (70 человек) говорили на других языках. По уровню образования 45% (90 человек) имели среднее образование, 30% (60 человек) – среднее специальное, и 25% (50 человек) – высшее. Опыт службы участников варьировался: 25% (50 человек) имели опыт менее 1 года, 40% (80 человек) – 1-3 года, и 35% (70 человек) – более 3 лет.

Для оценки уровня владения русским языком было проведено начальное и итоговое тестирование. Средний балл по начальному тестированию составил 2.1 (стандартное отклонение 0.8), а по итоговому – 3.5 (стандартное отклонение 0.7). Анализ данных показал, что 85% участников повысили свой уровень владения русским языком после обучения, и этот прирост был статистически значимым (t-тест, $p < 0.001$), что свидетельствует об эффективности предложенных методов обучения.

Коммуникативная компетенция участников оценивалась с помощью анкетирования и наблюдения. Средний балл по анкетированию до начала обучения составил 2.0 (стандартное отклонение 0.9), а после обучения – 3.8 (стандартное отклонение 0.6). По итогам наблюдения, процент участников, демонстрирующих достаточный уровень навыков говорения, увеличился с 25% до 70%, а процент участников с достаточным уровнем навыков аудирования – с 30% до 75% после прохождения курса обучения.

Анализ выявленных языковых трудностей показал, что наиболее распространенными фонетическими ошибками были произношение звуков [щ], [ы], [и], [ш] (70% участников), редукция гласных (65% участников) и постановка ударения (50% участников). Наиболее сложными грамматическими темами оказались падежные окончания (80% участников), виды и времена глаголов (75% участников) и согласование слов (60% участников). Также, 90% участников испытывали трудности с пониманием и использованием военной лексики. Коммуникативные барьеры были представлены страхом говорить на русском языке (75% участников), боязнью сделать ошибку (80% участников) и неуверенностью в себе (60% участников).

Оценка эффективности применяемых методов обучения, основанная на анкетировании и интервью с преподавателями, выявила, что наиболее эффективными были коммуникативные упражнения (ролевые игры, дискуссии) со средней оценкой эффективности 4.2 (по шкале 1-5), использование наглядных материалов (4.0), работа в малых группах (3.9) и использование интерактивных платформ (3.7).

Была выявлена статистически значимая корреляция между использованием коммуникативного подхода и улучшением навыков говорения ($p < 0.05$).

Анализ влияния мотивации показал, что существует статистически значимая положительная корреляция между уровнем внутренней мотивации и успеваемостью ($p<0.01$). Средний уровень внутренней мотивации до начала обучения составлял 2.5 (по шкале 1-5), а после обучения – 4.0. Корреляция между внешней мотивацией и успеваемостью также была статистически значима, но слабее ($p < 0.05$).

Изучение влияния социально-психологических факторов показало, что 65% участников стали больше говорить на русском языке после обучения. Средний уровень уверенности в себе повысился с 2.2 до 3.9 (по шкале 1-5). Существует также статистически значимая связь между поддержкой сослуживцев и успехами в обучении ($p < 0.05$).

В современном мире, где межкультурное взаимодействие становится все более распространенным, а языковой барьер может создавать значительные препятствия для эффективного выполнения профессиональных задач, владение коммуникативной компетенцией, в том числе и знание иностранного языка, приобретает первостепенное значение для военнослужащих Национальной гвардии.

Проведенный анализ существующих подходов и методик обучения иностранным языкам показал, что для успешного преодоления языкового барьера и развития коммуникативной компетенции у военнослужащих необходим комплексный подход, учитывающий как лингвистические, так и психологические и педагогические аспекты. Эффективная языковая подготовка должна включать в себя не только освоение грамматических правил и лексических единиц, но и формирование умений использовать язык в реальных ситуациях общения, понимать культурные особенности и адаптировать свое поведение в соответствии с ними.

Реализация этих стратегий позволит не только повысить уровень владения иностранным языком у военнослужащих, но и сформировать у них уверенность в себе, готовность к межкультурному взаимодействию и способность эффективно выполнять свои служебные обязанности в самых разнообразных условиях.

Результаты исследования позволили сформулировать следующие предложения:

Разработать и внедрить комплексную программу языковой подготовки военнослужащих Национальной гвардии, включающую в себя как базовый, так и продвинутый уровни обучения, а также специализированные модули для различных направлений деятельности.

Создать специализированные лингвистические центры в структуре Национальной гвардии, оснащенные современным оборудованием и методическими материалами.

Внедрить систему тестирования и оценки уровня владения иностранным языком у военнослужащих, используя международные стандарты и шкалы оценки.

Организовать регулярную практику и языковые стажировки для военнослужащих в условиях, приближенных к реальным ситуациям службы.

Внедрить систему мотивации и поощрения военнослужащих, демонстрирующих успехи в изучении иностранного языка, включая возможность профессионального роста и повышения заработной платы.

Результаты исследования позволили сформулировать следующие рекомендации:

Учесть результаты данного исследования при разработке нормативных документов и методических материалов по языковой подготовке военнослужащих Национальной гвардии.

Установить четкие критерии оценки эффективности языковой подготовки и регулярно отслеживать результаты обучения.

Обеспечить достаточным финансированием реализацию программ языковой подготовки и создание необходимой материально-технической базы.

Создать систему обратной связи для учета мнения военнослужащих об эффективности программ и методов обучения.

Разработать методические рекомендации для командиров и руководителей по созданию условий для использования иностранного языка в служебной деятельности.

Повышение уровня коммуникативной компетенции военнослужащих Национальной гвардии является важным фактором обеспечения их профессиональной эффективности и готовности к выполнению задач в современном мире. Внедрение предложенных стратегий и рекомендаций позволит преодолеть языковой барьер, укрепить уверенность в себе и повысить уровень межкультурной компетентности военнослужащих, что будет способствовать их успешному служению Родине.

Литература

1. Бернштейн, В.Л. Пути формирования межкультурной коммуникативной компетенции на уроке иностранного языка // Преподавание иностранных языков и культур: проблемы, поиски, решения (Лемпертовские чтения - VII) : материалы Междунар. науч.-метод. симпозиума (Пятигорск, 19-20 мая 2005 г.). - Пятигорск, 2005. - С. 48-49.

2. Ветрова, О.Г. Лингвистические проблемы межкультурной англоязычной коммуникации в крэш-курсе культурного погружения (crash-course of overseas cultural immersion) // Преподавание иностранных языков и культур: проблемы, поиски, решения (Лем-пертовские чтения - VII) : материалы Междунар. науч.-метод. симпозиума (Пятигорск, 19-20 мая 2005 г.). - Пятигорск, 2005. - С. 54-55.

3. Дадаян, Э.Г. Коммуникативный барьер и некоторые причины его происхождения // Преподавание иностранных языков и культур: проблемы, поиски, решения (Лем-пертовские чтения - VII) : материалы Междунар. науч.-метод. симпозиума (Пятигорск, 19-20 мая 2005 г.). - Пятигорск, 2005. - С. 41-43.

4. Загрязкина, Т.Ю. Учебные пособия и диалог культур // Проблемы лингвистики и методики преподавания иностранных языков. - М. : Изд-во Моск. ун-та, 2000. - Вып. IV. - С. 5-6.

5. Макаев, Х.Ф. Профилирование иноязычной подготовки студентов как фактор повышения мотивации к профессиональному и карьерному росту : монография / Х.Ф. Макаев ; Уфимский гос. нефтяной техн. ун-т. - Уфа : [б.и.], 2007. - 112 с.

6. Ожегов, С.И. Толковый словарь русского языка : 80000 слов и фразеологических выражений / С.И. Ожегов, Н.Ю. Шведова ; Рос. акад. наук, Ин-т рус. языка им. В.В. Виноградова. - 4-е изд., доп. - М. : Азбуковник, 1999. - 944 с.

7. Фролова, О.А. Культурологический подход в обучении профессиональноориентированному иностранному языку // Проблемы лингвистики и методики преподавания иностранных языков. - М. : Изд-во Моск. ун-та, 2000. - Вып. IV. - С. 178-181.

Sohibjamol KHASANOVA,
"Alfraganus University" nodavlat oliy ta'lim muassasasi, "Xorijiy filologiya" kafedrasi, o'qituvchi

THE LINGUISTIC INTERPRETATION OF THE PHRASEOLOGICAL UNITS WHICH DEMONSRATE THE CONCEPTS OF GOODNESS AND BADNESS IN ENGLISH AND UZBEK

(INGLIZ VA O'ZBEK TILIDA YAXSHILIK VA YOMONLIK TUSHUNCHALARINI NAMOYON ETUVCHI FRAZEOLOGIK BIRIKLARNING LINGVISTIK TAFSIRI)

Annotatsiya

Maqolada ingliz va o'zbek tillarida yaxshilik va yomonlik tushunchalarini ifodalovchi frazeologik birliklarning lingvistik talqini, taqqoslash orqali idiomatik ifodalar har bir til ichida madaniy qadriyatlar, ijtimoiy normativlar va axloqiy tizimlarni aks ettirayotgani, axloqiy tushunchalarni tasvirlovchi idiomatik ifodalarni aniqlash va tahlil qilish imkoniyatlari, madaniy kontekstning axloqiy tilni shakllantirishdagi roli, madaniyat va axloq o'rtasidagi murakkab aloqani tushunish, lingvistik hodisalarni o'rganishda interdisipliner yondashuvlar batafsil ochib berilgan.

Tayanch so'zlar. Frazeologik birliklar, yaxshilik, yomonlik, idiomatik ifodalar, ingliz tili, o'zbek tili, madaniy qadriyatlar, axloqiy tizimlar, taqqoslash tahlili, lingvistik talqin.

В статье изучается лингвистическая интерпретация фразеологических единиц, выражающих понятия добра и зла в английском и узбекском языках. Анализируется, как идиоматические выражения отражают культурные ценности, социальные нормы и моральные системы в каждом языке, роль культурного контекста в формировании морального языка, сложные взаимосвязи между языком, культурой и этикой, автором подчеркивается важность междисциплинарных подходов в изучении языковых явлений.

Ключевые слова. Фразеологические единицы, добро, зло, идиоматические выражения, английский язык, узбекский язык, культурные ценности, моральные системы, сравнительный анализ, лингвистическая интерпретация.

The article examines the linguistic interpretation of phraseological units expressing the concepts of good and evil in English and Uzbek. It analyzes how idiomatic expressions reflect cultural values, social norms and moral systems in each language, the role of cultural context in the formation of moral language, the complex relationships between language, culture and ethics, the author emphasizes the importance of interdisciplinary approaches in the study of linguistic phenomena.

Key words. Phraseological units, good, evil, idiomatic expressions, English language, Uzbek language, cultural values, moral systems, comparative analysis, linguistic interpretation.

Language serves as a fundamental tool for expressing and shaping human experience, particularly in the realm of moral concepts. The way individuals articulate notions of goodness and badness provides profound insights into cultural values, societal norms, and collective beliefs. Phraseological units, or idioms, play a critical role in this expression, as they encapsulate cultural narratives and moral judgments in fixed linguistic forms. This study focuses on the phraseological units in

English and Uzbek that embody these essential moral concepts.

The significance of this research lies in its comparative approach, as it seeks to analyze how different cultures articulate similar moral concepts through their respective languages. English and Uzbek, while distinct in their linguistic structures and cultural contexts, both utilize idiomatic expressions to convey complex ideas about morality. By examining phrases that signify goodness and badness, this study aims to uncover the underlying cognitive and cultural frameworks that shape these expressions.

Prior research has established the importance of idioms in reflecting societal attitudes and values. Studies in cultural linguistics have shown that idiomatic expressions not only communicate meaning but also serve as cultural signifiers that reveal the moral landscape of a society. For instance, phrases like “a good Samaritan” in English or “yaxshi odam” in Uzbek highlight the cultural significance of altruism and moral conduct, illustrating how these concepts are embedded in everyday language. Such expressions often encapsulate shared values and collective experiences, acting as markers of identity within a community.

Moreover, the study of phraseological units is crucial for understanding the cognitive processes involved in moral reasoning. According to cognitive linguistics, language shapes thought, and the metaphors used in idioms can provide insights into how individuals conceptualize complex ideas. The metaphorical frameworks that underpin phrases related to goodness and badness can reveal how different cultures perceive ethical dilemmas, social responsibilities, and interpersonal relationships. For example, both English and Uzbek may employ metaphors of light and darkness to depict moral clarity and confusion, but the specific connotations and usage of these metaphors may differ significantly.

This research will employ qualitative methods, including literature review, corpus analysis, and expert consultations, to gather and analyze phraseological units related to goodness and badness in both languages. The findings are expected to highlight not only the similarities and differences between English and Uzbek but also the broader implications for understanding morality in a cross-cultural context. By identifying the commonalities and divergences in how these concepts are expressed, the study aims to contribute to a more nuanced understanding of the relationship between language, culture, and moral philosophy.

The study is structured as follows: the theoretical background will provide an overview of existing literature on phraseological units and their cultural significance, drawing connections between linguistic expressions and societal values. The methodology section will outline the approaches used in data collection and analysis, detailing the rationale behind the selection of idiomatic expressions and the criteria for their examination. The results and discussion will present the findings and their implications for understanding moral concepts in both languages, emphasizing the cultural narratives that inform these expressions. Finally, the conclusion will summarize the key insights and suggest directions for future research, highlighting the importance of continued exploration in this field.

By exploring how goodness and badness are articulated through phraseological units in English and Uzbek, this study aims to contribute to the broader discourse on language, culture, and morality. Understanding these expressions not only enhances our appreciation of linguistic diversity but also fosters a deeper comprehension of the moral frameworks that guide human interaction across different cultures. This

exploration can also underscore the significance of language in shaping ethical perspectives, providing a platform for intercultural dialogue and exchange. Ultimately, by delving into the idiomatic expressions that encapsulate moral concepts, this study seeks to illuminate the intricate connections between language, thought, and cultural identity, paving the way for further inquiry into the rich tapestry of human experience.

In both English and Uzbek, the concepts of goodness and badness are often articulated through metaphorical language. Lakoff and Johnson (1980) argue that metaphors shape our understanding of abstract concepts, influencing how we perceive morality. For instance, the metaphor of light often symbolizes goodness, purity, and enlightenment, while darkness frequently represents evil, ignorance, and danger. This use of metaphor is not only a linguistic phenomenon but also a cognitive process that informs how individuals conceptualize moral issues.

Research by Kachru (1992) highlights the importance of cultural context in understanding phraseological units. In Uzbek, expressions like “yaxshi odam” (a good person) and “yomon ish” (bad deed) not only convey meaning but also reflect cultural values associated with morality. The interplay between language and culture is crucial in analyzing how goodness and badness are framed in different societies. This interplay suggests that language is not merely a tool for communication but also a repository of cultural knowledge, shaping and reflecting societal norms.

Cognitive linguistics provides a framework for examining how people conceptualize complex ideas through language. According to Langacker (1987), phraseological units can reveal cognitive processes involved in moral judgment. For example, the use of light and darkness to symbolize good and evil is a common metaphor in both languages, indicating a shared cognitive landscape. This cognitive perspective emphasizes that language shapes thought, and the way moral concepts are expressed can influence how individuals understand and react to ethical dilemmas.

Additionally, the study of phraseological units can be enriched by examining their historical and social dimensions. Historical linguistics allows us to trace the evolution of certain idioms and their meanings, revealing how societal changes influence moral language. For example, expressions that once held significant cultural weight may evolve or become obsolete as society’s values shift. This dynamic nature of language reflects the changing landscape of moral thought and societal norms.

Comparative analysis of English and Uzbek phraseological units further reveals significant similarities and differences in how these concepts are expressed. While English idioms often rely on biblical or literary references, Uzbek expressions may draw from historical and folk narratives. This divergence underscores the influence of cultural heritage on language. The idiomatic expressions in each language serve as mirrors to their respective societies, reflecting the unique historical experiences and moral philosophies of their speakers.

Furthermore, the study of phraseological units is not limited to linguistics; it intersects with disciplines such as psychology, anthropology, and sociology. Understanding how different cultures articulate concepts of goodness and badness can provide insights into collective behaviors, social expectations, and moral reasoning. This interdisciplinary approach enhances our understanding of the complex relationship between language, thought, and society.

This study employs a qualitative research methodology to analyze the phraseological units expressing concepts of goodness and badness in English and Uzbek. The data

for this study were collected from a variety of sources to ensure a comprehensive understanding of phraseological units in both languages. A thorough review of existing literature on phraseology, idiomatic expressions, and the cultural significance of goodness and badness was conducted, including academic journals, books on linguistics, and studies focusing on cognitive linguistics and cultural linguistics.

A selection of phraseological units was compiled from both English and Uzbek corpora, encompassing idiomatic expressions commonly used in everyday language, literature, and media. For English, sources included newspapers, novels, and online databases of idioms, while for Uzbek, traditional literature, proverbs, and contemporary media were utilized. Additionally, insights from linguists and cultural experts familiar with both English and Uzbek were sought to provide contextual understanding and validate the identified phraseological units.

The analysis of the gathered data involved several stages. The collected expressions were categorized into two main themes: goodness and badness. Each expression was analyzed for its literal meaning, figurative significance, and cultural implications. Each phraseological unit was examined within its cultural and social context, exploring historical references, societal norms, and moral values associated with the expressions in both languages. A comparative framework was established to analyze the similarities and differences between English and Uzbek phraseological units, focusing on the structure, metaphorical usage, and cultural connotations of the expressions.

The results were interpreted through a lens of cultural linguistics and cognitive linguistics, allowing for a deeper understanding of how language shapes moral concepts and reflects cultural values. Key themes were identified, highlighting the interplay between language, thought, and social norms.

The analysis of phraseological units expressing concepts of goodness and badness in English and Uzbek reveals distinct patterns that reflect cultural values, cognitive frameworks, and societal norms. This section discusses the findings from the comparative study, delving into the linguistic, cultural, and psychological implications of these expressions.

In the English language, idiomatic expressions related to goodness often draw from a wide array of cultural, literary, and religious sources, reflecting the values and ethical teachings prevalent in society. For instance, phrases such as “a good Samaritan” highlight the cultural significance of altruism, referencing the biblical parable to convey the value of helping others. This expression not only emphasizes individual acts of kindness but also reinforces the idea of moral duty toward others, particularly those in need. Similarly, idioms like “to turn over a new leaf” suggest personal transformation and the potential for moral improvement, indicating a societal expectation for individuals to strive for betterment. This reflects a broader cultural narrative that values redemption and personal growth, suggesting that change is possible and that individuals are responsible for their actions and their consequences.

Conversely, idioms associated with badness frequently utilize metaphors linked to deterioration, danger, and moral decay. Phrases such as “bad apple” imply that one negative individual can corrupt a group, reflecting societal anxieties about moral integrity and the potential for social breakdown. This expression underscores the importance of collective integrity, highlighting the belief that the behavior of one can have far-reaching consequences on the community. Additionally, expressions like “crossing the line” denote violations of ethical boundaries, reinforcing the notion that

there are clear limits to acceptable behavior. Such idioms serve as tools for social regulation, guiding individuals on what is considered morally acceptable and what strays into the realm of badness.

Moreover, Uzbek idioms frequently contain historical or folkloric references that serve to impart moral lessons. For instance, the phrase “yomonning yordami” (the help of the bad) serves as a cautionary reminder about the potential consequences of associating with morally questionable individuals. This expression highlights the importance of discernment in relationships and the broader implications of personal choices on communal well-being. The cultural significance of these expressions is profound, as they preserve collective memory and wisdom, passing down values through generations.

The comparative analysis reveals that while both languages express concepts of goodness and badness, the underlying cultural contexts shape these expressions significantly. English idioms often focus more on individual actions and their moral implications, reflecting a culture that prioritizes personal agency and responsibility. In contrast, Uzbek phrases frequently highlight the communal aspect of morality, illustrating a societal framework where individual actions are intrinsically linked to collective welfare. This difference suggests that cultural heritage profoundly influences how moral concepts are articulated and understood, reinforcing the notion that language is not merely a communication tool but also a cultural repository.

Additionally, both languages utilize metaphor as a means of conveying moral lessons. The use of light and darkness to represent good and evil is prevalent in both English and Uzbek, showcasing a universal cognitive framework. However, the specific metaphors and their implications vary, indicating distinct cultural narratives. For example, while “seeing the light” in English conveys enlightenment and moral clarity, its Uzbek counterpart may emphasize a communal awakening or realization, suggesting a group’s journey toward understanding.

The findings from this study underscore the importance of language in shaping moral perceptions and cultural identity. By examining phraseological units, we gain insights into how cultures conceptualize goodness and badness. Understanding these expressions enhances our appreciation of linguistic diversity and the role of culture in moral reasoning. This understanding is particularly relevant in today’s globalized world, where intercultural interactions are increasingly common. Recognizing the cultural nuances behind idiomatic expressions can foster empathy, collaboration, and respect among speakers of different languages.

The study also opens avenues for further research into the dynamics of morality as expressed through language. Future investigations could explore additional languages and cultures to provide a more comprehensive understanding of how moral concepts are articulated globally. Comparative studies could also examine how societal changes, such as globalization and technological advancement, influence the evolution of phraseological units related to morality.

The results of this study highlight the intricate relationship between language, culture, and morality. The phraseological units reflecting concepts of goodness and badness in English and Uzbek reveal not only linguistic differences but also profound cultural insights. By understanding how these expressions shape and are shaped by cultural contexts, we can better appreciate the complexities of human interaction and the moral frameworks that guide our behaviors. This discussion lays the groundwork

for further research into how language influences moral understanding and the role of culture in shaping ethical frameworks, ultimately enriching our grasp of the multifaceted nature of human experience.

This study has explored the phraseological units that convey concepts of goodness and badness in English and Uzbek, shedding light on the intricate relationship between language, culture, and morality. By examining idiomatic expressions in both languages, we have uncovered not only the linguistic structures that shape moral concepts but also the cultural narratives and collective values that underpin them.

The comparative analysis revealed that while English and Uzbek share fundamental human concerns regarding morality, the ways in which these concerns are articulated vary significantly. English idioms often emphasize individual actions and personal responsibility, reflecting a cultural narrative that values autonomy and self-improvement. Expressions such as “a good Samaritan” and “to turn over a new leaf” illustrate the importance of altruism and personal transformation in English-speaking societies. In contrast, Uzbek phraseological units frequently highlight communal values and interconnectedness, as seen in expressions like “yaxshi odam” (a good person) and “bir qo‘l bilan palov yemoq” (to eat pilaf with one hand). These idioms underscore the belief that individual actions impact the community, thereby reinforcing a collective moral responsibility.

The findings of this research contribute to our understanding of how language shapes moral reasoning and ethical perspectives. The metaphorical frameworks utilized in both languages reveal shared cognitive processes while simultaneously reflecting distinct cultural attitudes toward morality. For instance, the use of light and darkness as metaphors for good and evil is prevalent in both English and Uzbek, yet the specific cultural narratives associated with these metaphors differ. This highlights the complexity of moral language and the diverse ways in which societies conceptualize ethical dilemmas.

Furthermore, the study emphasizes the significance of cultural context in interpreting phraseological units. Idiomatic expressions serve as cultural signifiers, reflecting the historical experiences, social structures, and value systems of the communities that use them. This cultural lens is essential for understanding how moral concepts are negotiated and articulated within different linguistic frameworks. By situating idioms within their cultural contexts, we gain deeper insights into the moral frameworks that guide human interactions and societal norms.

The implications of this research extend beyond the realms of linguistics and cultural studies; they also inform areas such as education, psychology, and intercultural communication. Recognizing how different cultures express moral values can enhance empathy and mutual understanding among speakers of diverse languages. This awareness can be particularly beneficial in educational settings, where fostering intercultural competence is increasingly important in our globalized world. Language educators, for instance, can leverage the findings of this study to teach not only the language itself but also the cultural values embedded within it, thereby promoting a richer understanding of both language and culture.

Looking ahead, this research opens avenues for further inquiry into the field of phraseology and morality. Future studies could expand the scope to include additional languages, allowing for a broader comparative analysis of moral expressions across cultures. Additionally, longitudinal studies could examine how phraseological units

evolve over time in response to changing societal values, providing insights into the dynamic nature of language and morality.

The exploration of phraseological units related to goodness and badness in English and Uzbek has illuminated the profound connections between language, culture, and moral thought. By understanding these expressions, we not only enhance our appreciation of linguistic diversity but also deepen our comprehension of the moral frameworks that guide human interactions across different cultures. This study underscores the importance of continued research in this area, as it contributes to the broader discourse on language and morality, ultimately enriching our understanding of the complex tapestry of human experience.

References

1. Cowie, A. P. (1998). Phraseology: Theory, analysis, and applications. Oxford University Press.

2. Kachru, Y. (1992). The Other Tongue: English across cultures. University of Illinois Press.

3. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). Metaphors We Live By. University of Chicago Press.

4. Langacker, R. W. (1987). Foundations of Cognitive Grammar: Volume I: Theoretical Prerequisites. Stanford University Press.

5. Schmitt, N. (2002). An Introduction to Applied Linguistics: Language and Language Teaching. Arnold.

6. Biber, D., Conrad, S., & Reppen, R. (1998). Corpus Linguistics: Investigating Language Structure and Use. Cambridge University Press.

7. Taylor, J. R. (2003). Language and the Cognitive Construal of the World. Oxford University Press.

8. Van Dijk, T. A. (1998). Ideology: A Multidisciplinary Approach. Sage Publications.

9. Bourdieu, P. (1991). Language and Symbolic Power. Harvard University Press.

10. Holme, R. (2014). An Introduction to Sociolinguistics. Routledge.

11. Aitchison, J. (2003). Words in the Mind: An Introduction to the Mental Lexicon. Blackwell.

12. Algeo, J. (2010). The Origins and Development of the English Language. Wads worth Cengage Learning.

Bosh muharrir:
Mahmudov Sarvar Yuldashevich

Bosh muharrir o‘rinbosari;
Mas’ul kotib:
Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

Bosh dizayner – badiiy muharrir:
Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

TAHRIR HAY’ATI:
Xilola UMAROVA, Risboy JO‘RAYEV, Xolboy IBRAGIMOV, G‘ayrat SHOUMAROV, Ulug‘bek INOYATOV, Oynisa MUSURMONOVA, Shukurullo MARDONOV, Saidaxbor BULATOV, Barno ABDULLAYEVA, Dilyara SHARIPOVA, Lola MO‘MINOVA, Maqsudjon YULDASHEV, Nilufar ISAQULOVA, Mirodiljon BARATOV, Muhabbat MIRSALIYEVA, Bahodir MA’MUROV, Yashin ISMANDIYAROV, Zair TAXIROV, Sharibboy ERGASHEV, Alisher UMAROV, Shaxnoza XALILOVA

JAMOATCHILIK KENGASHI:
Sobitxon TURG‘UNOV, Nargiza RAXMANKULOVA, Kamola RISKULOVA, Muhayyo UMARALIYEVA

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar Shayhontoxur tumani Navoiy ko‘chasi, 30-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (0 371) 231-16-51, Faks: 231-16-52
t.me/xalqtalimi_jurnali. http://t.me/xalq_talimi_jurnali.

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e’lon qilingan maqolalardan olingan matnlar ‘‘Xalq ta’limi’’ ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko‘rsatilishi shart.

Jurnal 2015-yil 20-martdagi 214/2-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlari ro‘yxatiga kiritilgan.

“TAFAKKUR NASHRIYOTI” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko‘chasi, 30-uy

Bosishga ruxsat etildi: __.__.____-y. Qog‘oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.
Shartli b.t. 12,0. Adadi __ ___ nusxa. – buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas’ul – Isakulov Rustam Mamirovich

Jurnalga taqdim etilgan barcha materiallar https://rustxt.ru/antiplagiat sayti hamda https://t.me/check_antiplagiat_bot da monitoring qilinadi.

© “Xalq ta’limi” jurnali, 2025.